

A. NOSIROVA

SAHNA NUTQI

Toshkent – 2013

792.808
N-85


O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIV VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI

Adiba Nosirova

SAHNA NUTQI

*O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi
tomonidan oliy o'quv yurtlarining 5150300 – «Aktorlik sana'ti»
(turlari bo'yicha) va 5150400 – «Rejissorlik» (turlari bo'yicha) ta'lim
yo'nalishlari uchun «Sahna nutqi» fanidan darslik
sifatida tavsiya etilgan*

«TAFAKKUR-BO'STONI»
TOSHKENT — 2013



UO'K: 792:808.55(075)

KBK 85.334ya73

N-85

Mas'ul muharrir: **Mamatqul Jo'rayev**, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan madaniyat xodimi, filologiya fanlari doktori, professor.

Taqrizchilar: **Toir Islomov**, O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti professori, san'atshunoslik fanlari nomzodi, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan yoshlar murabbiysi;
Saodat Yo'ldosheva, O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti professori, filologiya fanlari nomzodi, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan yoshlar murabbiysi.

N-85 Nosirova A.

Sahna nutqi (Oliy o'quv yurtlari uchun darslik / A.Nosirova. O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi. – T.: «Tafakkur-Bo'stoni», 2013. – 224 b.

KBK 85.334ya73

ISBN 978-9943-4238-3-1

Mazkur darslik «Sahna nutqi» fanini o'qitish uchun mo'ljallangan bo'lib, unda nutq texnikasi, artikulatsiya, diksiya, nafas va ovoz ustida ishlash bo'yicha kompleks mashqlar, jumladan, manzaraviy parchalar, tez aytish, maqol va matallar orqali nutqiy ohangdorlikka erishish, monolog, dialoglar, she'r, masal, ruboiy va g'azallar ustida ishlash natijasida nutqda ifodaviylikka erishish usullari bo'yicha tavsiyalarni o'z ichiga olgan. Shuningdek, darslikda mazkur mavzularga doir badiiy matnlar namunalari keltirilgan bo'lib, ular o'quvchilarning ham nazariy, ham amaliy bilim olishlariga ko'mak beradi.

Mazkur o'quv adabiyotida dars mashg'ulotlarida yangi pedagogik texnologiya usullarini qo'llash va mashg'ulotlarning texnologik xaritalaridan namunalar ham berilgan.

Darslik san'at va madaniyat institutlari hamda kollejlari talabalari, shuningdek, sahna nutqi bilan qiziquvchi san'at ixlosmandlariga mo'ljallangan.

UO'K: 792:808.55(075)

KBK 85.334ya73

ISBN 978-9943-4238-3-1

© A.Nosirova, 2013.

© «Tafakkur-Bo'stoni», 2013.

**ONA VATANIMIZ –
O‘ZBEKISTON MUSTAQILLIGINING
22 YILLIGIGA BAG‘ISHLANADI.**

«Keyingi yillarda milliy kinodramaturg va rejissorlar tayyorlash dolzarb masala bo‘lib turibdi. Chunki, buni ochiq tan olishimiz kerak – professional kino mutaxassislari, xususan, rejissorlar, ssenaristlar tayyorlaydigan tom ma‘nodagi milliy maktab o‘zimizda hanuzgacha shakllangani yo‘q.

Bu ahvolni tubdan o‘zgartirish uchun yuksak badiiy mahorat bilan bir qatorda, milliy tafakkur salohiyatiga ega bo‘lgan iste‘dodli yoshlarni tarbiyalash va ularni qo‘llab-quvvatlash masalasiga alohida e‘tibor qaratishimiz lozim.

Albatta, bu yo‘lda dastlabki qadamlar qo‘yilayotganini aytish lozim. Masalan, Mustaqillik va Navro‘z bayramlari, «Sharq taronalari» musiqa festivaliga bag‘ishlangan asosiy tomosha va tantanalarni tayyorlash bo‘yicha teatr va televideniye rejissorligi, badiiy-publitsistik ssenaristlik borasida ulkan tajriba to‘plandi. Ana shu boy tajribalarni har tomonlama chuqur o‘rganish, umumlashtirish va shu asosda yosh ijodkorlarni tarbiyalash bo‘yicha zarur nazariy va o‘quv-uslubiy bazani shakllantirish, bugungi talablarga javob beradigan mutaxassislarni tayyorlash yuzasidan amaliy ishlarni keng yo‘lga qo‘yish bu muammolarni yechish imkonini berishi shubhasiz.¹

Islom KARIMOV

KIRISH

Jahon tamadduni – sivilizatsiyasida XX asr yuksak darajadagi ilmiy-texnikaviy taraqqiyot, ijtimoiy-siyosiy va madaniy-ma‘naviy o‘zgarishlarga boy asr sifatida muhrlanib qoldi. Ayniqsa, asrning so‘nggi o‘n yilligi o‘zbek xalqining har bir farzandi yuragidan alohida ehtirom bilan joy oldi. Chunki mana shu davrda muhtaram

¹ I.A.Karimov. Yuksak ma‘naviyat – yengilmas kuch. – T.: «Ma‘naviyat», 2008. 146–147-b.

Prezidentimiz I.A.Karimov rahnamoligida O‘zbekiston Respublikasi o‘z mustaqilligini e‘lon qildi. Mamlakatimiz milliy mustaqillikka erishganidan keyin xalqimizning asriy qadriyatlari qayta tiklanib, jahon badiiy madaniyati va tafakkuri tarixida katta o‘rin tutgan o‘zbek xalqining ma‘naviyati, madaniyati va san‘ati qayta jonlandi. Iqtisodiy-ijtimoiy, ma‘naviy-ma‘rifiy va madaniy yuksalish yo‘lida har tomonlama mukammal o‘ylangan islohotlar amalga oshirildi.

Bu islohotlar ichida har tomonlama yetuk, barkamol avlodni tarbiyalab voyaga yetkazish, ya‘ni inson kamoloti va uning ma‘naviy-ma‘rifiy tarbiyasi alohida o‘rin tutadi. San‘at, shu jumladan, bayramlar insonlarni go‘zalikka chorlovchi, ezgu an‘analarni birlashtiruvchi ma‘naviy vositadir. Bayram o‘z mohiyatiga ko‘ra shunday bir ijtimoiylikki, uning bosh va oliy maqsadi barkamol shaxs tarbiyasidir. «Bugun, Vatanimiz, yurtimiz XXI asrga qadam qo‘yib, o‘zining buyuk kelajagi sari intilayotgan, bu yo‘ldagi barcha harakatlarmiz iymon-e‘tiqod tuyg‘usi bilan yo‘g‘rilib, kuchayib borayotgan bir paytda, o‘z tarixiy ildizlarimizni, shu jumladan, san‘atimiz, milliy teatrimiz tarixini chuqur anglash, undan saboq olish haqida gapirishimiz har jihatdan o‘rinli bo‘ladi, deb o‘ylayman»², deb ta‘kidlaydi Prezidentimiz I.A.Karimov. Shu sababdan ham, hozirgi kunda san‘at va madaniyatga katta e‘tibor berilmoqda.

Davlatimiz milliy qadriyatlarni tiklash, badiiy an‘analarni taraqqiy ettirish, ayniqsa, teatr san‘atini rivojlantirishga alohida e‘tibor berib, doimiy rahnamolik qilib kelmoqda. Prezidentimizning 1995-yil 20-oktabrdagi «O‘zbekistonda teatr va musiqa san‘atini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi Farmoni, 1998-yil 26-martdagi «O‘zbekiston teatr san‘atini rivojlantirish to‘g‘risida»ga Farmoni, 1998-yil 22-mayda «O‘zbekteatr ijodiy ishlab chiqarish birlashmasi faoliyatini tashkil etish to‘g‘risida»gi Farmoni, 2001-yil 21-sentabrda «Hamza nomidagi O‘zbek davlat Akademik drama teatriga «Milliy teatr» maqomini berish to‘g‘-

² I.A.Karimov. «Milliy teatrimiz — iftixorimiz». Yurtboshimizning Toshkent shahrida Akademik drama teatri yangi binosining ochilish marosimidagi nutqidan, 2001-yil 30-avgust.

risida»gi Farmoni, 2012-yil 4-iyuldagi «O‘zbekiston davlat san’at va madaniyat institutini tashkil etish to‘g‘risida»gi Qarori, shuningdek, 2010-yilda Buxoro shahrida qad ko‘targan «Boqiy va navqiron Buxoro» monumenti hamda Buxoro davlat teatri yangi binosining ishga tushirilishi mamlakatimizda ma’naviy taraqqiyotga davlat miqyosida e’tibor qaratilayotganligining yorqin isbotidir.

Yurtboshimizning «Albatta, hozirgi davrda bozor iqtisodiyoti talablarini ham inobatga olish kerak. Lekin yuksak badiiyat va haqqoniylik, ezgu maqsadlarga xizmat qilish ruhi bilan sug‘orilgan asarlar yaratish – barcha san’at turlari kabi bu soha uchun ham asosiy mezon bo‘lishi tabiiy. Bu maqsadga erishish uchun yosh va iste’dodli dramaturg va rejissorlar, teatr aktyorlarini tarbiyalab voyaga yetkazish, ayniqsa, dolzarb ahamiyat kasb etadi»³, deb ta’kidlagan fikrlaridan san’atning, xususan, sahna san’atining beqiyos ta’sir kuchiga ega ekanligi, bu sohani yuksaltirish uchun, avvalo, yoshlarga e’tibor qaratish, yosh iste’dodlarni tarbiyalab, malakali kadrlar tayyorlash kerakligi kunning dolzarb va muhim vazifalaridan biri ekanligini bilib olish mumkin.

«Agar biz O‘zbekistonimizni dunyoga tarannum etmoqchi, uning qadimiy tarixi va yorug‘ kelajagini ulug‘lamoqchi, uni avlodlar xotirasida boqiy saqlamoqchi bo‘lsak, avvalambor, buyuk yozuvchilarni, buyuk shoirlarni, buyuk ijodkorlarni tarbiyalashimiz kerak»⁴. Chunki san’atkor – tarix va kelajak o‘rtasidagi o‘ziga xos ko‘prik, ajdodlar va avlodlar merosini, an‘analarini bir-biriga bog‘lovchi vositadir. San’atning yana bir asosiy xususiyati – bu uning eng muhim tarbiya vositasi ekanligi bilan belgilanadi.

Xalqimiz, jamiyatimiz oldiga umummilliy vazifa sifatida qo‘yilgan va izchil amalga oshirib borilayotgan bu masala Prezidentimiz Islom Karimov tomonidan ishlab chiqilgan va butun dunyoda «O‘zbek modeli» deb tan olingan, yurtimizda bozor munosabatlariga o‘tish, jamiyat hayotining barcha sohalarini isloh qilish va yangi hayot asoslarini barpo etishga qaratilgan o‘ziga xos taraqqiyot yo‘lining uzviy bir qismini tashkil etadi.

³ I.A.Karimov. Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch. – T.: «Ma’naviyat», 2008. 145-b.

⁴ I.A.Karimov. Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch. – T.: «Ma’naviyat», 2008. 139–140-b.

O'z navbatida, xalqimizning ma'naviyatini yanada yuksaltirish, yoshlarning qalbi va ongini milliy hamda umumbashariy qadriyatlar uyg'unligi ruhida, ularni zamonaviy bilim va hunarlarni egallagan, har tomonlama yetuk, ham jismoniy, ham ma'naviy jihatdan barkamol qilib tarbiyalash bugungi ma'naviy-madaniy islohotlarning hal qiluvchi vazifalaridan biriga aylandi.

Shuning uchun ham istiqlol yillarida ana shu ezgu maqsadlarni amalga oshirish uchun respublikamizda «Sog'lom avlod», «Sog'lom bola – sog'lom ona», «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi», «Maktab ta'limini rivojlantirish davlat umummilliy dasturi», «Nomoddiy madaniy merosni asrash va targ'ib qilish bo'yicha 2010–2020-yillarga mo'ljallangan Davlat dasturi» kabi bir qator muhim hujjatlar qabul qilindi va hayotga izchil tadbiq etilmoqda. Shuningdek, yoshlarning hayotiy manfaatlarini ta'minlaydigan mustahkam huquqiy baza yaratildi. Milliy istiqlol g'oyasining asosiy tushuncha va tamoyillari ishlab chiqilib, ta'limning barcha bosqichlarida va ta'limdan tashqaridagi aholi o'rtasida ma'naviyat va ma'rifat asoslarini o'rgatadigan, ularni Vatanga muhabbat va sadoqat ruhida tarbiyalashga xizmat qiladigan o'quv dasturlari, darslik va qo'llanmalar, ommaviy kitoblar, ma'naviy targ'ibot vositalari nashr qilindi, pedagog kadrlar tayyorlandi.

Bundan tashqari, o'tgan davrda ijtimoiy hayotda yoshlarga haqiqiy tayanch va suyanch bo'ladigan, ularning orzu-intilishlarini ro'yobga chiqarishga ko'maklashadigan «Kamolot» yoshlar ijtimoiy harakati va uning turli bo'g'indagi tuzilmalari, «Sog'lom avlod uchun», «Mehr nuri», «Sen yolg'iz emassan» kabi jamg'armalar, yosh iste'dodlar uchun Zulfiya nomidagi hamda «Nihol» kabi mukofotlar, «Kelajak ovozi» tanlovi tashkil etildi. Bularning barchasi zamirida bir ezgu maqsad – mamlakatimiz yoshlarini har tomonlama kamol toptirish, ularni kelajagimizning haqiqiy egalriga aylantirishga qaratilgan sa'y-harakatlar turganligi tabiiy, albatta.

E'tiborga sazovor jihati shundaki, keyingi yillarda davlatimizning ana shunday izchil siyosati o'zining amaliy natijalarini bermiqda va ularni har qadamda ko'rish mumkin. Chunonchi, yangidan bunyod etilgan zamonaviy maktablar, litsey va kollejlilar, barcha qulayliklarga ega bo'lgan sport inshootlari, yoshlar mar-

kazlari yosh avlod manfaatlarini ro'yobga chiqarish, ularning hech kimdan kam bo'lmay voyaga yetishi uchun xizmat qilmoqda. Shu bilan birga, yosh oilalarga ko'rsatilayotgan g'amxo'rlik, ularning uy-joy qurish, o'z ro'zg'orini butlash uchun berilayotgan imtiyozli kreditlar, o'quvchi va talabalar, iste'dodli yoshlar uchun ochilayotgan yangi-yangi imkoniyatlar har bir yurtdoshimizni xursand qilmoqda.

Ana shunday imkoniyatlar asnosida yoshlarimiz ta'lim, ilmfan, san'at, adabiyot va sport sohasida misli ko'rilmagan yuksak natijalarni qo'lga kiritmoqdalar. Mamlakatimizda yaratilgan ana shunday keng ko'lamli islohotlar natijasida yoshlarimiz o'zlarining iste'dod va qobiliyatlarini ro'yobga chiqarib, mustaqillik davrining o'ziga xos yutuqlari va taraqqiyoti solnomasini yaratishga munosib hissa qo'shish uchun harakat qilmoqdalar.

Ayni paytda, Prezidentimizning doimiy e'tibori va g'amxo'rligi tufayli amalga oshirilayotgan ana shunday keng ko'lamli ishlarni izchil davom ettirish va ularni yangi bosqichga ko'tarish masalasiga doimo katta ahamiyat berilmoqda. Ayniqsa, 2008-yilning diyorimizda «Yoshlar yili» deb e'lon qilinishi ana shu ezgu maqsadlar yo'lidagi yana bir ulkan amaliy qadam bo'ldi.

Davlatimiz rahbari 2007-yil 7-dekabrda Konstitutsiyamizning 15-yilligiga bag'ishlangan tantanali majlisda 2008-yilni «Yoshlar yili» deb e'lon qilar ekan, bu masalaning mohiyati va ahamiyatiga alohida to'xtalib, shunday dedi: «Yangi yilga aynan mana shunday nom berishimiz va bundan ko'zlangan maqsadlarimizning ahamiyati va mohiyati haqida ortiqcha gapirish va uni isbotlab berishning zarurati yo'q, albatta.

Ma'lumki, bugungi kunda mamlakatimizda 18 yoshgacha bo'lgan yoshlar umumiy aholining taxminan 40 foizidan ortiq, 30 yoshgacha bo'lganlar esa – 64 foizdan ortiqni tashkil etadi.

O'z-o'zidan ayonki, aholimizning aksariyat qismini tashkil etadigan yoshlarimizning hali-beri yechilmagan muammolariga e'tiborimizni jalb etish, ularni hayotimizda haqiqatan ham hal qiluvchi kuchga aylantirish masalasi jamoatchiligimizning diqqat markazida turishi shart».

Davlatimiz rahbari 2008-yilni yurtimizda «Yoshlar yili», 2010-yilni «Barkamol avlod yili» deb eʼlon qilar ekan, yigit-qizlarimiz bizning nafaqat tayanchimiz va suyanchimiz, balki bugungi va ertangi kunimizning hal qiluvchi kuchiga aylanishi lozimligini, buning uchun ularga maydonni keng ochib berish zarurligini taʼkidladi.

Hayot tajribasi shuni koʻrsatadiki, barkamol inson tarbiyasida boshqa koʻpgina omil va mezonlar qatori maʼnaviy omillar alohida oʻrin tutadi. Shuning uchun ham yurtboshimiz yosh avlod haqida, uning kelajagi haqida gapirganda, maʼnaviyat masalalarini ham alohida tilga oladi. Chunki bugungi murakkab zamonda yuksak maʼnaviyatli, komil insonni tarbiyalamasdan turib, hech qaysi jamiyat oʻz oldiga qoʻygan oliy maqsadlariga erisholmaydi.

Chunki maʼnaviyat — bu insonning qalbi va ongidagi tuygʻu hamda tushunchalar, uning dunyoqarashi va eʼtiqodi, oʻz xalqi va Vatanga muhabbati, oʻzining kimligi, qanday buyuk insonlarning avlodi ekanini chuqur anglagan holda, har qanday sharoitda ham ularning shaʼn-u shavkatiga munosib boʻlib yashashi demakdir. Maʼnaviyat — ezgulik qonuniyatlari asosida ezgulikni himoya qilib yashash demakdir. Bu dunyoda ezgulik tuygʻusini boy bergan odamdan yaxshilik kutib boʻlmaydi. Ezgulik tuygʻusini yoʻqotgan odamning esa hayvondan farqi qolmaydi.

Binobarin, yoshlarni yuksak maʼnaviyatli qilib tarbiyalash — ularni ezgulik ruhida tarbiyalash demakdir. Bunday insonlar esa yon-atrofida boʻladigan ishlarga befarq qarab turolmaydi: yaxshi ishlarga qoʻshilishga, yomon ishlarga esa qarshilik koʻrsatishga harakat qiladi.

Maʼnaviyatning qirralari koʻp boʻlgani kabi, maʼnaviy tarbiyaning ham shakllari, vositalari va qirralari koʻp. Ayniqsa, rang-barang tuygʻu va tushunchalar, har xil jozibador gʻoya va mafkuralar olamida voyaga yetayotgan yoshlar ana shu taʼsirlarning barchasiga tez beriladigan boʻladi. Ularning maʼnaviyati ham shunga yarasha koʻp qirrali boʻladi. Bu esa yoshlar maʼnaviyatini har tomonlama chuqur oʻrganish va shu asosda bilimdonlik bilan puxta ish olib borishni taqozo etadi.

Bugungi kunda ma'naviy-mafkuraviy ishlarning markazida turishi lozim bo'lgan muhim masalalardan biri — bu yoshlarning bo'sh vaqtini to'g'ri tashkil etish, foydali va qiziqarli mashg'ulotlar bilan band qilishdan iborat. Chunki hayotdagi ko'pgina noxushliklar bekorchilikdan, ya'ni yoshlarning hayotga to'g'ri yo'llanma olmaganidan kelib chiqadi.

Yoshlarning bo'sh vaqtini mazmunli o'tkazish maqsadida ularni teatrlarga jalb etish, teatrlar esa, o'z navbatida, yoshlar hayoti va ular tarbiyasi xususidagi sahna asarlarini yaratishi bugungi kunning eng dolzarb masalalaridan biridir.

Yoshlarni barkamollik pog'onasiga olib chiqish hamda ularning ma'naviy madaniyatini shakllantirishda teatr san'ati alohida mavqega ega. Chunki u har bir milliy madaniyatning yuksalganligi va balog'atga yetib ulg'ayganligini yaqqol ko'rsatuvchi oynadir. «Teatr o'yunbozlik emas! Masxarabozlik ham emas! Teatr bamisoli oynavand bir uykim, kirgan har bir kimsa o'z husnu qabihini ko'ra olur. Yuziga un surtib masxarabozlik shakliga kirgan zotlar tabibi hoziqdurlar»⁵. Ma'rifatparvar yozuvchi va teatr jonkuyari Mahmudxo'ja Behbudiy ushbu so'zlari orqali teatrning jamiyat ko'zgusi ekanligini ta'kidlaydi. Teatr xalq ommasining estetik didini o'stirishdek murakkab burchni o'tovchi ulkan hayot maktabi hamdir.

Ma'lumki, teatr san'ati bu sinkretik — qorishma san'at, ya'ni o'zida boshqa san'at turlarini mujassam etadi, lekin shu bilan birgalikda aktyorsiz teatr jonsiz narsadir. Aktyor esa so'z va nutq orqali ijodkordir. «Agar aktyor teatr san'atining shohi bo'lsa, uning boshidagi toji so'z san'atidir», deb ta'kidlaydi rejissor Nemirovich-Danchenko. Aktyor oldida muallif tomonidan yaratilgan yozma matnni og'zaki nutqqa aylantirish vazifasi turadi.

Mamlakatimiz Prezidenti I.A.Karimov o'zining «Yuksak ma'naviyat — yengilmas kuch» asarida «Insonni, uning ma'naviy olamini kashf etadigan yana bir qudratli vosita borki, u ham bo'lsa so'z san'ati, badiiy adabiyotdir. Adabiyotni insonshunoslik deb, shoir va yozuvchilarning esa inson ruhining muhandislari deb,

⁵ S.Ahmad. Behbudiyning armonlari. — T.: «Teatr», 2006, 1-son. — 7-b.

ta'riflanishi bejiz emas, albatta», deb ayni haqiqatni aytdi. Bu esa, o'z navbatida, ana shu badiiy adabiyot zamiridagi so'z san'atini yanada jonlantirib, xalqning yuragiga yetkazib beradigan ijrochilik san'ati zahmatkashlari — rejissor va aktyorlarga ham birdek mas'u-liyat yuklaydi.

Sahna nutqi o'zining shakllanishi tarixida «sahna nutqi», «badiiy so'z», «adabiy o'qish», «ifodali o'qish» kabi bir talay nomlar bilan atalib, anchagina boy nazariy va amaliy tajribalar bilan mustahkamlandi. Bu predmet teatr va so'z bilan aloqador bo'lgan ijrochilik san'ati sohalarida yetakchi rol o'ynab keladi. Shubhasiz, bu mavqe istiqbolda ham o'z qimmatini yo'qotmaydi va mazkur fanning nazariy-amaliy taraqqiyoti bilan birga, emotsional, jonli so'zning ta'sir doirasi yanada kengayib boradi», deb yozgan edi o'zining «Badiiy o'qish asoslari» kitobida xassos olim S.Inomxo'jayev.

Darhaqiqat, keyingi vaqtlarda «Sahna nutqi» nomi bilan ataluvchi fan g'oyat muhim va ahamiyatli o'rinni egallab bor-moqda.

Ma'lumki, ommaviy sayllar va xalq bayramlari, teatr tomosha-lari, ko'p millatli Markaziy Osiyo xalqlari, shu jumladan, o'zbek xalqining ham qadimiy madaniy an'alaridan hisoblanib, bunday tadbirlar jarayonida «sahna nutqi»ning o'rni va roli beqiyosdir.

XX asrning eng ulug' va qutlug' tarixiy voqealaridan biri bo'lgan O'zbekiston Respublikasi istiqloli sharofati bilan elimizning moziy va mumtoz ommaviy shodiyonalariga keng yo'l ochildi. Shuni e'tirof etish lozimki, mustaqillik tufayli ommaviy xalq bayramlarini nishonlash davlat siyosati darajasiga ko'tarilib, moddiy va ma'naviy jihatdan bu tadbirlarni chinakam xalqona shodiyona sifatida o'tkazish uchun barcha sharoitlar yaratib berildi. Ayni hozirgi shunday davlat ahamiyatiga ega bo'lgan muhim tarbiyaviy jarayonda ommaviy xalq bayramlarining mahobatli va yetakchi komponenti hisoblangan sahna nutqining o'rni katta ahamiyatga ega.

Masalaning eng muhim tomoni shundaki, hozirgi davrdagi xalq bayramlarida sahna nutqining mavqeyi nihoyatda kengaydi, teranlashdi va g'oyatda yuksaldi. Shuni aytish lozimki, istiqlol davri xalq bayramlarining badiiy so'z qatlami jonli so'z ijrochilik san'atining barcha tur va janrlarini o'ziga qamrab oldi. Bunday

yuksak mavqeli xalq ommaviy bayramlari eng yuksak iste'dodli professional san'atkorlarning mumtoz ijodkorlari asarlaridan keltirilgan monologlardan boshlab, jahon va milliy mumtoz adabiyotning eng sara asarlarigacha, folklor durdonalaridan toki ichakuzdi askiya-payrovlarigacha bo'lgan janrlarni qamrab oladi. Ayniqsa, professional san'atkorlar bilan bir sahnada ijodiy bahslashish imkoniyatiga ega bo'lgan minglab havaskor she'rxon, hikoyachi, qiziqchi, askiyachilarning chiqishlari, bayramning badiiy «fon»ini tashkil etuvchi o'nlab professional diktorlarning tabrik va she'rxonliklari jozibador musiqalar jo'rligida yangrab turishi bayram ruhiga yanada ulug'vorlik va jozibadorlik bag'ishlamoqda.

Ko'rinib turibdiki, istiqloq xalq ommaviy bayramlarining badiiy mazmuni va talqiniy darajasi shu qadar yuksakki, bu hol bo'lajak ommaviy xalq bayramlari rejissorlarini tayyorlash jarayoniga ham katta ma'suliyat bilan yondoshishni taqozo etadi. Boshqacha aytganda, bo'lajak kadrlarni tayyorlash jarayonida ana shu yuksak talablar darajasidan kelib chiqqan holda ish ko'rish, ya'ni istiqbolda bundan ham yuksak darajada ijodiy zafarlarni qo'lga kiritishga qodir bo'lgan iqtidorli yosh mutaxassislarni tayyorlashga asosiy e'tiborni qaratish lozim. Sahnaga nutqini egallash borasida ham bevosita ana shu talabdan kelib chiqib faoliyat olib borish taqozo etiladi.

Mazkur darslik teatr san'ati va ommaviy bayramlar sohasi ijodkorlari uchun mo'ljallab tayyorlangan bo'lib, qo'llanmani yaratishda ustoz san'atkorlar va pedagog-ijodkorlar — M.Uyg'ur, Y.Bobojonov, N.Aliyeva, L.Xo'jayeva, S.Inomxo'jayev A.Sayfuddinov, M.Isroilov, I.Po'latovlarning asarlari asosiy nazariy manba rolini o'tadi. Chunki sahna nutqi, jonli so'z san'ati shu bugungi kunda paydo bo'lmay, balki uning ildizlari uzoq o'tmishga borib taqaladi. Ushbu sohaning tamal toshini qo'ygan insonlar nomini abadiy sharaflashimiz bizga ham farz, ham qarz.

O'zbek teatri asoschilaridan biri sahnaviy nutqning fidoyisi M.Uyg'ur va rejissor Y.Bobojonovlarning davomchilari professorlar N.Aliyeva, L.Xo'jayeva, san'atshunos olimlar S.Inomxo'jayev, A.Sayfuddinov, I.Po'latov va M.Ismoilovlar nafaqat amaliy faoliyat,

balki nazariy-uslubiy qo'llanmalari bilan ham o'zbek milliy sahnaviy nutqining o'ziga xos maktabi yaratilishiga o'z hissalarini qo'shdilar. Bular yaratgan o'zbek sahnaviy nutq maktabi ham jahonning ilg'or san'at maktablari — Italiya maktabi, rus san'at pedagogikasi, Chexiya lingvistik maktabi kabi jahon ma'naviyati olami tan olgan yirik yo'nalishlardan qolishmasligini e'tirof etish joizdir. G'urur bilan aytish mumkinki, O'zbekiston davlat san'at va madaniyat institutining «Sahna nutqi» kafedrasiga tamal toshini qo'ygan ustozlarning rahnamoligida o'quv-uslubiy amaliyotga keng e'tibor qaratildi. Natijada tajribali pedagoglar Z.Olimjonova, R.Usmonova, A.To'laganov, I.Jumanov bilan bir qatorda sahnaviy nutqning o'ziga xos qirralarini ochishning ilmiy-nazariy jihatlarini yoritishga ham kirishildi. Ayniqsa, bu borada S.Nosirov, G.Holiqova, M.Xojimatovalarning ilmiy izlanishlari diqqatga sazovordir.

Yuqorida nomlari zikr etilgan pedagog-olimlarning sahna nutqi rivojiga muhim hissa bo'lib qo'shilgan bir qator uslubiy qo'llanmalari chop etilib, talabalarga yetkazildi. Ijrochi aktyor, rejissor va shu soha pedagoglariga birday xizmat qila oladigan M.Isroilovning «Monolog ustida ishlash», «Nutq san'atida psixologik pauzaning ahamiyati» o'quv qo'llanmalari, Z.Alimjonovanning «Sahna nutqi» nomli xrestomatiyasi, M.Xojimatovanning «Sahna nutqi texnikasi», A.To'laganovning «Sahna nutqi», G.Xoliqulovanning «Sahna nutqi» (tarixiy dramalar talqinida) kitoblari, R.Jumaniyozovning «Nutqiy mahorat», B.Ahmedovning «Rejissor va aktyor» kabi o'quv-uslubiy qo'llanmalari muhim amaliy ahamiyat kasb etadi.

Mazkur darslikni tayyorlashda sohaga oid barcha adabiyotlardan imkoni boricha foydalanishga to'g'ri kelindi. Ayniqsa, marhum ustoz S.Inomxo'jayevning «Badiiy o'qish asoslari» qo'llanmasi darsligimiz uchun asosiy tayanch vazifasini o'tadi. Darslikni tayyorlash jarayonida ushbu kitobning kerakli joylaridan o'rinli va unumli foydalanildi.

Atoqli teatr arbobi K.S.Stanislavskiy rejissor sifatida aktyorning nutqi va talaffuziga juda katta e'tibor bilan qaragan. Uning ta'limoti,

obraz yaratishdagi soʻz bilan bogʻliq boʻlgan tafsilotlari har qanday ijodkorni oʻziga rom etmay qoʻymaydi. Shu nuqtayi nazardan uning adabiyotlaridan keng foydalanildi. Bundan tashqari, M.O.Knebel, V.O.Toporkov, E.A.Petrova, G.V.Kristi, Z.V.Savkova kabi teatr san'ati va uning ajralmas qismi boʻlmish badiiy soʻzning ham amaliy, ham nazariy tomonlarini oʻzining oʻquv-uslubiy va ilmiy asarlarida yoritgan olimlar kitoblaridan ham foydalanildi.

Mazkur darslik talabalarga sahna nutqi boʻyicha keng koʻlamli bilim berish va ularda sahna nutqi malakasini shakllantirishning uslubiy-amaliy tamoyillarini takomillashtirish maqsadini koʻzlab yaratildi. Mutaxassis-pedagoglarning ushbu darslik haqida bildirajak fikr-mulohazalari, qimmatli maslahatlari sahna nutqi boʻyicha kelgusida olib boradigan tadqiqotlarimiz uchun muhim asos boʻladi, degan umiddaman.

Muallif.

SAHNA NUTQI ASOSLARI

Ma'lumki, kishilarning o'zaro yuksak madaniy-nutqiy aloqada bo'lishi insonning ruhiy dunyosini boyitishi bilan bir qatorda, uning ma'naviy-axloqiy fazilatlarini tarbiyalash, inson tabiatini chuqurroq ochish, tafakkurining sayqallanishini yanada jadallash-tirish va ayniqsa, mustaqillik g'oyalarini taraqqiyotimizning barcha yo'nalishlarida mustahkamlash orqali bugungi barkamol avlod tarbiyasi bilan bog'liq ulkan masala va muammolarni hal qilishda yordam beradi. Nutq tarbiyachining qo'lidagi o'ta muhim va, ayni paytda, g'oyat nozik vosita bo'lib, har bir kishiga o'zining chinakam bunyodkor va haqiqatan ham yaratuvchanligini his qilishga yordam beradi. Mana shuning uchun ham madaniyat va san'at oliygohining bugungi bitiruvchisi faqatgina badiiy so'z ijrochisi, ijodkor va tashkilotchigina emas, balki milliy qadriyatlarimiz, an'analarimiz va adabiyotimizning og'zaki targ'ibotchilari hamdir. Ayniqsa, mustaqillik sharofati tufayli adabiyotimizning eng go'zal namunalari dunyo xalqlari tamadduniga xizmat qilayotgan bugungi kunda nutqiy madaniyatni yanada o'stirish — bu davr talabidir.

Sahna nutqi sohasida amalga oshirilgan ko'p yillik ish tajribalari shuni ko'rsatadiki, talabalar faqat omma oldiga so'zga chiqqanlaridagina o'zlarining so'z san'atiga asosiy e'tiborlarini qaratar ekanlar. Bu, albatta, tabiiydir. Chunki so'zga chiqqan notiq ham, ijrochi-aktyor ham, suxandon ham o'z fikr-mulohazalari va nuqtayi nazarining haqligiga tinglovchilar auditoriyasini ishontirishga bir xilda harakat qiladilar. Faqat notiq o'z nutqiy faoliyatida, asosan, mantiq, dalil va isbotga tayanadi. Yaxshi notiq mantiq va fikrning izchilligi hamda ular ifodasining badiiy ta'siri vositasida tinglovchilarni ta'sirlantiradi va ishontiradi. Aktyor, ijrochi esa mantiq, badiiy so'zning estetik ta'sir kuchi va tuyg'u izchilligi bilan ishontiradi. Bu esa, o'z navbatida, talabalarga badiiy so'z va notiqlikni o'rganishda san'atning ana shu turlaridan har birining o'ziga xos

xususiyatlarini aniqlash bilan bir qatorda, ulardagi umumiylikni ham ta'kidlab, jonli badiiy so'z san'ati asoslarini egallashning ustuvor tamoyillari va yo'l-yo'riqlarini chuqur egallashga harakat qilishni taqozo etadi.

O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti «Sahna nutqi» kafedrasida ishlab chiqilgan «Sahna nutqi»ni egallash bo'yicha uslubiy rejalar, yanada aniqroq qilib aytganda, o'quv jarayonidagi asosiy e'tibor talabalarning mustaqil ishlashiga qaratilgandir. Chunki bu bo'lim bitiruvchisi sahna nutqini faqat o'zi egallamasdan, balki boshqalarni ham bunga o'rgata olish malakasiga ega bo'lmog'i kerak. Shuning uchun ham mustaqil ishlash uchun berilgan vazifalarning asosiy maqsadi talabalarda mustaqil pedagogik faoliyat yurita olish qobiliyatini shakllantirishdan iboratdir.

Maxsus adabiyotlar bilan ishlash va uni tahlil qilish, turli teatr maktablari sahnaviy nutqlaridan ta'lim berish uslublarini umumlashtirish hamda taqqoslash, turli ijrochilik materiallari asosida kursdoshlar bilan rejissorlik ishini olib borish (ya'ni, talaba-rejissor, talaba ijrochining nutq ustida ishlashni nazorat qilishi) kabi vazifalar turadi.

Ayniqsa, teatr sahnasidagi yaratilgan obrazlar nutqining ravonligi va ommaviy bayramlarning teatrlashtirilgan sahnaviy lavhalaridagi sahnaviy nutqning rivojini nutq texnikasisiz tasavvur etib bo'lmaydi. Nutq ta'siri mahoratini shakllantirishda ancha yillardan beri foydalanib kelinayotgan S.Inomxo'jayevning qator kitoblari orasida biz uchun asos va tayanch bo'lib kelayotgan «Badiiy o'qish asoslari» o'quv qo'llanmasi alohida muhim o'rin egallaydi.

«Ilm bilan san'at bir-biri bilan yurak va o'pka kabi uzviy bog'langanki, agar ulardan biri buzilgan bo'lsa, ikkinchisi ham ishlamaydi», deb yozgan edi L.N.Tolstoy. K.S.Stanislavskiy tizimining sahna nutqini o'qitish metodikasi ham, buyuk yozuvchi obrazli qilib aytganidek, ilm bilan san'atning o'zaro uzviy bog'liqligiga asoslanadi. Masalan, rejissor, aktyor va so'z ustasi tovush va nutq vositalari tizimining tuzilishi va ishlatilishini o'rganuvchi anatomiya, fiziologiya kabi fanlar; nutqning yaratilish psixofiziologiyasi, lisoniy-nutqiy kamchiliklarini tuzatish bo'yicha ishlash

tizimi, ohangdorlik, mantiq, sheva va adabiy talaffuz qoidalari, orfoepiya, imo-ishoraviy ta'sir vositalarini o'rganishi, notiqlik sohasi bilan bog'liq maxsus fanlarni yaxshi bilishi, o'qitish metodikasini qayta ishlashi va nutq o'stirishga qaratilgan fanlarning uslublarini mukammal o'zlashtirishi uchun poydevor yaratadi.

Ommaviy bayram va tadbirlar rejissurasida sahna nutqi ommaviy bayram va tadbirlar rejissurasi sahnabop faoliyatning alohida san'at turidir. Ommaviy tadbir va bayramlar rejissorlari o'zlarining badiiy konsepsiyalarini to'la ochib berishlari uchun bu san'at turining barcha ifodali vositalari va tabiiy ta'sir kuchini teran tushunmoqlari, she'riyat, musiqa, dramatik asarlar, ijtimoiy-siyosiy mavzudagi matnlar (publitsistika), hujjatli materiallar, so'zsiz, ya'ni imo-ishora bilan ko'rsatilgan etudlar (masalan, pantomima), raqslar hamda nur texnikasi ta'sirini o'ziga bo'ysundira olishlari lozim.

Ommaviy bayramlarda ifodalilik san'atining tarkibiy qismi hisoblanmish so'z ohangi yetakchi o'rinni egallaydi. Asosan so'z ohangi orqali san'atning g'oyaviy-amaliy vazifasi amalga oshiriladi. Ommaviy bayramlarning o'ziga xos xususiyatlari rejissorlar oldiga so'z ohangi ta'siri asoslarini puxta egallashdek muhim masalani qo'yadi. Tomoshabinlar oldida so'zga chiquvchilarning murojaat shakli xoh bevosita obraz orqali, xoh ishtirok etuvchi personaj yoki epizod nutqi orqali, xoh o'z nomidan turli xil adabiy janrlarga mansub asarlar (she'r, nasr, masal, ijtimoiy-siyosiy materiallar, folklor, qo'shiq materiallari va boshqalar) orqali bo'lsin ishlatish badiiy so'z san'atida so'z ustasi oldiga nutqiy ohangdorlikka erishish ko'nikmalarini chuqur egallash masalasini qo'yadi.

Turli badiiy ko'rinishlar va san'at janrlarining o'ziga xos sintezi — montajdan iborat bo'lgan ommaviy bayramlar ssenariysi she'rdan qo'shiqqa, qo'shiqdan publitsistikaga, publitsistikadan hikoyaga, hikoyadan hujjatli badiiy materialga o'tish ko'nikmalarini egallashni talab qiladi, teatrlashtirilgan tomosha jarayonidagi badiiy butunlikni saqlaydi va sahnaviy yaxtilikni rivojlantiradi.

Badiiy-nazmiy matnlardan keng foydalanish ma'lum she'riy shaklning hayotiy voqelik bilan uzviyligini saqlash (uni buzmay va she'rni ifodali o'qiy olish), har xil she'riy vazn o'lchamini yaxshi bilish va bir she'rdan ikkinchisiga o'tish usullaridan mohi-

rona foydalanish, she'r ijrosida o'zgarayotgan usulni his qilish orqali she'riy ohangning ta'sir ko'nikmasini egallashni taqozo etadi.

So'zni harakat bilan uyg'unlashtirish ommaviy bayramlar ko'rinishlarida ijrochidan ta'sirchan, o'ychan va harakatlanuvchan obraz yaratishni talab etadi.

Bularing hammasi nutqiy eshitish qobiliyatini mohirona egalash, har tomonlama e'tiborni tarbiyalash zarurati, ijro etishni nazorat qilish masalasini qo'yadi.

Sahnada so'zga chiquvchilarga amaliy yordam berish, o'ziga ishonmoq, o'z g'oyasiga qiziqtirmoq, o'z muammosiga hammani jalb etmoq uchun sahna nutqi asoslarini egallash masalasi qo'yiladi.

Shunday qilib, ommaviy bayramlar rejissori:

– fanning nazariy asoslarini chuqur egallashi:

– turli janrlarga mansub asarlar ijrosida so'z ohangi ustida rejissorlik, ijrochilik ish ko'nikmalarini egallashi zarur.

Mazkur fan materiallari quyidagi qismlarga bo'linadi:

I bo'lim – «Nutq texnikasi» (artikulatsiya, diksiya, nafas, ovoz va to'g'ri talaffuz).

II bo'lim – «So'z san'ati» (so'z ta'siri ichki texnikasi elementlarini egallash).

III bo'lim – «Fan nazariyasi va metodikasini o'rganishni tashkil etish orqali talabalarda ijrochilar bilan rejissorlik va pedagoglik ko'nikmalarini shakllantirish».

Talabalarning tahsil olish jarayoni o'qituvchi rahbarligidagi ma'ruza, amaliy mashg'ulot va yakka tartibdagi o'quv mashq vazifalarini mustaqil bajarishdan iborat.

Talabalarning fan nazariyasi bo'yicha olgan bilimlari va uslubiy, rejissorlik-ijrochilik ko'nikmalari har semestr yakunida o'tkaziladigan maxsus reyting nazorati asosida baholab boriladi.

I bosqichning asosiy maqsad va vazifalari

1. Har bir talabaning o'ziga xos texnik imkoniyatlari, ya'ni diksiyasi, ovozi, talaffuzi va ijroviy ta'sirchanlik qobiliyatlarini aniqlash.

2. Ularda nutq madaniyati va so'z san'atiga bo'lgan professional munosabatni shakllantirish va yanada kuchaytirish.

3. Unli va undosh tovushlar talaffuzini o'rgatish, talabanning talaffuzidagi kamchiliklarni aniqlash va bartaraf etish.

4. Aralash diafragmal nafas olish usulini o'rgatish.

5. Talaffuzida sheva ta'siri ko'p bo'lgan talabalarni aniqlash va ularga yakka topshiriq berish yo'li bilan adabiy talaffuz me'yorlarini o'rgata borish. So'z ohangdorligiga erishish elementlarini shakllantirish, tanani erkin tutish, diqqat-e'tibor, ijodiy fikrlash va tafakkur eta olish qobiliyatlarini o'stirish.

6. Matn ustida ishlashning ilk bosqichlarida o'qilajak matn bilan tanishtirish, muallif maqsadi va ijrochi niyati o'rtasidagi uzviylikni shakllantirish, grammatik tahlilni o'rgatish.

Yuqorida qayd qilingan vazifalarni bajarish jarayonida talabanning pedagogik va rejissorlik qobiliyatlarini ham shakllantirib borish maqsadga muvofiqdir. Xullas, talaba to'rt yillik tahsil olishi mobaynida quyidagilarni o'zlashtirishi lozim:

I bosqich, I semestr

1. **Artikulatsiya** – nutq a'zolari faoliyatini takomillashtiruvchi omil sifatida. Lab, til va jag' artikulatsiyasi haqida ma'lumot. Artikulatsion mashqlar tizimi va ularning ahamiyati.

2. **Diksiya** – so'z va bo'g'inlardagi unli va undosh tovushlarning to'g'ri hamda aniq bo'lishini o'rgatuvchi va ta'minlovchi muhim vosita sifatida. Diksion mashqlar haqida ma'lumot. Yaxshi diksiyaning so'z san'atidagi o'rni va roli. Artikulatsion mashqlar, ya'ni lab, til va jag' mashqlarining muntazam bajarilishi – diksiya ustida ishlash demakligi.

3. Unli tovushlar va ularning ohangdorligi, jarangdorligini his etish uchun har bir unli yordamida artikulatsion harakatlar (lab, til, jag'larning faolligi) yordamida mashqlarni bajarish.

4. Unli va undosh tovushlarning qo'shilib kelishi. Masalan: pi-bi, pe-be, po-bo, pu-bu, bi-pi, be-pe, ba-pa, bo-po, bu-pu yoki yanada murakkabroq mashqlar tuzish: titi, diti, eiti, liti, kiti, giti, zisi, risi, lisi, gisi, disi, kpti, gibti va h.k.

Bulardan tashqari, doimiy yakka mashqlar uchun maqol, matal va tez aytishlar, folklor asarlardan olingan parchalardan foydalanish

mumkin. Boshlang'ich davrda bu mashqlar asta-sekinlik bilan bajariladi. Keyinchalik esa artikultatsion jarayon faollashtiriladi. Boshida murakkabroq tuyulgan bu mashqlar pirovardida odat tusiga kiradi.

Nafas va uning ahamiyati

Professional va havaskorlik teatr san'ati hamda ommaviy teatrlashgan tadbirlardagi so'z san'ati uchun ham aralash diafragmal nafas bazasini mukammal egallash juda muhim amaliy ahamiyatga ega. Nafas mashqlarini o'zlashtirishda eng oddiy sanoq mashqlaridan boshlab, keyinchalik matnli harakatli mashqlarga (she'riy matnlar, maqol va sajlardan foydalangan holda) o'tib boriladi.

Orfoepiya — o'zbek adabiy talaffuzi me'yorlarini belgilab beruvchi fandır. Bu fanni ommaviy bayramlar rejissorigina emas, balki barcha san'at va madaniyat sohasi xodimlari bilishlari shartdir.

Tanlangan matnda urg'uni aniqlash

So'z bo'g'inidagi urg'u haqida tushuncha.

Mantiqiy urg'u haqida tushuncha.

Ijro uchun olingan matndagi so'z urg'usi va mantiqiy urg'uni aniqlashning yo'llari.

Matn ustida ishlash

Ijro uchun tanlangan matn manzaraviy xarakterga ega bo'lsa, maqsadga muvofiq bo'ladi. Sababi, talaba sahna san'ati elementlarining ilk bosqichlari: eslash, ko'rish, eshitish, kuzatish, his etish, ta'rif va tasvirlashni mazkur matn parchalaridan topa oladi. Yoki teatr san'atining yetuk allomalari hayotidan olingan kichik lavha yoki talaba o'zi voyaga yetgan hududning o'ziga xos urf-odatlarini, to'y-hashamlari, biror bayram tadbirlari, «Mening eng quvonchli kunim» mavzusida talaba o'zi yozgan matnni yuqorida sanab o'tilgan talablarga javob bergan holda o'zlashtirib, jamoatchilik e'tiboriga havola eta olsa, bu variantlar ham qabul qilinadi. Lekin hamma o'qilajak matn parchalarining ijrosi uchun sarflanadigan

vaqt 2–3 daqiqadan oshmasligi kerak. Matn tanlab olingandan keyin talaba o'qituvchi yordamida frazalar bo'yicha mantiqiy tahlil etish jarayonini boshlaydi (mantiqiy markaz, nutq a'zolarini taq-qoslash, grammatik hamda mantiqiy pauza kabi). Dastlabki bos-qichning birinchi semestri imtihon bilan yakunlanadi.

Imtihon talablari.

I. Nutq texnikasi (diksiya, artikulatsiya va nafas uchun mo'l-jallangan kompleks mashqlar);

II. Tez aytishlar (sekin va o'rta tezlikda);

Tez aytishlarni mashq qilishda quyidagi uch shartga rioya qilinadi:

Birinchi shart:

1. Uch yoki to'rt so'zdan iborat tez aytish matni tanlanadi. Agar tez aytish uzun bo'lsa, unda shu tez aytishning 3–4 so'zdan iborat bir qismi olinadi.

2. Har bir undosh tovush aniq-ravshan talaffuz etilgani holda unli tovushlar jarangdor ovozda cho'ziladi, lekin bo'g'inlashga yo'l qo'yilmaydi.

3. Har bir so'zdan keyin kami bilan uch soniya pauza qilinadi, keyin nafas olib navbatdagi so'zga o'tiladi.

4. Muomala qilish, bir-biriga tushuntirish.

Ikkinchi shart:

1. Yuqoridagi shartlarning asosiy qismiga rioya qilinadi.

2. Nutq tezligi (tempi) kundalik hayotiy so'zlashuv nutqi darajasida bo'ladi.

3. Biror mantiqiy vazifa qo'yiladi.

4. Ijro etilayotgan matn bir nafasda 2–3 marotaba qaytariladi.

Uchinchi shart:

1. Tez aytish yo'li bilan matn bir nafasda 2–3 marotaba qaytariladi.

2. Ijro tezlashtiriladi.

3. Maksimal tezlikda qaytariladi.

Tez aytishlardan namunalar.

1. Pirpirak pirillaydi, chirildoq chirillaydi.

2. Gulasal gormoshkasini olib, gullay-gullay deb turgan gilosning tagidagi go'zal gilamga o'tirib, gulyor kuyini chala ketdi.

3. Bir tup tut, bir tup tutning tagida bir tup turup, bir tup tut bir tup turupning tomirini tortib turibdi.

4. Osmonda ikkita dumi kalta kal kalxat, birining qora dumi kalta kal kalxat, birining ko'k dumi kalta kal kalxat, qora dumi kalta kal kalxat ko'k dumi kalta kal kalxatga xalaqit beradi, ko'k dumi kalta kal kalxat qora dumi kalta kal kalxatga xalaqit beradi.

5. Oqtepada oq kaptar, ko'k tepada ko'k kaptar, oq tepadagi oq kaptar ko'k tepadagi ko'k kaptarga don beradi. Ko'k tepadagi ko'k kaptar oq tepadagi oq kaptarga don beradi.

6. Jamilaning jamiki jo'jalari Jahonning jo'jalarini cho'qib qochibdi, Jahonning jo'jalari undan ranjibdi.

7. Pista pastda pishadimi, pastda pista pishadimi?

8. Yosh mushuk mosh mushuk, mosh mushuk yosh mushuk.

9. Safar saharda Zafarlarnikiga bordimi, Zafar saharda Safarlarnikiga bordimi?

10. Teshabop sop, qopda serob.

11. Qishda kishmish pishmashmish, pishsa kishmish qishmashmish.

12. Ko'k qo'g'irchoqqa ko'k munchoq, ko'p qo'g'irchoqqa ko'p munchoq.

13. Chovgum misdan, chovli simdan.

14. Namanganda usta Musa puch pistafurush bor ekan, o'sha usta Musa puch pistafurushning 63 pud puch pistasi bor ekan, 63 pud puch pistasi bo'lsa ham o'sha usta Musa puch pistafurush, 63 pud puch pistasi bo'lmasa ham o'sha usta Musa puch pistafurush.

III. Nafas uchun alohida harakatli mashqlar (she'riy, nasriy matn yordamida) bajarish.

IV. Tanlab olingan manzaraviy matnni ijro etish.

I bosqich. II semestr

Bu semestrda nutq texnikasi bo'yicha o'tilgan materiallar takrorlanadi va, shu bilan birga, aste-sekinlik bilan murakkab mashqlarga o'tib boriladi. Ayniqsa, yakka darslarda talabaning imkoniyatiga qarab uning nutqidagi yoki nafas yo'lidagi g'alizliklarni to'g'ri-lashga qaratilgan mashqlarni bajarish topshiriladi.

Diksiya, artikulatsiya va nafasni takomillashtirishda sajlardan foydalanish katta ahamiyatga ega. Ayniqsa, muomala uchun asosan saj matnlaridan foydalanish maqsadga muvofiqdir.

Saj haqida ma'lumot

Saj deb, qofiyalangan nasrga aytiladi. Ma'lumki, «saj» arabcha soʻz boʻlib, aslida xushovoz qushlarning joʻrovoz sayrashlarini anglatadi. Saj muayyan asardagi mazmunni yorqin ifodalabgina qolmay, baʼzi nozik soʻz oʻyinlari, ifodaning ohangdorligini ham taʼminlaydi. Saj qofiya bilan oʻxshash keladi, lekin oʻzaro farqlarga ham ega. Qofiya misraning maʼlum bir joyida keladi. Saj atamasi forsiy adabiyotshunoslikda XI asrda yashagan Umar ar-Rodiyonning «Tarjimon ul-balogʻa» asarida ishlatilgan. Sajlar ertaklar, dostonlarda koʻplab ishlatiladi va matnga jilo beradi⁶.

Matnli mashqlarda sajlardan foydalanish har tomonlama qulaydir. Chunki saj tuzilishining oʻzi koʻpgina mashqbop imkoniyatlarga ega. Masalan:

«Ravshanbek shunday qarasa, bir kampir: oʻzi qashqa kampir, bilmayman kiribdi necha yoshga kampir. Beli bukrayib qolgan, qulogʻi tikrayib qolgan, bachchagʻarning tishlari omochday, sochlari polochday, manglayidan tarlon ochgan, ikki chakkasining goʻshti qochgan, boʻyinlari tirishgan, hamma yeri qurishgan, iyaklari burishgan, koʻringan odam. Koʻzlari oʻtday, manglayi choʻtday, kallasi chov savatday, qopadigan itday, balki bahaybat boytebotday, chaqadigan ilonday, qari ham boʻlsa qulunday, boʻynin suzib bulunday suvga kelayotibdi.

Ravshanbek Zulxumorning jamolini, nav daraxt kamolini koʻrib, tomosha qildi. Ravshanbek qarasa, Zulxumorning kamoli, oyday jamoli, oq yuzida xoli, yangi toʻlgan oyday ikki qoshi hiloli. Ravshanbek zehnini qoʻyib qarasa, yasangan hurday, tishlari durday, koʻzlari yulduzday, qoshlari Qunduzday, lablari qirmizday, ogʻizlari oʻymoqday, lablari qaymoqday, ikki yuzi oyday, tarlon qarchigʻay — uchadigan qushday, muhrlangan qogʻozday yalt-

⁶ S.Roʻzimboyev, H.Roʻzmetov. Folklor atamaları qisqacha lugʻati. — Urganch, 2007. 38-b.

yalt etib o'tiribdi. Zulxumor oyning bu yog'ida to'qson besh, bu yog'ida to'qson besh — o'n kam ikki yuz kokili bor. Bir yog'ini tilla suviga botirgan, bir yog'ini kumush suviga botirgan, tong shamoliga qotirgan. Jamoli chillaning qoriday tinjirab, yaltirab o'tiribdi. Ana, Zulxumorning ko'zi jovdirab, zulfi shovdirab, zulfining shu'lasini betiga ursa, yarq-yurq etib, betining shu'lasini zulfiga ursa, yashin tushganday bo'lib o'tiribdi. Ravshanbek qarasa, musicha, so'pito'rg'ay, g'azalay, simcha qushlar Zulxumorning jamoli jilvasiga chidamay, baland qo'yilib kelib, egniga kiptiga tegib-tegib uchib borayotibdi».

(«Go'ro'g'li» dostonidan aytuvchi Ergash Jumanbulbul o'g'li, yozib oluvchi Xodi Zarif.)

Ovoz va uning manbalari haqida tushuncha

Bu bo'limda asosan ovoz turlari va registri haqida ma'lumotlar beriladi. Rezonatorlar va ularni ovozni shakllantirishdagi roli; ovozni yo'lga qo'yishda (ovoz postanovkasida) nutq a'zolarining holati va unga yakka yondoshishning ahamiyati; nutq tovushlarini vujudga keltiruvchi a'zolari siqiq holatidan bo'shatish va tovushlar talaffuzi; sonor (jarangli) (mn, n, ng, unli i, e, a, o, o', u, i) tovushlarining M sonor tovushi bilan qo'shma ohangi va nutqiy talaffuzi hamda bu mashqlarning ahamiyati haqida tushunchalar beriladi. Nafas va ovozni yo'lga qo'yish maxsus tanlangan she'riy matnlar ijrosi asosida davom ettiriladi.

Nafas va ovoz uchun mashqni qaytarishdan oddin nutq a'zolarini siqiqlikdan bo'shatuvchi profilaktik gimnastika va massaj bajariladi. Ovozni yo'lga qo'yish, asosan, diafragmal aralash nafas uslubi o'zlashtirilgandan keyin boshlanadi. Ovoz mashqlarini bajarishda she'riy matnlardan foydalanish mumkin.

Nafas va ovoz mashqini bir-biriga bog'lashda oddiy va yengil jismoniy harakatlardan foydalaniladi. Bu mashqlar uchun, asosan, turli she'riy parchalar, aniqrog'i, kompleks mashqlar (nutq texnikasining hamma jabhalarini o'zida mujassamlashtirgan she'riy matnlar) tanlanadi.

Unli tovushlar va ayrim undoshlar

Bu bo'lim dasturida asosan ovoz va nafas ustida ish olib borilsada, adabiy talaffuz normalarini o'zlashtirish usullari, o'zbek tili alifbosidagi i, e, a, o, o', u, i hamda ayrim undosh (h, x) tovushlarning o'zaro farqi haqida ham to'xtalib o'tiladi.

Urg'u (so'z bo'g'inlaridagi urg'u, mantiqiy urg'u), ya'ni ijrochilik uchun tanlangan matndagi so'z urg'usi va mantiqiy urg'uni aniqlash yo'llari to'g'risida tushuncha beriladi. Yakka darslar uchun olinajak matn sifatida hujjatli, publitsistik ocherklardagi lavha va xat-xabarlardan ham foydalanish mumkin. Matnlarni o'qish davomiyligi 2–3 daqiqadan iborat.

Sinov talablari.

1. Nafas va ovoz uchun harakatli mashq namoyishi (kompleks mashq yordamida);
2. Har bir talaba ovoz mashqlarini yakka holda bajarib berishi.
3. Tayyorlangan kam voqeali yoki hujjatli matnni yoddan o'qib (ijro) berish.

II bosqichning asosiy maqsad va vazifalari

1. Nutq texnikasidagi kamchiliklarni tuzatishga qaratilgan mashqlarni davom ettirish:
 - a) nafas va ovoz mashqlarini qaytarish (murakkab mashqlar yordamida);
 - b) diksiyon mashqlar.
2. Ovozni siqiy holatdan bo'shatib, diapozonni kengaytiruvchi mashqlarni bajarish.
3. Yaxshi yo'lga qo'yilgan diksiya yordamida tez aytishlarni avval sekin, keyin esa tez maromda aniq va ravon ijro etish.
4. Tanlab olingan she'riy va nasriy matnlarni mantiqiy tahlil etish.
5. She'riy janrda yozilgan asarlar va ularning shakllari haqida tushuncha. She'rni o'qishda she'riy pauza, ritm, turoq va qofiyalarga e'tibor berishga o'rgatish.
6. Tasviriy she'r haqida tushuncha.
7. Tasviriy she'r ustida ishlash va uning so'z xatti-harakatlarini aniqlashga o'rgatish.

II bosqich. III semestr

Bu semestrda ko'zlangan asosiy maqsad, asosan, nafas va ovoz ustida ishlashni davom ettirish, har bir talabada aralash diafragmal nafas uslubini yo'lga qo'yishdan iboratdir. Ovoz mashqlarini muntazam bajarish orqali uning tembrini yaxshilash, registrlardan registrga o'tishda silliq va chiroyli ohangdorlikka ega bo'lish.

Sinov talablari.

1. Umumiy va yakka tartibdagi murakkablashtirilgan ovoz sozlash mashqlari (kompleks mashqlar yordamida).
2. Nutqning ohangdorlik turlarining o'zlashtirilganligini maxsus matnlar orqali tekshirish (masal, ertak yoki rivoyatlar yordamida).
3. Mustaqil pedagogik ishning natijasini tekshirish.

II bosqich. IV semestr

Bu bosqichda nutq texnikasi, ovoz, nafas va diksiyaning aniq, chiroyli va ravon bo'lishi uchun qaytarish mashqlarini tekshirish, adabiyotlardan to'g'ri foydalanish borasida talabalarga talabni kuchaytirish zarurdir. Umumiy darslarda S.Inomxo'jayevning «Badiiy o'qish asoslari», S.Inomxo'jayev va L.Xo'jayevalarning «Badiiy so'z san'ati», A.Sayfutdinovning «Adabiy asar va ijrochilik mahorati», A.Nosirovaning «Jonli so'z san'ati asoslari», M.Xojimatovanning «Sahna nutqi» o'quv qo'llanmalarini («Nutq texnikasi» bobini) o'qish va savol-javoblar o'tkazishni uyushtirish hamda olingan bilimlar yuzasidan ma'ruza qilishni istovchi talabalarga yordam berish kerak.

Bu bosqichdagi dastur, asosan, tasviriy masal ustida ishlashdan iborat. Dastlab nasriy va she'riy masallar haqida tushuncha beriladi, keyin tanlab olingan masallarning mantiqiy tahlili, kompozitsion tuzilishi, har bir personajning so'z harakati orqali o'z oldiga u yoki bu maqsadni qo'yishi, muallifning har bir personaj orqali nimani ko'zda tutayotganligi aniqlanadi. Ayni vaqtning o'zida muallif va personajlarning so'z harakatlarini bajarishdek vazifalar turadi. Yaratilajak obraz yanada yorqinroq va so'z harakati bilan

hamohang bo'lishi uchun yordam beradigan psixologik harakatlarning ahamiyati haqida tushuncha beriladi. Mutaxassislik hisoblanmish rejissura darsida ham dastur bo'yicha tasviriy masal ustida ishlash kerak bo'lsa, birgalikda darslar olib boriladi; ayniqsa, o'z ustida tinmay ishlanadi. Agar tasviriy masal mavzu va g'oya jihati-dan bir maqsadga bo'ysunishi mumkin bo'lsa, o'qituvchi yordamida ishni davom ettiradi. Ish uslubini shu tariqa olib borish talabning kelajakda rejissor sifatida va yakka ijrochilikda so'z san'ati mahoratini o'ziga xoslik bilan egallashida as qotadi. Masalan, yakka ijrochi uchun tanlab olingan masal, avvalo, adabiy va mantiqiy tahlil qilinadi. Tahlil natijalari esa matn ostida va daftar hoshiyasida aks ettiriladi. Ya'ni ijrochilik «klavira»si yaratiladi. Keyin esa ana shu «nota»larga qarab tasvir jonlantiriladi.

III bosqichning asosiy maqsadi va vazifalari

1. I va II bosqichlarda o'zlashtirilgan nutq texnikasi, diksiya, nafas, ovoz va orfoepiyaga oid mashqlarni mustahkamlash.

2. Mantiqiy tahlilni davom ettirish (mahorat va rejissura darslarida o'zlashtirilgan matnlar — hajviya, felyeton va intermediyalar ustida ishlashni o'rganish).

3. Tasviriy qo'shiq haqida ma'lumot.

4. Qo'shiqning she'riy matni ustida ishlash (g'azal, barmoq vaznidagi she'r, xalq og'zaki ijodi namunalari).

5. Mahorat va rejissura darslarini tasviriy qo'shiq ustida keli-shilgan holda birgalikda olib borish.

6. G'azal o'qish san'atiga e'tiborni kuchaytirish (bu vazifa ko'proq yakka dars soatlarida amalga oshiriladi).

III bosqichning V semestri yakunida talabalar kamida 3–4 matndan iborat tasviriy qo'shiqni namoyish etishlari shart.

III bosqich, VI semestr

1. Asosan bu semestrda talaba-rejissor talaba-ijrochining badiiy asar ustida ishlashini nazorat qiladi (masalan, talaba-ijrochining roman yoki hikoyadan bir lavha ustida ishlashini kuzatib, unga kerakli ko'rsatmalar bera olish qobiliyatini pedagog ustoziga ko'rsa-

tishi, o'z rejissorlik ishidagi xatolarini bartaraf etishi va kerakli maslahatlar olishi muhimdir).

2. Bu ishni talaba-rejissor talaba-ijrochi bilan katta kompozitsion tuzilishga ega bo'lgan she'riy asar ustida ishlash bilan ham o'zining rejissorlik mahoratini ko'rsatishi mumkin.

Semestr yakunida: talaba-rejissor talaba-ijrochi bilan ishlagan badiiy asarini kafedra a'zolariga topshiradi (ijrochi sifatida);

asarning badiiy va mantiqiy tahlili hamda rejissorlik ekspozitsiyasini yozma ravishda topshirishi talab etiladi.

IV bosqichning asosiy maqsadi va vazifalari

1. Ovoz va nutq ishtirokidagi harakatli mashqlarni yanada mukammal egallash ustida ishlash.

2. Lirik she'r misolida she'riy matnning qonun-qoidalari, ularning ichki xatti-harakatlarini aniqlash va rejissorlik tahlillarini o'rgatish.

3. Monolog ustida ishlashni o'rgatish.

4. Tanlangan matn ustida ishlashda o'ylash, fikrlash va so'z ma'nolari mag'zini chaqish hamda so'zning jarangdorligi hamda musiqiyiligiga e'tibor berish.

5. Talabalarga bir yoki bir necha mualliflarning she'riy asarlaridan adabiy kompozitsiya tuzish yo'llarini tushuntirish.

IV bosqich, VII semestr

1. Talabaning bitiruv malakaviy ishi ustida ishlashida talaba-rejissorning mahoratini qay darajada ortib borishini kuzatish.

2. Bitiruv malakaviy ishi matnlari ustida ishlaganda talaba-rejissorning talaba-ijrochi bilan nutq texnikasi borasida olib borayotgan ishini nazorat qilish va yo'l-yo'riqlar ko'rsatish.

Semestr yakunidagi talablar.

1. Ovoz va nutq uchun moslashgan xatti-harakatli mashq namoyishi.

2. Har bir talaba tomonidan yakka ijro uchun tanlangan alohida monolog namoyishi.

IV bosqich. VIII semestr

1. Rejissura va mahorat darslarida yaratilajak lavhalarining soʻzi ustida ishlashni oʻzlashtirish.

2. Har bir tayyorlanayotgan bitiruv malakaviy ishlaridagi monologlar matni ustida talaba-ijrochining talaba-rejissor bilan ishlashi ustidan nazorat qilish. Talaba-rejissor pedagog bilan uchrashganida, talaba-ijrochi bilan boʻlgan ish natijasini koʻrsatadi, kerakli natijaga erishish maqsadida ijrochiga yoʻl-yoʻriq yoki yangi koʻrsatmalar berib, kelgusi uchrashuvga qadar bajarilishi zarur boʻlgan uy vazifasini beradi.

Semestr yakunidagi talablar.

1. Har bir talaba biror dramatik yoki teatrlashtirilgan sahna asaridagi alohida monolog ustida ishlab, uni ijro etib berishi yoki bitiruv malakaviy ishi uchun olingan muayyan sahna asarining rejissori sifatida oʻz bilim darajasini, yaʼni ijodi-iqtidorini namoyish etishi shart.

2. Har bir talaba oʻzi yaratgan obrazining sahnaviy nutqiy ifodasi tahlilini yozma ravishda pedagogga topshiradi.



NUTQ TEXNIKASI

Sahna nutqi mahoratini egallashda bir-biri bilan uzviy aloqador, lekin bir-biriga oʻxshamagan, ayni chogʻda, bir-birini toʻldiruvchi nutq texnikasi komponentlarini mukammal bilib olish, unga doimo amal qilish lozim boʻladi. Bular: 1) artikulatsiya; 2) diksiya; 3) nafas; 4) ovoz; 5) orfoepiya. Jonli soʻz sanʼatini, aniqrogʻi, oddiy soʻzni yuksak badiiyat, nafis sanʼat darajasiga koʻtaruvchi vositalar ovoz, nafas, talaffuz manbalari boʻlgan ogʻiz boʻshligʻi, lablar, tishlar, til, burun yoʻlaklari, qaytargichlar (rezonatorlar), tomoq, ovoz paychalari, oʻpka havo boʻshliqlari, diafragma pardasi kabi qator tana aʼzolaridan iborat. Haqiqiy sahna nutqi sanʼatini namoyon etuvchi ijrochining har bir aʼzosi, xususan, nutq organlari

ongli ravishda uning o'ziga bo'ysunadi va zarur bo'lganda, kerakli ton va zaruriy notaga sozlanadi. Bunday mukammallikka erishish uchun esa insoniyat o'zining tarixiy taraqqiyoti va xususan, san'atning tadrijiy rivoji jarayonida ishlab chiqilgan, amalda sinovlardan o'tgan va butun dunyo miqyosida tan olingan jismoniy psixologik mashqlar tizimi mavjudki, ular san'at tilida, yuqorida aytib o'tganimiz «nutq texnikasi» deb yuritiladi.

Artikulatsiya va diksiya mashqlari

Talaffuz organlari – lab, jag', tilning nutq jarayonidagi turlicha harakatiga **artikulatsiya** deyiladi.

Artikulatsion mashqlar, asosan, talaffuz a'zolarining faoliyatini faollashtirish hamda keyingi ish jarayoni bo'lgan nutq tovushlarining aniq talaffuzini ta'minlashni ko'zda tutadi. Shuning uchun bu mashqlarga ehtiyoj har bir o'quvchi va havaskor ijrochining zaruriyatiga aylanishi, ko'p vaqt sarflanmasa ham, muntazam qaytarilib turilishi lozim.

Tovushlar va so'zlarning talaffuz etilishiga **diksiya** deyiladi. Aniq va ravshan talaffuz *yaxshi diksiya*, so'zning yamlanishi, ifodaviy noaniqlik kabi salbiy xususiyatli talaffuz esa *yomon diksiya* deb yuritiladi.

Artikulatsion mashqlarni bajarishda zo'rma-zo'rakilik va kuchanishga yo'l qo'ymaslik kerak, aksincha, mo'tadillik va erkinlikni ta'minlab, mashqlarni eng oddiy, soddasidan murakkabga tomon muntazamlikda o'zlashtirish orqali nutq organlarini chiniqtirish va o'rgatish yo'lidan borish kerak. Aks holda mashqlar zarar keltirishi ham mumkin.

Mashqlarni qo'llash davri, miqdori va uslubi o'quvchi bilan havaskor-ijrochilarning individual imkoniyatlariga bog'liq. Agar ularning nutqida tabiiy nuqsonlar bo'lmasa, mashqlarni yengilgina o'zlashtirib, mashqlardan faqatgina talaffuzni yanada takomillastirish maqsadida foydalanish mumkin. **R** undoshini **y** yoki **l**, **s** undoshini **sh** shaklida talaffuz etish yoki tish orasidan gapirish kabi nuqsonlar mavjud bo'lsa, ularni bartaraf etuvchi mashqlarni

to ijobiy natijaga erishgunga qadar muntazam davom ettirish lozim. Bu jarayon ba'zan hatto yillar mobaynida davom etishi ham mumkin.

Nutq organlarining mo'tadil va normal talaffuzi me'yorini ta'minlovchi mashqlar asosan quyidagilardan iborat.

Lab mashqlari

1. Yuqori lab mashqi. Yuqori lab bir vaqtda ikki yonga va yuqoriga tortiladi, «tabassum» holati paydo bo'ladi. Xuddi shunday faollik bilan pastga tortiladi va yuqori tishlar usti yopiladi. Mashq bir necha marta qaytariladi va kun sayin lab faoliyati oshirila boriladi.

Mashq bajarilishi paytida imkoni boricha yuz yoki bo'yin a'zolaridan hech birining tirishib-tortishishiga yo'l qo'ymaslik lozim, ularning hammasi erkin holatda bo'lishini ta'minlash kerak.

Mashq paytida pastki lablar quyi tishlar qatorini yopib turadi, jag' erkin (tabiatda oddiy yurish chog'idagi kabi ikki tish oralig'i sal ochiq), boshqa a'zolar imkoni boricha yuqori lab harakatidan holi bo'lishi lozim.

Bu mashq, asosan, yuqori labning faoliyatini oshirishni nazarda tutib, **p, b, m** kabi tovushlarning to'g'ri talaffuz etilishini ta'minlaydi.

2. Pastki lab mashqi. Yuqoridagi tartib aynan pastki lab vositasi bilan to'la-to'kis bajariladi.

Bunda jag'ning qimirlamasligiga alohida e'tibor beriladi.

3. Birlashtiruvchi mashq. Birinchi va ikkinchi mashqlar yaxshi o'zlashtirilgach, birlashtiriladi, bunda ikkala mashq birin-ketin bajariladi. Demak, bunda bir marta yuqori lab, keyin pastki lab, keyin yana yuqori lab va shu tartibda mashq qaytariladi. Mashqning umumiy manzarasi tishlar qatorini lablar bilan navbatma-navbat «artishni» eslatadi.

4. Umumiy mashq. Yuqorida zikr etilgan mashqlar yaxshi takomillashtirilgach, lablar **o** tovushini talaffuz etayotganidek hajmda ochiladi va oldinga cho'ziladi; keyin asta-sekin **u** tovushini talaffuz yetarli holatgacha qisqartiriladi, shu holdan tishlar osha og'iz bo'shlig'i tomon qaytariladi; undan keyin ikkala lab tishlar qatorini «artgani» kabi ikki tomonga (bir vaqtda) tortiladi va yana oldinga cho'zilib, boshlang'ich **o** shaklini oladi. Umumiy manzara

i-e-a-o-o'-u-i tovushlarini so'zsiz, faqat artikulatsiya vositasi bilan bajarayotganga o'xshab ketadi. Mashq avval asta-sekinlik bilan, keyinchalik esa tezlik bilan bir necha marta qaytariladi.

Bu mashqni takrorlab turish maslahat qilinadi, chunki bu barcha tovushlar talaffuzini takomillashtirishda muhim o'rin egallaydi.

5. Yuqori labni «tarash» mashqi. Yuqori lab imkoni boricha ikki yonga tortilgan holda tishlar osha ichkariga qayriladi; bunda jag' biroz oldinga harakat qilib, pastki tishlar qatori bilan yuqori lablarni «taray» boshlaydi.

6. Pastki lablarni «tarash» mashqi. Yuqori tishlar qatori harakat qobiliyatidan mahrumligi tufayli, pastki lab jag' tishlari qatori osha ichkariga qayriladi va tishlar siquvi oralig'idan chiqib «taraladi». Ayniqsa, ikkinchi va oltinchi mashqlar **f-v** tovushlarini to'g'ri talaffuz qilishda muhim rol o'ynaydi. Ma'lumki, bu tovushlarni qo'llashda, ayniqsa, o'zbek tilida juda ko'p o'rinsiz o'zgarish va reduksiya hodisalari ro'y beradi.

7. To'rtinchi va beshinchi mashqlar navbatma-navbat qaytariladi.

8. Lablarni cho'chchaytirish mashqi. Tishlar qatori bir-biriga zich yopishgan holda, lablar o'zidan uzoqda turgan bir narsani o'pmoqchi bo'lgandek oldinga cho'ziladi, keyin chuqur iljayish holatida ikki yonga tortiladi. Mashq davomida tishlar ko'rinmasligi va lablar bir-biriga zich yopishgan holda turishi shart.

9. Lablarni aylantirish mashqi. Yettinchi mashq holatidan lablar yuqoriga, pastga, chapga, o'ngga plus (+) shaklida harakatlantiriladi. Mashqning takomillashgan ikkinchi bosqichida esa lablar avval bir tomonga, so'ngra qarama-qarshi tomonga doirasimon shaklda aylantiriladi. Bu mashq bajarilayotganda ham lablardan boshqa talaffuz organlari harakatsiz turishini ta'minlash lozim.

Til mashqlari

1. Tilni chiqarish va tortish mashqi. Bu mashqda til «tarnovcha» holida (ya'ni tilning ikki chekkasi yuqoriga ko'tarilgan bo'lib, oralig'ida ariqcha — «tarnovcha» hosil bo'ladi) imkoni boricha

oldinga cho'ziladi va avval yuqori milklarni, keyin tanglayni silab o'tib, tomoqqa tomon chuqur qayriladi. Bu mashq vositasida asosan til ostidagi jag' bilan bog'lovchi pardaning faoliyati oshiriladi va r, l kabi tovushlarning to'g'ri talaffuz etilishiga imkon yaratiladi.

2. Lablarni «yalash» mashqi. Tishlar oralig'i bir barmoq sig'arli darajada ochiq bo'lib, til uchi erkin turgan lablar doirasini avval bir tomonlama, so'ngra qarama-qarshi yo'nalishda «yalab» chiqadi. Mashqda tildan boshqa barcha talaffuz organlari osoyishta — harakatsiz turishi lozim.

3. Yuzlarni turtish mashqi. Til uchi ichkaridan yuzlarni navbatma-navbat turtib, bo'rttiradi.

4. Tilni aylantirish mashqi. Lablar yumuq holda, til uchi tishlarning atrofini avval bir tomonga, so'ngra qarama-qarshi yo'nalishda doira shaklida aylanib chiqadi. Mashq ovqatlanib bo'lgach, tishni tozalash uchun qilingan urinishni eslatadi. O'quvchining o'zlashtirish darajasi va imkoniyatiga qarab, mashqning sur'atini tezlashtirish va sekinlashtirish mumkin.

Jag' mashqlari

1. «Esnash» vaziyati mashqi. Til yassi va erkin bo'lib, uch tomondan pastki tishlar qatoriga tegib turadi, jag' biroz pastga tomon tushirilib, ayni paytda yengilgina nafas olinadi; kichik til biroz yoyilib yuqoriga ko'tariladi va shirin «esnash» vaziyati hosil bo'ladi. Aksariyat mashqlardagi kabi bunda ham talaffuz organlarining to'la osoyishtaligini saqlash va asosiy diqqatni havo yo'lining muloyim kengayishini ta'minlashga qaratish kerak. Bu mashq unli tovushlarni to'g'ri talaffuz etishga mo'ljallangan bo'lib, tish orasidan gapirish qusurining oldini olishni ta'minlaydi.

2. Jag'ni oldinga harakat qildirish mashqi. Til oldingi mashqdagi kabi erkin va yassi holatda turib, jag' biroz pastga tushiriladi va oldinga, orqaga qarab harakat qiladi. Zohiran, bo'rttirilgan **и** va **i** tovushlarini mashq qilish vaziyatini eslatadi.

3. Jag'ni ikki yonga harakat qildirish mashqi. Yuqoridagi mashq holatida jag' ikki yonga shoshilmay borib keladi. Keyin mashqni yengillashtirish va tezlashtirish mumkin.

4. «Kavsh qaytarish» mashqi. Avvalgi mashqlar holatidan jagʻ oʻngga, pastga, chap yondan yuqoriga koʻtarilib, doira yasaydi va shu harakat teskari yoʻnalishda ham qaytariladi.

Barcha jagʻ mashqlari aksariyat tovushlarning toʻgʻri talaffuz etilishini taʼminlashi bilan birga tish orasidan gapirish kabi ayrim kamchiliklarni yoʻqotishda ham muhim ahamiyatga ega.

Artikulatsiya va diksiya mashqlarini muntazam qaytarishdan tashqari, birinchi bosqichda oʻqiyotgan talabalarning soni va ularning har birining imkoniyatiga qarab, ularga tez aytish, maqol va topishmoqlardan kompozitsion lavhalar tuzishni oʻrgatib borish kerak. Bu esa, oʻz navbatida, talabaning nutq ravonligiga, oʻylash-fikrlashga va muomala qilishga oʻrgatadi.



NAFAS

Nafas ijrochilik sanʼati, ayniqsa, soʻz sanʼatida juda katta ahamiyatga ega. Mustahkam va maxsus chiniqtirilgan nafas bazasi mavjud boʻlmasa, badiiy soʻz yoki, umuman, soʻz bilan bogʻliq boʻlgan ijrochilik sanʼati koʻrinishlarida mantiqiy va badiiy yetuk sahna asari yaratilishi mumkin emas. Albatta, har qanday asarda ham ongli ravishda nafas momentlarini belgilab olib, dastavval mantiqiy yaxlitlikni saqlash, ikkinchidan, shu mantiqiy yaxlit boʻlaklarni oldindan belgilay olish ham ancha masʼuliyatli vazifadir. Bu shartli ravishda, nafas belgilangan joylarda katta pauza saqlab turish lozim, degan maʼnoni bildirmaydi⁷.

Matnda shunday jumlar ham mavjud boʻladiki, ular qanchalik uzun boʻlmasin, bir nafasda oʻqishni talab etadi. Aks holda, oʻrtada olingan nafas yoki mantiqqa putur yetadi yoki mazmun butunlay oʻzgartirib yuboriladi. Bunday paytlarda, albatta, mustahkam nafas bazasiga ega boʻlish shart. Nafas bazasiga esa uzoq va tinimsiz mehnat orqali erishiladi.

⁷ Nafas haqidagi maʼlumot va ayrim mashqlar. S.Inomxoʻjayevaning «Badiiy oʻqish asoslari» (T., «Oʻqituvchi», 1973) kitobidan olindi.

Kundalik turmushda aksariyat kishilar o'pkaning faqatgina yuqori qismiga nafas oladilar. Natijada nafas olish jarayoni juda tezlashadi va o'pkaning diafragmal alveolalari faoliyati susayadi. Bu esa salomatlikka putur yetkazadi. Bunday nafas olish usulini san'at tilida **ko'krak nafasi** deyiladi. Shuningdek, nafas olishning boshqa usullari ham borki, ular havo to'ldiriladigan o'rniga ko'ra **qorin nafasi** va **diafragma nafasi** deb aytiladi. Qorin nafasida o'pkaning qorin qismi havoga ko'proq to'ldirilsa, diafragmal nafas uslubida havo o'pkaning eng pastki qismlari, diafragma pardasiga eng yaqin joylariga ko'proq to'ldiriladi.

Sahna nutqida diafragmal-aralash, ya'ni chuqur nafas olish tavsiya etiladi. Diafragmal-aralash nafas uslubi qorin nafasi va diafragma nafas uslubining birligidan iborat bo'lib, uni odat tusiga aylantirmoq uchun quyida tavsiya etiladigan bir qator mashqlar kompleksi mavjud.

Agar diafragmal-aralash nafas uslubi odat tusiga kirib ketsa, ijrochi katta nafas bazasi bilan ta'minlangan bo'ladi. Badiiy so'z va ashula kabi san'at ko'rinishlarida esa xuddi sport va baletdagi kabi mustahkam nafas ijodiy muvaffaqiyatning asosiy qismini tashkil etadi.

Havaskor san'at ixlosmandlaridan tortib to yetuk so'z ustalarigacha nafas mashqlari yoki, boshqacha qilib aytganda, nafas gimnastikasi bilan uzluksiz shug'ullanib turishlari kerak.

Nafas mashqlari.

1. Nafas olish va chiqarish mashqi. Og'irlikni ikkala oyoqqa berib tik turish kerak. Ko'krak qafasi salgina oldinga ko'tarilib, yelkalar erkin holda kengaytiriladi. Bosh va bo'yin ham erkin holatda g'oz tutiladi; umurtqa suyakning bel qismi qomatni ko'tarib turganligi sezilarli holatda bo'ladi.

Texnik mashqlar paytida qomatni tik tutishga alohida e'tibor berish va buni odat tusiga kiritishga harakat qilish kerak, chunki busiz mashqlar kutilgan natijani bermaydi va ba'zan noto'g'ri natijalarga ham olib kelishi mumkin. Yaxshi tutilgan qomat ijrochilik san'atining tarkibiy qismi ekanligi haqida eslatib o'tishning o'zi kifoya.

Qomat kerakli holatga kirgach, o'ng qo'l kafti, bosh barmoq ko'krak sathi o'rtasidagi qovurg'alar ayriladigan joyda, jimjiloq pastda keng ochiq holda qoringa qo'yiladi, chap qo'l esa bunchalik keng ochilmasada, shunday holatda chap tomon qovurg'alarning tugallanish (yetimcha qovurg'a) qismiga qo'yiladi hamda nafas organlarining nafas olingan va chiqarilgan paytdagi harakatini tekshirib turadi. Qo'llar, aksincha, chap qo'l qoringa, o'ng qo'l o'ng qovurg'aga yoki bir qo'l qoringa, ikkinchisi ko'krak qafasining orqa qismiga o'tib o'rin almashishi ham mumkin.

Shundan keyin, xuddi ro'paradagi shamni o'chirib qo'ymaslik uchun urinayotgandek, yengilgina nafas chiqariladi. Demak, qorin va qovurg'alarning pastki qismi puchayadi. Bir-ikki sekund pauza qilingach (nafas olinmaydi ham, chiqarilmaydi ham), xuddi shunday xotirjamlik va asta-sekinlik bilan nafas olinadi. So'ngra qorinning pastki qismi (nof) yuqoriga qarab tortiladi (ko'tariladi). Bu diafragma pardasini ostidan ko'tarib (demak, diafragma pardasi, o'z navbatida, o'pkaning uchlarini ko'taradi), ichki havoni ovoz paychalari tomon «haydab» berishga ko'maklashadi. Shuning uchun mashq paytida (nafas sarflanishi jarayonida) hap doim diafragmaning ko'tarilgan bo'lishiga alohida ahamiyat berish kerak. Mashq paytida olingan nafas o'pkalarning pastki qismiga yetib borishini kuzatib turish kerak va olinayotgan nafas «tekshiruvchi» qo'llarni asta-sekin ko'tarib chiqarishi kerak. Demak, bunda qovurg'alarning tugallanish qismi va qorin bir me'yorda kengayadi. Mashq davomida ko'krak qafasining yuqoriga ko'tarilishi (ya'ni yelka ko'tarilishi)dan ehtiyot bo'lish kerak, chunki yelka ko'tarilishi nafas noto'g'ri olinayotganligini, ya'ni o'pkaning faqat yuqori, yo'g'on bronxlar qismiga olinayotganligini bildiradi. Demak, bu organizm uchun zararlidir. Mashq paytida, shuningdek har qanday zo'r berish va organlarni tarang tutishdan saqlanish kerak.

Bu mashqni mustahkamlash uchun karavotga chalqancha cho'zilib, yostiqni olib tashlash kerak va qorin ustiga bir-ikki dona og'irroq narsa (masalan, kitob) qo'yib yoki qo'l bilan nafas koordinatsiyasini tekshirish kerak. Har doim, nafasning o'pkaning yuqori qismigagina olinishidan saqlanish zarurdir. Xuddi shuning-

dek, haddan ortiq ko'p nafas olish ham organizm taranglashuviga olib keladi, ya'ni har doim ozgina «bo'sh joy» qolishi kerak.

Mashq odat tusiga kirib ketgandan keyingi davrlarda ham doim qaytarilib va mustahkamlanib boriladi.

2. Diafragmal nafas mashqi⁸. Birinchi mashqdagi kabi holatda turiladi. Qo'llar bo'shashtiriladi, keyin bukiladi va kerishganga o'xshab (kerishish emas!) nafas olinadi. Nafas olish jarayonida qo'l bukilgancha ko'tarilib, barmoqlar yuqoridan yelkalarga tegib turadi. Shundan keyin nafas chiqariladi va o'sha jarayonning o'zida qo'l ham bo'shashtirilgancha tushiriladi.

Mashq muttasil qaytarib turiladi. Shu mashqning o'zini yana bir necha variantlarda takrorlash mumkin. Jumladan:

a) ikkala qo'lni parallel holda tik ko'tarib nafas olish va tushirayotib chiqarish;

b) ikki yondan qo'llarni tik ko'tarayotib nafas olish va tushirayotib chiqarish va h.k.

3. Ortiqcha nafas olishdan saqlanish mashqi. Butun a'zolari bo'shashtirib, egilish kerak. Qo'l, bosh va yelka nihoyatda bo'shashtirilib, shalvirab yotadi. Shu holatda nafas olib, keyin turiladi va nafas chiqariladi.

4. Ko'krakka nafas olishdan saqlanish mashqi. Birinchi mashqdagi asosiy holatda turiladi. Qo'llar ko'krak osha qarama-qarshi yelkalarni ushlaydi. Shu holda nafas olinadi va qo'llar yozilib, erkin holda nafas chiqariladi.

5. Diafragmani qisqartirib nafas olish mashqi. Stulga o'tirgan holatda oyoq bukiladi va ko'krakka bosilgan holda tizzalar qattiq quchoqlab olinadi. Shu holatda nafas olinib, keyin erkin holatga qaytiladi va nafas chiqariladi. Mazkur mashq har bir mashg'ulotda bir necha marta qaytariladi.

6. To'liq va diafragmani qisqartirib nafas olish mashqi. Tik turgan holda nafas olinadi. Keyin tizzalar bukilib o'tiriladi (jag' tizzalar ustida) va nafas chiqariladi. Shu holda nafas olinadi va turgach chiqariladi. Shu tartibda mashq navbatma-navbat bir necha marta qaytariladi.

⁸ Bu va keyingi ayrim mashqlar E.M.Charelining kitobi asosida bayon qilinadi. (qarang: Э.М.Чарели. Методическое пособие по технике речи. Свердловск, 1963).

Nafas uchun harakatli va taqlid mashqlaridan namunalar

1-mashq. «Nasos».

Sizning qo'lingizda «nasos». «ssss!» «ssss!» «ssss!» tovushiga taqlid qilgan holatda qo'l harakatlari bilan «shinani» damlang.

Tovushni qo'l harakatlari bilan muvofiqlashtiring. Mashqlarni bajarishda haqqoniylikka erishing. «Nasos»dagi havo qarshiligini bartaraf qiladigan qo'llardagi kichik mushak tarangligi «ssss!» tovushlaridagi nafas chiqarish tezligi bilan muvofiqlashtiriladi.

Mashqni o'yinga aylantiring. Bir-biringizga qarama-qarshi holatda turing. Biringiz «rezinali odam» modelini damlay boshlaysiz. Ikkinchingiz erkin bo'yin, qo'llar, korpus bilan cho'kkalab o'tiradi. U ishirilmagan «rezinali odam». Harakat qiling. Partnyoringizni kuzating. «Nasos» ovozi eshitilyapti — «model» harakatda; ko'tariladi, korpusni to'g'rilaydi, so'ngra bo'yin, qo'llarni ko'taradi. Har doim harakat «nasos»dan chiqayotgan havoning «sss...» tovush to'xtashi bilan to'xtaydi. «Model» oxirigacha damlangandan keyin, «shlang sug'uriladi» va havo boshida «psh!» degan tovush bilan kuch bilan chiqadi, so'ngra esa sekinroq chiqadi va «model» o'zining avvalgi holatiga qaytadi (cho'kka tushgan). Keyin bir-biringiz bilan o'rin almashib, yana mashqlarni davom ettirishingiz mumkin.

2-mashq. «Arralovchilar».

«Arrani» olib tekshirib ko'riladi. Keyin yerdagi xodani arralashga mos qilib qo'yib arralash boshlanadi: «s! s! s! s!» Avvaliga «s» tovushi qo'l harakatlariday kalta bo'lib, keyin esa qo'l harakatlari masofasida qanchalik keng bo'lsa shunchalik «ssss», «ssss» uzuq tovushi uzunroq chiqa boshlaydi.

3-mashq. «Koptok».

Faraz qilamiz, qo'limizda katta rezinali koptok. Agar uni ezsak, chiqayotgan havo tovushi eshitiladi. To'pni kaftimiz bilan bossak va chiqayotgan havo tovushi «ssss...» tarzida bo'lib, qo'llar go'yo «to'pning» qarshiligini his qilayotganday sekin birlashadi. Xuddi shunday, sekin, kuch bilan «to'pdan» (o'pkadan) havo haydaladi:

«ssss...» Qo'llar yanada yaqin, «to'pda» havo shunchalik kam qoladi. Nihoyat qo'llar faol harakatda birlashadi va bu harakat bilan fonatsiyada ishlatilmagan havo chiqarib tashlanadi.

4-mashq. «Motosikl».

Motorni ishga solib motosiklda ketmoqchimiz. Qani ketdik... «r! r! r! r!...rrrrrr...» Kim uzoqroq ketdi! Tezroq, tezroq ketyapsiz va tovush yumshoq «r r r r r r» bo'lib sekinlashib boradi.

5-mashq. «Qo'ng'iroq».

Kuch bilan va bir necha marta elektr qo'ng'iroqni bosing, qat'iyat bilan javobni kuting: «r r r r r r... r r r r... r r r r r r r r r r... r r r r r r r...» javob yo'q. Endi qo'ng'iroqni yana bosasizmi, yo'qmi, bu mashq qiluvchining improvizatsiyasiga bog'liq.

6-mashq. «Purkagich».

Purkagichning «nokini» qo'lingizda siqib turib suyuqlik «changini» uzoqqa seping, shu vaqtda qo'llar «f! f! f! f! f!» tovushiga taqlid qilgan holda harakat qiladi. «Nok» kalta kuchli harakatlar bilan qisiladi, xuddi shunday undosh tovushlar «f! f! f! f! f!» eshitiladi. Agar «nok» kuch bilan sekin ezilsa, unda tovushlar uzun cho'ziladigan chiziqqa qo'yiladi, «ffffff...».

7-mashq. «Bolta».

O'tin yoryapmiz, boltaning tovushi «ex» tovushi bilan birga eshitiladi. Bu tovush bilan o'pkadan havo chiqarib tashlanadi va birdaniga yana to'ldiriladi, chunki o'pkadan qolgan havo zichligi tashqaridagidan ancha kam va havo xuddi nafas olishning harakatisiz o'zi o'pkaga «kirayotganday» bo'ladi. Buni yana bir mashq qilib tekshirib ko'rish uchun bolta bilan yengil o'tinni yorishga harakat qilamiz.

8-mashq. «Aravakash».

«Otni» haydayapsiz: «No! No! No!» Endi uni keskin to'xtating: «Dur, dur, dur!» Tovushni ko'tarilmaslikka va ortiqcha kuch ishlatmaslikka harakat qiling.

10-mashq. «Hakka g'iybati».

Eshitgan «g'iybatingizni» boshqalarga ayting: «Trr! Trr! Trr!
Trr-trr-trr-trr! Trr! trr-trr!»

Nima haqida gapirayotganingizni fantaziya qiling. Diafragmaning keskin harakatlarini his qilyapsizmi? Faqat uni boshqarishga harakat qilmang. U o'zi tabiiy harakatlar bajaradi.



OVOZ TARBIYASI

Ijrochilik san'atida ovozni tarbiyalashdan asosiy maqsad — ohang harakatchanligi va ifodaliligini takomillashtirishdan iborat. San'atkor ovozi tabiiy nutqning barcha ifodasini saqlab qolgan holda yanada aniqroq, jarangliroq, go'zalroq bo'lishi lozim.

Professional teatr sahnasida bo'ladimi, katta maydonlardagi teatrlashtirilgan tomoshalardami, ijrochilikning qaysi ko'rinishi bo'lmasin, shu ishlarning tashkilotchisi — rejissor:

a) o'zining ovoz-nutq a'zolari faolligi va eshitish qobiliyati ustida ishlashi;

b) so'z san'ati va sahna nutqining barcha bo'limlari ustida ishlash uslubini puxta o'rganishi, pirovard natijada, ijrochilariga ham yo'l-yo'riq ko'rsata oladigan bo'lishi kerak.

Masalan, ovoz mashqlari ustida ishlash usullari to'g'risida so'z yuritadigan bo'lsak, ovozni asbob bilan (biror cholg'u asbobi misolida) mashq qilingandagi ovoz rivojini inkor etmagan holda, asbobsiz qilingan mashqlar asosiy mashqlar hisoblanadi.

She'riy matnlarni o'qishda ovoz tonini ko'tarish yoki pasaytirish, tovush kuchining kuchayishi yoki kuchsizlanishi vositasida mashq qilib, oddiy jonli so'zlashuv nutqidan farqli o'laroq, yanada yorqinroq, ifodaliroq sifatga erishiladi.

Ovozdan ongli foydalana olish, uni istalgan vaqtda kerakli tomonga bura olish, ya'ni ovozni elastik qilish nutqqa sayqal beradi. K.S.Stanislavskiy aytganidek, «nutqdan o'zingizgina rohatlanib qolmay... so'z va ohanglarni sezdirmasdan turib, tinglovchining

qulog'iga quyib qo'yishingiz kerak». Bu esa, o'z navbatida, ijrochidan o'z ovoz imkoniyatlarini yaxshi bilishni, uning diapazoni, fazilat va kamchiliklarini o'rganishni talab qiladi.

Ovoz balandligi va kuch darajasining ma'lum bir me'yordagi cheklanuviga **registr** deyiladi. Inson ovoz manbayi hajmi, o'rni va darajasiga ko'ra uch asosiy registrga bo'linadi:

1. Pastki (ko'krak) registri.
2. O'rta (yuz) registri.
3. Yuqori (bosh) registr.

I. Ko'krak registri ovoz hajmini kengaytirishi, unga to'liq va ishonchli obertonlar berishi, ovozni kuchaytiruvchi asosiy manba ekanligi bilan boshqa registrlardan farq qilib turadi. Odatda, bu registrda ovoz paychalari eng oxirgi imkoniyatlargacha bo'shastiriladi yoki kengaytiriladi, natijada hiqildoq ham kengayadi. Ovoz yo'g'onlashadi va erkaklarda **bas, bariton**, ayollarda **kontralto, metsso-soprano** deb ataluvchi yo'g'onliklargacha olib boradi. Pastki registrda ko'krak qafasi, umurtqa suyak va kuraklar qaytargichlar bo'lib xizmat qiladi. Shulardan qaytgan ovoz oqimi ko'krak bo'shlig'ida rivoj topib, rang-baranglik va yoqimlilik tuslarini oladi. Ko'krak registri ovozning eng boy va rangdor manbayi bo'lib, boshqa registrarga o'tganda ham ishtirok etadi.

II. O'rta (yuz) registr o'zining ovozga jarang berishi bilan ko'krak registridan farq qiladi. Ko'krak registri ovoz zamirini mustahkamlab uni boyitsa, o'rta registr unga kuch beradi. O'rta registr asli ko'krak registri tarkibida paydo bo'lib, bosh registr tarkibiga singib ketadi. Eng jarangdor va qulay bo'lgan bu registr kundalik turmushda ko'p qo'llaniladi.

O'pkadan chiqarilgan havo oqimi ovoz paychalarini ehtiyojga muvofiq tebratib chiqqach, qaytargichlar bo'lgan tish, jag', tanglay, burun tog'aylarida in'ikos etadi va og'iz bo'shlig'ida (uning hajmi va harakatiga ko'ra) shakllanadi.

III. Bosh (yuqori) registrning qaytargichlari burun usti suyaklari va, asosan, bosh suyagi bilan tabiatda ham, sahna sharoitida ham avvalgi registrarga ko'ra kam ishlatiladi.

Demak, ovozning shakllanishi, rang olishi va balandlik-pastlik darajasida qaytargichlar juda katta va zaruriy o'rin tutadi. Ovoz

qaytargichlarisiz hech qanday kuch va rangga ega bo'lmaganligi tufayli, boshlovchi san'at muxlisining ovoz ustida qiladigan eng asosiy ishi uni qaytargichlarga yo'naltira olish va agar mavjud bo'lsa «tomoqqa tushirish» qusuridan xalos qilishdan iborat.

Nafasni yo'lga qo'ymasdan turib ovoz mashqlariga o'tish qat'iyman etiladi, chunki dastavval mustahkam nafas bazasiga ega bo'lmagan mashqlar kuchanishga olib keladi, ikkinchidan, tez-tez olingan havo faqat o'pkaning yuqori qismiga olinib, pastki qismlari faoliyati zaiflashadi, salomatlik susayadi. Shuning uchun ham kuchanmasdan olingan uzoq nafas ovozni to'g'ri yo'lga qo'yishning omillaridan biridir.

Ovoz mashqlari

1-mashq. Ovoz markazini topib olish. Har kimda ravon, bevosita yaxshi jaranglaydigan biror tovush darajasiga **ovoz markazi** deyiladi.

Ovoz markazi kundalik oddiy nutq paytida yoki biror matni o'qiyotgan paytda topib olinadi. Buning uchun talaba-ijrochining nutqiga diqqat bilan quloq solish va jaranglab eshitiladigan biror so'zmi yoki ayrim tovushmi uchrab qolsa, uni ilg'ab olishning o'zi kifoya. Shundan so'ng o'sha jarangdor tovushdan boshlab ovoz pastga va yuqoriga tomon kengaytirila boshlanadi. Boshqacha qilib aytganda, o'sha jarangdorlik kengaytiriladi.

2-mashq. Qorinning pastki qismi (nof, qov)ni tortish.

a) **P** tovushi kuch bilan talaffuz etmoqchi bo'linadi-yu, biroq lablar qattiq siqilib talaffuz etishga qo'ymaydi. Shu paytning o'zida qovning tortilganligi seziladi. Keyin nafas ham, qov ham qo'yib yuboriladi. Bu mashq bir necha marta qaytariladi va tomoq siqilishiga yo'l qo'ymaslikka alohida e'tibor beriladi.

b) *Oyoq uchida ko'tarilish.* Shu paytda qovning tortilganligi seziladi. Keyin erkin holatga qaytiladi va qov bo'shashtiriladi.

3-mashq. Ovoz jarangdorligini (markazini) topib olish (2-bosqich). Unli tovushlar ovoz jarangdorligi (markazini) topib olishga eng qulay manba hisoblanadi.

a) erkin holda ovoz jaranglashiga va tomoqning ochiq turishiga e'tibor berib:

I - A- O (bir necha marta), a - o - o' (bir necha marta),
i - e - a - o - o' - u - i (bir necha marta) qaytariladi;

b) shu tovushlarning o'zi bilan yonlarga, yuqori va pastga qaraladi;

d) bosh doira shaklida aylantirib turiladi.

4-mashq. Ovozni oldinga yo'naltirish. «Hm! Ham! Hm!» deb, birovning gapini ma'qullayotgandek bosh oldinga silkinadi va ovozning oldinda jaranglab turishi kuzatiladi.

5-mashq. Ovozga unli tovushlarni qo'shish.

e) Bu mashqda unlilar soni ko'paytiriladi va natijada bir ohangda va bir nafasda kuyulanayotgan bo'g'inlar qatori paydo bo'ladi: «Mim mem mam mom mo'm mum mim; i e a o o' i» va yana «Nin nin enni anni onni o'nnn Unni Inni» deb davom ettirish mumkin.

f) mashqda tovushlar o'zgartiriladi yoki o'rin almashtiriladi, kuyulash ohangi va zikr etilgan ovoz qoidalari esa o'z kuchida qoladi.

1. Mlimmm Lemmm Lammm Lommm Lo'mmm Lumm...

2. Minnim enni emanna monnno mo'nna uminninnn...

3. Dinnn donnn dinnn... (din-don-din).

Bu mashqlarda bir nafas yetishmasa, uni ikki nafasga joylash-tirish mumkin.

g) Ko'rsatilgan mashqlarning birini tanlab, *xromatik gamma*⁹ bo'yicha yuqoriga ko'tarilib, o'rta registr oxirroq'idan yana orqaga qaytariladi.

h) Yuqoridagi mashqlarning birini tanlab, ohang bilan emas, so'zlab talaffuz etish. Lekin ovoz yo'nalishini yo'qotmaslik kerak.

1. Minmm... memm... mamm... momm... mo'mm... mummm...
mimm...

2. Ninn... nen... nann... nonn... no'nn... nunn... ninn...

3. Mlim... mlem... mlam... mlom... mlo'm... mlum... mlim...

4. Minni... menne... manna... monno... mo'nno'... munnu... minni.

5. Nimni... nemme... namma... nommo... no'mmu.. nummu..
nimmi.

⁹ *Xromatik gamma* – bir oktava miqyosidagi yarimtonli ovozlarning qatori. Bir okta-
vadagi xromatik gamma 12 xil tovushni tashkil etadi.

i) Shu mashqlarning o'zini navbatma-navbat ham kuylab, ham so'zlab qaytarish mumkin. Bulardan tashqari, bir qancha mashqlar to'plamiga arzigulik namunaviy matnlar ham mavjud. Masalan, ovozni yo'lga qo'yishga yordam beradigan she'riy matnning namuna sifatida keltiramiz.

NAMUNA. H.Olimjonning «Baxtlar vodiysi» she'ridan bir parcha ovoz mashqi uchun maxsus tanlab olindi. Maqsad bu ovoz mashqini fortepiano jo'rligida takrorlash orqali ovozning baland notalarini mustahkamlash va diapazonini kengaytirishdan iboratdir. Mazkur mashqni fortepiano jo'rligisiz, ya'ni cholg'u asbabisiz ham bajarsa bo'ladi.

Do – Dillar

havas bilan to'ladi,

Re – Yuzlar

sevinch sepib kuladi.

Mi – To'rt tomoni osmon bilan

o'ralgan vodiy.

Fa – Kundan-kunga

husni ortgan oydek

to'ladi.

Sol – Yangi kunga chiqqan

vodiy oyoqlarida

Sol – Och it kabi,

sudralguvchi

davr o'ladi.

Fa – Ey, Farg'ona.

Mushkul kunlar bolasini

tishida tishlab,

Mi – Yu vib,

tarab,

sevib,

o'pib,

quchib,

opichlab,

Re – Ey, baxtlarni balog'atga

yetkazgan ona.

Do – Ko'm-ko'k, ko'm-ko'k, ko'm-ko'k.

ORFOEPIYA

Orfoepiya soʻzi yunoncha (*orphos* — toʻgʻri, *epos* — nutq) «toʻgʻri gapirish», «toʻgʻri talaffuz» demakdir. Adabiy talaffuz meʼyorlarini belgilab beruvchi qoidalar majmuasiga **orfoepiya** deyiladi.

Oʻzbek tili orfoepiyasi — tilshunoslik va sanʼatshunoslik bilimlarining oldida turgan eng muhim va murakkab muammolardan biridir. Maʼlumki, yozuv bilan jonli nutq oʻrtasida anchagina farq bor. Kishilarning kundalik nutqi qanday boʻlsa shundayligicha yozilavermaydi. Aksincha, yozma nutq orfografiyaning muayyan qoidalariga tobe etiladi. Demak, badiiy adabiyot tili ham (yozma badiiy nutq) orfografiya qoidalariga boʻysundirilgandir. Lekin ijrochilik sanʼati asari tarzida uni shakllantirish jarayonida yozma nutq qoidalari (orfografiya) koʻp vaqt ogʻzaki nutq (orfoepiya) qoidalariga mos kelavermaydi. Ijrochilik sanʼati bilan qiziquvchi shaxs adabiy tilning har ikkala turini ham (yozish va ogʻzaki) puxta oʻrganishi, ular oʻrtasidagi oʻxshashlik va farqli tomonlarini yaxshi oʻzlashtirishi shart.

Baʼzi soʻz ijrochilari adabiy talaffuz deganda, jonli nutqda orfografik qoidalarga toʻla rioya qilishni, yaʼni kitobda qanday yozilgan boʻlsa, shundayligicha harfma-harf talaffuz etishni tushunadilar. Vaholanki, bu mutlaqo xato tushunchadir. Ijrochilik sanʼatining eng qimmatbaho xislatlaridan biri uning obyektiv voqelikni obrazli koʻrinishlarda, estetik barkamol tarzda aks ettirishdir. Bunday badiiy yetuklikni qoʻlga kiritishning eng qulay usullaridan biri obyektiv voqelikka, hayotiylikka rioya qilishdir. Sahna hayotiyliigi va sahna haqiqati — obyektiv haqiqatning inʼikosidir. Shunday ekan, soʻz ijrochisi ham nutqdagi hayotiylik asoslarini chuqur oʻrganishi, amalda esa ularga qatʼiy rioya etishi shart. Bu orfoepiya oʻz ichiga oluvchi adabiy talaffuz meʼyorini belgilab beradigan qoidalardir.

Biroq ijrochilik sanʼati vakili uchun adabiy talaffuz meʼyorini egallashning oʻziga kifoya qilmaydi. Chunki ijrochilikda personajning **nutqiy tavsifnomasi** va **personaj tili** degan tushuncha ham mavjud. Bu masalalarda ijobiy natijaga erishish uchun soʻz sanʼat-

kori o'z kasbining chinakam ustasi, mohir va oqil namoyandasi bo'lishi kerak.

O'zbek orfoepiyasining asosiy qoidalariga o'tishdan oldin, ba'zi bir fonetik hodisalarga qisqacha izoh berib o'tishga to'g'ri keladi. Chunki bu hodisalar aslida orfoepiya qoidalarining asosini tashkil etuvchi fonetik hodisalaridir. Ana shunday muhim fonetik hodisalar jumlasiga quyidagilarni kiritish mumkin:

Assimilatsiya. Bir tovush yondosh tovushga ta'sir ko'rsatishi natijasida yuzaga keladigan fonetik hodisalar **assimilatsiya** deb ataladi. Ta'sirga uchragan tovushning o'zgarish xarakteriga qarab assimilatsiya quyidagi turlarga bo'linadi:

a) bir undosh tovush ikkinchi bir undoshga ta'sir ko'rsatib, uni butunlay o'ziga o'xshatib oladi: *yetdi — yetti, otdan — ottan, tuzsiz — tussiz* kabi. Assimilatsiyaning bu turi **to'liq assimilatsiya** deyiladi;

b) bir tovush yondosh bir tovushga ta'sir ko'rsatib uni butunicha o'ziga o'xshatib olmasdan, balki uning bir tomoninigina o'zgartiradi (jarangsizlantiradi yoki, aksincha, jarangli undoshga aylantiradi). Bu esa **to'liqsiz assimilatsiya** deyiladi: *ketgan — ketkan, oshdan — oshnan, qo'shdi — qo'shti*.

Dissimilatsiya. So'z tarkibidagi biror tovushning o'z holatidan ko'chishiga **dissimilatsiya** deyiladi. Bu xildagi fonetik o'zgarish, ayniqsa bolalar tilida, nutqiy nuqsonga ega bo'lgan shaxslar tilida ko'proq uchraydi. (Bolalar tilida *go'sht* so'zi *jish*, *do'sh* tarzida; *keldi* so'zi *telli* tarzida aytiladi). *Zarar — zalal, koridor — kalidor, zarur — zaril, birorta — bironta*.

Spirantizatsiya. Bu hodisaning tub ma'nosi shundan iboratki, so'z tarkibidagi asli portlovchi tovush sirg'aluvchi undoshga aylanadi va natijada talaffuz bilan yozuv o'rtasida ayirma yuzaga keladi. Masalan: *maqta moq — maxtamoq, doktor — do'xtir*.

Metateza. Bu so'z ichidagi ayrim tovushlarning o'rin almashuvi demakdir. Masalan: *tuproq — turpoq, la'nat — na'lat, supra — surpa*.

Proteza. Nutq paytida so'z oldiga biror unli tovushning qo'shib aytilishidir. Masalan: *stakan — istakan, stol — ustol, ruscha — o'rischa*.

Epenteza. Soʻzning yozma shaklida boʻlmagani holda ikki undoshning oʻrtasiga ayrim unli tovushlarning qoʻshilib kelish hodisasidir. Masalan: *aql — aqil, arslon — arislon, krovat — karavot.*

Diereza. Soʻzdagi ayrim tovushlarning tushirib qoldirib talaffuz etilishiga aytiladi. Masalan: *past — pas, rost — ros, Toshkent — Toshkan.*

Eliziya. Ikki soʻzning chetida kelgan unli larning toʻqnashuvi natijasida oʻsha unli lardan biri tushib qoladi. Masalan: *bora olmadi — borolmadi, yoza olmadi — yozolmadi, ota-ona — otona.*

Epiteza. Soʻz oxirida unli tovush qoʻshilib kelishiga aytiladi. Masalan: *bank — banka, propusk — propuska, kiosk — kioska.*

Sinkopa. Ikki va koʻp boʻgʻinli soʻzlarda oʻrtasidagi ayrim unli tovushlarning tushib qolish hodisasiga aytiladi. Masalan: *kiyim — kiyimi, uzum — uzmi, bolalar — bollari.*

Bulardan tashqari, defisli soʻzlar har doim qoʻshilib, bir butun shaklda talaffuz etiladi. Masalan: *oziq-ovqat, bola-chaqa, or-nomus, dam-badam, meva-cheva, chopa-chopa* va h.k.

Har bir sohaning boshqa sohalardan ajratib turuvchi jihatlari boʻlganidek, adabiy talaffuz (ofoepiya)da ham uning mustaqilligini taʼminlovchi muayyan qonuniyatlar bor. Bu qonuniyatlar uzoq asrlar davomida turli sinovlardan oʻtib, sayqal topib kelayotgan anʼanaviy qonuniyatlar, shu bilan bir vaqtda, endigina yuzaga chiqayotgan «yangi» nutqiy (talaffuzga oid) hodisalar yigʻindisidan iboratdir. Bu masalani hal qilishdagi qiyinchiliklardan biri shevalar masalasidir. Maʼlumki, oʻzbek tilida toʻrt dialekt, juda koʻp shevalar mavjud. Bu dialekt va shevalarning har biri oʻziga xos fonetik hamda artikultatsion xususiyatlarga ega boʻlib, bu jihatdan bir-birlaridan farqlanadilar. Chunonchi, qipchoq guruhi shevalariga **x** undoshi oʻrniga **q** talaffuz qilish (qat, qatin, qalq kabi) xos boʻlsa, qorluq-chigil guruhi shevalarining baʼzilarida **q** oʻrniga **k** talaffuz qilish hodisalarini kuzatish mumkin: kant, kamchi, kayerga (orfogr. qand, qamchi, qayerga kabi).

Oʻzbek tilida sodda soʻzlashuv hodisasi talaffuz meʼyorini aniqlash ishlaridagi yana bir toʻsiqdir. Masalan: *u yerda — etta, oʻtta; bu yerda — boʻtta, betta; bu yoqqa — beqqa; shu yoqqa — shaqqa;* shuningdek, *ettan, bettan, shettan, oʻzbey (oʻzbek), oʻrʼs*

(rus); *moshn, xaptobus, jurnol, belat* kabilar sodda soʻzlashish hodisasiga kiradi. Ogʻzaki nutqda sanab oʻtilgan yuqoridagi adabiy boʻlmagan nutqiy hodisalarning adabiy meʼyorga boʻlgan munosabatlarini toʻgʻri hal qilish nutq madaniyati malakasini oshirish ishlarida muhim oʻrin egallaydi.

Soʻz sanʼati va sahna nutqi injiqliklarini puxta oʻrganishni oʻz oldiga maqsad qilib qoʻygan har bir talaba-ijrochi, talaba-rejissor, boringki, u shakllangan aktyor yoki ijrochi boʻlsin, oʻz ustida tinimsiz ishlashga toʻgʻri keladi.



SOʻZ USTIDA ISHLASH

Ommaviy bayramlar rejissor-ijrochilarini yetishtirishning barcha bosqichlarida soʻz sanʼati ustida, yaʼni yozma nutqning, badiiy matnning estetik taʼsirchan talqini ustida ishlash jarayoni uzluksiz va tadrijiy mukammallashib borish tamoyilida davom etadi. Oliy taʼlim dargohiga endi qadam qoʻygan talabaning imkoniyatlarini sinab koʻrish, uni «oʻrganish» maqsadida gapirtirib koʻrish, oʻqitib koʻrish, ijro ettirib koʻrish bosqichlaridan boshlab, har bir talabaga xos fazilatlar ragʻbatlantirilib, nuqsonlar bartaraf etib boriladi. Texnik mashqlar boshlanishi bilan talaba oʻzi bilgan narsalarni emas, balki ustod-pedagog yoʻllanmasi doirasidagi matnlar — maqollar, matallar, tez aytishlar, sheʼriy lavhalar, hikmatli soʻzlar va hadislar bosqichiga oʻtishi bilan masʼuliyat oshadi va ana shu bosqichning oʻzidanoq professional tarbiya jarayoni boshlanadi. Demak, endilikda talaba oʻzi bilgan narsalarni emas, balki oʻzi bilmagan, lekin bilishi zarur boʻlgan haqiqatlarni, oʻzi uchun yangilik boʻlgan professional qonun-qoidalarning dastlabki elementlarini oʻzlashtirishga majbur boʻladi. Shuning uchun soʻz ustida ishlash jarayoni oʻquv dasturining birinchi bosqichidan oxirgi choʻqqisigacha uzluksiz davom etadi.

Soʻz talqini jarayoni ham mantiq taqozosi bilan oddiydan murakkabga, soddadan mukammallikka, milliylikdan umumjahoh-

niylikka tomon yoʻnalishda kechadi. Jonli soʻz sanʼati, boshqa sohalaridagi mavjud imkoniyatlarni zarracha kamsitmagan holda, umumjahoniy maʼnaviyat durdonalari bilan tanishtirish, tinglovchilar ommasini faqatgina milliy zamin tajribalari asosida emas, balki butun dunyo olim-u ulamolari, fozil-u fuzalolari qoʻlga kiritishgan, muyassar boʻlgan eng sara badialar, yuksak tafakkur hosilalari bilan bevosita tanishtirib borish imkoniyatiga ega boʻlgan qudratli bir sohadir.

Quyida soʻz ustida ishlash jarayonida eʼtibor berish zarur boʻlgan omillar mantiqiy va metodik muntazamlikda yoritib boriladi. Zero bu omillardan nechogʻlik oʻrinli va samarali manfaatdor boʻlish masʼuliyati har bir pedagogning zimmasiga tushadi. Shu bilan birga, mazkur qoʻllanmada tavsiya etilayotgan materiallar dogmatik xarakterga emas, balki ijodiy yoʻnaltiruvchi fazilatlarga ega ekanligini alohida eslatib oʻtish joizdir. Boshqacha aytganda, har bir pedagog bu omillardan toʻla foydalanishi, uni muayyan maʼnoda isloh etish hisobiga oʻzi kashf etgan samarali lavhalarni ilova qilishi va oʻz darslariga yanada zavqliroq, mazmunliroq, mantiqiy-estetik taʼsirchanroq ruh berishi mumkin.



REPERTUAR TANLASH

Teatrda qoʻyiladigan spektakllar va yakka ijro etiladigan asarlar majmuasiga **repertuar** deyiladi. Repertuar tanlash — ijro etish uchun munosib asarni izlab topish demakdir.

Soʻz sanʼatini oʻrganuvchilar uchun repertuar tanlaganda butun diqqat-eʼtiborni tizimli, muntazam oʻrganish jarayoniga qaratish kerak. Buning uchun qilinadigan ishlarning oddiydan murakkabga, osondan qiyinga tomon boʻlgan yoʻnalishi va ana shu yoʻldagi izchillikka rioya qilinishi shart. Shunga koʻra, soʻz ustida ishlaganda quyidagi bosqichlarni oʻtish talab etiladi:

1. Manzaraviy matn. Maʼlumki, birinchi yarim yillikdagi ish dasturi boʻyicha dastlabki bosqich manzaraviy parcha ustida ishlashdan boshlanadi. Lekin birinchi bosqich talabalarining ijodiy imko-

niyatlari ko‘lamidan kelib chiqqan holda, har bir talaba o‘zi xohlagan manzarasini o‘zi yozishi ham mumkin. Foydali tomoni shuki, talaba, eng avvalo, o‘zi ko‘rgan va tasavvur qilgan narsalarni qog‘ozga tushiradi. Shu bilan birga, unda his etish, ko‘rish, sezish, taqqoslash va shunga o‘xshash bir qator ijrochilik san’ati elementlarini tabiiy o‘zlashtirishga moyillik tug‘iladi.

Manzaraviy matn ijrochilik faoliyatining dastlabki davriga oid bo‘lib, o‘quvchida tabiiylik, ko‘rish, muomala kabi xususiyatlarni tarbiyalashda qulaylik tug‘diradi.

Manzaraviy matn biror yozuvchi asaridan tanlab olinishi maqsadga muvofiqdir. Lekin birinchi bosqich talabasi manzaraviy matnni o‘zi ham yozishi mumkin. Bu tajriba amalda natijalar beradi.

Tanlangan manzara aniq ko‘z oldiga keltiriladigan, ya’ni tasavvur etib bo‘ladigan biror joy, narsa yoki shularga o‘xshash obyektning tasviri bo‘lsin. Unda qayg‘uli voqealar, dahshatli hodisalar yoki chalkash fikrlar ifodasi bo‘lmasligi kerak. Oddiy, sodda, iloji bo‘lsa, biror kishi tomonidan gapirib beriladigan yorqin manzara bo‘lsin. Misol tariqasida M.Xidirovning «Bulbul» nomli manzaraviy hikoyasini tahlili bilan keltirishni lozim topdik.

«Bulbul»

Bu matnning asosiy:

- 1) *voqeasi* — bulbulning sayrashi;
- 2) *g‘oyasi* — tabiiylik soxtalikdan ustun;
- 3) *oliy maqsadi* — har kim o‘z qo‘lidan keladigan ishni qilsin.

Olam yasharganda qahrabo yalpizlar ilk bor anhor labida bo‘y taratadi. Chechaklar olis dalalardan shu anhorda oqib keladi. Bahor nafasidan anhor mast bo‘ladi, o‘ziga sig‘may to‘lib-toshib oqadi. Jo‘shqin oqadi, yo‘rg‘a to‘lqinlari quvlashmchoq o‘ynaydi.

Yaxshisi, ana shunday pallada siz ham xilvat anhorga keling. Keling-da, shu qadar xayol suring-ki, o‘ylaringizni anhor o‘ziga qo‘shib oqizsin.

Hadik olmang, parishon ezgu xayollaringizga hech kimsa xalal bermaydi. Yolg‘iz qurbaqalargina jag‘lariga zo‘r beradilar, basma-

bas sayraydilar. Parvo qilmang, tubsiz xayollaringiz ular xonishini ko'mib yuboradi. Tizginsiz o'ylaringiz tufayli bu sayroqni eshitmaysiz.

Kishini bo'liq xayol toliqtiradi. Bexosdan oyoqqa qalqing, ha, qalqing oyoqqa! Axir xayollaringizni suvga oqizib bo'ldingizku...

Anhor yoqasidan qaytar paytingizda sukunat cho'kadi. Qurbaqalarning «vaq-vaq»i tinganini anglaysiz. Oshiqmang, buning boisi o'zingizga darhol ayon bo'ladi. Sambit tol shoxidan bulbul xonish qilayotganini ko'rasiz. Dilgir navodan yurak hapqiradi. Tabiatning bu jajji go'zalligi qurbaqalarning tovushini bo'g'ib qo'ymadimikin! Birodar, bulbul xonishi atrofni elatib yuborganida qurbaqalar bir lahzada gumdon bo'ladi. Axir, qush yo'q joyda qurbaqa bulbul, deyishadi-ku, donishmandlar.

Ijrochilik vazifalari:

- a) eslash, ko'rish, tasvirlash;
- b) fikrlash, eshitish, maslahat berish.

Manzaraviy matnlar ro'yxati

1. Oybek. «Bolalik», «Ulug' yo'l» (romandan parcha).
2. Sh.Rashidov. «G'oliblar», «Qudratli to'liqin» (romandan parcha).
3. Shuhrat. «Toshkentliklar» (romandan parcha).
4. S.Ahmad. «Hukm», «Ufq» (romandan parcha).
5. Ch.Aytmatov. «Oq kema», «Birinchi muallim» (romandan parcha).
6. O'.Hoshimov. «Bahor qaytmaydi» (qissadan parcha).
7. O'.Umarbekov. «Oltin yaproqlar», «Mehr» (hikoyalar).
8. I.Turgenov. «Ovchining maktublari», «Bahor toshqinlari», «Atirgul», «Ko'klam» (hikoyalar).
9. A.Muxtor. «Tug'ilish» (romandan parcha).
10. M.Qoriyev. «Turnalar baland uchadi» (hikoya).
11. G.V.Gogol. «Taras Bulba», «May kechasi» (qissadan parcha).
12. P.Qodirov. «Yulduzli tunlar» (romandan parcha).
13. L.Mahmudov. «Eski dutorning sirlari» (hikoya).
14. N.Qobul. «Kaptarlar qaytmagan kun» (hikoya).

15. O.Hojiyeva. «Kashf etmoqni istayman» (manzara).

16. G.Mardonova. «Xiyobonda» (manzara).

17. M.Xudoyqulov. «Adashgan turnalar» (manzara).

2. Kam voqeali matn. Manzara bosqichi yaxshi o'zlashtirilgach, ya'ni o'quvchi-talabalar **ko'rish, muomala** kabi zaruriy elementlarni o'zlashtirgach, vazifani biroz og'irlashtirish mumkin. Agar manzaralar voqeasiz bo'lgan bo'lsa, endigi olinadigan matnda chalakash yoki mashaqqatli bo'lmagan bir-ikki voqea sodir bo'lishi mumkin. Agar tanlangan matn manzaradan boshlanib, keyin voqeaga o'tadigan bo'lsa yanada yaxshiroq bo'ladi. Bunday matnlarda aniq va ravshan talaffuz, mustahkam nafas, jarangli ovoz, yaxshi muomala va ko'rish, shuningdek, sodir bo'layotgan sodda voqealarga munosabat elementlarini tarbiyalovchi matnlar ko'zda tutiladi. Ularning hajmi (daftar qo'lyozmasi o'lchovida) 1,5–3 bet bo'lishi mumkin. Misol uchun, bu bosqichga oid yozuvchi O'tkir Hoshimovning «Robiya» hikoyasidan bir lavhani namuna sifatida tahlil etib ko'raylik.

«Robiya»

Bu matnning asosiy:

1) *mavzusi* – uyda kelin yig'laydi, yot bo'ldim deb, yor-yor;

2) *g'oyasi* – armonga aylangan orzu (yoki sevgiga sadoqat);

3) *oliy maqsadi* – taqdir hayot ko'zgusi (yoki barcha insonlarni pok muhabbatga chorlash).

Uyda kelin yig'laydi, yot bo'ldim deb, yor-yor...

Odatda har qanday qiz ham ota-onasining bag'ridan chiqib ketayotganida yig'laydi. Lekin ming yig'lagani bilan yuragining tub-tubini yoritib, ilitib turadigan nur bo'ladi. Yangi hayot, hali o'zi ko'rmagan, ammo orzu qilgan, bo'yga yetishi bilan g'irashira tasavvur qilib yuboradi... Meniki unaqa yig'i emas...

Biz chiqqan arava No'g'ayqo'rg'ondan Ko'tarmaga yetguncha qorong'i tushdi. Oyim irim qilib aravani Alvasti ko'prikdan yurgizmadi. Idora tomondan aylanib keldik. Arava ichiga qalin

qilib to'shalgan ko'rpachada paranji yopib o'tiribman. Bir tomonda oyim, bir tomondan Fotima kelin. Xotinlar to'xtovsiz yor-yor aytadi.

«Tog'da toychoq kishnaydi, ot bo'ldim deb yor-yor,
Uyda kelin yig'laydi, yot bo'ldim deb yor-yor...»

Arava peshtaxtasiga o'tirib olgan Olimjon baqirib-chaqirib otni niqtaydi. Dam o'tmay, «drrr» deb to'xtatadi. Arqon tortib yo'lni kesib chiqqan yigit-yalanglar shovqin soladi.

– Ko'rmanani tashlab ketmaysizmi, xola?

Oyim xarsillab nafas olganicha qorong'ida tugunchani titkilaydi.

– Ko'rmana sendan aylansin, bolam! – deb biriga chorsi, biriga odmi do'ppi ulashadi. Arava g'iyqillab yana yo'lga tushadi. Orqada kelayotgan «aptakashka»dagi xotinlar avjiga chiqadi:

«Osmonda yulduz ko'rdim: oltin qoziq, yor-yor,
Tushayotgan kelinning ko'ngli nozik, yor-yor...»

Ikki bukilib o'tirgan kuyi unsiz yig'layman. Oyim yelkamdan quchoqlab nafasi g'ijillaganicha qulog'imga shivirlaydi.:

– Aqalli shu bugun chiroyingni ochib o'tirgin, jon bolam. Kuydirmagin meni...

Arava burchagida supadek joyni egallab o'tirgan Parcha opa do'rillaydi.

– Qo'yvuring xola! Suyinganidan yig'lavotti, hali go'shangaga kirganida ko'rasiz, xiringlab bozor qiladi. – U o'z gapi o'ziga nash'a qilib, xexelab kuladi. – Mangayam er topsayiz-chi, xola!

Qulog'imda nuqul bir xil ohang jaranglaydi.

«Uyda kelin yig'laydi, yot bo'ldim deb, yor-yor».

Chindan ham yot bo'ldim! Kimsan akamga, orzu umidlarimga, o'zimga! Qiziq, o'zimga-o'zim yotman endi... Aravada chayqalib-chayqalib ovoz chiqarmay yig'lab boryapmanu xayolimga g'alati o'ylar kelardi. Shu xonadonga – Kimsan akamlarning uyiga kelgan kunlarimiz, oshxonaga kirsam, bir tovoq shakar turibdi. Qahatchilik yillari emasmidi, ko'rib o'zimni tutib turolmadim. Kaftimga siqqanicha olib og'zimga soldimu alamimdan yig'lab yubordim. Shakar deb o'ylaganim – tuz ekan. Unda-ku bola edim: tuz bilan

shakarni ajratolmasdim. Endichi? Hovuchimni to'latib tuz yeyishim kerak-da, shakar shimgan odamdek iljayib turishim kerak. Nega? Nima uchun?! Inson bolasiga bundan ortiq jazo bormi?

...Xotinlar tortishmashoq qilayotganda, Muzaffarga ko'zim tushib qoldi. Uyam meni ko'rib, «Robi opa!» deb baqirib yubordi. Karaxt bo'lib turgan odam bir seskanib tushdim. Shu bola endi mening o'g'lim. Alla aytmasdan, beshik tebratmasdan turib besh yashar bolaga ona bo'lib qoldim. Ajab, Muzaffarning ovozidan ham hayrat, ham quvonch bor edi. Nimaga shunaqa bo'lganini bilmayman. Lekin ko'nglimda avval o'zim sezmagani mehri, iliqlikmi uyg'ondi.

...Hozir ham shu bolani sevintirmoqchi edim. Oyim Muzaffarga qilgan sarpolarni ko'rsatib, bolaning quvonishini tomosha qilsam, o'zimning ham ko'nglim yorisharmikan, degandim... Qayoqdan bilay! Ko'nglimga kiyikcha ilashib chiqishini tush ko'rib o'tiribmanmi? Axir bu – Kimsan akamga atab tikkan gullarimku! Axir bu kiyikchalar Shomurod akaga emas, Kimsan akamga nasib qilishi kerak edi-ku! O'sha kuni qiyomat-qoyim bo'lib ketgan vokzalda xayrlasha turib, «Kutasana, manga qiyiqcha tikib qo'ya-san-a», degan edi-ku! Kimsan akamga bergan va'damni nahot unutsam! Ana o'sha qiyiqchalar! Yarim sandiq! Hammasining chetiga «K», «R» degan harf bosilgan. Atirgulning rasmi solingan. Faqat bu gullarning egasi yo'q endi. Egasi boshqa...

Ijrochilik vazifalari:

- a) tushuntirish, tasavvur, his-hayajon;
- b) eslash, ona taskini, ezilish bilan eslash;
- d) inson bolasiga bundan ortiq jazo bormi?
- e) nahotki, ilojim qancha taqdirga tan beraman!
- f) alamli va izzatli eslash;
- g) armonli eslash.

**Kam voqeali va murakkab voqeali matnlarni tanlab olish
mumkin bo'lgan badiiy adabiyotlar ro'yxati**

1. Abdulla Qodiriy. «O'tkan kunlar», «Mehrobdan chayon» (romandan parchalar).

2. Oybek. «Bolalik», «Navoiy» (romandan parchalar).
3. Said Ahmad. «Ufq», «Qirq besh kun» (romandan parchalar).
4. Chingiz Aytmatov. «Alvido, Gulsari», «Oq kema» (povestdan parchalar).
5. Gi-de Mopassan. «Kloshet» (hikoya).
6. P.Merime. «Tamango», «Qo'shxato» (hikoyalardan parcha).
7. Husayn Shams. «Suv parisi» (afsona).
8. G'ofur G'ulom. «Shum bola» (hikoya).
9. Robindranat Tagor. «Halokat», «Mahamayya» (romandan parchalar).
10. Mirmuhsin. «Degrez o'g'li» (romandan parchalar).
11. Abdurahmon al-Xomisiy. «Nabaviya» (hikoya).
12. Rasul Parvizi. «Zor Safar» (hikoya).
13. Oydin. «Gulsanam» (hikoya).
14. O'lmas Umarbekov. «Odam bo'lish qiyin», «Sevgim sevgilim» (qissalardan parcha).
15. Aleksandr Dyuma. «Uch mushketyor» (romandan parchalar).
16. Sohob Jamol. «Guli siyoh» (qissadan parcha).
17. Abdulla Qahhor. «Sarob» (romandan parchalar).
18. T.Drayzer. «Baxti qaro Kerri» (romandan parchalar).
19. O'tkir Hoshimov. «Ikki eshik orasi» (romandan parchalar).
20. Tohir Malik. «Shaytanat» (qissadan parchalar).
21. O'ktam Usmonov. «Girdob» (romandan parchalar).
22. Pirimqul Qodirov. «Yulduzli tunlar» (romandan parchalar).
23. I.S.Turgenev. «Ilk sevgi», «Asya» (qissalardan parchalar).
24. M.Ismoiliy. «Farg'ona tong otguncha» (romandan parchalar).
25. H.No'mon. «Yoshlikda bergan ko'ngil» (asardan parchalar).
26. Odil Yoqubov. «Ulug'bek xazinasi», «Diyonat» (romandan parchalar).
27. X.Deryayev. «Qismat» (romandan parchalar).

3. Ko'p voqeali matn uchun namuna.

Branislav Nushich

Yolg'onning kuchi

Meni ikki masala qiziqtiradi: biri yolg'on gap. Belgradda qancha vaqtda tarqaladi, ikkinchisi uni tarqatgan odamga qay holatda yetib keladi. Bu masalani hal qilish uchun quyidagicha ishga kirishdim.

O'tgan kuni ertalab soat o'ndan o'n yetti minut o'tganda Tereziya fontani yonida Vida xonimni uchratdim va uning yaqiniga kelib hol-ahvol so'rashgach, kishi bilmas bunday dedim:

– Ehtimol, janob Markovich to'g'risidagi gapni eshitgandirsiz?

– Qanday gap? – surishtira ketdi Vida xonim.

– Aytishlariga qaraganda, xotini bilan qo'ydi-chiqdi bo'lgan emish.

– Bo'lmagan gap – hayron bo'lib so'radi Vida xonim. – Aqlga to'g'ri kelmaydi! Ular juda ahil turardilar-ku... Sababini bilolmadingizmi?

– Sababi noma'lum. Ehtimol sababi yo'qdir. Ko'p yil birga turishgandan zerikishgandir.

Vida xonim men bilan shoshilib xayrlashdi-yu, o'n qadam ham jilmay Persida xonim bilan uchrashdi.

– Azizim, sizni uchratganim yaxshi bo'ldi. Xudoyo tavba yangilikni eshitdingizmi?

– Qanday yangilik, – qiziqish bilan so'ray boshladi Persida xonim.

– Markovich xotini bilan ajrashayotgan emish.

– Bekor gap.

– Qanaqasiga «bekor gap», xotini uydan chiqib ketibdi! Kecha eri uni onasinikiga jo'natibdi.

– Yo xudo, nima balo?

– Nima sababligini hech kim bilmaydi, ehtimol o'sha xizmatkor yigit to'g'risida bo'lsa kerak. Odamlar zerikkani uchun bekor-dan bekorga ajrashmaydi-ku.

– Men bunday bo'ladi deb kutmagan edim. Xayr, Vida xonim, xayr, ko'rishguncha!

Persida xonim knyaz Mixail ko'chasi bo'ylab yurishda davom etar ekan, qahvaxona yonida Sekich janoblarini uchratdi. Undan o'pkaladi.

– Sizdan xafaman.

– Nima uchun? – xayron Serkich janoblari.

– Kecha menikida yarim kechagacha hamma narsa to'g'risida gapirdingiz-u, eng muhim masala to'g'risida churq etmadingiz.

– Qanday masala?

– Markavich xotini bilan ajrashayotgani haqida.

– Xudo haqqi endi eshitayapman.

– Qanaqasiga endi eshitayapsiz? Hozir butun Belgrad shu to'g'risida gapirayapti-ku? Bu oddiy janjal emas. Katta janjal. Bilasizmi, u xotinini qandaydir o'ynash tufayli haydab yuboribdi. Ikkalasini odamlar guvohligida o'z uyida tutib olibdi. Aytishlariga qaraganda, ular rosa mushtlashibdi. Qanday bo'lganligini men aniq bilmayman, ammo buni odamlardan yaxshiroq biling-u kech-qurun yoki ertalib biznikiga kiring, yaxshiroq xabar qiling.

– Xudo xohlasa, albatta, kiraman. Men uchta amaldor bilan ishlayman. Ular bu to'g'risida xotinlaridan eshitgan bo'lishsa kerak. Xayr.

Sekich janoblari ijaraga kelganda uchala amaldor kofe ichib kimning uyida tushlikka qanday ovqat tayyorlanayotganligi to'g'risida gap sotishayotgan edi.

– Janoblar. Markovich uyida bo'lib o'tgan hodisani ichlaringda kim yaxshiroq biladi?

– Qanaqa hodisa? – hayron bo'lib so'rashdi uchala amaldor.

– Oilaviy janjal! Nahotki sizlan hech narsa eshitmagan bo'lsalaring?

– Eshitganimiz yo'q! – bir ovozdan takrorlashdi uchala amaldor.

– Afsus. Juda qiziq voqea. Bilasizlarmi nima bo'пти? Qandaydir yigit Markovichning xotiniga oshiq bo'lib qolibdi. Ipidan-ignasigacha sizlarga gapirib o'tirmayman. Lekin gap shundaki, o'tgan kuni o'sha yigit Markovichning xotining yoniga derazadan tushibdi. Eri esa ikkita guvoh bilan eshikdan kiribdi. Kecha ular o'rtasida duel bo'lishi kerak edi. Men aniq bilmayman, lekin

Markovich xotinini qaynonasini oldiga yetaklab kelib, «Mana pishirb yeng» deb aytganini odamlardan eshitdim.

– Ana xolos! – hayratlanishdi uchala amaldor.

Tanaffus bo‘lishini toqatsizlik bilan kutib, bu voqeadan xotinlarini xabardor qilish uchun shoshildilar. Albatta, eshitgan yangilikni har kim har xil hikoya qilib berdi. Taxminan u shunday bo‘lgan.

– Mitsa, bilasanmi, qanday ishlar bo‘lib o‘tibdi? Markovichning xotinini kim shunday bo‘ladi, deb o‘ylardi? Uning xotini shunchalik yengiloyoq ekanligini kim bilardi. Aytishlariga qaraganda u xotinini oldin ham uch marta ushlab olgan ekan, ammo janjal chiqmasligi uchun hammasini bosti-bosti qilar ekan. Endi sabr kosasi parchalanganga o‘xshaydi. Xotinini qaynonasining yoniga yetaklab boribdi-da, «Mana ekan olmangizni mevasini yeng» debdi.

– Bo‘lishi mumkin emas! – hayratlanib cho‘qindi Mitsa xonim.

– Bu juda katta doston! Bilasanmi, qandaydir bir yigit yarador bo‘lgan emish.

– Qayerda yarador bo‘libdi?

– Bilmadim qo‘lining bir barmog‘i uzilibdi, deyishayapti.

Mitsa xonim qotib qoldi. Faqatgina Mitsa xonim emas, erlarning hikoyasini ovqat ustida eshitgan Minasova xonim va Yela ham bu yangilikni eshitgach, hayratlanishdi. Tushki ovqatdan so‘ng erlari idoraga ketgach, Mitsa xonim Minasova xonim va Yela xonim xuddi oldindan belgilab olgandek, Belgradning uch tomoniga ravona bo‘lishdi. Shunday qilib, Markovich haqidagi xabar shahar bo‘ylab yashin tezligida tarqalar edi. Men ertalab o‘ndan o‘n yetti minut o‘tganda birinchi bo‘lib o‘zim suhbatlashgan yangilikni xabar qilganim Vida xonim bilan uchrashib qoldim. Vida xonim dugonalaridan birining yonidan qaytayotgan ekan, meni ko‘rgach, qo‘lini arra qilib gap boshladi.

– Jonginam, nima uchun siz menga hammasini to‘liq aytmadingiz, holbuki, shunday qiziq voqea to‘g‘risida xabardor qilmoqchi ekansiz? Siz to‘liq aytmaganligingiz tufayli boshqalardan surishtirishga majbur bo‘ldim.

– Men ham hech narsa bilmayman. Qani, aytingchi nima gap? Marhamat batafsil so‘zlab bering. Bu narsa meni qiziqirtirdi.

— Albatta. Men hozir Yulka xonimning yonidan kelyapman, u kishi hamma narsadan xabardor bir xonimdan eshitibdilar. Ular Markovich xonim yoshlikdan bir-birlarini sevishar ekan. Markovich janoblari ga turmushga chiqqanda xonim rasvo-yu raddibalo ekan, ammo shunday bo'lsa-da, janoblari uni kechirgan ekanlar. Sir fosh bo'lgunga qadar u pinak buzmabdi. Aytishlariga qaraganda, Markovich janoblari o'z krovatlaridan tilga olib bo'lmaydigan allanimalar topib olibdi. Chunosam xalq yig'ilgan emishki! Ular atrofini 20 jandarmchi o'rab olibdi. Markovich xotinini urib chala-o'lik qilibdi. Sochlarini to'zg'itib, aravaga o'tirg'izib jandarmchilar bilan onasinikiga olib boribdi va yuziga paxsa qilib tushiribdi. Ertalab xizmatkorni duelga chaqiribdi, janjal katta bo'lganga o'xshaydi.

Ko'rdilaringizmi yolg'onning kuchini. Vida xonim bilan ko'rishib uyga qaytayotgan edim. Markovich janoblari ni ko'rib qoldim. U kishi hech narsadan bexabar xotini bilan shirin suhbatlashib ketayotgan edi.

4. Turli janrga oid matnlar. Hajviy asar uchun namuna.

O'tkir Hoshimov

So'qqabosh bevagina

— Mumkinmi? Gud moning! Salom! Ruxsatingiz bilan o'zimni predstavit etsam... Jonetta Kabulovna Xaltayeva! Men k sojaleniya sizning sochineniyelaringizni o'qigan emasman. Rostini aytsam, kitob o'qishga vaqt yo'q. Bilasiz, vremya — dengi. Xotya eshitganman. V osnovnom mamashkalar haqida yozarkansiz.

Mening ham to'rtta bolam bor... Nima? Unaqaga o'xshamaydi, deysizmi? Rahmat, komplement uchun! Hamma shunaqa deydi. Men mamamga o'xshayman. Mamam oltmish yoshdayam appetitniy edi. Kak kukolka! Har kuni sochini prichyoska qildirardi. Alchibaltga! Alchibatni taniysizmi? Neujeli? Pervoklassniy masterku! Mujskoy saloniga bormaganmisiz? Vprochem, mayli... Olovingiz bormi?.. Yo'q-yo'q, men «More» chekaman... Senkyu. Zajigalkangizga gap yo'q. Tochno importniy!

Itak, to'rtta bolam bor. Maratik — Nukusda. Internatda. Yoshi... minutochku, yoshi pomoyemu o'n to'rtta. Shu yil o'n to'rtga kiradi. Kopiya — papasi. Kr-r-rasavchik! Smugliyligi, ko'zining razrezi... papasi bilan birinchi vstrechamiz Nukusda praktikaga borganimda bo'lgan. Zam ministr edi. Shunaqa abayatelnay, shunaqa intelligentniy. Ikki yilcha turdik. Sivilizovanni ajrashdik. To'g'risini aytdi. «Janochka, jonim, — dedi, — bu yog'i prokol bo'ladiganga o'xshaydi, xotinim jaloba yozibdi, dvoyejenstvo uchun ishdan haydashlari mumkin», dedi. Bilasiz, u paytlar bunaqa masalalar strogiy edi. «Maratik uchun volnovatsya qilma, o'zim opekamga olaman», dedi. «O-key» dedim...

... Nigorochnka — Samarqandda. Toyest, Nigorochnka emas, Nargizochka! Nigorochnka — Qo'qonda...

Gde-to ikki yillar oldin Samarqandga bordim. Nargizochkaning detdomiga kirdim. Detdom — tak sebe. Ammo direktor nishtyak ekan. Dilda!

Bo'y-basti ikki metr. «Bratan, dedim, — Nargizochkadan xabar olishim qiyin. Ishlarim navalom, dedim. «Xotirjam bo'ling. Nargizochkaga o'zim otaliq qilaman», dedi. Uch kun mehmon bo'ldim. Kr-r-utoy erkak ekan! Molodes!

Nargizochkaning papochkasi ham krutoy edi. Mejravonniy neftabazada direktor bo'lib ishlardi. Yoshi ellikdan oshgan bo'lsa-da, kak ogurchik edi. Samarqandning paxani edi. Xotinidan qo'rqmasdan shik-k-karniy to'y qildi. Restoranda. Yomon yashamadik... qamalib ketgani chatoq bo'ldi.

O'sha yerdan «ksiva» keldi — xabar. U kishining aytishlaricha kak budto hammasiga men vinovata ekanman. E, to'kil dedim! Benzingga diztoplivo qo'shishni men o'rgatdimmi senga dedim!

Ammo Nigorochnkadan anchadan beri xabar olganim yo'q. Aytdim-ku, «vremya — dengi». Qo'qonga hech yo'lim tushmayapti. Nigorochnka otasida qolgan. Predprinimatel edi. «Jahon bozorida» sakkizta «tochka»si bor edi. Xarakteri «milenkiy». Takoy poslushniy. Ikkita xotinidan bolasi bo'lmagani uchunmi, Nigorochnkani jonidan ortiq ko'radi. Har kuni ming xil o'yinchoq olib keladi. Hammasiga o'zi aybdor. Nuqul zamechaniye beradi, notatsiya o'qiydi. «Jannatxon, tahorat suvini yaxshi isitmabsiz. Xuftondan keyin

ko'chaga chiqmasinlar. Nomahramlarga ko'rinmasinlar. Begona erkaklar bilan gaplashmasinlar!» Tomi ketgan fanatik! Erkakning ham begonasi bo'larkanmi?! E, sirpal, dedim! Obbergan bir xonali kvartirangga kak durochka uchinchi xotin bo'lib o'tirishim kerakmi, dedim!

... Pardon, yana olovingizdan... Senkyu. Mejdu prochim, zajigalkangizga gap yo'q! Ko'p chekasizmi? Shavkatning papasi ham ko'p chekardi. Mana buni nastoyashiy mujik desa bo'ladi! Qomat bespodobniy! Sochlar kurchaviy! To'rtta xotinini vot tak obespichit qilib qo'ygan. Razumeetsya ZAGSimiz yo'q edi. «Mers-600!» Beldersoydagi dachasini aying! Saunasi, basseyni...

Net ravnix! Bir yilcha bo'ldi. Rossiyaga ketganicha daragi yo'q. O'sha yerdagi bratanlardan surishtirsam, biz ne v kurse delo, deydi... Shavkatchik o'zimga. Ikki yoshga chiqdi. Shustriy. Xodyachaya bomba. Mejdu nami bir gap aytaymi? Uyg'a notanish «dyadya»lar kelsa, halitdan meni revnovat qiladi, parazit! Sizni «fazendam»ga «xodyachiy bomba» yo'qligida chaqiraman, o-key!

V obshem mayli, blije k delu! Menga sizning padderjkangiz kerak. Hokimiyatga zayavleniye bergan edim. «Men mat odinokkaman. Qiynalib ketdim, shahar markazidan kvartira berishingzni so'rayman», deb. Borsam bir patsan o'tiribdi. O'n kundan keyin keling, dedi. Bugun borsam nima deydi deng? «To'rt xonali uyingiz bor ekan-ku!» deydi. Men uyni sening pulingga opmanmi? Xudoga shukur, boshimda erlarim toyest, erim bor, toyest bor edi. Bu uyni o'z pulimga sotib olganman. Yigirma ming «baks»ga! Tag'in nima deydi deng, frayer? «Onajon, «monetniy dvor»dan chiqib keldingizmi, hamma yog'ingiz brilliant-ku!» deydi. Menga kompliment qilyapti, sopyak! Brilliantni sen podarka qipsanmi? Ayol boshim bilan biznes qilyapman. «Chelnok»ka boryapman. Stambulga, Dubayga, Yujniy Koreyaga... Osonmi? Har qadamda, «ment!», «dolya» cho'zmasang, hammasini obqoyadi!

Kstati... Dubayda bo'lganmisiz? Obyazatelno boring! Texnika paxti darom! Tilla — navalom. Arablar temperamentniy bo'... Nu, bunisi nevajna!

Koroche, hokimiyatdagi o'sha patsan «Sizga uy yo'q, hamma kvartiralar privatizatsiya qilib bo'lingan, qayoqqa borsangiz, «katta

ko'cha», dedi. Shuni bir feleton qiling! Bepomoshniy mat-
odinochkani unijat qilish qanaqa bo'lishini bir, ko'rsatib qo'ying!
Men ham qarzdor bo'lib qolmayman. Familiyasi... minutochku,
familiyasi... yozib olganman...

Nima? Yozmaysiz? Toyest, kak yozmaysiz? Nima? Nima
dedingiz? Yana bir qaytaring! «Men inkubator tuzatadigan usta
emasman», dedingizmi? Kim inkubator? Nega ayol kishini haqorat
qilasiz? Nima haqqingiz bor. Naxal! Pisaka neschastniy! Ma,
zajigalkang bosh-sh-shingdan qolsin!

Ertak va hajviyalar uchun adabiyotlar ro'yxati

1. Said Ahmad. «Bir o'pichning bahosi» (to'plam); «Mushtipar»,
«Omonat», «Elim» hajviyalari.
2. Abdulla Qahhor. «San'atkor», «Adabiyot muallimi», «Mayiz
yemagan xotin» (hikoyalar).
3. Aziz Nesin. «Musht ketdi» (to'plam).
4. Sami Abduqahhor. «Qoyalar va soyalar» (to'plam).
5. O'tkir Hoshimov. «So'qqabosh bevagina» (to'plam).
6. Ne'mat Aminov. «Qahqaha» (to'plam).
7. Alp Jamol. «Mubtalo», «Bevafo yakan».
8. E.Hushvaqto'v. «Chimildiq» (to'plam).
9. O'zbek xalq ertaklari.
10. Gans Xristian Andersen. «Yoqa» ertagi.
11. Shuningdek, A.P.Chexov, A.Muqimov, I.Isomiddinov va
Ilhom Zoir kabi yozuvchilarning hajviy asarlaridan tanlab olib
foydalanish mumkin.

5. To'liq asar yoki murakkab matnlar uchun namuna.

Gi-de Mopassan

Kloshet

Kloshet xola yirtiq-yamoq tikadigan kampir bo'lib, bizning
uyimizga seshanba kunlari kelar edi. U baland bo'yli, ozg'in,
soqollik, to'g'rirog'i, sertuk xotin edi. Kloshet xola oqsoqlanib

yurardi, lekin oqsashi odatdagi mayiblarning yurishiga o'xshamas edi. U xuddi yakor tashlab qo'yib turgan kemadek lapanglar edi. Men Kloshet xolani jud yaxshi ko'rardim. Uyqudan ko'zimni ochishim bilan u oyog'ini grelkaga qo'yib ish qilib o'tirgan uyga kirxonaga qarab yugurardim. U ilmoqqa o'xshagan barmoqlari bilan yirtiq-yamoq tikar ekan, menga turli-tuman hikoyalar aytib berardi. Mening mas'um ruhimga ta'sir qiladigan hikoyalariga qaraganda, barcha tole'siz xotinlar singari uning ham qalbi qimmatli va olijanob ko'rinar edi.

Shunday qilib bir seshanba kuni eshikni ochib ichkari kirdim. Qarasam, ish tikuvchi kampir mukkasidan tushib qulochini yoygan, bir qo'lida ip-igna, ikkinchi qo'lida mening ko'ylagimni ushlab yotibdi. Men dod deganimcha qochib chiqdim. Hamma yugurib keldi, bir necha minutdan so'ng Kloshet xolaning o'lganini eshitdim. Doktor kampirni qanday sabablar bilan o'lganini aytib berdi, lekin men hech narsa anglay olmadim.

— O, sho'rlik, — dedi u.

Men shu yerga birinchi kelgan kunim oyog'ini sindirgan edi, dilijonidan tushib hali qo'limni yuvishga ulgurmagan edim, birovning oyog'i sindi, juda qaltis sindi, juda qaltis deb chaqirib kelishdi.

U o'n yetti yoshida bo'lib, nomi Gortensiya edi. Uning o'sha vaqtdagi go'zalligi-ya. Hozir aytsang birov ishonmaydi. Endi uning nima bo'lib oyog'i singanligiga kelsak, men hech qachon, hech kimga aytgan emasman, buni meni bu yerdan allaqachonlar ketib qolgan bir odamdan boshqa hech kim bilmaydi. Mana bu o'ldi, endi men uning sirini aytsam bo'ladi.

O'sha chog'larda bu yerda muallimning yordamchisi bo'lib bir yosh, chiroyli, qaddi-qomati kelishgan, harbiylarga o'xshab yuradigan yigit kelgan edi. Hamma qizlarning es-hushi o'shanda bo'ldi. U bo'lsa o'ziga juda bino qo'ygandek kekkayib yurar, aslida bo'lsa, ko'pincha chap yoni bilan turadigan katta muallim Grabyu amakidan qo'rqqanidan shunday qilar edi. Muallimga yordamchi bo'lib kelgan yosh yigitcha nozanin qizga iltifot qiladi, qiz ham turgan gap, bu bag'ritosh faqat meni yoqtiradi, degan xayolga boradi. Qiz uyga ketayotgan kishi bo'lib, Grabyunning uyidan chiqadi-yu, zinadan pastga tushish o'rniga bolaxonaga chiqib,

yashirini oshig'ini kuta boshlaydi. Tezda yigit ham keladi va endigina rozi dil ayta boshlaganda to'satdan bolxonaning eshigi ochilib, ostonada muallim Grabyu ko'rinadi. U shubhalangan-simon:

– Hay. Nima qilib o'tiribsiz? – deb so'raydi. Qo'lga tushgan yosh o'qituvchi mutlaqo gangib qolib, «Biroz shu yerda dam olay degan edim, Grabyu afandim» – deb yuboradi.

Somonxona juda katta, keng va qop-qorong'i edi. Yigit qo'rqib ketgan qizni ichkariga itarib, «U yoqqa, u yoqqa boring, bekining... Meni ishdan haydashadi-ya? Bekina qolsangiz-chi!» – deb shivirlaydi. Muallim shivir-shivirni eshitgach, «Demak bu yerda yolg'iz o'zingiz emas ekansiz-ku?» – deb so'raydi.

– Yo'q, yolg'iz o'zimman, Grabyu afandim.

– Yo'q, yolg'iz emassiz, siz kim bilandir so'zlashayotirsiz!

– Xudo ursin, Grabyu afandim, yolg'iz o'zimman.

Chol «Hozir ko'ramiz» dedi-yu, eshikni qulflab sham keltirgani pastga tushib ketadi.

Shunda ko'p uchraydigan qo'rloqlardan biri bo'lgan yigit, nima qilishini bilmay qolib, to'satdan jig'ibiyroni chiqib, «Qani yashirining, bu yerda turmang! Sizni deb umr bo'yi bir parcha nondan mahrum bo'laman-a!... Yashirinsangiz-chi», – deydi. Chol kelib qulfni ocha boshlaydi. Shunda Gortenziya yugurib tuynuk yoniga boradi, darrov qopqoqni ochadi, so'ng sekin va keskin qilib: «U ketgandan keyin chiqib mening holimdan xabar olarsiz» – deydi-da, o'zini ko'chaga tashlaydi.

Grabyu hech kimni topa olmaydi va hayron bo'lganicha chiqib ketadi. Chorak soat o'tgach mening yonimga kelib bo'lgan voqeani birma-bir aytib beradi. Yosh qiz tushgan joyida devorning takkinasida yotar, o'rnidan turmas edi. Axir tomdan yiqilganda. Men yigit bilan birga bordim. Sharros yomg'ir quyib turgan edi. Qiz sho'rlikni uyimga olib keldim. Uning o'ng oyog'i uch yeridan singan, suyak maydalari terisini yorib chiqqan edi. U shikoyat qilmas, faqat kishi hayron qolarlik bardosh bilan: «Qilmishimga yarasha! Qilmishimga yarasha!» – deb takrorlard. Men uning ota-onasini chaqirtirib, bir izvosh ketib borayotgan ekan-u, ot

olib qochib, mayib qilib ketipti, deb vaj qildim. Mening soʻzlarimga ishonishdi, jandamlar bir oy davomida baxtsiz hodisaning aybdorini izlab topisha olmadi.

Boʻlgan voqea shu. Men uni aytamanki, bu ayol — qahramon, buyuk tarixiy hodisalarni yuzaga chiqaradigan ayollar toifasidan. Bu uning birdan-bir muhabbati edi. U qizligicha vafot qildi. oliyjanob narsa, jondan kechib qilinadigan sadoqatning qurboni.

Doktor jim boʻlib qoldi. Onam yigʻlar edi. Otam bir necha ogʻiz soʻz aytdi, men uni anglay olmadim, shundan soʻng hamma chiqib ketdi. Men hamon kursi yonida tiz choʻkkanimcha piq-piq yigʻlardim va qulogʻimga zinadan urinib-turtinib tushayotgan odamlarning ogʻir-ogʻir qadamlari eshilib turardi. Kloshetning jasadini olib chiqishmoqda edi.

Asarning adabiy tahlili ijrochilik uchun repertuar tanlashdan boshlab, adabiy montajgacha boʻlgan jarayonni oʻz ichiga oladi. Bu keng koʻlam esa quyidagi omillarning yoritilishidan iboratdir:

a) **asar muhitini oʻrganish** — tanlangan asar muallifining tili va stili, asarning tarixiy sharoiti, badiiy xususiyatlari va boshqa bir qancha xarakterli xususiyatlarini oʻrganish demakdir. Bu yakka soʻz ijrochisi uchun qanchalik muhim boʻlsa, rol ijro etuvchi uchun ham shunchalik zarurdir;

b) **mavzu** — tanlangan asarning nimalar haqida bahs yuritayotganligini anglatadi. Ijrochi xoh aktyor sifatida ijro etsin, xoh yakka ijrochilikda boʻlsin, tanlangan asarning mavzusini aniqlab olishi shart. Zotan, asar mavzusini aniqlash rejalashtirilgan vazifani aniqlab olish demakdir;

d) **gʻoya** — har bir badiiy asarning barkamollik oʻlchovidir. Shuning uchun ham har qanday ijrochilik asari uchun repertuar tanlashning eng asosiy sharti uning gʻoyaviy qimmatini hisobga olishdir;

e) **syujet** — soʻz ijrochiligida aniqlab olinishi shart boʻlgan omillardan biri.


Maʼlumki, sujet liniyasi qator oʻziga xos elementlarning uzviy birligini tashkil etuvchi zanjirdan iborat. Bu elementlar jumlasiga ekspozitsiya, prolog, tugun, voqealar rivoji, kulminatsiya, yechim, epilog va ayrim situatsiya kabi omillarni kiritish mumkin,

f) **konflikt** (qarama-qarshilik) — badiiy asarning dinamikasini vujudga keltiruvchi omil.

Ijrochi adabiy tahlil jarayonidayoq asar konfliktini aniqlab olishi lozim. Chunki u nimalarga qarshi kurashishga va nimalarni himoya qilishga o'zini oldindan tayyorlab boradi;

g) **oliy maqsad** — har qanday sahna asari ma'lum bir manfaatni ko'zlab biror niyat bilan ijro etiladi.

«O'zingni san'atda emas, san'atni o'zingda sevgin», deb ta'lim beradi teatr san'ati asoschilaridan biri K.S.Stanislavskiy. Ya'ni sahnaga chiqib qaddi-qomating, chiroying yoki boshqa fazilatlarining namoyish qilma, aksincha, san'atga bo'lgan cheksiz mehr-muhabbating, usiz tura olmaganing uchun chiqqin, deydi. Xo'sh, bu nima degani? Ijrochi, tinglovchi yoki tomoshabinga taqdim etmoq uchun o'z oldiga qo'ygan asosiy fikr-niyatga oliy maqsad deyiladi.



BO'LAKLAR

So'z san'atini jonlantiruvchi uch muhim asos bor. Bu **ko'rish, tub ma'no** va **harakatdir**.

Ko'rish. Ko'zingizni chirt yuming-da, birpasgina o'zingiz unib-o'sgan hovlini ko'z oldingizga keltiring... Ko'rayapsizmi?.. To'g'rirog'i, avvaldan sizga qadrdon bo'lgan manzara ko'z oldingizda qayta jonlanayapti, shundaymi? Ya'ni sizning tasavvuringiz o'z o'tmish xotiralarini jonlantirayapti. Ana shu hol san'at tilida **ko'rish** yoki **ichki ko'rish** deb yuritiladi.

Adib va dramaturg biror narsani tasvirlar ekan, albatta, avvalo ko'z oldiga keltirib — ko'rib, keyin o'sha ko'rish «kinolentasi»dagi eng qimmatli narsalarni tanlab olib yozadi. Hech bir qalamkash biror manzarani to'la-to'kis, asl holicha tasvirlab bera olishi mumkin emas, aks holda bu haddan ortiq cho'zilib ketgan va zerikarli bo'lgan bo'lardi. Shuning uchun ham ijrochi zimmasiga yanada mushkulroq vazifa tushadi — adib tasvirlay olmay qolgan element-

larni ham to'la-to'kis tasavvurda jonlantirishi va matnni ijodiy tasavvur mahsuloti bilan boyitishi lozim. Agar ijrochi o'zi gapirayotgan narsalarni ko'rmasa, tinglovchi ham hech narsani ko'z oldiga keltirolmaydi va bunday sahna asarining hech qanday qizig'i qolmaydi. Aksincha, agar ijrochi gapirayotgan narsalarini yaqqol tasavvur etsa, uni ijodiy tasavvur bilan boyitsa, uning so'zlari ham qiziqarli va jonli bo'ladi.

Tub ma'no. So'z mazmundorligi, uning chuqur va aniq ma'nodorligi ijrochilik san'atida katta mas'uliyat talab qiladi. Darhaqiqat, gapirilgan yoki yozilgan so'zlarning o'zi hamma narsani anglatmaydi.

So'z san'ati ijrochisi to'qnash keladigan yozma asarlar, garchi yetuk asar bo'lsa ham, sahna asari tarzida hali ular bir material bo'ladi, xolos. Shuning uchun ijrochi har bir adabiy materialni chuqur o'rganishi, u haqda har tomonlama mulohaza yuritishi, o'sha asar tarkibida yashirilib yotgan ma'noni ocha bilishi kerak.

Ana shu biror jumlaning gapirayotganda, ijrochi ko'ngildan o'tkazayotgan asl ruhiy holati, niyati, aytmoqchi bo'lgan, lekin boshqa so'zlar orqali ifoda etgan istagiga **tub ma'no** (podtekst) deyiladi.

Tub ma'no, zikr etilganidek, jonli so'z, drama san'atini jonlantiruvchi, unga harakat va hayotiylik bag'ishlovchi uch asos (ko'rish, harakat va tub ma'no)ning biridir. Shuning uchun ham so'z san'ati tabiatini tushunishga qodir bo'lgan har bir san'atkor va mutafakkir bu omillarga alohida e'tibor bilan qarab keladi. Jumladan, «tub ma'no, — deydi K.S.Stanislavskiy, — bu har doim... matnni asoslab va jonlantirib boruvchi, ko'zga ochiq tashlanmaydigan, ruhan seziladigan, ammo matn oldida uzluksiz oqimni tashkil etadigan «inson ruhining hayoti»dir¹⁰. Keyinchalik esa: «Teatrga men tub ma'no uchungina boraman, matnni uyda o'qib olishim ham mumkin», — deydi¹¹.

Xullas, ijrochi qanday bo'lmasin matnlarni tub ma'noni ochib berish vositasi bilan jonlantirishi, unga tabiiylik va hayot bag'ishlashi, oliy maqsadni yorqin ifoda etuvchi mazmun bag'ishlashi

¹⁰ Станиславский К.С. Собрание сочинений. Т.3. — М., 1984. — С. 81.

¹¹ Германова М. Книга для читателей. — М., Изд. ВЦСПС, 1960. — С. 99.

kerak, chunki ana shu tub ma'nolar zanjirining barchasi bir bo'lib, oliy maqsadni ochib beradi, to'g'rirog'i, unga erishmoq imkoniyatini beradi.

Tub ma'no nutq ohangdorligi, intonatsiya tushunchalari bilan uzviy aloqador bo'lib, nutqning tabiiy va estetik ta'sirchanligida yetakchi rol o'ynaydi. Eng muhimi, tub ma'no tufayli nutq shu qadar rangdorlik va joziba kasb etadiki, tinglovchi ijrochining so'zlari bilan ishi bo'lmay qoladi, o'sha so'zlar uyg'otgan tasavvur, o'sha so'zlar jonlantirgan ma'no bilan yashay boshlaydi. Tinglovchida ijrochilik asariga nisbatan ana shunday faol munosabat uyg'ota olish, ularni butun vujudi bilan san'at asariga kirib ketishini ta'minlay olish san'atkor uchun katta ijodiy yutuqdir.

Tub ma'no tushunchasi ijodiy xarakterga ega, ya'ni falon asar, falon jumla yoki falon so'zning tub ma'nosi hamisha falondir, deb qat'iy hukm chiqarish mumkin emas. Bunday urinish san'at tabiatiga xos bo'lgan ijodiylik va erkinlikni bo'g'ib qo'yadi hamda tub ma'no tushunchasini dogmaga aylantiradi. Shuning uchun ham tub ma'no haqida o'ylaganda uning ijodiy xarakteri diqqat markazida turishi lozim.

Harakat. «Sahnada harakat qilmoq kerak, — deydi K.S.Stanislavskiy. — Drama san'ati, aktyorlik san'ati harakatga, aktivlikka asoslangan... Sahnada ham jismoniy, ham ruhiy harakat qilmoq kerak»¹².

Harakatsiz — chinakam ichki kechinmaga asoslangan san'at ham yo'q. Turli xatoliklardan saqlab qoluvchi eng ishonarli najot ham ana shu harakatdir.

Harakatning o'zi nima?

Bu avval matn zamiriga joylashgan ruhiy boylik, ya'ni muayyan vazifalarni bajarishga undovchi omillardir.

Ijrochi biror so'zni talaffuz etar ekan, u nimanidir istaydi, nima maqsaddadir gapiradi, biror ruhiy ehtiyoj uni ana shu so'zni aytishga majbur qiladi. Agar ijrochi hech qanday ehtiyojsiz valdirayversa, o'sha aytiladigan so'zlar unda qaytadan «tug'ilmasa»,

¹² K.S.Stanislavskiy. Aktyorning o'z ustida ishlashi. — T., Badiiy adabiyot nashriyoti, 1965. — 53–54-b.

demak u harakat qilmayapti, chinakam ichki kechinmada yashamayapti. Bu esa chinakam san'atga yot narsadir.

Har qanday matnda ham biror jumla gapirilar ekan, ijrochi o'ziga «Men nega shu jumlaning gapiryapman?», «Bu jumla bilan nima demoqchiman?», «Shu jumlaning aytishida bajarishim lozim bo'lgan harakatim nimadan iborat?» deb savollar qo'yishi va ularga ijobiy javoblar topilgandan keyingina o'sha so'zlarni aytishi, ya'ni o'sha harakatni bajarishi kerak. Agar ijobiy javob topilmasa, harakat aniqlanmasa yoki o'sha jumla matn uchun ortiqcha bo'lsa, uni olib tashlash kerak. Ijro etish uchun olib qolingan har bir so'z va gap aniq harakatga tayanishi shart.

Haqiqiy san'at va biror asarni «umuman» shunchaki ijro etish bir-biriga ziddir. Biri ikkinchisini yo'q qiladi. San'at tartib va uzviylikni sevsa, «umuman» rol o'ynash tartibsizlik, chalkashlik va mantiqsizlikdan iborat bo'ladi¹³. Shuning uchun ham ijrochilik san'atida umumiylikka, haybarakallachilikka yo'l qo'yib bo'lmaydi va har bir asar uchun belgilanadigan harakatlar o'sha adabiy materiallarning mazmuni, konteksti, g'oyasi; rejissor yoki ijrochining oliy maqsadi tarkibidan tug'ilishi hamda aniq, muayyan va chuqur maqsadli bo'lishi kerak.

Harakatning yana bir xususiyati uning **erkinligidir**. Shuni aytish kifoyaki, sahna asari oldiga qo'yiladigan oliy maqsadning o'zgarishi bilan adabiy materialdagi harakatlar va ularning sifati ham o'zgarishi mumkin. Shuningdek, bir adabiy material oldiga turli rejissor va turli ijrochilar tomonidan turlicha oliy maqsad qo'yilgani kabi, harakat ham turlicha belgilanishi mumkin. Bu hodisa san'atning ijodiy tabiatidan kelib chiqadi.

Xullas, ijrochi biror adabiy materialni qo'lga olar ekan, undagi harakatni belgilab olishi shart, ijrochilik jarayonida esa ularni bajarishi kerak. Chunki drama san'ati, shuningdek, so'z san'ati harakatliligi bilangina tirikdir.

Mantiqiy urg'u. Ijrochilik uchun tanlangan adabiy asar matnidagi bir qadar bo'rttirilishi, boshqalari qatoridan ajratilishi lozim bo'lgan bo'laklarga **birinchi darajali bo'laklar**. ijro jarayonida

¹³ K.S.Stanislavskiy. Aktyorning o'z ustida ishlashi. — T., Badiiy adabiyot nashriyoti, 1965. — 73-b.

o'sha bo'laklarning qandaydir me'yorda boshqalari qatoridan ajratilishi, bo'rtirilishiga esa **mantiqiy urg'u** deyiladi.

«Urg'u — nutqimizdagi... muhim elementdir, — deydi K.S.Stanislavskiy, — urg'u — jumla yoki zvenodagi eng muhim so'zni belgilab turgan ko'rsatkichdir!». Demak, matn ustida ishlaganda eng avval ana shu «ko'rsatkich»larni, ya'ni jumla va matn uzvlaridagi birinchi darajali so'zlarni aniqlab olish lozim. So'z san'atida «urg'u» bilan ifoda etib kelinayotgan tushuncha, aslida matndagi muayyan uzvni ajratish yoki bo'rttirishni anglatadi. Mantiqiy urg'u tushuvchi so'z, so'zlar guruhi va ayrim hollarda butun mantiqiy guruhlarni ajratish bilan cheklanib qolish yaramaydi, chunki bu faqat ishning texnik tomoni, xolos. Badiiy so'z gavdalanishi jarayoni uchun muhim bo'lgan va ijod bosqichiga yaqinlashtiruvchi navbatdagi ish mantiqiy urg'u tushadigan bo'laklarni butun tafsilotlari bilan atroflicha tushunib yetishdir. Bu esa, o'z navbatida, urg'ulanuvchi so'zlar zanjiridagi bir xillikka (monotonlikka) barham beradi.

Xullas, mantiqiy urg'u guruh, jumla, voqea va parchadagi mazmunni belgilovchi eng muhim so'zlarga tushadi.

Rejissuraga hamda ijrochilik san'atiga qadam qo'yan har bir talaba yoki san'atkor mantiqiy urg'u hamda ularning o'zaro munosabatlarini yaxshi bilishi kerak.



SHE'R USTIDA ISHLASH

She'riy matnlarni o'qishdan avval pedagog poeziya janri haqida so'z yuritib, talabalarga go'zal she'riy namunalardan o'qib berishi yoki badiiy so'z ustalari ijrosida yozib olingan lirik-dramatik she'rlardan eshittirish tashkil qilishi kerak. Bunda audio-video-kassetaga murojaat qilish ham mumkin. Guruhli mashg'ulotlar uchun esa lirik she'rga murojaat qilgan ma'qul. Unda she'r, proza yoki masal o'qish orasidagi farq yaqqol ko'zga tashlanadi.

She'rni talabalar o'zlari o'qishlari yoki o'qituvchi ovoz chiqarib o'qib berishi ham mumkin. She'rda aks ettirilgan fikr va his-

tuyg'ular to'g'risida gapiriladi, she'rning muhim jihatlari yoritiladi, mantiqiy urg'ular aniqlanadi, tasavvurda hosil bo'lgan obrazlar aniqroq yorqinlashtiriladi.

Talaba-san'atkor ijrochi adabiy asarni ijro etishga tayyorlanayotgan paytda faqat matnni emas, balki asarni tushunishga yordam beradigan barcha narsani o'rganadi. Asarni o'rganishdan avval, uni ichdan o'qib birinchi tasavvurga ega bo'linadi. Bu birlamchi kechinmalar ijrochi uchun juda muhimdir. Talabalar epik asarni o'qiganda biror narsa to'g'risida gapirib beradilar va shu bilan birga, unga o'z munosabatlarini, o'z tuyg'ularini ham bildiradilar.

She'r o'qish bo'yicha o'tkaziladigan mashg'ulotlarni talabalar-ning mantiqiy o'qish bo'yicha olgan bilim va ko'nikmalari bilan kengaytirish mumkin. K.S.Stanislavskiy mantiqiy urg'ularning qiziqarli xossalari haqida to'xtalib, she'r o'qilganda faqat urg'uning kuchi emas, balki sifati ham muhimligini alohida ta'kidlaydi. Muhimligi shundaki, u tepadan pastga tushayaptimi, og'ir yo'nalishdami yoki tepadan yengil uchayaptimi, o'tkir botayaptimi kabi fikrlarga e'tiborni qaratadi.

Lirik she'rning birinchi yo'nalishida asosiy diqqat ijrochilik vazifasini hal qilishga, ya'ni ijrochining so'z harakatlariga qaratiladi. So'ngra yosh ijrochilarning e'tibori she'rning musiqiyiligiga ham qaratiladi.

Epik asarni o'qiyotganda uzoq vaqt mobaynida ijrochining ichki nigohi oldida muayyan bir manzara turadi va u yoki bu detallar bilan to'ldiriladi. Lirik she'rda esa obrazlar tezda o'zgaradi va ularning ketma-ketligi shoirning ichki nigohiga bog'liq bo'lgani uchun ularning voqealarni rivojlanish mantig'iga nisbatini ilg'ab olish qiyinroq. Amaliy mashg'ulotlar jarayonida she'r o'qiyotganda talabalarni asardan olingan aniq tasavvurdan foydalanishga o'rgatish nasriy matnni o'qishdagidan qiyinroq ekanligi ko'p kuzatilgan.

Guruhli mashg'ulotlar uchun lirik she'rga murojaat qilgan ma'qul: tanlab olingan she'riy matnni dastavval talabalar o'zlari o'qishadi yoki o'qituvchi ovoz chiqarib o'qiydi. She'rda aks ettirilgan fikr va hislar to'g'risida gapiriladigan eng muhim jihatlari yoritiladi, mantiqiy urg'ular aniqlanadi, tasavvurda hosil bo'lgan obrazlar aniqroq chiziladi.

She'r o'qishdagi kamchiliklarni yo'qotish uchun ko'proq yakka darslarda mashq qilish maqsadga muvofiqdir. Shuningdek, ijrochi

talabaning ayrim xislatlari jamoa bo'lib ishlash jarayonida shakllanishi ham mumkin. Ayniqsa, nutq texnikasi, o'qish mantig'i, boshqa ko'nikmalar o'qituvchining har bir talaba bilan maxsus ishlaganida yanada oydinroq namoyon bo'ladi.

Amaliy mashg'ulotlarda guruhlar nutq texnikasi, o'qish mantig'i bilan shug'ullanib, muloqot va tasavvurga taalluqli bo'lgan masalalarni hal qilishadi. Adabiy asarni o'qishni boshlaganda har bir talaba o'z tengdoshlari oldida ijrochi vazifasini bajaradi. Shu vaqtdan boshlab talabaning ijrochilik mahoratini tarbiyalash jarayoni boshlanadi. Talabalar o'z o'rtoqlarining ijrosini to'g'ri baholay olishlari va o'z fikrlarini asoslashlari uchun tahliliy fikr yuritishga qaratilgan topshiriqlarni bajarib borishlari kerak. Masalan, she'r o'qishdan avval: 1) kuzatish va tasvirlash kerakmi; 2) eshituvchi va tomoshabin bilan muloqot o'rnatilganmi; 3) mantiqiy urg'ularni to'g'ri qo'yib o'qiyaptimi va h.k. savollarni qo'yib, shularning javobi – yechimi ustida ishlashlari zarur.

Guruh bilan ishlash ba'zan yakka mashg'ulotlar bilan baravar olib boriladi. Talabalarning hammasi ham o'ziga nisbatan talabchan bo'lmaydi. Ba'zi talabalardagi uyatchanlik va o'z kuchiga ishonmaslik auditoriya oldida ijro etish xohishi yo'qligiga sabab bo'lishi mumkin. Bunday talabalarga alohida maslahatlar berilishi shart, shunda uyatchanlik asta-sekin yo'qola boradi. Ba'zi bir yaxshi qobiliyatlarga ega bo'lganlar birdaniga she'rni sharillatib o'qib ketishadi. Bunday holatlarda o'qilgan she'rning badiiy so'z ijrosi sifatidagi kamchiliklarini darhol aytish kerak bo'ladi. Ba'zi holatlarda talaba auditoriyada tikka turishdan iymanadi, shu sababli notabiiy ohang yuzaga keladi. Shunda unga o'tirishni taklif qilish kerak va h.k.

Namuna:

Zulfiya

Ko'rganmiding ko'zlarimda yosh

**Sog'inganda izlab bir nishon,
Qabring tomon olar edim yo'l.
Keltirarding menga bir zamon,
Endi har chog' men eltaman gul.**

Keldim. Uzoq qoldim men sokin,
Sening aziz boshingda **yolg'iz**,
Osmon tiniq edi va lekin,
Parcha **bulut** yetib keldi **tez**.

Ko'kda mening boshimda turib,
Go'yo **yuragimday** qalqdi u.
Ko'zimdagi yoshimni ko'rib,
U ham yoshini to'kdi duv-duv.

Biz **yig'ladik** tepangda shu kun,
Keldingmi deb ko'tarmading bosh.
Ayt-chi, sen-la baxtiyor onlar,
Ko'rganmiding ko'zlarimda **yosh?**

Ijrochiga ilhom baxsh etuvchi she'riy namunalar ro'yxati

1. Zulfiya. «Bahor keldi seni so'roqlab», «Kechir qoldim g'aflatda».
2. Cho'lpon. «Go'zal», «Ko'ngil», «Binafsha», «Xalq».
3. A.S.Pushkin. «Ko'z yoshi», «Gul», «Romans», «Kechi-rarmikansan orzumdagi rashk».
4. Muso Jalil. «Ishonma», «Tumov bo'lgan ishq», «Hadicha».
5. Usmon Nosir. «Yurak», «Yana she'ringa».
6. Oybek. «Na'matak».
7. H.Olimjon. «O'zbekiston», «O'rik gullaganda», «Xayolimda bo'lding uzun kun...».
8. Usmon Azim. «Saylanma».
9. Muhammad Yusuf. «Saylanma».
10. K.Simonov. «Meni kutgil».
11. S.Esenin. «Ayolga maktub».
12. Mahmud Toir. «Ayol».
13. Erkin Vohidov. «Muhabbat».
14. Abdulla Oripov. «Munojat».
15. Islom Hamro. «Onam hidin tuyaman har tun».
16. S.To'ychiyeva. «Elim».

MASAL USTIDA ISHLASH

Masal ustida ish boshlanganda, birinchi navbatda, talabalar o'zlariga yoqqan mualliflar asarlariga murojaat etadilar. Lekin tanlangan masallarda ishtirokchilar soni va dialoglar miqdori ko'proq bo'lishi talabani yanada izlanishga, yorqinroq ochilishiga yordam beradi. Bundan tashqari, masal o'qishda yana bir ko'nikma mashq qilinadi — bu personaj obrazini yorqin ko'rsata olish ko'nikmasidir. Ammo qilinayotgan ishning muvaffaqiyatli bo'lishi uchun masal o'qishga bo'lgan barcha talablarni va shu bilan birga, ish davomida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan qiyinchiliklarni hisobga olish kerak. Vazifani masalning allegoriyaliligi juda qiyinlashtiradi. Ijrochining ichki nigohi ostida qaysi obraz gavdalanirishi kerak? Muallif tasvirlaganimi yoki ko'zda tutilib qilinayotganimi? Iqtidorli talaba ikkalasini ham nazarda tutadi. Agar ijrochi-talaba aniq obraz yarata olmasa, unda masalning «tuzi» yo'qoladi. Shuning uchun ijrochi-talaba o'zining barcha harakatlarini obraz yaratishga qaratishi kerak.

Masalan, I.A.Krilovning «Kvartet» masalini oladigan bo'lsak, muallif bu masalda kvartetga ko'rilayotgan tayyorgarlikning barcha detallarini tasvirlaydi. Muallif tomonidan o'ynoqi, sho'x, kichik maymun, uzunquloq va qaysar eshak, hamda bema'no ko'zlari bilan qarab turadigan echkini va boshqalarni alohida ta'rif-tavsifini keltirilganligi ma'lum. Lekin ularning tomoshabin va eshituvchiga yanada qiziqarliroq tomonlarini ochish uchun «kvartet»ning ijrochilik talqini ustida ish olib boriladi.

Masal qismlarga bo'lib o'qiladi, ya'ni muayyan matnni bir talaba emas, bir nechtasi o'qiydi. Har bir qism mantiqan o'ylab ijro etiladi. Yozuvchi chizgan manzarani talabalar ko'z oldilariga keltirishga harakat qiladilar.

Ma'lumki, ijrochi masalda obraz yaratish jarayonida, eng avvalo, hayvonlarni tavsirlashga qiziqib ketishi kerak emas, bu holat ijrochining obraz yaratishida soxtalikka olib kelishi mumkin, eng muhimi, hikoyachi-muallif obrazi g'oyib bo'ladi va uning g'oyasi noto'g'ri talqin qilinadi. Pedagog o'zining talaba-ijrochilarini masal qahramonlari obrazini qiziqarli, yorqin ko'rsatishga o'rgatishi va

uning ustida ishlashi kerak, aks holda ijro zerikarli bo'ladi va tomoshabin obrazlarni ko'rmaydi.

Mana eshakning nutqini oladigan bo'lsak, agar maymun tezda, shoshilib gapirsa, eshak so'zlarni asta-sekinlik bilan talaffuz qiladi. Masalni o'qish davomida biz hamma vaqt hayvonlar timsolini ko'ramiz, lekin asardagi jonivorlar qiliqlari orqali inson xarakterining turli qirralari tasvirlanadi. Unda eshituvchi va tomoshabinga voqealar haqida aniq va tartib bilan xabar beriladi. Ijrochilar o'z kuchlariga yarasha masal o'quvchi oldida turgan vazifalarni bajarishda, faqat masal hikoyachisidan masal ijrochisini qanday farqlash, xarakterlash kerakligi bizning diqqatimizda turadi.

Umumiy guruh bo'lib ishlash mashqlaridan keyin talabalar yakka o'qish uchun masallar tanlashadi. Masalni tanlab, uni ko'chirishda ijrochilik vazifalarini yozish uchun daftarlarining chap tomonidan katta hoshiya qoldirishlari lozim. Hoshiyada masalning qismlari aniqlab, belgilab chiqiladi. Muhim mantiqiy urg'ular topiladi. Bundan tashqari, quyidagi savollarga javob topish va muvofiq vazifalarni bajarish kerak:

1. Masalning kompozitsiyasini aniqlash.
2. Ishtirokchilarning so'z harakatlari nimalardan iboratligi va ularning maqsadi nimaligini belgilash. Shu so'z harakatlarini bajarishni o'rgatish.
3. Muallifning personajlar maqsadiga munosabati qanday? Personaj va muallifning so'z harakatlarini bajarishga harakat qilish.
4. Obrazlarni yorqin yoritishga yordam beradigan fonetik birikmalarni topish.
5. Masalda qanday ritmik o'zgarishlar bor va ularning ahamiyati qanday?

Yakka darslarda ishni masalni qayta-qayta o'qishdan boshlagan ma'qul. Birinchi navbatda, talaba o'qishga qanday tayyorgarlik ko'rganiga diqqatimizni qaratamiz, qanday holatni egalladi, yuz ifodasi qanday?

Ijrochiga yordam beramiz. Birinchi o'qishning ijobiy tomonlarini aytib o'tib, masalni yana bir bor o'qishga davom etamiz. Boshidan ijrochini auditoriya oldida turib o'qishga ko'niktirishimiz kerak.

Talaba ijro boshidan tomoshabin – eshituvchilar bilan bevosita muloqot o‘rnatishi juda muhim. Birinchi ibora mantiqiy jihatdan aniq ifoda qilingan bo‘lishi kerak. Vaziyatni ifodalovchi so‘zlarni aniqlash kerak. Agar masalning sarlavhasida personajlar nomi ko‘rsatilgan bo‘lmasa, unda har birining nomini ta’kidlash kerak. Eng qiyini – bu personajlar dialogi. Birinchi navbatda talabaning personaj so‘zi harakatlarini bajarishiga e’tibor qaratiladi. Masalan, «Qarg‘a va tulki» masalida tulkining asosiy maqsadi nima? U qarg‘adan pishloqni olib qochmoqchi. Tulki qarg‘ani yaxshi ekanligiga ishonitirmoqchi. Nima uchun? Qarg‘a pishloqni unutib, uni tushirib yuborishi uchun. Bu esa qarg‘a tumshug‘ini ochib «qag‘» desagina sodir bo‘ladi. Lekin darrov tumshuq to‘g‘risida gapirish mumkin emas, chunki u yolg‘on ekanligini fahmlaydi. Mana beso‘naqay qarg‘a daraxtda o‘tiribdi. Siz esa uning chiroyini maqtashingiz kerak. Maqtang, uni shunday maqtash kerakki, uning zo‘rligini tomoshabin bilishi kerak. Ayyor tulki obrazini yorqin ifodalash uchun masalning ritmik o‘ziga xosligini ham hisobga olish kerak bo‘ladi.

Har bir talaba masal ustida ish olib borar ekan, avvalo, ushbu masal hozirgi davr talabiga javob bera oladimi yoki yo‘qmi degan savolga javob berishi lozim. Masal obrazlari xarakterini to‘liq va mukammal yoritish har bir tanlangan masal mohiyati ijrochi tomonidan batafsil, ya’ni ijrochilik mezonlari asosida aniq ochib berilishi lozim. Buning uchun asarning mazmunini yaxshi bilish, uning mavzusini aniqlash kerak bo‘ladi. **Mavzu** deb, muallif tomonidan tanlab olingan va o‘ziga xos yo‘l bilan yoritilgan hayotiy materialga aytiladi. Masalni tahlil qilishda oliy maqsad ham aniqlab olinadi. Ijrochining ana shu masalni tomoshabinga yetkazib berishda o‘z oldiga qo‘ygan asosiy fikri va niyati **«oliy maqsad»** deyiladi.

Masalni tahlil etishda uning mavzusi, g‘oyasi va oliy maqsadini aniqlab olgandan so‘ng, talabaning ijrochilik vazifalari belgilanishi lozim. Ijrochilik vazifalarini belgilagandan keyin obrazlarga tavsif beriladi va bundan talaba ish jarayonida foydalanishi taqozo etiladi.

Xira pashsha

1. *Ta'riflash .* Tuhmatning umrini deydilar qisqa,
Qiziq bir voqea misoldir bunga.
Gulzorlar boshlig'i tilla Qo'ng'izga
Bir pashsha ingillab vaysaydi shunday:
2. *Ig'vo qilishni boshlaydi.* Kattakon gulzorga brigadir Bulbul,
Gullar qovjiragan, ahvoli chatoq.
Ish nima, bilmaydi, sayraydi nuqul,
Ninachi bilan u apog'u chapoq.
3. *Afsus bilan ishonish, hayron bo'lish.* Tilla Qo'ng'iz: — Tavba! — debdi g'ijjib, —
«Ishonmagin do'stinga» bo'pti-da, attang!
4. *O'z g'iybatiga o'zi ham ishon-gan pashsha ig'vosining davomi.* — Har kimga chaqadi sizni, qo'pol deb,
Boshliq bo'lmoq payida yurar u satang! —
Yana ko'p gaplarni aytdi ming'illab,
So'ng Pashsha suyunib qaytdi ortiga.
Oradan uch-to'rt kun o'tgach, payt poylab,
Tilla Qo'ng'iz bordi Bulbul yoniga.
Qarasa, hamma ish saranjom juda,
Gullar barq urardi sochib atrini.

Pashsha ko'ra olmay Bulbulni sira,
Ignadan fil yasab yozibdi uni...
Katta yig'in bo'ldi gulzorda shu kun,
Ig'vogar Pashsha ham o'tirar mag'rur.
5. *Ta'riflash.* Barcha kirdikori ochilgach bugun,
Tavba qildi, pashsha so'rardi uzr.
Buzildi hammaning qancha asabi,
Qo'zg'aldi barchaning qahru g'azabi:

– Ha, bu tekinxo‘rni quvgandik ishdan,
Tinchimaydi hamon ig‘vo to‘qishdan.
– Talay ishdan qoldik Pashsha, deb axir,
Gulzordan haydalsin, haydalsin hozir!...
Shunda Pashsha qochdi, lom-mim demasdan.

Mavzu – pashshaning ig‘vosi.

G‘oya – birovga qilsang nohaq g‘iybat, uyatga qolasan albat.

Oliy maqsad – o‘z umring uzaysin desang, tuhmat qilma,
o‘ylamay netmay.

Foydalanish uchun masallar ro‘yxati

1. Y.Qurbon. «Bo‘ri va eshak», «Yuvosh musicha», «Lol bo‘lgan tulki», «Maymun bilan mushuk».
2. O‘.Saidov, N.Ostonov. «Shikoyatchilar».
3. M.Xudoyqulov. «Tulki va tipratikan».
4. Shuhrat. «Tulki va quyon».
5. S.Mixalkov. «Ayyor sichqon», «Ikki dugona».
6. Haqnazar. «Ho‘kiz va chittak», «Fil va ko‘ppak».
7. I.A.Krilov. «Qurbaqa va ho‘kiz», «It bilan ot», «Pashsha bilan bolari».
8. S.Abduqahhor. «Bulbul bilan qurbaqa», «Yupqa va qalin», «Taka bilan echki», «Kalamush bilan sichqon».

QO‘SHIQ HAQIDA

«Qo‘shiq» atamasining lug‘aviy asosi so‘z bilan kuyning o‘zaro birlashishi, qo‘shilishi (boshqacha qilib aytganda, umuman ovoz bilan kuylash)ni anglatsa, tor ma‘nosi – qo‘sh qofiya bilan boshlanuvchi, ya‘ni dastlabki misralari qofiyadosh bo‘lgan muayyan aytim turini ifodalaydi.

Qo‘shiq bandi odatda to‘rt she‘riy misra va ularni kuylashga asos bo‘lgan nisbatan tugal kuy-ohang tuzilmalarining birikmasidan

iborat bo‘ladi. Bunda qo‘shiqning qofiyadosh misralar bilan boshlanish xususiyati kuy-ohanglarda o‘ziga xos tarzda aks etadi.

She‘r va kuyning o‘zaro hamohanglikdagi uyg‘unlashuvidan hosil bo‘lgan badiiy musiqa asariga **qo‘shiq** deyiladi.

Ashula — lirik (ishqiy, didaktik yoxud ijtimoiy mazmundagi) cho‘ziq kuyli asar bo‘lib, o‘z diapazonining kengligi, ohang rivojining batafsilligi va sinkopali usul tuzilishining unda seroblighi bilan xarakterlanadi, ya‘ni ashulaning eng oddiy, xalqchil misollari qo‘shiq janriga biroz yaqin bo‘ladi. Ammo ashulaning sof musiqiy ko‘lami qo‘shiqqa nisbatan ancha keng bo‘ladi. Shu bois, ashulada musiqiy matnning rivojlanishi ham davomliroq bo‘lib, avji borligi bilan sezilarli darajada farq qiladi. Bunday toifadagi asl namunalarda sa‘atkorlar orasida ko‘proq «xalq ashula»si deb yuritiladi.

Katta ashula — o‘z kuyining juda rivojlanganligi, diapazonining kengligi (uch oktavagacha), ohang rivojining ko‘lamligiga qaramasdan kuy asosining rechitativsimonligi hamda metro-ritmik erkinligi bilan ajralib turadi. Ijro etilishi ham o‘ziga xos uslubda bo‘lib, ikki va undan ortiq hamnafas, ya‘ni doimo birga yurishadigan mutaxassis ashulachilar kichik ansamblining ma‘lum tartibda birin-ketin va birgalashib aytishlaridan iboratki, bunda xalq kasbiy ijrochiligida qabul qilingan uslubdan chetlashmaslikka harakat qilinadi. Katta ashula janrining musiqiy qonuniyatlari, uslubiy ko‘rsatkichlari hamda ijrochilik me‘yorlari ashulaga nisbatan o‘zgaradi. Katta ashula o‘zbek bastakorlik ijodiyotining noyob va benazir mahsullaridan biridir. U kasbiy, ustozona musiqiy merosimiz tizimiga mansub bo‘lib, asosan, Farg‘ona vodiysi — Toshkent mahalliy uslubining yorqin va benazir belgilarini o‘zida mujassamlashtirganligi bilan xarakterlanadi. Katta ashulada qamrab olinuvchi tovushlar ko‘lami nihoyatda keng. Uning musiqiy tili usulsiz, ya‘ni badihago‘yligi, ichki tuzilishi murakkabligi, ijro etish ruzumlari esa tanholigi bilan ajralib turadi.

Katta ashulachilar odatda bir qo‘lida likobchani ushlagan holda goh navbatma-navbat, gohida esa birgalikda baland pardalarga intilib, kuchli va ta‘sirchan xonish qilishadi. Asarning she‘riy matni sifatida o‘zbek mumtoz shoirlarining ishqiy, falsafiy, lirik, nasihat-omuz, ba‘zida esa diniy-falsafiy mazmundagi g‘azallari qo‘llaniladi.

Shuni ham aytish joizki, XX asr mobaynida bir qator hozirgi zamon o'zbek shoirlarining turli mazmundagi she'rlarini ham katta ashulaga jalb qilish amaliyoti paydo bo'ldi. Maqomda bo'lgani kabi, katta ashulada ham hofizlikning ustoz-shogirdlik an'anasi yetakchilik qiladi. Uning ko'plab ajoyib mumtoz namunalari hofiz-san'atkorlar ijrochiligi orqali bizgacha yetib kelgan. Bu musiqiy-badiiy merosning XX asrning ikkinchi yarmida bastakor-hofizlar tomonidan qayta ishlangan, bir qancha katta ashulalarning ovoz, biror cholg'u yoxud ansambl jo'rliigi uchun moslashtirilgan, shuningdek, katta ovozga ega ayrim ayol san'atkorlar repertuarida qayd etilgan namunalari ham bor. Mamlakatimizning bir necha avlod bastakorlari o'z ijodiy ishlarida katta ashulaning noyob musiqali vositalari, hamda nodir ijro xususiyatlaridan foydalanib yangidan-yangi ashula va cholg'u asarlari yaratishgan.

Ommaviy tadbirning umumiy dasturi uchun tanlab olingan xalq musiqiy merosi bo'lmish mumtoz asarlar, ya'ni maqomlardan olinadigan kuy va qo'shiqlar bayram dasturlarining shubhasiz gultoji bo'lishi mumkin. Ming yillik tarixga ega bo'lgan maqomlardan tanlangan parchalar bayram dasturlarining yuragiga aylangan. Uning jonli ijrosi esa tomoshabin qalbini junbushga solib, katta ahamiyatga ega bo'lgan asardek taassurot qoldiradi.



TASVIRIY SHE'R, MASAL VA QO'SHIQ HAQIDA

Mustaqillik tufayli jamiyatimizdagi tarixiy jarayon tadrijiy rivojining izchilligi shaxs ijodiy imkoniyatlarini faollashtirishning dolzarb muammolarini kun tartibiga qo'ymoqda. Mustaqillik sharoitidagi yangi tafakkurning umuminsoniy darajasi milliy istiqlol mafkurasini yaratish, jamiyatdagi haqiqiy vaziyatni anglash, shaxs muammosiga alohida e'tibor berish, inson ijtimoiy faoliyatini rivojlantirishni taqozo etadi.

Madaniy bo'sh vaqt insoniyat faoliyati amaliyotida, shaxsning ijodiy imkoniyatlarini erkin namoyon qilishda ommaviy bayramlar

an'analari sezilarli rol o'ynaydi. Bayramlar umumiy tuzilishi va ijodiy o'zgaruvchanlik xususiyatiga asoslangan holda shaxsning ijodiy, ma'naviy imkoniyatlarini jamuljam qilib to'plash imkonini beradigan madaniy dam olish tadbiridir, deya xulosa chiqarsa bo'ladi.

Bayram ijodiy muloqotining tashabbuskorlikka moyilligi shaxsning ijtimoiy-madaniy imkoniyatlarini to'la namoyon qilishi uchun zarur shart-sharoitlarni yaratadi. Shuning uchun ham dam olishning ommaviy bayram shakllarida so'z san'atidan samarali foydalanish shaxs va jamiyat ma'naviy sog'lomligining asosiy omili hisoblanadi. Ma'naviy sog'lomlik esa eng oliyanob, odil va xolis milliy mafkuraning tayanchi sanaladi. Zero milliy istiqlolni mustahkamlashda ommaviy bayramlar kabi tadbirlar benihoya muhim amaliy ahamiyatga ega. Ayniqsa, keyingi yillarda ommaviy bayram va tomoshalarda tasviriy she'r, tasviriy qo'shiq, tasviriy masal, tasviriy g'azal kabi janrlar keng ommalashib borayaptiki, bularning har biri mutaxassis-rejissor va so'z san'ati mutaxassisidan yuksak mahorat talab etadi. Vaqt o'tgani sayin, izlangan sayin ijodkor mutaxassislarning ish jarayonlarida original ssenariy va lavhalar vujudga keladi.

Tabiiyki, tasviriy she'r, tasviriy masal, tasviriy qo'shiq tushunchalarini birinchi bor eshitayotgan talaba hayron bo'lishi o'rinli, albatta. Chunki bu uchta janrga oid matnlarni o'qigan bo'lsa-da, uning bayoni, tasviri, ya'ni uning harakati (ichki va tashqi harakatning umumiy uyg'unligi) haqida hech qanday ma'lumotga ega bo'lmasligi mumkin.

Bu esa, o'z navbatida, tegishli kafedra mutaxassislari va talabalari oldiga katta mas'uliyat yuklaydi. Ayniqsa, kelajagi buyuk mustaqil O'zbekistonning bayramlari, shodlik va tantanali kunlari quruq mafkurabozlik va oddiy konsert dasturlaridan xoli bo'lib, o'zining tabiiyligi, xalqchilligi va tomoshaviyligi bilan dam oluvchiga zavq-shavq hamda ma'naviy oziqa berishi kerak. Turli ko'rinishlar va san'at janrlari sintezining hosilasi — ommaviy bayramlar ssenariysida ishtirok etuvchi ijrochilarning asosiy e'tiborini so'z san'atining muhim qismi bo'lgan talaffuz va mazmunga qaratmog'i lozimdir.

Ommaviy tomoshalarda alohida sahnalar, ko'zga ko'rinarli qo'shiqlar, she'rilar, odatda ko'pchilik bo'lib ijro etiladigan harakat chizmalari va mizanssenalar ijro etiladi. Nutq ham bir qator o'zgaruvchan harakat tasviri bilan ijro etilib, ular xalqning turmush tarzi, mehnat jarayoni, jangovar harakatlar va ramziy obrazlar talqin qilinadi. Ko'z bilan ko'rish sahnada bo'layotgan voqealarni tushunishni osonlashtiradi, ssenariy mohiyatining hissiy-psixologik ta'sirini kuchatiradi va nutq harakatlari jismoniy harakatlar bilan to'ldiriladi.

Ommaviy sahna uchun odatiy bo'lgan jismoniy harakatlar va ularni bajarishdagi ma'lum shart-sharoitlar, avvalo nutqning harakatlar tizimi bilan mohirona birikishini taqozo etadi.

Kundalik hayotda odam erkin, oson, o'ylab o'tirmagan holda nutq va harakatlarni birga qo'llaydi, ularning mutunosibligi beixtiyor holda tabiiy chiqadi. Sahnada esa ma'lum qiyinchiliklarni tug'diradi, chunki harakatlar rejissor tomonidan belgilab beriladi va ularni nutqiy jarayonga muvofiqlashtirib, o'zlashtirish kerak. Murakkab ruhiy-jismoniy harakatlar birligidan iborat sahnaviy tizim buzilmasligi uchun ijrochilar diqqat-e'tiborini, ya'ni ixtiyoriy diqqatini kuchaytirishlari zarur.

Shuning uchun ko'pchilik qatnashadigan lavhalarni sahnalashtirishda ularning harakat tartibini ishlab chiqayotgan paytda ilgari ishlanmagan, ya'ni o'zlashtirilmagan yangi matnni tanlashga to'g'ri kelinmaydi. Aks holda nutq berilgan harakatlarning ritmiga bo'ysuna boshlaydi, ayniqsa, ular marsh usulida bo'lsa nutqda fikrning mantiqiy ohangi yo'qoladi (so'zlarni bo'lib aytish, mantiqni buzish frazalarning axborot urg'ularini o'rnidan siljitadi) va so'zning selmantik kuchi yo'qoladi.

Bundan quyidagi talablar kelib chiqadi:

1. Epizod, sahnalashtirilgan qo'shiq va she'riy ijroning ilk yaratilishi bosqichida ham nutq, ham harakatlar ustida parallel ish olib borish; ayrim ijrochilar hamda nutqiy xorning harakatini ishlab chiqib, tana harakatlari tartibi asosida mizanssenalar va haykal guruhlarini tuzish kerak. Keyin yana so'zga, so'ng yana harakatga qaytish va nihoyat, hammasini umumlashtirish lozim.

2. Ijrochilar nutqni quruq yodlab, asosan birgalikdagi jismoniy harakatlarga e'tibor berib so'zlashlari jiddiy xatodir. Bu ijro quruqligini yo'qotish va, hatto, marsh yoki marsh usulidagi musiqa ritmida ham so'z orqali harakat berish uchun rejissor va ijrochilar zo'r berib ishlashlari kerak.

3. Shuni tushunish muhimki, kundalik hayotda faqat ma'lum vaziyatlardagina nutq va harakat aniq mos tushib, ritmlari bir-biriga to'g'ri keladi (bolalar o'yinidagi ketayotgan poyezd, ot yugurishi, o'q otish va h.k., shuningdek, umumiy harakat ritmiga bo'ysunishni talab qiluvchi biror ish bajarishi — marsh yoki qo'shiq sadolari ostida safda yurish kabilar).

4. Nutq va harakat ritmi mos tushishi, sahna davomida o'zgarishi yoki mos tushmasligi mumkin. Shuning uchun ijrochi umumiy sahna harakatida nutq (qo'shiq) va tana harakatlarini bir xil va o'zgaruvchan temp-ritmlarda birlashtira olishi kerak.

Ijrochilar faqat musiqa yoki nutqqa qo'shimcha harakatlar ritmida so'zlashga o'rganmasligi uchun quyidagi mashqlarni bajarishi kerak: berilgan harakatni sekin bajarib, matnni tez o'qish, aksincha, harakatni tez ijro etib, matnni ataylab sekin o'qish.

Jismoniy harakatlar paytida fikrning ohang tartibini hisobga olib, so'zlarni yorqinroq va bo'rttirib ko'rsatish kerak.

Ommaviy tomoshaning barcha tarkibiy qismlari nutq harakati bilan birlashib asosiy fikr va bosh g'oyani ochishga yordam berishi uchun quyidagilar zarur:

– jismoniy harakatlar masofasini nutq yangragan paytda kamaytirib, tugaganda yoki tinish paytida uni yana oshirish;

– harakatlar masofasi oshirilganda nutq yangrashining kuchi va qamrovini oshirish;

– faol harakatlar qo'shilgan nutq paytida undoshlar talaffuzini pasaytirmaslik;

– ovoz ohangini harakat kuchayganda o'ta oshirmaslik, ko'k-rak rezanatorini ishlatmay qo'yimaslik, nutq xorida nutq kuchli yangragan holda chiroyli eshivilishi uchun past ovozlarni kuchaytirish zarurligini esda tutish;

– mushak kuchanishi talab qilingan jismoniy harakatlar paytida ovozning chiroyli ohangini yo'qotmaslik;

– rejissor ijrochilar uchun belgilangan har qanday qiyin holatlarda (masalan, yerda sudralib borayotib baralla gapirish) ovoz erkin chiqishi kerak;

– faol jismoniy harakatlardan soʻng yoki ularning paytida hansiramay gapirish.

Harakat paytida nutq soʻzlash malakalarini egallash uchun sahna harakatining qiyin sharoitlarida ijrochilar nutqiy erkinligini saqlab qolishga qaratilgan nutq-harakat moslashuvi hosil qilinadi. Buning uchun maxsus ishlab chiqilgan ovoz-nutq mashqlari ustida muntazam ish olib borish kerak.

Tasviriy sheʼr

Sobiq Abdulla Qodiriy nomidagi Toshkent davlat madaniyat instituti «Ommaviy bayramlar rejissurasi» ixtisosligi talabalari tomonidan (kurs rahbari H.Mirpoʻlatov, sahna nutqi pedagogi A.Nosirova) sahnalashtirilgan xalq shoiri Shukrulloning «Mardlik va vafo» sheʼriy dostoni asosidagi tasviriy sheʼr ssenariysini namuna sifatida tavsiya etamiz.

Shukrullo

Mardlik va vafo

(Tasviriy sheʼr)

(Sahna oʻrtasida taxt. Ikki chekkasida kursilar. Pardaning chekkalarida esa 2 ta boshlovchi joylashgan. Ud yoki satoda chalingan musiqa beriladi. Musiqa sekinlashib, boshlovchilar soʻzga kiradi.)

1-boshlovchi: Bir bor ekan, ham yoʻq ekan,
Qadim-qadim zamonda,
Qoʻsh kokildek Amudaryo
Va Sir oqqan tomonda,
Hamma yoqqa dong taratgan,
Bir sulton oʻtgan ekan.

(Sheʼr oʻqilayotgan vaqtda sahnaga sulton chiqib keladi va taxtga oʻtiradi. Sharqona ohangdagi qoʻshiq yangraydi).

2-boshlovchi: Bu Sultonning bisotida
Bor ekan yolg'iz qizi.
Go'zalligu donolikda
Tanho ekan bir o'zi.

(Sahnaga Malika chiqib keladi.)

Malika: Assalom otajonim,
Suyanchim mehribonim.

Sulton: Va alaykum assalom
Quvonchim dono bolam.

(Sulton o'rnidan turib qiziga qarab xayol suradi).

1-boshlovchi: Sulton qancha o'g'il ko'rdi,
O'g'illari turmadi.
Qariganda uylandi ham,
Ammo farzand ko'rmadi.
Bir oyog'i to'rda bo'lsa,
Bir oyoq edi go'rda.

Sulton: Shuncha davlat toju-taxt
Qoladi qaysi qo'lda?..
Bu davlatlar kimga qolar?
Boshqaradi elni kim?
Arzigulik bir merosxo'r
Axir kuyovku lozim!..

(Malika chiqib ketadi).

2-boshlovchi: Keksa Sulton ko'p o'ylandi,
Kecha-kunduz fikr etdi,
Mulozimlar, vaziriga
O'z niyatini zikr etdi.

(Sulton o'rnidan turib chapak chaladi. Sahnaga mulozimlar,
vazir kirib keladi).

Sulton: So‘zimni tinglangiz ulamo ahli,
Bir kun qazo yetsa men ham o‘tarman,
Yurtning tinchligini, boylig-u taxtni
Men kimga ishonib tashlab ketarman.
Bilarsiz, o‘g‘lim yo‘q oydek qizim bor,
Ta‘rifin so‘zlashim sizga darkormi?
Bir kuyov ko‘rsating jasur, vafodor
Saltanatda unga loyiq yor bormi?

1-boshlovchi: Yig‘ilganlar odob bilan
Shohga qildi tavoze,
Kuyov tanlash necha kunlar
O‘rtada bo‘ldi mavzu.

(Birin-ketin mulozimlar o‘z o‘g‘illarini maqtashga tushib ketadilar).

Sarkarda: Mening bir o‘g‘lim bor jasur, shiddatkor,
Kun kelib lashkarga bo‘lg‘usi sardor,
Sizga mos kuyov u, malikaga yor.

Vazir: Sultonim, bir qoshiq qonimdan keching,
Sizga ko‘rsatayin munosib farzand.
Mening o‘g‘lim qobil, barnoligi chin...

Sarkarda: Lekin lattaligi bermasmikan pand!

Bek: Sultonim yo‘l bering so‘zlayin men ham,
O‘g‘lim bor hunarli siz bir ko‘rsangiz,
Har jihatdan xudo yaratgan bekam.

Vazir, sarkarda: Biroz husni bo‘lsa mos edi shaksiz.

2-boshlovchi: Hammasining so‘zin tinglab,
Sulton tiklar qaddini,
Bilib oldi jim o‘tirgan
Mulozimlar dardini,
Sulton birdan chapak chaldi
O‘tirganlar jim bo‘ldi.

(Sulton shaxt bilan o'rnidan turadi).

Sulton: Ertagayoq yalpi yigit –
Shudir sultonlik hukmim.
Har yigit qiz oldida
O'zligini ko'rsatsin,
Ilmu-hunar ishqda qat'iy
So'zligini ko'rsatsin.

(Karnay-surnay, nog'oralari tovushi. Olomon tovushi. Taxt olinib, bozor sahnasi quriladi. Jarchilar chiqib jar aytadilar. G'ala-g'ovur).

Jarchi: Odamlar-u, odamlar
Eshitmadim demanglar,
Sultonning yolg'iz qizi,
Saltanatning yulduzi,
O'ziga yor izlaydi, ham
Merosxo'r izlaydi.

1-boshlovchi: Birdaniga g'ala-g'ovur
To'xtadi bozor-o'char...
Sulton qizi kirib keldi
Usti boshi oltin zar.

(Sulton ko'rikni boshlashga ruxsat beradi).

2-boshlovchi: Sarkardaning qo'rqmas o'g'li,
O'rtaqa chiqdi avval.

Sarkarda o'g'li: Chavandozman, botirman,
Har narsaga qodirman.
Ro'paramga kelsa yov
Tazirin bergum darrov.

(Olmomon g'ala-g'ovur qiladi. O'rtaqa cho'loq chiqadi).

Cho'loq: Bu bezori, malikam,
Bilmam qaysi jin urgan.
Yomonlik qilmasam ham
Oyog'imni sindirgan.

Ko'zi shishgan: Ha, bu rostdir, malikam,
U noloyiq yor sizga.
Ko'r ayladi meni ham
Zolim kerakmas bizga.

(Malika g'azablanib o'rnidan turib ketadi).

Malika: Ha, xaloyiq, bu yigitning
Qilichi qilni yorar,
Ko'kda uchgan mezonni ham
Kamonda ura olar,
Lekin buning qo'rqmasligi
Qahri bor-u, rahmi yo'q.
Bunday yigit menga yor-u
Taxtga bo'lolmas loyiq.

(Atrofdagi xaloyiq malikaga tahsin aytadi).

1-boshlovchi: Ko'p o'tmasdan odob bilan
Ko'ksida ikki qo'li.
O'rtalikka chiqib keldi
Vazirning qobil o'g'li.
Salom berib bosh eggancha
Uzoq yerga tikildi,
Va Sultonning oyog'iga
Boshin urib yiqildi.

Vazir o'g'li: Qulingizman, ne aytsangiz
Shuni qilaman bajo.
Bir niyatim malika-yu,
Ham sizga qul bo'lishdir.
Tiril desa tirilish-u,
O'lgin desa o'lishdir.

(Shoh ko'zida yosh bilan vazir o'g'lini boshini silaydi. Malika qovoq uyib).

Malika: Axir menga to'tiqushmas,
Aqli raso yor kerak.

El dardini fahm etgan
Dono hukmdor kerak.
Oq-qorani fahm etmas,
Yigit uchun bo'yin egish,
Husnning o'zi yetsam...

(Xaloyiq gurra kulgi ko'taradi. Maydonga ustida odmi choponli, oddiy pahlavon kirib keladi. Hech kimga ta'zim qilmaydi).

Sulton: Xo'sh, sen kimsan, hunaring nima?

(Uning bu turishi Malikaga ma'qul keladi).

Pahlavon: Men bir mehnatkash odam,
Ishda kuchga to'lganman.
Shahzoda bo'lmasam ham
Sizga oshiq bo'lganman.

(Pahlavon keyin qo'ynidan nay olib chala boshlaydi. Buni ko'rib vazirning jahli chiqib ketadi va o'rnidan turib):

Vazir: Shohimizga naychi emas,
Kuyov kerak-ku axir!

(Shu vaqt to'tiqush paydo bo'lib tilga kiradi).

To'tiqush: Malikani kimki sevsam,
Muhabbati sinalsin.
Shu niyatda sevgan bo'lsa,
Shu niyati sinalsin...

(Shu payt chaqmoq chaqib, gumburlagan ovoz chiqib, shamol bo'lib, bo'ron boshlanadi. Qora qushlar paydo bo'ladi, olomonga hujum boshlaydi. Hamma tum-taraqay qocha boshlaydi. Kuyovlar ham qocha boshlaydi. Faqat pahlavon sarosimaga tushmaydi. Malikani saqlash uchun himoya qila boshlaydi. Qora qushlarni kamon bilan urib qulatadi).

Sulton: Tinglang farmoni oliy,
Hammaga yetkazilsin!

Yurtimizda chiroyli
Katta to'y o'tkazilsin.
Biz izlagan merosxo'r,
Topilgani begumon.
Malikaga kuyovdir
Shu bahodir pahlavon.

(Karnay-surnay avjga chiqadi. Pahlavon malika-yu toj-taxtga ega bo'ladi).

1-boshlovchi: El yig'ilib karnay-surnay
Qaytadan chiqdi avjga,
Cho'pon yigit ega bo'ldi
Malika-yu toj-taxtga!

2-boshlovchi: O'sha kuni el og'zida
Shodlik bo'ldi, kuy bo'ldi.
Yetti kecha, yetti kunduz
Xursandchilik to'y bo'ldi.

Tasviriy she'r janrida foydalanish mumkin bo'lgan she'rlar ro'yxati

1. Tilak Jo'ra, Azim Suyun, Abdusaid Ko'chimov, To'ra Mirzo, Muhtarama Ulug'ova, Mukarrama Murod qizi, Qutlibeka, Sa'dulla Hakim, Sharifa Salimova, Abduvali Qutbiddin («Mustaqillik qasidasi»).

2. O'.Umarbekov. «Muhabbat qo'shig'i».
3. S.Abdughahhor. «Uyda bo'ling», «Qilmish qidirmish».
4. M.Yusuf. «Vatanim».
5. E.Vohidov. «Tushlik tanaffus», «Donishqishloq latifalari», «Ruhlar isyoni», «Fidoiylik to'g'risida rivoyat».
6. M.Ulug'ova. «Kamzul hangomasi».
7. M.Toir. «Oshiq ohi».
8. A.Oripov. «Sharq hikoyasi».
9. S.Akbary. «Girdob».

Tasviriy masal

Tasviriy masal ham xuddi tasviriy she'r yoki tasviriy qo'shiq kabi (uning bayoni, ya'ni ichki va tashqi harakati uyg'unligi) rejissor mahorati tufayli tomoshaviyligi ortishi va ta'sirli yangi bir sahna asariga aylanishi mumkin.

Talaba-rejissorlar masalchi shoirlarning asarlari asosida tasviriy masal ssenariylarini yozish, tahlil qilish, ijrochi sifatida obrazlarga tavsif berish, voqealarni mantiqan bir-biriga bog'lash asosida masal-larning kompozitsion tuzilishigacha pedagoglari rahnamoligida talaba-ijrochilarning ijodiy ish jarayonlarini kuzatib boradilar. Natijada talaba-rejissorlar bir qator tasviriy masal ssenariylarini yozish sirlarini o'zlashtirish bilan birgalikda sahnalashtirish mahoratini ham o'rganadilar. Shunday tasviriy masal namunalaridan birini keltiramiz.

*Jahongir Mamatqosimov
inssenirovkasi*

Hayot maktabi

*(S.Abduqahhorning «Qunduzoy bilan Bo'rsiqboy» masali
asosida tasviriy masal)*

(Sahnada o'rmon tasvirlangan bo'lib, sahnaning bir chetida yog'och uy tasvirlangan. Parda yopiq holatda. Fondan musiqa ohangdorligida quyidagi she'r o'qiladi.)

Tanqidni doriga qilurlar qiyos,
Ikkisi ham achchiq o'xshashligi rost.
To'g'ri achchiq dori tuzatsa kasal,
Nuqsonga o't ochar hajv ila masal.

(Musiqa balandlashib, qo'ng'iroq ovozigina ulanib ketadi. Keyin maktab direktorining tantanali tabrik so'zlari yangraydi.)

— Hurmatli qurilish maktabining bu yilgi bitiruvchilari, barchangizni maktabni a'lo baholar bilan bitirganligingiz, hayot maktabiga yo'l olayotganligingiz bilan tabriklayman. Mustaqil ish faoliyatingizda omadlar tilayman. Marhamat, yetuklik diplomini qabul

qilib oling. Qunduzxon Chiroyova (qarsak), Qunduzbek Momiq-bekov (qarsak), Quyonvoy Mo'ynaqulov (qarsak), Olmaxon Po'stinqulov (qarsak), Bo'rsiqvoy Lazzatov (qarsak), Bulbulxon Yoqimliyeva (qarsak), Tulkixon Olibqochdiyeva (qarsak), Bo'rivoy To'nkaboyev (qarsak), Qarg'axon Shaqilladiyeva (qarsak), Ayiqjon Polvonov (qarsak), Eshakvoy Hangirayev (qarsak). Aziz bitiruvchilar, barchangizga oq yo'! (Xursandchilik ovozlari, gulduros qarsaklar).

(Fondan musiqa berilib barcha bitiruvchilar parda oldiga chiqib kelishadi. Bir-biriga diplomini ko'rsatishib sekin sahna orqasiga kirib ketishadi. Parda olidida faqat Qunduzxon va Qunduzbek qolishadi.)

Qunduzbek: — Mana, Qunduzxon, qurilish maktabini ham bitirdik, endi birga bo'lamiz, degan umiddaman.

Qunduzxon: — To'g'ri aytasiz, menga uzoq qishloq joyga ishga yo'llanma beribdi.

Qunduzbek: — Juda yaxshi, bu yo'llanma bizning yanada birga bo'lishimizga yordam beradi. Axir men o'sha qishloqda turaman.

Qunduzxon: — Yaxshiku-ya, lekin...

Qunduzbek: — Nima lekin, nima lekin, Qunduzxon.

Qunduzxon: — Meni oyim qishloqqa ishga yubormaydi, shahardan tashqariga umuman chiqarmaydi. Menimcha biz birga bo'la olmasak kerak.

Qunduzbek: — Nimalar deyapsiz, Qunduzxon, axir o'rtamizdagi muhabbat, sevgi nima bo'ladi?

Qunduzxon: — Bilmadim, Qunduzbek aka, uyog'ini oyimdan so'rang, men ketdim, xayr, meni kechiring.

Qunduzbek: — To'xtang, Qunduzxon, qayoqqa, to'xtang. Eh muhabbat, eh sevgi. Bu dunyoda haqiqiy sevgi bormi o'zi, ha, bor, mana men isbotlayman haqiqiy sevgi borligini, sen uchun oftobda yonish bo'lsa yonaman, muzlikka qotish bo'lsa qotaman, lekin baribir senga erishaman. To'xtang, Qunduzxon, to'xtang, to'xtang. (Chiqib ketadi).

(Parda ochiladi. Sahnada ona Qunduz va qo'shni Yumronqoziq xola gaplashib o'tiribdi.)

Ona Qunduz: — O‘ziyam qizim bugun diplom oladi, eng muhimi, diplomga qo‘shib ishga yo‘llanma ham berarmish.

Yumronqoziq: — Rostdanmi, mening o‘g‘lim ham diplom oldi, lekin ishga yo‘llanma berishmadi.

Ona Qunduz: — Endi yo‘llanmani ham har kimga beravermas ekan, faqat yaxshi o‘qiganlarga berar ekan.

Yumronqoziq: — Mening o‘g‘lim ham beshga o‘qigan.

Ona Qunduz: — Gap o‘qishda emas uqishda, Yumronqoziq xola.

Yumronqoziq: — Menga qarang, qo‘shni, bu qizingizni erga berish niyatingiz yo‘qmi, mening ham suqsurday o‘g‘lim bor...

Ona Qunduz: — Erga berish niyatim yo‘q, hali yosh bo‘lsa, ishlasin, keyin-chi erga bersam ham, tagli-tugli, boy-badavlat xonadonga uzataman. Bildingizmi?!

Yumronqoziq: — Ha, tushunarli. Mayli, men boray.

Ona Qunduz: — Voy, qayoqqa qo‘shni, hozir qizim keladi, diplom olib keladi.

Yumronqoziq: — Mayli, keyin chiqarman. Yaxshi qoling (chiqib ketadi).

Ona Qunduz: — Tavba, indamasa, bu qo‘shni mening qizimni kelin qilmoqchi, ko‘rpangga qarab oyoq uzat, Yumronqoziq. (Sahnaga yuguranicha Qunduzxon kirib keladi.)

Qunduzxon: — Oyi, oyijon!

Ona Qunduz: — Voy qizim, keldingmi, qani, diplom oldingmi? Voy imtiyozli diplommi qizim, o‘zim aylanay. Menga qara, ishga yo‘llanma berishmadimi?

Qunduzxon: — Berishdi, faqat uzoq qishloq joyga ekan.

Ona Qunduz: — Nima, qishloq joyga, kelib-kelib qishloqda ishlaysanmi, yakka-yu yolg‘iz qizim bo‘lsang, men seni uzoq joyga ishga yuboramanmi. Men seni shu maqsadda o‘qitdimmi?!

Qunduzxon: — Ishlamasam bo‘lmaydi, oyi.

Ona Qunduz: — Menga qara, men seni to‘rt yil kontrakt to‘lab o‘qitib, endi ketmon chopishga yuboramanmi? Ishlamaysan.

Qunduzxon: — Unda nima qilaman, oyi?

Ona Qunduz: — Nima qilarding, erga tegasan.

Qunduzxon: — Erga tegaman. Kimga?

Ona Qunduz: — Bu yog‘ini menga qo‘yib ber. Bor-boraver, damingni ol (Qunduzxon chiqib ketadi). Nima qilsam, nima qilsam, qizimni erga bermasam bo‘lmaydi, lekin kimga beraman. Hozir qo‘shni Yumronqoziq o‘g‘lidan gap ochgan edi, kambag‘al bo‘lsa ham mayli, shuning o‘g‘liga erga berib yuboraman. Voy, ana o‘g‘li Yumronqoziqqul kelayapti. Hoy, hoy Yumronqoziqqul, beri kel.

Yumronqoziqqul: — Ha ona Qunduz yaxshimisiz.

Ona Qunduz: — Yumronqoziqqul, bir gap aytay senga, Qurilish maktabin bitirdi qizim, Imtiyozli diplom oldi yolg‘izim.

Yumronqoziqqul: — Chindanmi, muncha yaxshi.

Ona Qunduz: — Ha chindan, Mo‘ynasi yaltiroq ko‘zi chiroyli, Nimasini aytay o‘zi chiroyli, Qaniydi unga mos kuyov topilsa, Shu bilan qizimning baxti ochilsa.

Yumronqoziqqul: — Mening ham go‘zalim dunyoda tanho, Hech bir go‘zallardan qolishmas aslo. Usiz bir daqiqa yashay olmasman, Yorim qolib o‘zgaga boqa olmasman.

(Yumronqoziq chiqib ketadi.)

Ona Qunduz: — Mening go‘zalim, gapini qarang, Mening qizim, bilsang oqila juda, Senniki-chi to‘qqizni bitirgan arang, Hatto dimlomi ham yo‘q bo‘lsa unda, Kuyov qilarman deb ko‘zim uchgan yo‘q, O‘rmon hayvonlaridan bo‘ydoqlari ko‘p. Ana muloyim, qo‘ysifat Bo‘rsiq, Qomatlari kelishgan pardayin momiq.

(Sahnaga keksayib qolgan, qo‘lida sanoq cho‘tini ko‘tarib nimalarnidir hisoblab Bo‘rsiq chiqib keladi.)

Bo‘rsiq: — To‘rt karra besh, yigirma, yigirma, Tosh ko‘chadan yugurma, yugurma.

Ona Qunduz: — Hoy Bo‘rsiqvoy, Bo‘rsiqvoy.

Bo'rsiq: – Salom ona Qunduz, qalay ishlaring,
Omon yuribdimi, jigargo'shlaring,
Tashvishli boqasan, nima gap o'zi?

Ona Qunduz: – Yo'q, yo'q, hech gap bo'lganicha yo'q,
Jigarim qizginamdan mening ko'nglim to'q.
Qizginam, yolg'izim tanho olamda,
Baxtli bo'lsin deyman yolg'iz bolamda.
Qurilish maktabin bitirdi qizim,
Imtiyozli diplom oldi yolg'izim.
Endi bir kuyov topay deyman-da,
Qizimning baxtini ko'ray deyman-da.
Xo'p desang, birga yur tanishtirayin,
Ikkingizni, mayli, qovushtirayin.

Bo'rsiq: – To'xta, to'xta, avval qizing menga mos keladimi,
yo'qmi bilayin. Uni sinab ko'rayin. U ishga yaroqli, yo'qmi...

Ona Qunduz: – Yaroqli u yaqinda ishga o'tadi. Qarabsizki
mo'maygina oylik oladi.

Bo'rsiq: – Oylik oladi, qancha oladi?

Ona Qunduz: – Bilmadi-mu, lekin oila tebratishga yetadi.

Bo'rsiq: – Menga qara, qizing bir kunda qancha non yeydi?

Ona Qunduz: – Bir kunda yarimta non yeydi.

Bo'rsiq: – Yarimta, demak (hisoblaydi) bir yilda 182 yarimta non
yeydi. Yaxshi, bunisi to'g'ri keladi. Bitta baliqni necha hafta yeydi?

Ona Qunduz: – Bitta baliqni bir hafta yeydi.

Bo'rsiq: – Yo'q, buyog'i menga to'g'ri kelmadi. Bitta baliqni
ikki hafta yesa bo'lmaydimi.

Ona Qunduz: – Bo'ladi, bo'ladi, ustiga-ustak u baliqni o'zi
tutadi.

Bo'rsiq: – Unday bo'lsa, juda yaxshi. Keyin yana bir narsa,
to'y sizning hovlingizda bo'ladi, hamma sarf-xarajatlarni siz ko'ta-
rasiz, ovqat deysizmi, dasturxonmi, tog'orami, san'atkorlarmi,
hammasi sizning bo'yingizda, keyin to'ydandan keyin yeb-ichishga
ham bir-ikki oyga berib turasiz.

Ona Qunduz: – Nima, nimalar deyapsiz. Axir siz anoyilardan
emassiz-ku. Tagingizda qo'sha-qo'sha mashina bo'lsa. Badavlat
bo'lsangiz.

Bo'rsiq: — Yo'q, bo'lmaydi, bo'lmasa men ketdim.

Ona Qunduz: — To'xtang, to'xtang, men rozi, qizimning baxti uchun men rozi, hamma aytganlaringizni bajaraman.

Bo'rsiq: — Bu boshqa gap. Qani to'y, kunini belgilamaymizmi?

Ona Qunduz: — Yuring belgilaymiz, yuring. Kuyovimdan o'rgilay (chiqib ketishadi).

(Parda yopiladi. Sahnaga Qarg'axon chiqib keladi.)

Qarg'axon: — Qar-qar, shuncha gapni kimga aytsam ekan. Kim bor ekan. Kimgadir aytmam oqshom uyqum kelmaydi. Ha, topdim, Qarg'aoy Qaqildoqovna. Qarg'a Qaqildaqovna, qarg'a-o-o-oy. Chiqa qol. Qarg'aoy.

(Sahnaga Qarg'aoy chiqib keladi. Ikkalasi qanot qoqib ko'rishadi.)

Qarg'aoy: — Ha, dugona, tinchlikmi?

Qarg'axon: — Voy, Qunduz xola bor-ku, Qunduz xola.

Qarg'aoy: — Qaysi Qunduz xola?

Qarg'axon: — E, anovi eski buloqda yashaydigan Qunduz xola, qizi bor. Eshitishimcha yaqinda qurilish maktabini imtiyozli diplom bilan bitirgan emish.

Qarg'aoy: — Nima bo'пти shunga?

Qarg'axon: — Voy o'sha Qunduz xola qizini erga berayotgan emish.

Qarg'aoy: — Nahotki, to'y bo'lar ekan-da, muncha yaxshi, bir o'yin-kulgu qilar ekanmiz.

Qarg'axon: — Shunday bo'lsa yaxshiku-ya, lekin masalaning yana bir nozik tomoni bor.

Qarg'aoy: — Qanaqa nozik tomoni bor? Tez-tez ayt, ichim siqilib ketdi.

Qarg'axon: — O'sha Qunduz xola qizini majburlab erga berayotgan emish.

Qarg'aoy: — Nima, bu nima deganing?

Qarg'axon: — Shuniyam tushunmaysan-a, aytdimku, qizi shaharda qurilish maktabida o'qigan, o'sha o'qib yurgan vaqtida bir yigit bilan sevishib qolibdi.

Qarg'aoy: — Xo'sh, keyinchi?

Qarg'axon: — Nima keyin, keyin birga yurishgan, aylanishgan.

Qarg'aoy: — Keyinchi?

Qarg'axon: — Obdon aylanishgan.

Qarg'aoy: — Keyinchi?

Qarg'axon: — Qarabsizki qizi Qunduzxon (qulog'iga nimalarnidir shivirlaydi).

Qarg'aoy: — Voy sharmanda homilador! Qunduz xola bechora endi nima qiladi. O'rmonda qanday bosh ko'tarib yuradi.

(Shu payt ular oldidan Bulbul o'tib qoladi.)

Qarg'axon: — Hoy Bulbulxon, qayoqqa?

Bulbul: — Qunduz xolanikiga to'yga.

Qarg'aoy: — Menga qara Bulbulxon, beri kel, bir gap eshitdim, shu rostmi?

(Ikki qarg'a uning qulog'iga nimalarnidir shivirlaydi.)

Bulbul: — Nimalar deyapsiz, uyalmaysizmi kekxa boshingiz bilan. Kim aytadi sizga bu bo'lmag'ur gaplarni. Bu bo'lmagan narsa.

Qarg'axon: — Voy, nega bo'lmagan, mana men guvohman.

Bulbul: — Uyat Qarg'axon xola, yaxshisi to'yga boring, o'sha yerda bilasiz (chiqib ketadi).

Qarg'axon: — Nima menga aql o'rgatdimi u, meni yolg'onchilikda aybladimi? Boraman, boraman o'sha to'yga. Men buni o'z holicha qo'ymayman. Bulbul avval o'zini bilsin, birovlarining qo'shig'ini o'ziniki qilib olib, nuqul panogramma qiladi. Hali qarab tur, to'yga borib sharmandangni chiqarmasam, Qarg'axon otimni Zag'chaxon qo'yaman.

Qarg'aoy: — Menga qara, dugona o'zi bu gaplarni qayerdan olasan?

Qarg'axon: — Qayerdan olardim, internetdan olaman, g'iybat saytidan.

Qarg'aoy: — Intengrengt, nima u?

Qarg'axon: — E, zamondan orttda qolibsan, dugona intengrengt emas, internet. Yaxshisi, yur, to'yga ketdik.

Qarg'aoy: — Yo'q, men bora olmayman, nabiramning mazasi yo'q.

Qarg'axon: — Unday bo'lsa yaxshi qol, men ketdim (ikkalasi ikki tarafga chiqib ketishadi).

(Sahnaga qo'llarida tog'ora ko'targan hayvonlar chiqib keladi. Ular to'yga ketishmoqda.)

Bo'ri: — O'ziyam Qunduz xola qizini maqtagini maqtagan, zab to'y bo'lsa kerak.

Tulki: — Qizmisan, qiz. Ikki marotaba hovli supurayotganini ko'rganman. Ajoyib.

Tulki: — Eng muhimi to'yga Sher akamizning o'zlari kelar ekan.

Eshak: — Unday bo'lsa tezroq borish kerak. Yuringlar tezroq (chiqib ketishadi).

(Parda ochiladi. Fondan yor-yor musiqasi beriladi. Sahnada Bulbulxon, Olmaxonoy, Chittakbibi Qunduzxonga kelinlik libosini kiyintirishayapti. Sahnaga shoshib Ona Qunduz kirib keladi.)

Ona Qunduz: — Voy qizlar, bo'linglar tezroq, kuyovlar kelishayapti. Voy ona qizim, biram ochilib ketibsan.

(Sahnaga kuyovlar yor-yor aytishib kirib keladilar. O'rtada qo'lida hisoblash cho'tini ko'targan kuyov Bo'rsiq, atrofida Bo'rivoy, Tulkiniso, Eshakvoy.)

Ona Qunduz: — Voy kelinglar, kelinglar.

Hamma: — To'ylar muborak, to'ylar muborak.

Ona Qunduz: — Rahmat, rahmat.

Qurilish maktabin bitirdi qizim,
Imtiyozli diplom oldi yolg'izim.

(Qunduzxon va Bo'rsiqni yonma-yon qo'yishadi. Bo'rsiq Qunduzxonning kiyinganini ko'rib, kiyimlarning narxini hisoblay boshlaydi.)

Bo'rsiq: — Ustidagi ko'ylagi 60000, munchog'i 30000, ziragi 40000, uzugi 30000, jami 160000. Voy-vu (Hamma hayron).

Eshakvoy: — Hisoblab nima qilasan, hammasi o'zingga qoladi-ku.

Ona Qunduz: — Keling, yaxshisi, ularni dasturxonga taklif qilaylik. Qani kelin-kuyov davramizga.

(Fondan «To'ylar muborak» musiqasi beriladi. Hamma dasturxon atrofida yig'ilishadi.)

Tulkiniso: — O'rtakash qani, to'yni boshlamasmikan.

Ona Qunduz: — Oʻrtakash Toʻtjon aytilgan, ana oʻzi ham kelib qoldi.

Toʻtjon: — Assalomu alaykum. Toʻylar muborak.

Ona Qunduz: — Keldingmi Toʻtjon.

Toʻtjon: — Bu Sher akam koʻrinmaydilar.

Hamma: — Sher akamiz qani?

Ona Qunduz: — Ana Sher akamiz kelayptilar.

(Hamma oʻrnidan turib sherga peshvoz chiqadi. Unga imkon qadar hammasi laganbardorlik qiladi. Qaysidir biri kiyimini toʻgʻrilaydi, qaysidir biri oʻtiradigan joyini toʻgʻrilaydi. Hamma joy-joyiga oʻtiradi.)

Tulkiniso: — Sher aka zab keldingiz-da, siz keldingizu davramizga fayz kirdi.

Boʻri: — Sher aka, yaxshiyam siz borsiz.

Toʻtjon: — Sher aka, bugun xizmatda ekanmiz, toʻyni boshlasam boʻladimi?

Sher: — Marhamat, Toʻtjon, boshlayver.

Toʻtjon: — Assalomu alaykum Sher aka va oʻrmon ahli! Mana bugun Boʻrsiqvoy va Qunduzxonlarning nikoh kechasi ekan, biz ularni tabriklaymiz. Mana shu kechamizni ochiq deb eʼlon qilish uchun soʻzni muhtaram boshligʻimiz, aziz ustozimiz Sher akamizga. Marhamat Sher aka. (Hamma qarsak chalib oʻrnidan turadi.)

Sher: — Hurmatli oʻrmon ahli, mana bugun ajoyib fuqaromiz Qunduz xola oʻz qizi Qunduzxonni erga berayapti. Qarang, qizi juda goʻzal va chiroyli kelin boʻlgan.

Ona Qunduz: — Qurilish maktabin bitirdi qizim,
Imtiyozli diplom oldi yolgʻizim.

Sher: — Men ikki yoshni tabriklayman va bugungi kechani ochiq deb eʼlon qilaman. (Sherning qoʻliga qadah tutishadi va hammalari ichishadi.)

Toʻtjon: — Azizlar, mana Sher akamiz ajoyib qilib toʻyimizni ochib berdilar, endi toʻy sanʼat korsiz oʻtmaydi. Bugungi toʻyimizda oʻrmonimizning xushovoz xonandasi Bulbulxon xizmat qiladi. Hozir mamnuniyat bilan navbatni Bulbulxonga beramiz. Marhamat.

(Bulbul sahnaga chiqib qo'shiq aytadi. Hamma hayvonlar raqs tushishadi. Bulbul qo'shig'ini aytib tugatadi.)

Sher: — Juda ajoyib qo'shiq, kelinglar Bulbul uchun qadah ko'taramiz.

Olmaxonoy: — Bulbulning ovozi judayam yoqimli.

Chittakbibi: — To'g'ri, o'rmonda Bulbulga teng keladigani yo'q.

Bo'ri: — Bulbul bizning haqiqiy xonandamiz.

Eshak: — Maylimi, men ham qo'shiq aytсам.

Hamma: — (hayron) Eshak qo'shiq aytadimi? Tavba.

Bo'ri: — Mayli, aytaqol.

(Eshak sahnaga chiqib qo'shiq aytadi.)

Eshak: — Men eshakman, eshakman

Qizlar uchun ermakman,

Ovozim juda go'zal,

Hamma uchun kerakman,

Ix-xa-xa-a-a.

Hamma: — Qoyil, qoyil, eshakka ofarinlar bo'lsin! Eshak uchun qadah ko'taramiz.

Qarg'axon: — Ichmayman men, nima bu hammangiz ichib olib, mast bo'lib nima qilayapsizlar o'zi?

Ona Qunduz: — Ha, Qarg'axon, nima to'yni buzmoqchimisan?

Qarg'axon: — Sen umuman o'chir paxtachi, umuman gapirishga haqqing yo'q. Sher aka bu qizini majburlab yerga berayapti. Qizi homilador.

Sher: — Nima, qizi homilador?!

Ona Qunduz: — Yo'q, yo'q, Sher aka, unday emas.

Qurilish maktabin bitirdi qizim,

Imtiyozli diplom oldi yolg'izim.

Eshak: — Ha, Qarg'a mast bo'lib qoldingmi?

Qarg'axon: — Kim mast bo'lib qolibdi, sen o'zingni bil eshak, sahnaga chiqib bir hangiraganingga hofiz bo'lib qoldingmi, sen baribir zoti past bir eshaksan, eshakligincha qolasan, bildingmi!

Eshak: — Nima, men eshakmanmi, men-a?

(Eshak qarg'ani quvlab ketadi, qarg'a borib Bo'rining oyoqlari orasiga yashirinadi, Eshak qarg'ani uraman deb Bo'rini, Bo'ri esa Sherni uradi. Sher baqirib Bo'rini tutishni buyuradi. Hamma

qo'zg'alishib janjal boshlanadi, bir-birini quvlab sahnadan chiqib ketishadi. Sahnada faqat Bo'rsiq va Qunduzxon qoladi).

Bo'rsiq: — Voy, nimalar bo'ldi, qancha sarf-xarajat qilgan edim. Qancha narsa sindi, bular qancha pul turadi. Sho'rim quridi. Qancha ovqat zoye ketdi, endi nima qilaman?

Qunduzxon: — E, bo'ldi, namuncha ziqna, xasis bo'lmasangiz, kuyov degan ham shunchalik bo'ladimi.

Bo'rsiq: — Hoy, Qunduzxon tiling chiqib qolibdimi, bilib qo'y sen mening qonuniy xotinihsan. Sen menikisan.

Qunduzxon: — Bekorlarning beshtasini aytibsan. (Bo'rsiq Qunduzxonning sochidan torta boshlaydi).

Ona Qunduz: — Ha, kuyov, hali to'yga bir kun bo'lmasdan qizimning sochidan tortib urayapsiz, tinchlikmi, qo'y uni.

(Sahnaga yugurib Qunduzbek kirib keladi.)

Qunduzbek: — Qani qo'yib yubor uni, qarib quyilmagan chol. (Qunduzxonni tortib oladi.)

Bo'rsiq: — U mening xotinim, u meniki, qolaversa, to'y ham rasvo bo'ldi, qancha pulim ketdi mening, qancha sarf-xarajat qilgan edim.

Ona Qunduz: — Nima qanaqa sarf-xarajat, hali sening puling ketdimi, qurumsaq, hamma pulni men toptimku, sen bir tiyin berdingmi hasis. Yo'qol!

Qunduzbek: — Qani, yo'qol bu yerdan, bo'lmasa o'zim seni adabingni berib qo'yaman, men o'z sevgilimni senga berib qo'ymayman. (Bo'rsiqni haydab chiqaradi.)

Ona Qunduz: — Menga qarang, siz kimsiz o'zi?

Qunduzbek: — Men qizingizning sevgilisi bo'laman.

Ona Qunduz: — Nima, sevgilisi, siz-a!

Qunduzxon: — Ha, oyi, gapi to'g'ri.

Qunduzbek: — Biz qurilish maktabida birga o'qiganmiz, biz bir-birimizni sevamiz. Agar rozi bo'lsangiz, men qizingizni qishloqqa olib ketaman.

Ona Qunduz: — Qizini qishloqqa beradigan axmoq yo'q. Qizim senday bir qishloqqa erga tegmaydi.

Qunduzbek: — Menga qarang, onajon, sizga qishloqning nimasi yoqmaydi, keng dalalari, sof havosi. Zilol suvi yoki har bir narsani pulga o'lchamaydigan odamlari yoqmaydimi.

Qunduzxon: — Oyi, boylikka emas, qizingizning baxtiga aching. Meni tushuning.

Qunduzbek: — Siz qizim qurilish maktabini imtiyozli diplom bitirdi, deb hammaga maqtanib yuribsiz, lekin bilib qo'ying, qizingiz hayot maktabiga endi qadam qo'ymoqda, bilib qo'ying, bu maktabni hech kim, hech qachon imtiyozli diplom bilan bitirmagan.

Ona Qunduz: — Menga qarang, sizning diplomingiz imtiyozlimi?

Qunduzbek: — Shunday, lekin hammasini hayot ko'rsatadi.

Qunduzxon: — Oyi, rahmingiz kelsin, menga baxt tilang. Qishloqda yashab, qishloqda ishlasam o'zinga ham yaxshi.

Qunduzbek: — Tushuning, oyijon, men qizingizni baxtli qilaman. Faqat siz rozi bo'lsangiz bo'ldi.

Ona Qunduz: — Qo'y, yig'lama qizim, yig'lama. Mayli, men rozi, qayerda bo'lsang ham baxtli bo'l. Baxtli bo'ling bolalarim, baxtli bo'linglar.

(Sahnaga qarg'a kirib keladi.)

Qarg'axon: — Voy tavba, bular yana to'y qilmoqchimi?!

Ona Qunduz: — Ha, Qarg'axon, haqiqiy to'y mana endi bo'ladi. Hammani to'yga chaqir.

Qarg'axon: — Eh-he-he o'rmon ahli eshiting, to'y bo'ladi shoshiling. Hamma to'yga.

(Fondan «To'ylar muborak» musiqasi berilib hamma ishtirokchilar sahnaga chiqishadi.)

Qunduzbek: — Muhabbat tilda emas, dilda bo'ladi,

Qunduzxon: — Dildan sevisganlar baxtli bo'ladi.

Ona Qunduz: — Har yurakda muhabbat gullab yashnasin.

Hamma: — Hayot maktabiga pok odim tashlansin.

(Musiqa balandlashib, parda yopiladi.)

Tasviriy masal janrida foydalanish mumkin bo'lgan masallar ro'yxati

1. S.Mixalkov. «Ichmaydigan chumchuq», «Badmast quyon», «Sher va yorliq», «Ayyor sichqon».

2. Y.Qurbon. «Qashqir, akula va sher», «Tullak va go'l».

3. Sh.Sa'dulla. «Och bo'ri, sho'x qo'zi va qirchang'i».
4. Haqnazar. «Fil va ko'ppak».
5. I.A.Krilov. «Kvartet», «Sher, yovvoyi echki va tulki».
6. S.Abdugahhor. «Bulbul bilan olashaqshaq», «Rahbar xo'roz».

Tasviriy qo'shiq

Agar haqiqiy ijodkor nuqtayi nazaridan qaraydigan bo'lsak, g'azal mulkining sultoni buyuk Alisher Navoiyning mumtoz she'riyatining sara namunalari hofiz va bastkorlar tomonidan allaqachon qo'shiq qililib, xalqning yurak-yuragidan joy olgan. E'tirof etish mumkin, Navoiyning:

Bir pari paykar g'ami oshuftaxol etmish meni,
Elga ahvolim demakdin gungu lol etmish meni, —

matlasi bilan boshlanadigan g'azaliga bitilgan muxammas mashhur Hoji Abdulaziz Abdurasulovning «Guluzorim» qo'shig'iga asos qilib olingan. Keyinroq bu qo'shiqni boshqa mashhur hofizlar, ayniqsa, Rasul qori Mamadaliyev maromiga yetkazib kuylagan.

Qo'shiqda muxammas uch yoki to'rt band miqdorida ijro etiladi. G'azal asli yetti bayt, shundan necha baytiga taxmis bog'langanligini ham, taxmis muallifi kim ekanligini ham aniqlay olmadik. Bizningcha, u Hoji Abdulazizdan oldinroq yashagan yoki unga zamondosh shoirlardan biri bo'lsa kerak. Maqomshunos O.Matyoqubovning fikricha, muallif atoqli hofizning o'zi bo'lib chiqishi istisno emas. «Qo'shiqda har baytdan so'ng «Ey guluzorim, rahm ayla, nigorim; rahm ayla, nigorim, bergil murodim, qo'yma meni zor yig'latib, nigorim» so'zlari naqorat qilib olingani ham shundan dalolat beradi», deb yozadi Abdulla A'zam o'zining Sharq mumtoz she'riyatining asosiy o'lchovi bo'lgan aruzni yanada o'rganish, yoshlarga o'rgatish va uni hamisha qadrlashga undovchi bebaho «Aruz» nomli kitobida.

Muallif ijodkor uchun eng muhimi, ommaviy bayram rejissori va ijrochilari uchun qadrli bo'lgan, yaxshi bir adabiy material — mumtoz tasviriy qo'shiq bo'la oladigan yo'l-yo'riqlarni keltiradi. Masalan: «Kim, xazon faslidagi yaproq ila teng bo'lmisham»

sarlavhasi ostida shunday yozadi: «Bu misra uchun Navoiy taxmis muallifiga «ofarin» degan bo‘larmidi. Zero bu misrani she’riyatning eng yuksak namunalaridan biri sifatida tan olish lozim. «Guluzorim» qo‘shig‘i shu misraga yetganda tinglovchining ko‘z oldida kinodagidek yorqin obraz — kuz havosi, sarg‘ayib, izg‘irinda tit-rayotgan, uzilib shamol ixtiyorida ucha boshlagan, holsiz yerga qo‘ngan yaproq gavdalanadi. Keyingi misra bu kartinani davom ettiradi. Lirik qahramon «yor ko‘yida tuproq bilan teng bo‘lar ekan», bu shunchaki emas, balki «xazon faslidagi yaproq» taqdiri kabi sodir etilgani tasvirlanadi. Holbuki, Navoiy baytida yaproq obrazi yo‘q. Xullas, birgina misra tufayli muhabbat va hijron haqidagi baytning mavzu doirasi nihoyatda kengayadi — taqdir quyunida qolgan inson ruhiy holatining badiiy ifodasiga aylanadi. G‘azalni muxammasgacha mana shu yo‘sinda to‘ldirish — taxmis¹⁴ san‘atining namunasi, qolaversa, aruzning qudratiga yana bir dalildir.» «Guluzorim» qo‘shig‘iga taxmis bog‘lagan noma‘lum muallifning muxammas namunasi bir bandni keltiramiz:

Go-h Maj-nun / el-ga gah men / so-g‘*i*-la teng/ (b)o‘l-mi-sham,
 Has-ra-ting-din/ lo-la yang-lig‘/ do-g‘*i*-la teng/ (b)o‘l-mi-sham,
 Kim, xa-zon fas/li-da-gi yap/ro-g‘*i*-la teng/ (b)o‘l-mi-sham,
Yo-r ko‘-yi/ich-ra-kim tup/ro-g‘*i*-la teng/ (b)o‘l-mi-sham,
Ish-q sav-do/si bu yang-lig‘/po-y-mol et/mish me-ni.

Talaba-ijrochi va talaba-rejissorlarning iste’dod kurtaklarini ochib borishda, ayniqsa, tasviriy qo‘shiq ssenariylarini yozishda xalq qo‘shiqlari bilan birga yuqorida keltirganimiz mumtoz she’riyatning sara namunalari ularni ijodiy barkamollikka yetaklaydi. Rejissura va ijrochilikda yangi sahifalar ochishga undaydi¹⁵.

Quyida biz eshituvchi va tomoshabinga yaqinroq bo‘lgan xalq qo‘shiqlaridan «Sust xotin»ni tasviriy qo‘shiq namunasi sifatida ko‘rsatishimiz mumkin.

¹⁴ Taxmis — bog‘lash san‘ati.

¹⁵ Sharq mumtoz she’riyatining asosiy o‘lchovi bo‘lgan «aruz» haqida to‘liq ma‘lumotga ega bo‘lish uchun quyidagi adabiyotlarga murojaat etish mumkin: 1) A.Rustamov. Aruz haqida suhbatlar. T., 1972; 2). A.Hojjahmedov. Maktabda aruz vaznini o‘rganish. T., 1995; 3) S.Aliyev. Aruz ilmi. T., 1995; 4). A.A‘zam. Aruz. T., 2006.

Navro'zi olam

«... Sahna yangi kun – Navro'zi olamni olqishlaydigan darajada bezatilgan. Uzoq-yaqindan kelayotgan nay sadosi ila «Cho'li iroq» kuyining yuraklarni orziqtiruvchi sasi yosh-u qarini dalaga, bir-birlariga boychechaklar taqdim etishga chorlaydi. Bahorning kelganidan quvongan qariyalar yerga erta urug' qadab, erta hosil olishga shoshiladilar...

Lekin ular ekin ekib bo'lishlari bilan qurg'oqchilik boshlanib, yosh-u qariyalar xavotirga tusha boshlaydilar. Qo'llarini yuqoriga ko'tarib iltijo ila yomg'ir yog'ishini yaratgandan so'raydilar. Oxir-oqibat qurg'oqchilik tinkalarini quritgach, «Sust xotin» ashulasini ayta boshlaydilar.

«Suz xotin»

(Sust xotin yoki Suv xotin)

Suz xotin, suzma xotin,
Ko'lankasi maydon xotin.

Yomg'ir yog'dir ho'l bo'lsin,

Yeru jahon ko'l bo'lsin.

Maysalar quloq yozsin,

Sutu qatiq mo'l bo'lsin.

Yomg'ir yog'dir ko'k bo'lsin,

Qurg'oqchilik yo'q bo'lsin.

Arpa, bug'doy bosh tortsin,

Kayvonilar osh tortsin.

Yomg'ir yog'dir ho'l bo'laylik,

Biz ham senga jo'r bo'laylik.

Ko'klamda o'ynab-kulib,

Ham sho'xu, ham zo'r bo'laylik.

Yomg'ir yog'di ho'l bo'ldi,

Yeru-jahon ko'l bo'ldi,

Shaftolilar barg yozdi,

Dunyo to'la gul bo'ldi.

Suz xotin, suzma xotin

Ko'lankasi maydon xotin.

Ishtirokchilardan birining qo'liga yog'ochdan yasalgan qo'riqchiga ataylab xotinlar ko'ylagi kiygazilib, boshiga ro'mol o'ratib qo'yiladi. Ular shu zaylda uzoq iltijo qiladilar va qo'llaridagi qo'riqchini yanada baland ko'tarib turganlarida birdan momaqaldiroq gumburlab sharros yomg'ir quyadi... Orziqib kutilgan yomg'irdan xursand bo'lgan yosh-u qarilar o'z quvonchlarini turli xatti-harakatlar bilan izhor etadilar. (Bu yerda holat, harakatlar ijrochitalabalarning o'z imkon darajasi-yu mahoratlaridan kelib chiqiladi. Sahnani katta-yu kichikning shod-u xurramligi, sho'x kulgisi tutib, sahnaning orqa tomonidan yugurib chiqib kelgan eng yosh ishtirokchi o'ziga xos harakatlar bilan hammani o'ziga jalb etib shu qo'shiqni aytadi.)

...Yomg'ir yog'di ho'l bo'ldi,
Yeru jahon ko'l bo'ldi.
Arpa, bug'doy bosh tortdi,
Kayvonlari osh tortdi...

Shodiyona davom etadi. Yosh-u qarilar bir-birlarini boychechaklar taqdim etishib qutlaydilar.

«Navro'z qo'shig'i»

(Bu qo'shiqni 2–3 ishtirokchiga bo'lib berish ham mumkin.)

Boychechak chiqipti, bugun Navro'z ekan,
Hamma bir-biriga jigarso'z ekan.
Olam ham barobar kecha-kunduz ekan,
Boychechak chiqipti, bugun Navro'z ekan.

Yangi yilingiz muborak bo'lsin, hoy bobo.
Yangi yilingiz muborak bo'lsin, hoy momo.
Yangi yilingiz muborak bo'lsin, hoy Ona.
Boychechak chiqipti, bugun Navro'z ekan.

Hoy, bog'bon bobo, niholga bersin baraka.
Hoy, dehqon bobo, dalangga bersin baraka.
Hoy, cho'pon bobo, qo'rangga bersin baraka.
Boychechak chiqipti, bugun Navro'z ekan.

Bu qo'shiq tugagach, hammani Navro'zga chorlab, ikki yigit chiqib keladi:

1 – Ho-ho-ho... Bor ho...

2 – Ho-ho-ho... Kel ho...

Bu jarchilar so'ziga yana so'z qo'shish mumkin:

1 – Hammalam ho. 2 – Yo'l qayda?

Birinchi jarchi chiqib ketadi, ikkinchisi esa go'yo tomoshabin orasidan o'zi yoqtirgan qizni ko'rib qolganday, unga qarata:

Tezda chopib kel.

Yo'lni topib kel.

Otang bilmasin.

Onang bilmasin.

Akang bilmasin.

Ukang bilmasin.

Singling bilmasin.

Opang bilmasin.

O'ynagani kel.

Quvongani kel.

Sayilga kel, hooo...

deb sahnadan o'ziga mos harakatlar bilan chiqib ketadi.

Sahnada esa yana yosh jarchi yigit paydo bo'ladi. U go'yo ho'kizini yer haydashga tayyorlayapti-yu, unga atrofdagilar yordamlashib «Shoxmoylar» qo'shig'ini aytadilar:

Qo'shga ildim yurmasang,

Uchangga turtib qo'yaman.

Yaxshi yursang shoxingga

Moylar surtib qo'yaman.

Shoxlaring bor shomiday,

Ko'zlaring bor oynaday.

Sendan bo'lgan bolalar

To'ti bilan maynaday.

Chu-ho, chuh, chu-ho, chuh.

Qo'shni tortgin jonivor,
Tumor taqay shoxingga.
Saratonda ishlagin
Somon qolar haqqingga.
Chu-ho, chuh, chu-ho, chuh.

Qo'shga qo'shdim qo'sh ho'kiz,
Ikkisi ham ish ho'kiz.
O'z ishingni tindirib,
Hovuringdan tush ho'kiz.
Chu-ho, chuh, chu-ho, chuh.

Qora molim qobilim,
Qora yerni qoq yorgan,
Mehnatining zo'ridan,
Tepasidan shox yorgan.
Chu-ho, chuh, chu-ho, chuh.

Bular sahnani tark etishlari bilan bir to'da qizlar turnalar harakatlari ila kirib kelishadi va «Turna keldi» qo'shig'ini aytyshadi:

Arg'amchi, gilamchi,
Arg'amchi, gilamchi,
Turna bo'ylik bolajon,
Ko'klamga tilamchi.

Turna desam, turumli,
Keng talaga qo'nimli,
Turnalar uchsa dastlab,
Rizqing qilar unumli.

Arg'amchi, gilamchi,
Arg'amchi, gilamchi.

Turna o'zi ko'rimli,
Usti qora, bo'yni-oq,
Turna uchsa balandlab
Yil keladi urumsoq.

Arg'amchi, gilamchi,
Arg'amchi, gilamchi.

Turna tilla tarozi,
Ob-havoga qozi.
Turna qolsa yurtningda
Salqin keladi yozi.

Arg'amchi, gilamchi,
Arg'amchi, gilamchi.

Bu qo'shiq tugashi bilan yigitlar to'dasi kirib keladi va qo'shiq aytib turna raqsiga tushayotgan qizlarga qarata 2-yigit yana «Aylansin» qo'shig'ini aytishga chog'lanadi (qolganlari unga jo'r bo'lishadi):

Aylansin, yor aylansin,
Qoshlari qaro aylansin.
Shaftolizor ichida
Bodom qovoq aylansin.
Yaqqu-yaqqu, yaqqu, yaq! (2 marta)

Devor ustiga devor,
Devona bo'lsin akang.
Boshingda Balxi ro'mol,
Ishqingda o'lsin akang.
Yaqqu-yaqqu, yaqqu, yaq! (2 marta)

Tog'lar boshi nurama,
Kiyik shoxi burama.
Boy qizini bermasa,
Boyni balo urama.
Yaqqu-yaqqu, yaqqu, yaq! (2 marta)

Sahnaga momo va bobolar chiqib kelishadi va ular yoshlarga qarata:

1-bobo: Yoshlar qayerga ketishdi ekan desak, bularning o'yin-kulgisi avjida-ku.

2-bobo: Ha, nimasini aytasiz, bahor chechagi kabi bularning ham qalb chechlari ochilgan ko'rinadi. Chamasi, bular yor tanlashni boshlab yuborgan ko'rinishadi.

1-yigit: Vaqtida otimizni qamchilamasak, qo'shni qishloqdan kelgan sovchilarning ovi yurib qolmasin deymizda...

1-bobo: Hammasi to'g'riku-ya, avval tabiat in'om etgan suvlardan foydalanib, ekinlarga ishlov bersak...

2-bobo: Ha, albatta, avval hosillarni mo'l qilib olsak, to'ylarimiz ham ko'p bo'ladi.

1-bobo: Qani, bolalarim, vaqtni g'animat bilib, dalaga mehnatga ketdik...

«Ufu-jaqala»

(qo'shig'ini hamma aytadi)

Hamma: Yor, yor, yoroney, yor, yor, yoroney.
Suv keladi mo'ridan, yor, yor, yoroney,
Mo'ridan ham naridan, yor, yor, yoroney.

2-yigit: Akaging aylansin, yor, yor, yoroney,
Kokilingni toridan, yor, yor, yoroney.

Hamma: Ufu-jaqala, ufu-jaqala!
Tom ustiga beda bor, yor, yor, yoroney,
Maydasini elab ol, yor, yor, yoroney,

1-yigit: Shuncha barno ichidan yor, yor, yoroney,
Yaxshisini tanlab ol, yor, yor, yoroney.

Hamma: Ufu-jaqala, ufu-jaqala!
Surxon ko'rkidir Boysun, yor, yor, yoroney,

1-momo: Qizlar ro'molin yoysin, yor, yor, yoroney.
Xalqimizning baxtiga, yor, yor, yoroney,

2-bobo: Yurtimiz omon bo'lsin, yor, yor, yoroney.

Hamma: Ufu-jaqala, ufu-jaqala!

Shu qo'shiq bilan hamma ishtirokchilar o'zlariga mos plastik harakatlarni bajargan holda asta sahnadan chiqib borishadi. Qo'shiqning oxiri leytmotiv uchun olingan musiqa bilan alma-

shinib, asta-sekin ovozi pasayib boradi. Albatta bu tasviriy qo‘shiqning mizanssenalarini rejissor ishtirokchilar bilan amalga oshiradi. She‘riy matnlardagi mantiq, ohang va talaffuz ravonligiga erishish uchun nutq texnikasiga e‘tibor kuchaytiriladi. Ovoz nafas mo‘tadilligiga ko‘proq yakka dars jarayonlarida erishiladi. Shu tariqa mahorat va jonli so‘z san‘ati darslari birga olib borilsa, ko‘zlangan maqsadga erishiladi. Biz tahlil qilgan bu tasviriy qo‘shiqlar bir qolip emas, namuna xolos. Kelajakda yosh mutaxassis-pedagoglar va iqtidorli talabalarimiz bundan-da ta‘sirli tasviriy qo‘shiqlarni yaratib, katta ommaviy bayramlar, teatrlashtirilgan tomoshalarda o‘z mahoratlarini namoyish etishlari mumkin.



MONOLOG USTIDA ISHLASH

Dramatik monolog va ularning turlari

Dramatik asarda ichki va murojaatli monolog mavjud.

Ichki monolog. aktyor sahnada o‘zi bilan o‘zi kurash olib borishga majbur bo‘lgan vaziyatda hosil bo‘ladi.

Ichki monolog – bu insonning o‘z qilmishlarini qaytadan baholashi, o‘z xulqini asoslashi, hayotiy mavqeyini tasdiqlash, u yoki bu voqea hodisalarga o‘z munosabatini bildirishi uchun kerak bo‘lgan hayotiy zaruratdir.

Mazmun-mohiyatiga ko‘ra ichki monolog – bu mantiqan bog‘liq bo‘lgan chuqur g‘oyaviy-ruhiy mazmun bilan to‘ldirilgan mulohazalar zanjiridir. Shuning uchun monologlar boy ichki dunyoga ega bo‘lgan shaxslargagina xosdir.

Murojaatli monolog. Aktyor sahnada bir o‘zi emas va uning monologi ham ma‘lum shaxslarning ongiga ta‘sir qilishga qaratilgan bo‘ladi.

Sahnadagi partnyorlarga qaratilgan murojaatli monolog nutq shaklidagi dialoglardan iborat uzun replika tarzida ifoda etiladi. Odatda bunday monologlar faol o‘ylash va fikr yuritish holatini

aks ettiradi; bularda ham hayotiy muhim muammolar hal qilinadi, tomoshabinlar ko'z oldida fikrlarning paydo bo'lishi (tug'ilishi) qahramonlarni his-tuyg'ularining samimiyligiga ishonishga majbur qiladi, spektakl qahramonlariga hamdard bo'lishga undaydi. Bunday murojaatli monologlar dramatik asarlarda ko'p uchraydi.

Tomoshabinlarga emotsional-hissiy ta'sir qilishda aktyor hislarining boy va nafis bo'lishigina emas, balki ular ijrochining xafa yoki xursand bo'lishiga sabab bo'lgan holatlarni tomoshabin qabul qilishi yoki qilmasligi uchun ham katta ahamiyatga ega. Haqiqatan ham, kishi birovni yig'lashga majbur qilgan sababga qo'shilmasa uning o'zi ham yig'lamaydi. Agar spektakl qahramonlari kechinmalari sizga yaqin, tushunarli bo'lsa, unda zalda o'tirgan tomoshabin ko'zida ham yosh paydo bo'lishi mumkin.

Monologning badiiy-estetik ta'sir kuchi ham shunda, asosan monologda spektakl qahramonlarining xursand yoki xafa bo'lishi sabablari yoritiladi. Bu daqiqalar tomoshabinga hayot to'g'risida, yomon va yaxshi, to'g'ri va egri haqida fikr yuritishga, o'ylashga imkon beradi.

K.S.Stanislavskiy teatrda tomoshabinlarga nisbatan katta mas'uliyat yotganligi, har qanday san'at kabi teatr ham uning ongini chuqurlashtirishi, uning hislarini noziklashtirishi, madaniyatini yuksaltirishi kerakligi, tomoshabin spektakldan so'ng hayot va zamonga chuqurroq qarashi kerakligi haqida yozgan edi¹⁶.

Aynan monologlar orqali aktyor tufayli tomoshabin o'z hayotini yangicha his qilishga, boshqatdan ko'rib chiqishga, o'zida yangi ijodiy kuchlar topishga va yanada yuqoriroq pog'onaga chiqishga qodir.

So'z san'atining kuchi ham — shundadir.

¹⁶ Станиславский К.С. Собрание сочинений в 8 томах. Т. 6. — М., «Искусство», 1954—61. С. 313.

Namuna.

Lope de Vega

**Qo'zibuloq
(Laurensiya monologi)**

Ijrochilik vazifalari:

1) balki, sabablari
ko'pdir... va lekin
ajablanayapman!
nega? va nega?..

2) Nahotki, o'z otam
meni yirtqich panjalari~~ga~~
tashlab qo'ysa...

3) Ichki xo'rlanish,
asta-sekin nomus
kuchliligi oshib boradi.

Sabablari ko'p
Va lekin asosiy sabab shudirki,
Sen qizingni zo'ravonlarga
O'g'irtlatding, qasos olmading,
Meni yirtqich panjalaridan,
Ota bo'lib, sen qutqarmading.

Erga tegib ulgurmaganim,
Fronoso erim bo'lmagan.
Shuning uchun emas, balki sen
Nomusimni saqlashing kerak.

Gavharga pul to'lagan bilan
Uni qo'lga olish shart, chunki
O'g'ri ura, olinmagan mol
Da'vosi ham bo'ladi kulgi.

Meni esa Fernando Gomes
Olib ketdi ko'z oldingizda,
Qo'rzoq cho'pon qo'zichog'ini
Och bo'riga topshirib qo'ydi.

Boshimga ne savdolar tushdi,
Xanjar bilan siynam tilishdi!
Iffatimni hirs-shahvatiga
Qurbon qilish uchun u ma'lun.

4) Yuzimga qarab ham
chekkan azobimni
sezmayapsizmi,
kulfatlarim, alamlarim
butun qishloq ayolining
qismati emasmi?
Bas sabr kosam to'ldi,
ortiq chiday olmayman!

Do'qlari kor qilmagandan so'ng
Ko'kraginga quydi qaynoq mum.
Mana sochlarimga bir qarang!
Chakkalarim qontalash yara,
Yuzimga ham silqib oqar qon,
Shunday azob berdi beomon!

Otalarim, qarindoshlarim,
Zoti ulug' qon-qardoshlarim,
Maqtanchoqlik jonga tegdi, bas!
Kulfatimning payoni yo'qdir,
Alamlarga bag'rim to'liqdir,
Ayta bersam aslo tugamas!

Qanday qilib chidab turibsiz,
Bosh ko'tarib qanday yuribsiz!
Siz, qo'yilersiz, qo'yilarday qo'rqqoq,
Shuning uchun bu Qo'zibuloq,
Sizlarga eng munosib yotoq!

O'zim qo'lga qurol olaman!
Sizlar toshsiz, sovuq marmarsiz.
Yo'q, Sher emas. Sherbachchalarni
Tozi olib ketsa, qaysi sher
Quvlamasdan qarab turadi?

Sher yovni quvib yetadi.
Va dengizga yetkazmay turib,
Qirg'oqdayoq tutib, yirtadi,
Yovdan qattiq qasos oladi...

5) Och bo'riga qo'zisini
talagan sizdek qo'rqqoq
cho'ponlardan
nafratdaman!

Sizlar ispan emas, qo'rqqoqlar,
Yuragi yo'q yovvoyilersiz,
Quyonlardan chala tug'ilgan
Uyati yo'q maqtanchoqlarsiz!

6) Men endi
yig'lamoqchi
emasman!.. faqat
sizlarga qarab turib,
alamli kulaman,
ha, kulaman!..

7) Sizday quruq
maqtanchoqlardan
or qilaman!

8) Sha'nidagi dog'larni
yuvish uchun mening
boshchiligimda
qishloqdagi barcha
ayollar erkakka aylanib
jangga kiradi!..

9) Ishonamanki, men
tantana qilaman!

Siz sevimli xotiningizni
Yot erkakka qo'shib qo'yasiz!
Yana, qilich taqib yurasiz?
Yeching uni! Urchuq taqingiz!
Xotinlarday ro'mol to'qingiz!

Ont ichaman, men bilan birga
Xotin-qizlar jangga kiradi.
Va sha'nidan dog'larni yuvib,
Dushmanlarni boplab qiradi.

Sizlar ayolsifat, qo'rzoqlar,
Xotinlarning rasmin tutasiz,
Ipak eshib, taqim otasiz,
Bir chekkada qolib ketasiz.

Shimingizni yeching, o'rniga
Uzun ko'ylak kiyib olingiz,
Sizga qalpoq o'tirishmaydi,
Shohi ro'mol o'rab olingiz,
Qizil surib yuzlaringizga,
Surma qo'ying ko'zlaringizga!

Hukm qildi Fernando Gomes:
Fronoso sudsiz, hukmsiz
Dorga osiladi. Sizni ham
Qo'yday sudrab, dorga tortadi.

Men tantana qilaman, chunki
Qishloqdagi barcha ayollar
Erkaklarga aylanadi-da,
Sizni butkul uyatga ko'mib,
Ko'p qadimgi zamonlardagi
Sohib ayol-amazonkalar
Davri yana qaytib keladi.

Yakka ijro uchun tavsiya etiladigan dramatik monologlar ro'yxati

1. Uyg'un va Izzat Sulton – «Alisher Navoiy» asaridan Navoiy va Guli monoglari.
2. V.Shekspir – «Gamlet» asaridan Gamlet monologi.
3. F.Shiller – «Qaroqchilar» asaridan Karl Moor monologi.
4. A.S.Pushkin – «Qizg'anchiq ritsar» asaridan Baron monologi.
5. Ch.Aytmatov – «Sarvqomat dilbarim» asaridan Ilyos monologi.
6. A.Qodiriy – «O'tkan kunlar» asaridan Otabek va Kumush monoglari.
7. Mar Bayjiyev – «Bahs» asaridan Nozi va Iskandar monoglari.
8. V.Shekspir – «Romeo va Juletta» asaridan Romeo va Juletta monoglari.
9. M.Lermontov – «Ispanlar» asaridan Fernando va Emiliya monoglari.
10. N.Gogol – «Revizor» asaridan Xlestakov monologi.
11. M.Shayxzoda – «Mirzo Ulug'bek» asaridan Mirzo Ulug'bek monologi.
12. T.To'la – «Nodirabegim» asaridan Nodirabegim monologi.
13. V.Shekspir – «Qirol Lir» asaridan Qirol Lir monologi.
14. V.Shekspir – «Otello» asaridan Otello, Yago, Dezdemon monoglari.
15. H.Olimjon – «Muqanna» asaridan Muqanna monologi.
16. H.H.Niyoziy – «Maysaraning ishi» asaridan Mullado'st monologi.
17. O'.Hoshimov – «Qatag'on» asaridan Panji Jumanov va Hanifa monologi.

Ommaviy bayram va teatrlashtirilgan tomoshalarda foydalanish mumkin bo'lgan monologlardan namunalar

Monologlar muallifi O'zbekiston xalq shoiri Jumaniyoz Jabborov.

Ona

Aziz farzandlarim, ko'z nurim, bolam,
Quvnoq kulgungizdan yayraydi olam.
Sizsiz ol g'unchalari so'lim bo'stonning,
Yorqin kelajagi O'zbekistonning.
Bo'lsangiz naqadar sog'lom va oqil,
Ozod yurt shunchalik obod, mustaqil.
Vatan mehri berib, har lahza yo'qlar,
Sizga bag'rin ochmish nurli ufqlar.
Onalar ishonchin doimo oqlangiz,
Yurtni ko'z gavhari kabi saqlangiz.
Boshingizda aziz yurtboshingiz bor,
Toza osmoningiz, qo'shig'ingiz bor.

Alisher Navoiy

Ajab saodatkim, xalqim topib shon,
Aning dovrug'iga to'libdur jahon.
Baxtliman, hur ko'rdim buyuk elimni,
Eshitdim yuragim – Ona tilimni.
G'azallarim elim tilimda ravon,
«Hamsa»-yu mukammal har bitta devon.
Ushbudir aslida men o'ylagan yurt,
Yuksak ohanglarda men kuylagan yurt.
Laylolar baxtlidir, Shirinlar baxtli,
Jasur Farhodlarim mard, toj-u taxtli.
Ko'zning gavharidek asrang Vatanni,
Jahon havas etgan rangin chamanni.
Olloh marhamati yog'ilgan diyor,
Yurtboshining mehridan bo'lding baxtiyor.

To'maris

To'maris so'zim, dushman taslim bo'ldi, kishanlar yechildi, bardam bo'l xalqim, ming yillar ilgari orzu qilgan ozodlik keldi, qo'lni qo'lga ber, mahkam tut, baxt qushin uchirmang boshdan. Bu yo'lda qurbonlar berdi, unutmang xalqim, qonlar oqdi, ko'z yoshlar oqdi, aza tutdi yurt ayollari, bir yil emas, yuz yil emas, poyonsiz aza, qurbonlar evaziga kelgan hurlik bu. Qo'ldan chiqara ko'rmang!

Ibn Sino

Donolingni dunyo biladi xalqim. Zar-u zebarga teng ilm egasi bo'lgan xalqim. Ol endi, Istiqlol keldi, ota-bobolaring bitib ketgan o'shal kitobni. Bu kitob shunday qudratga egaki, dunyo eshiklari bari ochilgay. Bu kitob shunday bir tilsimga egaki, dunyo sirlari butkul ochilgay. Dard ko'rmaysan, ming yil yashaysan, og'riqni, g'amni tashvishni bilmay yashaysan. G'animlar och-qizmay, xurofot degan o'sha kitob bu kun sening qo'lingda. Och uni, har bir varag'i oltinga teng, dur-u gavhar u. Omad yor bo'lsin elim.

Amir Temur

Tomiringda Shiroq qoni bor. To'marisning shijoati jisingda xalqim. Ibn Sino zakovati, Forobiy falsafasi, bari mujassam, bilagingda Muqqannaning kuchi, Dukchi eshon isyoni vujudingda yonadi, bilmam nechun qarab turding, og'ayni o'g'ri desalar, nechun qarab turding, otangni qabrin buzib ochsalar? Bobolar ruhiga sodiq bo'l xalqim. Boshingni yerdan balandroq ko'tar. Tik boq, dushman ko'ziga, bardosh berolmay qochsin iniga. Ming yillarkim bu el Turon atalgan, atalmagan arab yoki mo'g'ul, atalmagan o'zga nom bilan. Turon noming baland ko'tar, uzilgan kishanlarni parchalab tashla, dushman yana kishan yasamasdan. Qo'lni-qo'lga ber, dil-dilingdan payvast bo'lsin, omad, senga yor xalqim, Istiqloling muborak xalqim.

Nodirabegim

G'azal bitdim muhabbat zamon haqida. Turonli yillarni adovsiz uqubati, og'a o'z inisiga qilich ko'targan kunlari haqida, lashkar tortgan o'z inisiga, o'z qavmini qonini to'kkan kunlar haqida, hamon shunday bo'lib o'tar zamon, zamon esa aylanaveradi. Bu ko'hna zamin ustida qonlar to'kilaveradi, ayollar yig'layveradi, kimdir-kimni ezdi, hur qildi, yanchdi, yer bilan yakson etdi, hammasi o'tdi, zamin esa aylanaveradi. Zamin aylanadi, dunyo qoladi, siz ketasiz, men ketaman, dunyo qoladi. Biz mehmonmiz ushbu zamonda.

Jaloliddin Manguberdi

VATAN! Sajdagoh deb bildim men uni,
Uning dardi bilan bir edi dardim.
Vatan ozodligi, Vatan erkini
Muzaffar bayroqdek boshga ko'tardim.
Itlar yuragingni yedi-ku, bolam,
Kuching shu go'dakka yetdimi, g'anim?!
Qurbonlar bersam-da, Iroq, Shomda ham
Men seni o'yladim faqat, Vatanim!
Hoy olis avlodim, anglagin ayon,
Hech qachon dushmansiz qolmas bu olam.
Yovlar etar bo'lsa Vataning payhon,
Qoningda jasorat tirikmi, bolam?!

Hamid Olimjon

Xalqim, Istiqlol muborak, bu tengsiz baxt muborak. Bu ne baxtki, jo'shib kuylagim keladi. Yuz yillarkim tilingni kesmoq bo'ldilar, yo'l bermadi baralla so'zlamogga. Ona tiling unuta boshlading. Men sening farzandingman. Xalqim ko'zingni och, oldinga qara, bu ravon yo'l senga muntazir, shahdam qadam bilan faqat olg'a bos. Qadamingdan yer titrasin. G'animlar yuragi dahshatga tushsin, yo'lingni to'smogga jur'at topolmasin.

Xalqqa ayting, men aslo o'lganim yo'q.
Yov qo'liga ham taslim bo'lganim yo'q.
Men elimning yuragida yashayman,
Erk deganning tilagida yashayman.

Alpomish

Eshiting, Alpomish aytgan so'zimni,
Xalqim taqdirida ko'rdim o'zimni,
Istadim, yurt bo'lsin yagona. Ahil,
Payidan qirqilsin bosqinchi-baxil.
Quvvatni shu eldan olganligim rost,
Nomim dilda tutib ayladim e'zoz,
Bu zaminda ko'plab mardlar tug'lg'ay,
Bu yurtning dovrug'i olamga to'lg'ay.

Bahoroy

Bahoroyman, Bahorman,
To'lib oqqan anhorman.
Ajib mahoratim bor,
Nurim-saxovatim bor.
Nomim azal ko'klamdir,
Men bilan Yer ko'rkamdir.
Yam-yashilman, go'zalman,
Shoirlarga g'azalman.
Musiqaman, qo'shiqman,
Ezgulikka oshiqman.

Navro'zbek

Men bu ulug' Vatanni,	Jonu dilimdan yoqlab,
Bu dilrabo chamanni,	Har yilda bir so'roqlab,
Ahil va obod elni,	Sog'inib keladurman,
Mustaqil, ozod elni,	Sig'inib keladurman!

Momo Yer

«Assalomu alaykum, aziz bolajonlarim, butun vujudim bilan Men Siznikiman. Yana Navro'z bo'lib, yangi yilingiz boshlandi. Yuraklaringizda bir dunyo umidlar bilan Navro'zni bayram qilayotirsiz. Yaxshi niyatlaringiz yo'ldoshingiz bo'lsin. Allohim tomondan Men Siz uchun yaratilganman. Daryolarim, tog'larim, vodiylar-u vohalarim, barcha xazinalarim Sizga atalgan. Barcha fasllarim Siz uchun. Ayniqsa, dilbar, sevimli qizim Bahoroyni Sizlarga alohida mehr-u muhabbat bilan hadya eturman. Siz uning tashrifini muborakbod aylab, yayrang, rohatlaning, lazzatlaning. Menga bir kaft don sochsangiz, bir dunyo xirmon etib qaytaraman. Bir dona nihol eksangiz, butun boshli bir bog' bo'lib, shirin-shakar mevalarim bilan xursand etaman Sizni. Yolg'izgina tilagim: bir-biringizga payvand-u payvast bo'lib, yaxshilik yo'lini tuting. Ona yurtingizni obod etib, ahillikda, totuvlikda yashasangiz, Men shod bo'laman. Meni har qanday g'alamislar xurujidan himoya eting. Mendan mehringizni ayamang. Men Siz dilbandlarimni hamisha ogoh-u hushyor ko'rishni orzu qilaman. Men sizni oltin belanchangingiz, oltin beshigingizman. Uyingizman, yurtingizman, sayyorangizman! Yayrang, bolalarim! Qani Bahoroy, qizim, Navro'zbek o'g'lim, aziz insonlarimiz huzuriga peshvoz chiqinglar, qalb saxovatlaringizni izhor etinglar, marhamat!»



ARUZ VAZNI TIZIMI VA UNING IKKI JANRDAGI IN'IKOSI¹⁷

Ko'p asrlik mumtoz adabiyotimizning tayanchi, ohang va ifoda shakli shubhasizki, aruz vaznidir. Ahli shuaroning arz-u dodi, orzu-umidlari ana shu umrboqiy vazn orqali tillardan-tillarga, dillardan-dillarga, ellardan-ellarga ko'chib bizgacha yetib kelgan.

¹⁷ Ushbu mavzu adabiyotshunos olim, filologiya fanlari nomzodi Rahimboy Jumaniyozov bilan hammualliflikda yozildi — Adiba Nosirova..

Aruz vaznining jilolari uning ayni she'r ruhiga mos rukn va bahrlarida namoyon bo'ladi. Uning nafasoti ham aslida shunda. To'g'ri, u ma'lum bir andazaga solib yoziladi va o'qiladi. Lekin bu bilan uning ma'no qamrovi, imkoniyatlari kamayadi, xiralashadi deyishdan yiroqmiz. Muqtadir adiblar undan o'z g'oyaviy maqsadi, she'r mazmuni va lirik qahramonning dard-u kechinmalarini ifodalashda ustalik bilan foydalanganlar. Bu adibning iste'dodiga, san'atkorlik salohiyatiga bog'liq bo'lgan. Ma'lumki, aruz vazni boshqa vaznlardan farqli o'laroq, misradagi bo'g'inlarning uzun va qisqaligiga, ketma-ketligiga asoslanadi. U hijolarning faqat miqdoriga emas, talaffuzdagi uzun-qisqaligiga qaratilishi bilan xarakterlanadi. Ritmik bo'laklarning – uzun va qisqa hijolarning muayyan ravishda takrorlanib kelishi, o'z navbatida, ohangdorlikni, musiqiylikni keltirib chiqaradi. Bu esa aruzning jozibasi va o'ziga xos nazariy-texnik jihatini bilish zarurligini anglatadi.

Aruz she'riy tizimi haqida fikr aytish va uning amaliy-nazariy asoslari borasida mulohaza yuritish va qiziqish uzoq asrlarga borib taqaladi. Aruz o'z shakl-u shamoyili bilan turli zamonlarda ijod etgan shoirlarni turli janrda qalam tebratishida dasturulamal bo'lgan. Aruz tizimi haqida ilk tadqiqot arab shoiri va adabiyotshunosi Xalil ibn Ahmad qalamiga mansub bo'lib, «Al-aruz» deb ataladi. Shuningdek, Ibn Usmon Maziniy, Imom Ahmad ibn Abdurabbih, Ibn al-Xatib at-Tabriziy, Ziyovuddin Abul Jaysh al-Hazrajii kabi arab olimlari ham aruz she'riy tizimi nazariy masalalari xususida izlanishlar olib borganlar. Aruz tizimi haqida, ayniqsa, fors-tojik adabiyotshunoslari ko'plab ilmiy asarlar bitdilar. Fors-tojik aruzshunosligini Mavloni Yusuf Nishopuriy (X asr) boshlab bergan. Keyinchalik bu fan Rashiddin Vatvot (XIII asr)ning «Hadoyiq us-sehr», Shams Qays (XIII asr)ning «Al-mo'jam fi me'yor ash'or al-ajam», Nasiriddin Tusiy (XIV asr)ning «Me'yor ul-ash'or», Salmon Savojii (XIV asr)ning «Qasidatun manuot al-aruz», Abdurahmon Jomii (XV asr)ning «Risolai aruz» asarlari hisobiga boyidi va takomillashdi.

Turkiy xalqlar orasidan yetishib chiqqan allomalar ham aruz ilmi taraqqiyotiga sezilarli hissa qo'shdilar. Mashhur faylasuf Abu Nasir Forobiy (X asr), Abu Ali ibn Sino (X–XI asrlar), Abul

Qosim Zamaxshariy (XI–XII asrlar), Abu Ya'qub Yusuf ibn Abubakr Sakkokiy (XII–XIII asrlar) o'zlarining arab va fors tillarida bitilgan ilmiy asarlari bilan nafaqat arab va fors, balki turkiy aruz taraqqiyotiga ham hissa qo'shdilar. Shayx Ahmad Taroziyning «Funun ul-balog'a» asari turkiy aruz ilmining ilk sarchashmasi hisoblanadi. Alisher Navoiyning «Mezon ul-avzon» asari bu sohada yirik tadqiqotlardan biridir. Ulug' shoir ushbu kitobida aruzning umumiy qoidalari, bahr va vaznlari turlarini turkiy tilda mufassal bayon qilib qolmasdan, turkiy xalq og'zaki ijodi namunalarining qiyosiy tahlili orqali barmoq vazni asoslarini ham belgilab berdi. O'zbek aruzshunosligi taraqqiyotida Zahiriddin Muhammad Boburning «Muxtasar» deb nomlangan yirik hajmli tadqiqoti ham muhim ahamiyat kasb etadi. Bobur turkiy aruz o'lchovi imkoniyatlarining nihoyatda kengligini ta'kidlash maqsadida she'riyatimizda qo'llanilishi mumkin bo'lgan 537 ta vaznni (ulardan 400 ga yaqini mutlaqo yangi, Bobur tomonidan kashf etilgan o'lchovlar) sanab o'tib, ulardan har biriga bir baytdan misollar keltiradi.

XIX asr oxirlarida shoir Zokirjon Furqat ham aruz haqida ilmiy risola bitgan. Hozircha nashr qilinmagan ushbu risolani professor G'.Karimov N.Ostroumov fondidan topgan edi. Furqat ushbu mo'jaz (16 betlik) asarida o'zbek she'riyatida faol qo'llaniladigan 55 vazn haqida ma'lumot bergan.

XX asrda aruz ilmiga qiziqish yanada kuchaydi: 1936-yilda Fitrat yaratgan «Aruz haqida» risola chop etildi; 1948-yili adabiyotshunos olim S.Mirzayev «Navoiy aruzi» mavzusida nomzodlik dissertatsiyasini yoqladi; 1972-yilda Alibek Rustamovning «Aruz haqida suhbatlar» risolasi e'lon qilindi; 1985-yilda U.To'ychiyev «O'zbek poeziyasida aruz sistemasi» mavzusida monografiya nashr qildirdi.

Mustaqillik yillarida aruz she'riy tizimida ijod qiluvchi shoirlar safi ortib borayotgani adabiyotshunoslikda ham o'z in'ikosini topmoqda. Keyingi yillar ichida professor A.Hojiahmedov «Aruz nazariyasi asoslari», «O'zbek aruzi lug'ati», «Navoiy aruzi nafosati» kabi kitoblar yaratdi; S.Ro'zimboyev qalamiga mansub «Aruzdan saboqlar», A.A'zamovning «Aruz», A.Abdurahmonovning «Aruz ilmidan saboqlar» asarlari yaratildi. Shuningdek, umumta'lim

maktablari, akademik litsey, kasb-hunar kollejlari va oliy ta'lim muassasalari talabalari uchun chiqarilayotgan darslik va o'quv qo'llanmalarida mumtoz adabiyot namunalarini o'rganish jarayoni bilan bog'liq ravishda aruz she'riy tizimining nazariy masalalariga alohida e'tibor qaratilmoqda. Arabiy aruz arab tilining alifbosi, fonetikasi, imlosi va orfoepiyasi qonuniyatlari asosida hosil bo'lgan hodisaligiga qaramay, arab grafikasi asosidagi yozuvda bitilgan she'riy asarlarni o'rganuvchi turkiy aruzshunoslik bilan ko'pgina umumiyliklarga egadir. Ammo kirill va lotin grafikasi asosidagi zamonaviy o'zbek yozuvidagi matnlarga aruzshunoslikning barcha qoidalarini ham tatbiq qilish mushkullik tug'diradi. Har bir xalq aruz vaznini o'z ona tili qonun-qoidalariga moslashtirishga intilgan.

Unli va undosh tovushlar ohangdoshligi nazmda musiqiylikni keltirib chiqaradi. Qisqa, cho'ziq va o'ta cho'ziq hijolarning talaffuz me'yorini bilish ham muhim. Arab alifbosidagi 28 ta harf ming yildan ziyod mumtoz merosimizning asosini tashkil etadi. Eski o'zbek yozuvi undoshlarga asoslangan alifbo bo'lgani bois, unda qisqa va cho'ziq unli'larni ifoda etuvchi belgilar mavjud bo'lib, ular tilshunoslikda harakatlar, diakretik belgilar deb ham yuritiladi. Ular harf ustiga qo'yiluvchi (fatha — «a»), (zamma — «u») harf ostiga qo'yiluvchi (kasra — «i, e»)dir.

She'r vaznining o'z bo'laklari bor. Juzv arabcha so'z bo'lib qism, bo'lak degan ma'noni bildiradi. Juzvlar uch xil bo'ladi: sabab, vatad, fosila.

1. «Sabab» arabcha «bois», «bog'lov», «arqon» degan ma'nolarni anglatadi. Bir zarb va bir sokinda tashkil topgan *may*, *qul* kabi so'zlar «yengil sabab» deyiladi. «Og'ir sabab» esa ikki harakatli zarbli harflardan iborat bo'ladi: *o'zi*, *qaddi*, *xatti* kabilar shunga misol bo'la oladi.

2. «Vatad» arabcha «qoziq» degan ma'noni bildiradi. Uning ham ikki turi bor. Biri yig'iq bo'lsa, ikkinchisi yopiqdir. Birinchisida ikki oldingi harf zarbli, so'nggi harfi harakatsiz, zarbsiz bo'ladi. Masalan, *safar*, *qalam*, *zahar*, *zabar* va hokazo. Ikkinchisida ikki harakatli — zarbli harf orasida bir harakatsiz — zarbsiz harf ishtirok etadi. Masalan: *dona*, *xoma*, *jola*, *chora* va h.k.

3. «Fosila» arabcha «oraliq», «ajratish» ma'nolarini ifodalaydi. U ham ikkita turga ega: kichik va katta fosila. Birinchi uch harf zarbli, to'rtinchisi harakatsiz. Masalan: *mashq, naqsh, rashk* va hokazo. Ikkinchisi to'rt harf zarbli — harakatli, beshinchisi esa ust zarbli ohangga ega bo'ladi.

Sabab, vatad va fosilaning ma'lum bir silsila bo'yicha uyg'unlashuvidan yuzaga keluvchi nazmiy misralarga **ruknlar** deyiladi. Ular sakkizta:

1. Fauvlun (V — —).
2. Foilun (— V —)
3. Mafoiylun (— V — —).
4. Foilotun (— V — —).
5. Mustaf'ilun (— — V —).
6. Mafoilatun (V — V V —).
7. Mutafoilun (V V — V —).
8. Maf'uvlotu (— — — V).

Ruknlarning takrorlanishidan bahrlar hosil bo'ladi. Aruzda umumiy bahrlarning soni 21 ta:

1. Taviyl (uzun): fauvlun, mafoiylun.
2. Madiyd (cho'ziq): foilotun, foilun.
3. Basiyt (yoyiq): mustaf'ilun, foilun.
4. Vofir (mo'l-u ko'p): mafoilatun.
5. Komil (yetuk): mutafoilun.
6. Hazaj (qo'shiq): mafoiylun.
7. Rajaz (kuybop): mustaf'ilun.
8. Ramal (elish): foilotun.
9. Sari' (tez) mustaf'ilun, mustaf'ilun, maf'uvlotu.
10. Munsarih (ozod): mustaf'ilun, maf'uvlotu.
11. Xafiyf (yengil): foilotun, mustaf'ilun.
12. Muzori' (o'xshash): mafoiylun, foilotun.
13. Muqtazab (burdalangan): maf'uvlotu, mustaf'ilun.
14. Mujtass (qo'porilgan): mustaf'ilun, foilotun.
15. Mutaqorib (yaqinlashuvchi): fauvlun.
16. Mutadorik (so'ng anglashilgan): foilun.
17. Qariyb (yaqinlashuvchi): mafoiylun, mafoiylun, foilotun.
18. Jadiyd-g'ariyb (yangi): foilotun, foilotun, mustaf'ilun.

19. Mushokil (bir-biriga o'xshash): foilotun, mafoiylun, mafoiylun.

20. Ariyz (keng-u ochiq): mafoiylun, fauvlun.

21. Amiyq (teran-u chuqur): foilun, foilotun.

Sharq she'riyatining qadimiy janrlaridan biri ruboiydir. Nomanishi arabcha bo'lsa ham, ruboiy janri orqali mazmun ifoda etishning o'ziga yarasha usullari bor. Bu unga xos bo'lgan vazn ko'rinishidir. «Ruboiy» arabcha «to'rttadan» degan ma'noni ifodalaydi. To'rt misradan iborat bo'lgan she'rning hammasi ham ruboiy bo'lavermaydi. Tugal mazmun va shakldan tashqari, yuqorida aytib o'tganimizdek, xos vazn ham bo'lishi kerak. Ruboiy uchun mos vazn bo'lmasa, tugal mazmunli to'rtta misra bo'lgani bilan u ruboiy sanalavermaydi. Ruboiy aruzda yozilgani bilan hamma bahrlarga tushavermaydi. Uning o'ziga xosligi aruzdagi hazaj bahrining ikki xil tarmog'ida (axram va axrab, jami 24 ko'rinishda) yoziladi. Alisher Navoiy «Mezonul-avzon»da «Ruboiy vaznikim, oni «dubaytiy» va «tarona» ham derlar, hazaj bahrining «axram» va «axrab»idin istixroj qilibdurlar va ul vaznedur asru xushoyanda va vaznedur bag'oyat raboyanda...», deb yozadi¹⁸.

Ruboiy vaznlarini aniqlash boshqa janrdagi she'riy asarlarga qaraganda birmuncha murakkab. Buning boisi, ruboiylarda ko'proq tarmoq ruknlar ishtirok etadi. Boshqa she'riy asarlarda barcha misralar bir xil vaznda kelsa, ruboiylarda har bir misra alohida vaznda yozilishi, ya'ni to'rt misra to'rt xil vaznda kelishi mumkin. Bu ruboiy vaznlarini aniqlash murakkab degani emas. Oson yo'llari ham mavjud. Sharq adabiyotidagi ruboiylarda ishlatiladigan ruknlar o'ntagina bo'lib, ulardan to'qqiztasi mafoiylunning tarmoq ruknlaridan iborat.

1. Mafoiylun – solim (V – – –).

2. Maf'ulu – axrab (– – V).

3. Maf'ulun – axram (– – –)

4. Mafoiylu – makfuf (V – – V).

5. Mafoilun – maqbuz (V – V –).

6. Foilun – ashtar (– V –).

7. Faul – axtam (V ~).

¹⁸ Alisher Navoiy. Mezonul-avzon. – T., 1949. 35-b.

8. Faal – ajabb (V –).

9. Fo‘ – azall (~).

10. Fa’ – abtar (–).

Sharq adabiyotidagi ruboiylar rukn jihatidan ikki guruhga mansub: axrab va axram. Axrab guruhiga kiradigan ruboiylar mafoiylunning axrab tarmoq rukni – maf’uluga teng rukndan, axram guruhiga kiradigan ruboiylar esa mafoiylunning axram tarmoq rukni – maf’ulunga teng rukndan boshlanadi.

Ruboiy ruknlarini va uning bahrlarini aniqlash uchun har qaysi ruknning tarhini belgilab olish va shunga muvofiq ruknlarning paradigmasini tuzish lozim.

Misol sifatida Navoiy ruboiylaridan biriga murojaat qilaylik.

Jon-din-se	ni-ko‘p-se-var	ma-ney-um-ri	a-ziz,
– – V	V – V –	V – – V	V ~

maf’-u-lu	ma-fo-i-lun	ma-fo-iy-lu	fa-ul
-----------	-------------	-------------	-------

Son-din-se	ni-ko‘p-se-var	ma-ney-um-ri	a-ziz,
– – V	V – V –	V – – V	V ~

maf’-u-lu	ma-fo-i-lun	ma-fo-iy-lu	fa-ul
-----------	-------------	-------------	-------

Har-ne-ni	ki-sev-mak on	di-nor-tiq-bo‘l	mas
– – V	V – V –	V – – –	–

maf’-u-lu	ma-fo-i-lun	ma-fo-iy-lun	fa-’
-----------	-------------	--------------	------

On-din-se	ni-ko‘p-se-var	ma-ney-um-ri	a-ziz.
– – V	V – V –	V – – V	V ~

maf’-u-lu	ma-fo-i-lun	ma-fo-iy-lu	fa-ul
-----------	-------------	-------------	-------

Barcha bahrlarning vaznlari tafsilotiga to‘xtashning, albatta, imkoni yo‘q. Fikrimizning isboti tariqasida mumtoz merosimizda ko‘p qo‘llanilgan ramal bahrining vaznlariga to‘xtab o‘tish joizdir. Bu she‘riyatda eng ko‘p qo‘llaniladigan o‘lchovdir. Undan, ayniqsa, lirik asarlar, g‘azallar, muxammas va musaddaslar, shuningdek, tuyuqlar bitishda keng foydalanilgan.

Ramali musammani mahzuf. Ramal bahrining bu tarmog‘ida yozilgan she‘r baytlarining aruz va zarb ruknlari har bir misraning oxirgi ruknlari foilotun ruknining mahzuf ko‘rinishi – foilunga teng bo‘ladi.

Bu baytdagi olti rukn sadr va ibtido hashv ruknlari solim, ya'ni ularda foilotun rukni o'zgarishsiz takrorlangan, to'g'rirog'i, bu ruknlarni tashkil etgan bo'g'in guruhlarining har biri o'z tarkibi jihatidan foilotun rukniga teng.

Ramali musammani mahzuf vazni o'zbek mumtoz adabiyotida eng sevimli vazn hisoblangan. Har bir o'tmish shoirlarning asarlarida ushbu vazndan foydalanilgan holda qator nazm durdonalari yaratilganining shohidi bo'lish mumkin. Ularning lirik she'rlari, ayniqsa, ko'p g'azallari shu vaznda yozilganligiga iqrор bo'lamiz. Masalan, Alisher Navoiyning «Xazoyinul-maoniy» devonidagi 3132 she'rdan 1156 tasi, jumladan, 2600 g'azaldan 1089 tasi, Boburning 113 g'azalidan 42 tasi shu vaznda yozilgan. Buning sababi mazkur vaznning o'ynoqiligi, jozibadorligi, insonning rang-barang ichki kechinmalarini ifodalash uchun qulayligidadir. Boburning «koshki» radifli g'azaliga e'tibor qilaylik. Unda ayrim o'rinlar ifodali o'qish jihatidan murakkab bo'lganligi uchun aynan shu g'azalni tanladik.

Ko'r-ma-gay-er	dim-ja-mo-li	o-la-mo-ro	ko-sh-ki
- V - -	- V - -	- V - -	- V - -
fo-i-lo-tun	fo-i-lo-tun	fo-i-lo-tun	fo-i-lun
Bo'l-ma-g'ay-er	dim-bo-ri-o	lam-g'a-ras-vo	ko-sh-ki.
- V - -	- V - -	- V - -	- V - -
fo-i-lotun	fo-i-lo-tun	fo-i-lo-tun	fo-i-lun
Ish-q-bo-g'i	ning-ni-ho-li	ham-bo-ri-xir	mo-n e-mish.
- V - -	- V - -	- V - -	- V - -
fo-i-lo-tun	fo-i-lotun	fo-i-lo-tun	fo-i-lun
Qil-ma-g'ay-er	dim-bu-gul-shan	ni ta-mo-sho	ko-sh-ki.
- V - -	- V - -	- V - -	- V - -
fo-i-lo-tun	fo-i-lo-tun	fo-i-lo-tun	fo-i-lun
Qil-ma-g'ay-er	di-ko'-ngul-ish	qin-ha-vas-bal	tilga ham,
- V - -	- V - -	- V - -	- V - -
fo-i-lo-tun	fo-i-lo-tun	fo-i-lo-tun	fo-i-lun
Kech-ma-gay-er	di-a-ning-dek	la-f-z-as-lo	ko-sh-ki.
- V - -	- V - -	- V - -	- V - -
fo-i-lo-tun	fo-i-lo-tun	fo-i-lo-tun	fo-i-lun

Qo-shi-yo-lar ko'-yi-da-um ri-sha-ri-f-et gun-cha-sarf,

- V - - - V - - - V - - - V -

fo-i-lo-tun fo-i-lo-tun fo-i-lo-tun fo-i-lun

Qil-g'ay-er-dim mas-ji-du-meh ro-b a-ro-jo ko-sh-ki.

- V - - - V - - - V - - - V -

fo-i-lo-tun fo-i-lo-tun fo-i-lo-tun fo-i-lun

Ix-ti-yor et o'z-ga-ish-Bo bur-ki-ho-sil bo'l-ma-g'ay

- V - - - V - - - V - - - V -

fo-i-lo-tun fo-i-lo-tun fo-i-lo-tun fo-i-lun

Ish-qu-vas-lu ay-sh i-la-ish rat-din-il-lo ko-sh-ki.

- V - - - V - - - V - - - V -

fo-i-lo-tun fo-i-lo-tun fo-i-lo-tun fo-i-lun

«Koshki» radifi hamda «ishq», «lafz» so'zlaridagi bir yarim cho'ziq bo'g'inlarni to'g'ri talaffuz etish bilan birga bo'g'inlarni qo'shib o'qilishi zarurligini yoddan chiqarmaslik kerak.



GO'ZAL G'AZALLAR VA ULAR USTIDA ISHLASHNING BOSHLANG'ICH BOSQICHLARI¹⁹

Badiiy asarlarni ifodali o'qish aslida uqishdan boshlanadi. Ayniqsa, she'riy asarlar, xususan, aruz vaznida bitilgan mumtoz asarlarni qoidali o'qish alohida malaka, ko'nikma va bilim talab etadi. Deylik, qo'lingizda mumtoz shoirlarimizdan birining g'azali. Uni o'qishga kirishasiz. Oddiy she'rdan farqli o'laroq, ma'nosi sizga qorong'i bo'lgan so'z va iboralarga duch kelasiz. Ohangi va vazni ham sizga unchalik tanish emas. Bir marta o'qiysiz, ikki marta o'qiysiz. Takror-takror mutolaa etasiz, so'z nima haqida ketayotganligini bilsangiz ham, uni darrov tushunishingiz qiyin. Tabiiyki, bunday holda siz lug'atga ehtiyoj sezasiz, ba'zi so'zlarning

¹⁹ Ushbu mavzu adabiyotshunos olim, filologiya fanlari nomzodi Rahimboy Jumaniyozov bilan hammualliflikda yozildi – Adiba Nosirova.

ma'nolari, izohlari bilan tanishasiz. Shundan keyingina g'azal orqali shoir demoqchi bo'lgan maqsad birmuncha oydinlashadi. So'ngra ovoz chiqarib g'azalni bir necha bor o'qiydiz. Ayrim tovush va so'zlarni talaffuz me'yorini egallaysiz. Imkon bo'lsa, ovozingizni audiotasmaga yozdirib bir necha bor eshitib ko'rasiz. Qayta yozasiz, qayta eshitasiz. «O'qish uqishdan boshlanadi» degan fikr aktyor uchun birdek zarur va ahamiyatli ekanini his etasiz. Chunki u ovoz, nafas, ohang orqali g'azal mazmunini, g'oyasini sizga yetkazadi. Demak, tushunib uqqan holda ifodali, to'g'ri o'qish o'sha g'azalni olimona sharhlash yoki tahlil etish bilan barobardir. O'zi o'qib g'azalni tushunmasa, u hech nimadir. Tushunmaganning tushuntirishini tasavvur etish qiyin. «Dard chekkan tabib», «zar qadrini zargar bilar» kabi iboralar bejiz aytilmagan.

Aruz vaznidagi asarlarni o'qish quyidagi mezonlarni talab etadi:

1. Asar muallifi haqida qisqacha ma'lumotga ega bo'lish.
2. O'qilayotgan asarning adib ijodida tutgan o'rnini belgilash.
3. Asarning janri, mazmuni, vazni, g'oyasi haqida to'la ma'lumot to'plash.
4. Asardagi so'z, atama va iboralarning ma'nolarini lug'atdan topib qayd etish.
5. Shular asosida aruz vazni talablariga rioya etgan holda asarni ovoz chiqarib bir necha bor o'qish.

6. Ijroni sahna nutqi pedagogi nazoratidan o'tkazish zarur.

G'azal o'qiladimi yoki ijro etiladimi? Har ikkalasi ham to'g'ri. U ijro etilayotgan vaziyatda maqsaddan kelib chiqadi. Xoh suxandon bo'lsin, xoh aktyor, avvalo, chinakam ma'noda g'azalxon bo'lishi lozim. Ya'ni g'azalning baytma-bayt sharhini bilmagan taqdirda ham aqalli shoirning g'oyaviy niyati bilan bog'liq she'riy vazn talablarini bilishi maqsadga muvofiqdir.

Yaxshisi, Alisher Navoiyning oshiqona g'azallaridan birini tahlil etaylik.

Ushbu g'azal ishqiy mavzuda yozilgan Hazrat Navoiyning oshiqona g'azallari tarkibiyga kiradi.

Ko'nglum o'rtansun agar g'ayringga parvo aylasa,
Har ko'ngul hamkim sening shavqungni paydo aylasa.

Har kishi vaslin tamanno aylasam naumid o'lay,
Har kishi hamkim sening vasling tamanno aylasa.

O'zgalar husning tamosho aylasam chiqsun ko'zim,
O'zga bir ko'z hamki husnungni tamosho aylasam.

Hayr zikrin oshkora qilsa lol o'lsun tilim,
Qaysi bir til hamki zikring oshkoro aylasa.

Rashkdin jonimg'a har nargiz bir shu'ladur,
Bog' aro nogah xirom ul sarvi ra'no aylasa.

Yo'q og'izdin nuqta aytur mahvashimdek bo'lmag'ay,
Gar quyosh har zarrasidin bir Masiho aylasa.

Oqibat jonimg'a yetti, ey xusho, mug'kim, meni
Bir qadah birla xarobot ichra rasvo aylasa.

Kelturing daf'i jununung'a parixon, yo'q tabib,
Kim ul ansabdur pari har kimni shaydo aylasa.

Subhdek bir damda gardun qo'ymag'ay osorini
Nogah ahli sidq ko'ngli meqrin ishfo aylasa.

Dahr sho'xig'a, Navoiy, sayd bo'lma, nechakim
Kun uzori uzra tun zulfin mutarro aylasa.

Ma'lumki, ishq Navoiy ijodiyotida ikki xil: biri majoziy ishq, ikkinchisi haqiqiy ishq ko'rinishida keladi. Ishqi majoziy bandaning bandaga sevgisi bo'lsa, ishq haqiqiy esa bandaning yaratganga bo'lgan muhabbatini anglatadi. Tahlil jarayonida ana shu xususiyatni chuqur anglash kerak.

Aslida majoziy ishq haqiqiy ishq uchun vositadir. Majoziy ishqdan maqsad ishq haqiqiyga intilishdir. Chunki, Alloh vasliga yetishish ishtiyoqi shoir qo'lga qalam tutqazadi, unga ilhom baxsh etadi, kuch-qudrat, ruhiy quvvat beradi.

G'azalning mabda'siga e'tibor bering. Birinchi misraning o'zidayoq, hayotdagi yor vasli tilga olinadi. O'zgan qizg'anish boshqacha aytganda, muhabbat belgisi – rashq timsoli namoyon bo'ladi:

Ko'nglim o'rtansun agar g'ayringg'a parvo aylasa,
Har kungul hamkim sening shavqungni paydo aylasa.

Ishq yo'lida oshiq dili iztirob tortishi haq. Bu iztirobga sabab ikkita – biri yor vasliga intilgan oshiq qalbiga bee'tibor yorning nopisandligi, bevafoligi; ikkinchisi – ag'yorning oshiq sevgilisiga munosabati. Bu ikkalasi oshiq dilida tug'yon uyg'otadi. «G'ayr» so'ziga urg'u qilinishi bejiz emas, «g'ayr» aslida «yov», «dushman», «raqib» demakdir. Oshiq dili g'ayriga, ya'ni o'zgaga nazar qilmaydi. Chunki Allohdan o'zga ma'bud yo'q. Uning birligi, borligi haq. Shunday ekan, oshiq o'zgaga nazar tashlamaydi. Raqibning aldanchiligi, yorning bevafoligi Yaratgan tomonidan yaralgan (o'n sakkiz ming olam jihozlari) bamisoli dunyo ta'rifini o'zida mujassam etadi. O'tkinchi, ya'ni foniy, bevafo, yolg'onchi, besh kunlik degan ta'riflariga yaqin keladi. Birinchi misradagi mazmun zamondosh shoirlardan Erkin Vohidovning «Seni yotlar tugul, hatto-qilurman rashq o'zimdan ham, uzoqroq termulib qolsam, bo'lurman ham ko'zimdan ham», boshqa bir shoirning «Yuzingda ko'z izi bor, senga kim boqdi yorim» degan misralarini yodga soladi. Oshiqdagi barqarorlik, ishqdagi sobitlik, ma'shuqadagi beqarorlik qalb kechinmalaridagi ziddiyatlarning ifodasidir. Navbatdagi baytga o'tamiz:

Har kishi vaslin tamanno aylasam, navmid qilma,
Har kishi hamki sening vasling tamanno aylasa.

Oshiq dilidagi ishq muqim, u o'zgan iltifot kutmaydi. «Tamanno aylamoq» – umid qilmoq demakdir. Vasl umidi esa oshiq qayg'usi. Shu istak keyingi paytlarda to'ldirilib chuqur-lashtirib boriladi.

O'zgar husning tamosho aylasam chuqsun ko'zim,
O'zga bir ko'z hamki husnungni tamosho aylasa.

Xalqda «ko'zi chiqmoq» degan ibora bor. Navoiy uni o'z o'rnida ishlatib, oshiqning ruhiy kechinmalarini ifodalashga erishgan. «Ko'zi chiqmoq» iborasi oshiqning o'ziga nisbatan ham qo'llaniladi. O'zga husniga nazar tashlasam, «ko'zim chiqsin» deya o'ziga nisbatan ham shafqatsizlik qiladi.

Oshiqda oddiy ko'z o'rnini qalb ko'zi, ruh ko'zi egallaydi. Lekin undan aql ko'zi begona. Garangsib qolgan, aql-u hushdan begona, til lol, quloq kar, bosh karaxt — oshqlik holati asli shu.

Shoir ko'zdan tilga o'tadi. «Birovning ta'rifin degan tilim lol bo'lsin, o'zga birov ham sening nomingni tilga olsin, shu kuyga tushsin» degan hukm bor unda. Ma'shuqasini qizg'anishdan til ham, ko'z ham rashqqa yo'g'rilishi aniq.

Rashqdin jonimga har nargiz qo'zi bir shu'ludur,
Bog'aro nogoh xirom ul sarvi ra'no aylasa.

Alisher Navoiyning g'azallari orasida yolg'izlik, dilga yaqin arjumand topa bilmaslik bilan bog'liq matnlar ham uchraydi. Asrlar osha hofizlar tilidan tushmasdan kelayotgan g'azallaridan biri ushbu mavzudadir. Dastavval g'azal matnini to'liq keltiramiz:

Meni men istagan o'z suhbatiga arjumand etmas,
Sening istar kishining suhbatin ko'nglum pisand etmas.

Ne bahra topqamen andinkim, mendin istagay bahra,
Chu ulkim, bahraye andin tilarmen bahramand etmas.

Netay huru pari bazminki, qatlim yo hayotimg'a
Ayon ul zahrchashm aylab, nihon bu no'shxand emas.

Kerakmas oy ila kun shaklikai, husun malohatdin,
Ichim ul choq-choq etmas, tanim bu band-band etmas.

Kerak o'z chobuki qotilvashi majnunshiorimkim,
Buzuq ko'nglumdin o'zga yerda javloni samand etmas.

Ko'ngul o'z charx zolidin, firibin yemakim, oxir,
Ajali sarrishgtasidan o'zga bo'yunungg'a kamand etmas.

Ul oy qutluq yuzin ochsa, Navoiy tegmasun deb ko'z,
Muhabbat tuxmidin o'zga ul o't uzra sipand etmas.

Ushbu she'rni ifodali o'qish yoki ijro etish tabiiyki, uning mazmunini anglashdan boshlanadi. Shunday ekan, birinchi baytdagi fikrning o'ziyoq, g'azalning mazmuni va ohangidan darak beradi. Xalqimizda «Birov senga zor, sen birovga zor» degan maqol bor. Xuddi shu maqoldagi mazmun g'azal mabdasida o'z ifodasini topgan. Dunyoda qancha odam bo'lsa, did masalasida har biri o'ziga xos. Kimdir suvrat shaydosi, kimdir siyrat oshuftasi. Birovning did, saviyasi, dunyoqarashi ikkinchi birovga mos kelavermaganidek, insonning ikkinchi va tashqi olami ham bir emas. Diltortar suhbatdoshni topish ishtiyoqi shoir qalbiga ozor yetkazadi. Uni qiynaydi. Oqibatda yolg'izlikka mahkum etadi. Suhbatdosh uning maslahatdoshi. Demak, maqsad manziliga u bilangina yetish mumkin. Biri ko'ngildan so'z ochsa, ikkinchisi mulkdan. Bunday suhbatdoshning ro'yobi yo'q. Lekin o'zidan ko'ra yetuklik pog'onalarini ishg'ol etganlar bor. Oshiq o'ziga intilganlarga bee'tibor bo'lganidek, u intilmoqchi bo'lganlar ham unga e'tiborsiz:

Ne bahra topqamen andinkim, mendin istagay bahra,
Chu ulkim, bahraye andin tilarmen bahramand etmas.

Bahramand bo'lish va bahramand etishlik ma'rifatga intilishdir. Kishi dili qachon bahra oladi? U ma'rifiy suhbatdan bahramand bo'lsa, komilikka intilsa, oshiqning ongi-shuuri faqat yor suhbatiga moyil, uni o'zgalarning suhbatini dilini rom eta olmaydi. Ruhiiy ehtiyojini qondira olmaydi. Shuning uchun ham g'urur parilarning bazmiga u e'tiborsiz qaraydi.

Netay huru pari bazminki, qatlim yo hayotimg'a
Ayon ul zahrichashm aylab, nihon bu no'shxand emas.

Oshiq ko'ziga hech narsa ko'rinmaydi. U bamisoli zulmatda. Uzoq-uzoqlarda bittagina umid chirog'i miltillaydi. Haqiqat manziliga yetish uchun oldinda iztirobli yo'l bor. Har qancha og'ir

bo'lsada, unga yetmoq oshiq maqsadi. Uni yo'ldan ozdirish befoyda, jon-tanini yondirsa ham undan qaytmaydi.

Kerakmas oy ila kun shaklikim, husnu malohatdin.

Ichim ul yo'ldagi rohat, o'zga dildagi muhabbat, o'zga qo'ldagi muruvvat, o'zga yuzdagi malohat, o'zga so'zdagi samimiyat, o'zga ko'zdagi mehr-u sehr bari befoyda, oshiq qalbi unga talpinmaydi, oshiq ko'ngil qo'rquvini bilmaydi. O'zgani ko'zga ham ilmaydi. Shoir deganidek,

Oshiq devonalik, dostonan qo'rqmas,
Oshiq kishan, kunda, zindondan qo'rqmas,
Misoli och bo'ri oshiqlar dili,
Och bo'ri, alhazar, cho'pondan qo'rqmas.

Unga kuch-qudratni kim berdi? Bu haqiqat, haq suhbatiga, yaratganga vosil bo'lish umidi orqali tug'ilgan tug'yondir. Yorga qotilvash, chobuksuvor, ya'ni, epchil ta'rifi beriladi. Garchi shunday bo'lsa-da, uni «buzuq ko'ngul»dan uzoq ketmasligini, o'zga manzilda javlon etmasligini, ot choptirmasligini o'tinadi.

Kerak o'z chobuk qotilvashi majnunshiormkim,
Buzuq ko'nglumdir o'zga yerda javloni samand etmas.

O'lim qazoyi haq, tug'ilmoq — o'limga qo'yilgan birinchi qadamdir. Shunday ekan, bu dunyo anduhli nechun — u dunyoga bormoq uchun. Ajal sirtmog'i bo'yinga ilinmog'i muqarrar ekan, dilozorlik, o'tkinchi dunyoga mehr boylashlik nega kerak, degan mazmun navbatdagi baytda aks etgan:

Ko'ngul o'z charx zolidin, firibin yemakim, oxir,
Ajaj sarishtasidan o'zga bo'ynungga kamand etmas.

G'azal maqta'ida (tugallanmasida) Navoiy ajoyib bir obraz qo'llaydi. Xalq orasida mavjud bo'lgan «ko'z tegmoq» iborasini misra zamiriga joylab, uning mohiyatini ochishga erishgan. Yuzdan harir pardani surganda, bu husn-u malohatga, o'tlug' oy yuzga, chiroyga hamma ham qarashga botina bilmaydi. Shu bois, shoir

unga ko'zmunchoq taqishga tayyor. Hech bo'lmasa, «ko'z tegmasin» ma'nosida isiriq tutatishga ham hozir. Isvand, oddiy isiriq emas. U «Muhabbat tuxmidan bo'lgan otash taftli isvand». Uning shu qo'l bilangina badnazarlardan saqlash mumkin. Oshiq yor vasli hayotiga ko'chmasa-da, xayolida bo'lishidan ham shod. Yor-yaratuvchi diydoriga musharraflik tiriklikdan keyingi hayotga daxldorligini anglab yetsa-da, inson siyrat-u suvratida unga moslik zarur bo'lishini uqtiradi. Hayotdagi yor obrazi unga yetishuv yo'lidagi vosita. Chunki mashuqa siymosida Yaratuvchining tajallisi, go'zalligi aks etadi. Har ikkala yor obrazi xuddi shu o'rinda o'zaro uyg'unlashib ketadi:

Ul oy o'tlug' yuzin ochsa, Navoiy tegmasun deb ko'z,
Muhabbat tuxmidin o'zga o't uzra sipand emas.

Mana, g'azalga ilk nazar tashlaganda paydo bo'lgan umumiy mulohazalar. Aqalli, o'qishdan oldin g'azalning mazmunini xuddi shunday tushunishga intilish lozim.

She'riy asarlar, xususan, aruz vaznidagi nazmiy bitiklarni qoidasiga muvofiq o'qish ham shakl, ham mazmunga daxldor ekanligini doimo esda tutish zarur. Aruz vazni ilm bilan o'qiladigan vaznlardan. Nazar tashlangani hamonoq, o'qib ketish mushkul. Uning ruku, bahrlari va vaznini aniqlab keyin ishga kirishish shoirning maqsadi va she'rning mazmunini to'laroq tushunishga imkon yaratadi. Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, quyidagi talablar aruz vaznidagi she'rlarni o'qish uchun foydali qoidalardir:

1. Har qanday matn – xoh nasriy, xoh nazmiy shaklda bo'lsin, uning shakl-u shamoyiliga mos tarzda mazmun va o'qish texnikasining uzviy birligini saqlagan holda mutolaa etish talab etiladi.

2. Aruz vaznida bitilgan nazmiy bitiklar bir necha marotaba ovoz chiqarilib o'qilishi zarur. Ma'nosi notanish so'zlarni izohli lug'atdan foydalangan holda ko'rib, uning matndagi o'rniga e'tibor berish shart.

3. Matndagi so'z va iboralarning asl ma'nosini izohli lug'atdan ko'rib chiqish va ularning asarda tutgan o'rnini to'g'ri belgilash. So'zlar qo'llanilishi jihatidan istilohiy, majoziy yoki tasavvufiy talqinda bo'lishini e'tibordan qochirmaslik kerak.

4. Ifodali o'qish texnikasi, matn mazmuni va hissiyotning uyg'unligidan iborat uch birlik qonuniga qat'iy amal qilish zarur. Texnikaga e'tibor berib, mazmun chetda qolsa yoki hissiyot (pafos)ga urg'u qilinib, matn mazmuni e'tibordan soqit qilinsa, kutilgan natija va samara bo'lmasligi aniq.

5. Ovozning baland-pastligi (tembri), sur'ati (tempo) ijrochining xohishi bilangina emas, balki matnning mazmuni va shaklidan kelib chiqishi foydalidir. Har bir san'atkor o'z iqtidori, imkoniyati doirasida ijro etadi. Bu esa uning bilimi, saviyasi va xarakteriga bog'liq ruhiy hodisadir.

6. O'qilayotgan matnning ruhi, mazmuni ijrochining yuzko'zida, qalb-u qiyofatida yaqqol aks etishiga erishish lozim. Shundagina uning ta'sir kuchi bilinadi.

7. Ijroni sahnaviy nutq pedagogi nazoratidan o'tkazish shart.



SAHNAVIY NUTQNI TAKOMILLASHTIRISH UCHUN QO'SHIMCHA MANBALAR

**Nutqning ohangdorligi turlarini o'zlashtirish, muomala va so'z
harakat uyg'unligini mustahkamlash uchun maxsus matn
namunalari**

Sodiq Nurimbetov

O'zbekiston

O' – deganda O'zbekistonim mening,
O'zbekiston bog'-u bo'stonim mening.
O'zligim farzand bilib bu o'lkada,
O'ynabon keldim gulistonim mening.

Z – deganda zavq bilan chertdim rubob,
Zavq bilan ham shayq bilan chertdim rubob.
Zap go'zal Toshkentda sayli bog' etib,
Ziynati-husniga men chertdim rubob.

B – deganda baxtiyorman naqadar,
Baxt qushi qo'ndi (boshiga) mo'tabar.
Barcha xalqlar qo'l berib ham do'st bo'lib,
Bir-biridan (doimiy) olsin xabar.

Ye – deganda yel kabi gulzor aro,
Yelpinib kezdin, dedi gul: Marhabo!
Yetkarib gullar yoringa bir quchoq,
Yelkasidan oshirib suydin mano.

K – deganda ko'kragimni tog' etay,
Ko'm-ko'k yer ruxsorini gulbog' etay.
Kel deya do'stlarni bog' sayliga men,
Ko'nglim ayvonin hamisha chog' etay.

I – deganda ilhomim daryo kelur,
Ishva bilan qomati barno kelur.
Imlasam gar uyqu ichra yonima,
Ishq parisi yoki kelmas, yo kelur.

S – deganda sog'inib yorimni men,
Sochi sunbul ko'zi xumorimni men.
Sabzazor bag'rida xushhol kezaman,
Subhidamda yangratib torimni men.

T – deganda tog' oshib, sahna oshib,
To'lg'anib ham misli dengizday toshib,
Tark etib sayri sayohatni jadal,
Topaman yorim visolin shoshib.

O – deganda odim-u hokida ozod,
Obod o'lka erkalar bag'rini shod.
Omadim kelgan mening har doimo,
Orzu-istak bobida qilgum ijod.

N – deganda nonni o'ylayman faqat,
Non emas, do'stlarni o'ylayman faqat,
Nom chiqardim O'zbekistonimda men
Nurimbet deb baxtni kuylayman faqat.

*Ona tilining buyuk ahamiyati shundaki, u
ma'naviyat belgisi sifatida kishilarni
jipslashtiradi.*

I. Karimov

ONA TILI – MILLAT DILI

Ergash Shodmonov she'rlari

Ona tilim – taxtim mening

Seni taxtim, seni baxtim,
Taqdirim deb tanti til,
E'tiqodim amri bilan
Ta'riflashga haqliman.
Millatimga madhiyasam –
Dovrug' solib jahonga
So'ylagan ming yillikdan –
Tinglagayman, baxtliman.
Sen borsanki, «Avesto» ham
Zardushtiydan so'ylagay.
Sen borsanki, Urxun xati
So'ylar Sibirdan hamon.
Sen borsanki, «Zabur», «Injil»,
«Qur'on», «Hadis» jamuljam,
Olloh amrin ado etur –
Imon qilur imtihon.
Sen borsanki, ellar elga,
Dillar dilga payvand,
Sen borsanki, kelajagi
Buyuk davlat urar bong.
Sen borsanki, Xumo qushi
Qanotida bong urib.
Yasharadi tafakkur ham,
Ta'limot ham – har bir ong.

Ona tilim

Ona tilim —
Joni dilim,
Sen-la kamol
Topdi elim.
Ona tilim —
Joni dilim,
Seng-la ravon
Yurgan yo'lim.
Ona tilim —
Joni dilim,
Baxtim sendan —
Yurtim so'lim.
Ona tilim —
Joni dilim,
Ta'zim senga,
Berding bilim.
Ona tilim —
Joni dilim,
Sen-la mag'zur
O'zbek elim.
Ona tilim —
Joni dilim,
Sayrayver sen,
Hoy, bulbulim.

Dil sozi

Ey, ona til, aziz qadrdonim
Itiqoti ruhim, rahmonim,
Tug'ilgan kundand aylading ulfat,
O'lguncha ayrilmam, ey jonim.

Abdulla Avloniy

Jaranglaymiz – dil sozimiz,
Aqldan fol ochamiz.
Tafakkurga tarozimiz –
Har qalbdan nur sochamiz.
O‘tsak ko‘ngil ko‘chasidan,
Derlar zargar – gap-gavhar.
Aql bog‘in kezib bir-bir,
Tilga chiroy, bo‘lsak zar.
Nutq tuzamiz – «Darak», «So‘roq».
Ba‘zan «Buyruq», «Undov» gap:
Chertgan kabi qalb sozini,
Sozandalar bo‘lib saf.
Chunki bizning keng bag‘rimiz,
Ona tilim badavlat.
«Ha», «Xo‘p», «Mayli», «Tasanno» ham
Nutqda to‘kadi savlat.
Maqol, matal, ibora-chi,
Qalb qo‘riga tarozi:
Qay birining mag‘zin chaqmang –
Jaranglaydi dil sozi.

Tovushlar ta‘rifi

Tovushlarni ta‘riflay:
Ular tilning zargari.
Alifbodan shu bois
Joy olishibdi bari.
Talaffuzda har tovush
Eshitiladi mayin,
Har biriga bitta harf
Zeb beradi atayin.
Katta deymiz, kichik harf,
Bosma, yozma – bir ziynat.
Xizmat qilar barchasi
Ona tilga beminnat.

Alifbo
(Kezar harflar kemada)

– Alifbo deymiz har chog‘,
Ayting, o‘zi nima u?
– Harflarni tizib saf-saf,
Dengiz suzgan kema u.
«A» – birinchi, «B» – ikkinchi
Alifbodan olgan joy,
«Alifbo» deb atashgandir
Shu boisdan, hoynahoy.
Alifbolar bir talay –
O‘zgacha, o‘ziga xos,
Yaratar har el uni
Ehtiyoj, talabga mos.
Harf deymiz, deymiz tovush,
Ayting, farqi nimada?
– Tovushlarga nom bo‘lib,
Kezar harflar kemada.
Unli deymiz, deymiz undosh
Qo‘yib nom har birini,
Lekin nega shunday deymiz?
Tushuntiring sirini.
– Unlilarda un – ovoz
Baralla jaranglaydi.
Kim yod olsa o‘rnin bilib,
Sir-asrorin anglaydi.
«A» – birinchi, «E» ning esa
To‘rtinchi katak o‘rni.
Har birin mag‘zin chaqing,
Qolgan to‘rtta tengqurning,
Undoshlar-chi? Ovoz – shovqin
Qo‘shilishib tushar raqs.
Xuddi ikki qo‘ldan birday,
Chiqqan kabi sirli qars.

Shu boisdan nom berishgan,
Unli-undosh munosib,
Siz, o'quvchim, to'g'ri ayting,
Qolmangiz yana shoshib.
Sirlashing harflar bilan,
Keng kemada qilib sayr.
Kemasoz ustalarga,
— Rahmat, deng. Xo'pmi? Xayr!

Olti og'a-ini

Oltovmiz biz, unutmang,
Barchamiz og'a-ini.
Bizda faqat sof ovoz,
Barcha bilsin-da buni.
O va A — biz qardosh,
I va E esa safdosh.
U va O' ham bor yana,
Hammamiz so'zda bosh-qosh.
So'zda qatnashsak qancha,
Bo'g'in tuzilar shuncha.
Tuzilsa bo'g'in safga
Paydo bo'lar tushuncha.
Ba'zan A? — deng, ba'zan U.
Bulardir gap — harf demang.
Bu so'z sehri, o'quvchim,
Farqin bilmay pand yemang.

Qadrdonlar

Yigirma uch qadrdon —
Deyishar bizni undosh,
Ovoz-shovqin raqsidan
Quvnaymiz bo'lib jondosh.
Har so'zda bor o'rnimiz,
Avval, oxir, juft yo toq.

Biz ma'noga zeb bersak.
Yonda bor unli o'rtoq.
Jarangli-yu jarangsiz,
Sirg'aluvchi safda bor.
Portlovchi, titroq, toyg'oq,
Qorishiq ham do'st-hamkor.
Talaffuzda tovushmiz,
Yozuvda-chi surat-harf.
Yod oling «Alifbo»ni,
Vaqt bo'lmasin ortiq sarf.

So'z sehri

Tovushlarni aytib ko'ring.
Eshitilar mayin, soz.
Yozsangiz-chi, harf bo'ladi,
Yasab so'z, qilar parvoz.
Har bir so'zda bir ma'no bor:
– U kim ekan? – Shohruh, Tosh,
Har bir so'zda bir ma'no bor:
– U nimadir? – Ugra osh.
Har bir so'zda bir ma'no bor:
U qanday so'z? – Qizil, oq,
Har bir so'zda bir ma'no bor:
– Nima qilay? – Marjon toq.
Har bir so'zda bir ma'no bor:
– Qancha ekan? – Besh, o'nta.
Har bir so'zda bir ma'no bor:
Uni deymiz tushuncha.
Tushunchani ta'rif etay:
So'zda yashar yashirin.
So'z – chimildiq, aql esa
Tushuncha, go'yo kelin.
So'zni dedim zar chimildiq,
Tushunchani hur kelin.
Har ma'noga bersin bir zeb
Fidoyisi o'z tilin.

Gapvoy deydi

Gapim tinglang, o'quvchim:
Men matnda bo'laman.
Burro-burro aysangiz,
Mazmunga liq to'laman.
Matnga men qon-tomir —
Menda so'rog'-u buyruq.
His-hayajon jam bo'lsa,
Fikr bo'lar to'p-to'liq.
Shu bois har o'quvchi
So'zlasin aniq, ravon.
Bunga qilmasa amal,
Nutqi bo'lar notavon.

Bo'g'inglang-chi, bormi farq?

Janub, Shimol, G'arb va Sharq:
Bo'g'inlang-chi, bormi farq?
Farqi bo'lsa, qiling bayon,
Siri bo'lsin bizga ayon.

Ism-sharif

Meni yozing bosh harf bilan
Deydi Yorqin, Yoqutoy.
Meni yozing Shodmon o'g'li —
Ism-sharif bir talay.
Po'lot qizi Norchuk deydi:
— Avaz qizi dugonam.
Tur dal qizi Hurbuv deydi:
— Zarsuluv ayadir onam.
«G'irko'k», «Tulpor», «Mitti»larchi —
Aytiladi sharifsiz.
Asli shunday — faqat nom bor,
Boshqacha hech ta'rif yo'q.

Ishorat belgilar bellashuvi

Ishshayib ishoratlar,
O'zni qildilar ko'z-ko'z.
Navbat bermay o'zgaga,
Bidirlashib aytdi so'z:
Hoy bolalar, bolalar,
Biz o'n uchta purviqor,
Har matnda bezakmiz,
Unutmang buni zinhor.
Nuqta, So'roq, Undov – biz
Turamiz gap so'ngida.
Xabar, so'roq, hayajon –
O'quvchi ko'z o'ngida.
Bizlarni Vergul, Tire,
Ko'p nuqta, Qavs deydi.
Ko'p nuqtavoy, Qo'shtirnoq
Nuqtamiz g'amin yeydi.
Nuqta, Vergul bizga do'st,
Chiziqcha ham bor yana.
Urg'uxon va Tutuqvoy,
So'zga beradi ma'no.

Men undovman

Men, undovman, hoy bola,
Shavqi-zavq doim sirdosh.
Oshsa ham hayajonim,
Har gap beradi bardosh.
Ba'zan ayang ardoqlab:
– Balli, bolam, – desalar,
Ba'zan muallim: – Senimi! –
Deb po'pisa qilsalar.

Ba'zan bobong chaqirib:
– Hoy, qayerdasan? – desalar,
Ba'zan oshnang baqirib:
Voydod! Yordam! –deb qolsa,
Ba'zan dadang hovliqib:
– Qayerda eding?.. – desalar,
Ba'zan iting dabdurust:
–Hov-hov! Hov-hov! – deb qolsa,
Barchasiga men tayyor.
Ba'zan dardi hol bo'lib,
O'pkasi to'lib-to'lib,
Oldimdan joy oladi,
O'roqvoy – so'roq, ayyor...

Vergulvoy deydi

O'zim kichik, ishim nozik:
Har matnda bor o'rnim.
Gap-so'zlarni ajratishda
Safda bo'laman jim-jim.

Ikki nuqta deydi

Meni dedingiz qo'sh nuqta:
Vazifam bayon qilish.
Mazmun bo'lsa sal tumpoq,
Mag'zin chaqib ayon qilish.

Ko'p nuqta deydi

Uch nuqtavoy deb meni
Yodga oling, suying siz.
Gapda tushsa biror so'z,
Shu o'ringa qo'yingiz.

Menda armon qolmasin

Tutuq belgi bo'lsam-da,
So'zda mening o'rnim bor.
Jur'at, Sur'at, Sa'diyda,
Yozing meni, qilmang or.
A'lochi Ma'ruf, A'zam,
Ma'muraga men darmon.
Barcha yetsin qadrimga,
Menda qolmasin armon.

Ishorat belgilar bazmida

Qonunda qo'riqlangan qo'rg'onim
Ona tilim,
Mangulik yo'llarida sarbonim,
Ona tilim.

Mukarram Murodova

Matn mardligi tutib
Uyushtirmoq bo'ldi bazm.
O'n uchta ishoratni
Chorlashga qildi jazm.
Har ishorat ishshayib
Shoshildi bu bazmga.
Quvonch qaynar dilida
Keldi bazmi azimga.
Matn dedi: — Do'stlarim,
Siz o'n uchta qadrdon —
Qon-tomirsiz menga siz.
Unutmang buni har on.
Qalbimning to'ri sizga,
Bo'lsin aziz xonadon —
Gap-so'zlarga oroyish
Berasiz quvnab shodon.

Nuqta, So‘roq, Undov – siz
Girgitton har gap yonida.
Nuqta, Vergul, Ko‘p nuqta –
Oqarsiz gap qonida.
Vergul, Tire, Qo‘sh nuqta,
Tilga qanot uchamiz.
Qavs, Qo‘sh tirnoqni ham
Ardoqlaymiz – quchamiz.
Chiziqcha-yu, Urg‘uoy,
So‘z – ma’noda tanu-jon,
Tutuq belgi ba’zi bir,
So‘zda suzar – go‘yo qon.
Mana, qalbimni ochdim
Va turibman yuzma-yuz,
Siz, azizlar, tortinmang,
Ayting bunda biror so‘z.
Matn boqdi barchaga
Va nuqtaga berdi so‘z.
U-chi pildirab darhol,
Bisotin qildi ko‘z-ko‘z:
– Navbat keldi do‘stlarim,
Aytay gapning puxtasin.
Kimki yozsa fikrlab,
Men bor joyda to‘xtasin.
Darak gapga darmon men,
Kim unutsa armon men.
Qizil qalam dushmanim,
Besh bahoga farmon men.
Sokin buyruq, iltimos
So‘ngida ham men tayyor.
Kim shoshilsa, o‘rnimda
G‘o‘ddayar undov-ayyor.
Yozib qolsa kim raqam,
Qo‘ysin meni qilmay or.
Ism sharif – qisqartma
Har dam menga intizor.

Hind-u qiz peshonasin
Bezadimu bo'ldi xol.
O'rnim bilib qo'ysin kim,
Gap – so'zga bo'lgum bol.
Shu bois, ham laqabim
Bo'ldi tayin – «qora xol».
Unutsa kim shoshilmay
Qo'ysin o'rnimga darhol.
– Sal suzilib «qora xol»
O'z o'rniga o'tirdi.
Navbat olib so'ng so'roq,
Zo'rg'a o'rnidan turdi:
– Men so'roqman, men so'roq,
Quloq, o'roq demangiz.
So'roq gapda qo'ymasdan,
Xo'p pushaymon yemangiz.
Desa: – Nima? – Qanaqa?
Men turibman, huv, ana.
Desa: – Qanday? Qancha, Kim?
Yonidaman men yana.
Tafakkur tiyrangligi
Men bilan. Kim bilmaydi.
Mendan nutq biyronligi –
Nega ko'zga ilmaydi?
Ba'zan so'roqda qo'rquv
Yoki bo'lsa hayajon,
– Nima gap? – deb yonimga
Shoshilar Undov – vulqon.
Yana bir sir aytayin:
Or qilmang, matn og'a.
Tumtoq gapdan so'ng meni
Qo'yishsin tilchi og'a.
– Tush... tushundingmi?... deb,
So'zni tugatdi So'roq.
Qarsak, olqish yoqdimi –
Egildi misli o'roq.

Navbat keldi g' o' ddayib,
Minbarga chiqdi undov.
Hayajonin bosolmay,
So'zga ketdi beto'xtov.
— Hoy go'zal oy! Go'zal oy!
Chiroying ko'zing bilan.
Tilingdan tomgan tug'yon
Suronli so'zing bilan, —
Deyman gapda hayajon,
Bo'lsa turib yonida.
Nafrat, g'azab yo dahshat
Oqsa jumla qonida.
Gapda fikr dengizday
Chayqalsa, chalib sozin.
Ikkov-uchov tizilib,
O'lchaymiz ko'pin-ozin.
Ba'zan undalma atay
Minsa asov otini,
Yonboshida turaman,
Tatib seving totini.
Bu bazmda bilsangiz,
So'zlash menga qanday baxt.
Menday keyin bosh harflar,
Saf tortishga qilgay ahd.
Gar bo'lsa yo'l xatarli,
Tik turaman — Ishora.
Deyman chekmay nadomat,
Haydovchi ko'rsin chora.
— Rahmat senga, Undovbek... —
Deb qoldi Matn mag'rur.
— Endi so'z Vergulchaga, —
U ham sizlarga tenqur.
— Mayli atang Vergulcha,
E'tirozim yo'q uncha.
Lekin vazifam bisyor,
Xizmat qilay o'lguncha:

Gapda bo'lak uyushsa,
Orasida men tayyor.
Menda har kim yarim pas,
To'xtab o'tsin qilmay or.
Undalmaxon gap-so'zda
Intizor menga har choq.
Qay o'rinda kelmasin,
Quchaman ochib quchoq.
Gap boshida kelsa gar,
Undan keyin men tayyor.
Kela qolsa o'rtada,
Ikki yonida men bor.
Gap so'ngida undalma,
Kelsa g'ayrati toshib,
Undan oldin turaman,
Unutmasin deb shoshib.
Mazmun ortar uchrasa,
Gapda so'zlar takrori,
Men turaman o'rtada,
Bo'lib ular dastyori.
Kirish kalom tushib raqs
Gapda olsa qayerdan joy,
Chorlar meni yoniga —
Mazmun bo'lsin deya boy.
Ko'rdingizmi, mendan-chi
Rohatlangay sahifa.
To'g'ri qo'yish o'rnimga
O'quvchiga vazifa —
Deya vergul, qo'l ko'ksida,
Yon do'stiga gap soldi.
Shunda shoshmay nuqta vergul,
So'z navbatini oldi.
— Hamkasblar, men ham sizga,
— Hamdardman ko'p, oz-kam,
Ahyon-ahyon shul maydonda,
Safda bo'lurman bir dam.

Uyushtirib bo'laklarni,
Safga tizsalar jam-jam.
Orasida tik turaman,
Bo'lmay ziyod, birdan kam.
Qo'shma gapning qatorlari
Bo'lsa yoyiq — bir talay,
Mazmuniga malham bo'lib,
Zeb beraman, har qalay ...
Shunda shoshmay ikki nuqta,
Boqdi unga termulib.
Xolin so'rab matn katta,
So'z berdi unga kulib:
— Senga aytsam, nuqta vergul,
Vazifam senga o'xshash:
Uyushiqdar umumlashsa,
Men ularga ko'z-u qosh.
Raqam, harflar sanalsa-yu,
Bo'lsa so'z yo «begona»,
Mehrim bergum har biriga,
Bo'lib go'yo bir ona.
Qo'shma gapning mazmunidan
Anglashilsa natija,
O'rtasidan o'rin olib,
Nafas olgumdir picha.
Muallif gapin ko'chirmadan
Ajratishda qo'yilgum.
Kim bilmasa bu qoidani,
Bo'lib dushman tuyulgum.
Qavs, tire va ko'p nuqta,
Qo'shtirnoq ham shu onda
Chuldirashdi so'z so'rashib:
— Nutqda biz ham bir tanda.
Matn shunda uzr so'rab,
Xizmatin sanar barin.
Ham ishora tahsin ortdi
Matnbekka — kamtarin.

Tashrif buyurishdi shunda
Shohruh, Farruh bazmga.
Taklif qildi barchasini
Maktab – bazmi azimga.
Shohruh dedi: Ey, azizlar,
Siz – zargarsiz, nutq – zar,
Matn qaddi bukchayar,
Biringiz bo‘lmang agar.
Maktabda, – dedi Farruh,
«Til bayrami» o‘tadi,
Bayramda sizni barcha:
O‘quvchi, el kutadi.

Tsion-San
(*Yapon xalq ertagi*)

A.Sayfuddinov tarjimasi

Tsion-San tug‘ilgan paytda onasi juda holdan ketgan edi. Undan o‘g‘liga qanday ism qo‘ymoqchi ekanligini so‘raganlarida faqatgina «Tsion» dedi-yu, olamdan o‘tdi.

Nachora chaqaloqni qisqagina «Tsion-San» deb atashga to‘g‘ri keldi. Bolalar-chi, hazillashib unga faqat «Tsion» deb laqab qo‘ydilar. Otasi bir-ikki yil kuyib yuridida, qayta uylandi. Bu xotinidan ham o‘g‘il ko‘rdi. O‘gay onada o‘z farzandiga eng chiroyli ism qo‘yish xohishi bor edi. Kampirilar unga «Agar bolaga qisqa ot qo‘yilsa, uning umri ham qisqa va baxtsiz bo‘ladi. Agar uzun bo‘lsa uning umri ham uzun va baxtli bo‘ladi» deb nasihat berishdi. O‘gay ona uch kecha-yu, uch kunduz o‘ylab unga shunday ot qo‘yibdi: Deynyuda, Konyuda, Mopiranda, Xritinokomeyto, Xiratanyudo, Seyxortonyudo, Xeytoko, Xeytoko, Xeygonoko, Xaritonomoniyeto, Xaritonokomeyto, Tsigariko, Tsigariko, Tsioni, Tsioni, Tsitarabetsimu, Nagayetsumu, Ayamenu, Keomonu, Ayalosu, Kosu-mosu, Meosuno, Masinuno. Tsiyanan, Tsiyausona, Xoxutzona, Oysuxnyan.

Aka-uka birga o'ynashar va oralarida tez-tez urush janjal bo'lib turar edi. Kenja o'g'il judayam sho'x va urishqoq edi. Ko'p mahal-lar faqat «Tsion beri kel, Tsion meni tutib ol-chi» – deb Tsion-Sanni joniga tegar edi. Tsion-San ham achchiqlanib masxarala boshlar edi. «Deynyuda, Konyuda, Mopiranda, Xritinokomeyto, Xiratanyudo», – deb tomog'i qaqrab hiqichog'i tutib qolar edi.

Sizningcha, qanday? Kimning otini aytish oson? Tsion-Sannikimi yoki ukasinikimi? Albatta Tsion-Sanniki. Shuning uchun uyda har doim Tsion-San beri kel, Tsion-San uni qil, Tsion-San buni qil degan gaplar eshitar edi, xolos. Agar otasi kenja o'g'ilni urushmoqchi bo'lsa-chi, «Deynyuda, Konyuda, Mopiranda, Xritinokomeyto, Xiratanyudo, Seyxortonyudo, Xeytoko, Xeytoko, Xeygonoko, Xaritonomoniyeto, Xaritonokomeyto, Tsigariko, Tsigariko, Tsioni, Tsioni, TSitarabetsimu, Nagayetsumu, Ayamenu, Keomonu, Ayalosu, Kosu-mosu, meosuno, masinun, Tsiyanan, Tsiyausona, Xoxutszona, Oysuxnyan», – deb charchab qolar va qo'l siltab qo'yar edi. Agar onasi kenja o'g'ilni erkalamoqchi bo'lsa-chi. «Deynyuda, Konyuda, Mopiranda» – deb erkalar edi.

Bir kuni aka-uka quduq oldida o'ynashib o'tirib Tsion-San to'satdan quduqqa tushib ketadi. «Hoy Tsion-san, Tsion-San», – deb bolalar ularning uyiga yugurishadi.

Tsion-Sanga baxtsizlik ro'y berdi. Tsion-San quduqqa tushib ketdi. Odamlar yetib kelib quduqqa arqon tashladilar. So'ngra narvon tushirib Tsion-Sanni qutqarib qoldilar.

Ertasi kuni aka-uka yana quduq bo'yida o'ynashib o'tirib, ukasi Tsionni mazax qila boshladi.

Ana faqat Tsion quduqqa tushib ketadi. Bunga sabab uni oti qisqaligi. «Mana men bo'lsam hech qachon yiqilmayman, chunki mening ismim uzun», – dedi-yu, shu zahotiyiq o'zini tuta olmay chelakni ushlaguncha quduqqa tushib ketdi.

Bolalar ularning uyiga yugurishdi. «Deynyuda, Konyuda, Mopiranda, Xritinokomeyto... quduqqa tushib ketdi!»

Odamlar quduqqa yugurib kelib arqon tashladilar, narvon tushirib uni olib chiqdilar. Ammo vaqt o'tgan edi. Haddan ortiq uzun ism tufayli u suvga cho'kib o'lgan edi.

«B» harfidan tuzilgan bir latifa

O'zbek tili shunaqa bir boy tilki, mana shu o'zbek tilining boyligini sizlarga isbot qilish uchun, «B» harfidan tuzilgan bir voqelikni bayon qilmoqchi edim. Diqqat-e'tiboringizni bersangiz, so'zimning barchasi «B» bilan boshlanadi.

Bo'lmasa boshladik. «Bahrom bilan Boqivoy bedazorga borishdi. Bedazorga borishsa, Boqivoydi bahaybat bir buqasi bo'shalib, bedani bosadi...»

Bunisi bo'lmapti. Bizziki boshqacha. Boyni bitta-yu bitta bolasi bo'ladi. Bolasiyam boshqacha bir bola bo'ladi-da. Bir bo'ladigan, baquvvat bola bo'ladi. Bu bola boy bilan birga boqqa boradi. Bog'am-bog'misan bog'! Bahaybat bir bog' bo'ladi. Bog'da beshta bedana bo'ladi. Bu bedana boydiki bo'lmaydi, birovdiki bo'ladi. Bola buni bilmaydi-ku?! Boy bitta bedanani boshidan bog'lag'ich bilan boylab bolaga beradi. Bola bedanaga bug'doy beradi. Bedana bug'doyi bilmaydi-ku! Bilasizmi-bilmaysizmi, bilmadimu, bedanaga bedanani boshini bersa bo'ladi, bug'doy bo'lmaydi. Birdan bog'ni bir burchagidan bir boboy baqiradi. Bu bedana boboydiki bo'ladi-da, bola buni bilmaydi. Bola baribir bolada, bedanani boboydan berkitadi. Berkitgan bilan baribir bolaning basharasidan bilinadi-ku. Boboy buni biladi. Bilib bolaning basharasiga bitta «bang» beradi. Bola behush bo'ladi. Bola boyning bolasiligini boboy bilmaydi-ku.

Bolaga bolalikdan bilim bo'lsin. Bilim beshikdan boshlanadi. Bolla, barchangla bilimli bo'linglar. Bilim bo'lmasa bo'lmiydi. Bizda bilim borligidan bidirlayapmiz. Bo'lmasa bidirlamasdik. Bilsanglar bemalol bidirlangla-chi, bidirlolmisilar! Bu bilim bo'lmaganidan! Bizdi bobolarimiz, buvilarimiz barisi bilimli bo'lgan. Bizga bilim bergan. Bizda bor, bidirlayapmiz. Bobolarimiz bor-u Boburlar, Behbudiyalar, Beruniylar... Bilmasang, bor bibliotekaga. «Boburnoma»ga boq! Barsi berilgan! Bular barisi bibliotekaga bormiydi, barisi boqqa boradi — baliqqa.

Bolla, biz birlashaylik. Biz birlashsak, biz biriksak, bizda baraka bo'ladi.

Biz bolla bilan Braziliyaga bordik. Braziliyaga borsak, butunlay bir boshqacha. Braziliyaga borganlar bormi? Bormagansizlar, bilmaysizlar, biz borganmiz, biz bilamiz. Borgan bo'lsangla, Buxoro, Boysun, Bekobod, Bo'ka, Bektemirga borgansila. Braziliya butunlay bir boshqacha, binolar, barlar, basseyn, bilyardxonalar... butunlay boshqacha bo'lgani bilan, baribir bizning Buxoroday bo'lolmaydida! Bolla, bu..., bilimlaring bo'lmasa, birovning bidir-bidirini bildirlamanglar!

Bo'pti, bo'lmasa, bolla, barchangla baxtli bo'lingla.

Sardor G'oziyev

Bo'yinbog'

Bilasizlar, bu bo'yinimdagi bo'yinbog' bo'ladi. Buniyam bog'lashni biladiganlar biladi, bilmaydiganlar bilmaydi. Bo'yinbog' bog'lashni bilmaslikdan battari bo'lmaydi. Bizam boshida bilmasdik, borib-borib bilvoldik. Birinchi bo'yinbog'imni bog'lashga butun boshli binodagi bolalarga bitta-bitta bog'latdim. Boqsam, bolalarni bittasiyam bo'yinbog' bog'lashni bilmasakan. Bilmasakansan, birortasidan bilvolsang bo'lmaydimi?! Bir balo bo'larmiding, bilvolsang. Birdamas birda bo'yinbog'ingni bog'i bo'shalsa birov bog'lab beradimi? Bo'lmasa boyagi bollardi bo'yinlaridagi bo'yinbog'lari biram bejirim, biram bejirim. Boqsam, boyagi bollarni bari baland-baland bo'ydor bolalar. Buqaday-buqaday, boksyor bo'ladigan. Biroq, bitta bo'yinbog'ni bog'lolmagan bola boksyor bo'larmidi. Bo'lsa ham boshga bitgan balo bo'ladi! Bittasi bog'laydiganroq bo'ldi-yu, biroq bunisiyam bo'lmadi, bog'lolmadi. Bo'yinbog'ni boshimga bir bolacha bog'lab borayotsam, bizdagi «Bo'z» bozoridagi bitta bozorchi bola bog'lashni bilarkan. Beruvdim, bog'lab berdi. Biram bejirim bog'larkan, biram bejirim bog'larkan, besh bervordim-ey, bu bolaga. Bizni birodarlarimiz bo'lsa bilmaydi. Bitta bo'z bolachalik bo'lmasa bizni bolalar. Bu bozorchi bolani bir balosi bor, bo'lmasa bilmasdi. Balo — bu bola. Birodarlar bildi bu bolani bog'lashini, biroq birov bormadi-yu, bizdan boshqa, biz beshtamiz borib bo'yinbog' bog'lashni bilvoldik. Bo'yinbog'ichlarni bog'lab beraman besh-besh beringlar! Boriylarga balli, bolalar.

To'y

(Sigir hovlida kavush qaytarib turardi, qo'shni hovlidagi Indyuk esa undan ko'zini uzmaydi).

Indyuk: – Mana, har kungi ahvolga
Chidab turishim qoldi.
G'ulu-g'ulu-g'ulu-g'ulu.
Ko'ngil qo'yibman molga
Unga aytishim qoldi.
G'ulu-g'ulu-g'ulu-g'ulu.
Mening ham kam joyim yo'q,
Men Indyuk ham xushsuvsrat
Aqlig-u, odobli,
Chiroyliman hamda mard.
G'ulu-g'ulu-g'ulu-g'ulu.
Shu bugunoq yuziga
Sevaman deyishim shart.
Qo'shni kirsak bo'ladimi?
Bir gapni o'zingizga
Aytib o'tsak bo'ladimi?

Sigir: – Keling qo'shni xush ko'rdim, mo'-o'-o'
Kecha bitta tush ko'rdim, mo'-o'-o'
Jo'rangiz xo'roz, yangam bo'lib qo'y,
Qilibmiz dang'illama to'y, m-o'-o'.

Indyuk: – To'g'ri-to'g'ri qilganmiz
Rozi bo'lsangiz yana qilamiz.
Sadqai-sadag'ang bo'lay, g'ulu-g'ulu.

Sigir: – Tush ko'rmayin men o'lay,
Ko'ngil bo'lsa nima ham qilay.

Indyuk: – Undan bo'lsa to'yni boshlaymiz
Bugun kechki payt uyingizga
Sovchilar boradi, g'ulu-g'ulu.

(Sahnada xo'roz turadi, she'r aytadi.)

Indyuk: — Ku-kare-ku tomog'im teshik,
Bir parcha nonga aytaman qo'shiq.

(Indyuk xursand bo'lib kirib keladi.)

Indyuk: — Xo'roz suyunchi ber. Uylanayapman.

Xo'roz: — Tabriklayman. Kinga?

Indyuk: — Bugun borganda ko'rasan,
Ko'zlari shahlo, kamon qoshlari
Shoxlari ayri, kalta sochlari.

Xo'roz: — Shoxli bo'lsa, demak to'rt oyoqli.
(O'ziga o'zi gapiradi).
Yo'q, to'rtoyoqlilar bizga mos emas.
Shaxtingdan qayt. Qu-qu-qu.

Indyuk: — Nima desang deyaver,
Men baribir uni olaman, g'ulu-g'ulu.

Xo'roz: — (o'ylanib) Unday bo'lsa shart qo'yamiz.
Bajarishsa seni, bajarishmasa to'y bo'lmaydi.
Qu-qu-qu.

Indyuk: — Nima qilsang qil, sigir meniki bo'ladi. Vaqt
bo'ldi, ketdik. G'ulu-g'ulu.

(Shunda bitta g'oz ashula aytib kirib keladi.)

G'oz: — Bor edi kampirda,
Oq, kulrang g'oz, g'aq-g'aq.
Bir onadan talashib tushgan
Aka-uka, g'aq-g'aq.

Xo'roz: — (o'ziga-o'zi) Bu g'oz shart qo'yishga usta.
Ularni olish kerak. Ey g'oz ketdik biz bilan.
Qu-qu-qu.

G'oz: — Sovchilikkami?

Xo'roz: — Ha.

(Indyuk, xo'roz, g'oz chiqib ketishadi. Ular sigirning uyiga kirib kelishadi. Sigir o'rtada o'tirgan bo'ladi. Doira sadosi ostida bittadan hayvonlar kirib kelishadi. Mushuk, qo'y, cho'chqa, eshak, it o'tirishibdi.)

Mushuk: — Myau-myau. Bizni chaqirgan ekansan.
Nima gap tinchlikmi?

Sigir: — Tinchlik. Sizlarga xushxabar aytmogchiman.
Men erga tegayapman. Mu-mu-mu.

Cho'chqa: — Tanlagan yoring oramizdami? Xryu-xryu.

Sigir: — Yo'q.

Hayvonlar: — (Hayron bo'lib, hammasi birga) Kim?

Sigir: — Indyuk!

(Hayvonlarning ichida g'ala-g'ovur ko'tariladi.)

It: — Indyukni olma vov-vov,
Bilmasin, bilmasin birov.
Indyukni olsang vovo,
Hatto mahallang deydi anqov.

Sigir: — Mo'-mo'-mo'ltiramang. Men faqat
indyukka tegaman.

Qo'y: — Be-be-bema'ni gapni qo'y.
Eshak sen ham bir nima deb qo'y.

Eshak: — E, ha-ha. Baxtli bo'l...

Mushuk: — Murr, murr, mayli sovchilarga shart
qo'yamiz, myau. Bajarishsa, menga desa
qurbaqaga teg. Bajarishmasa...

Hayvonlar: — (Birgalikda) To'y bo'lmaydi.

(Eshik taqillaydi.)

Cho'chqa: — Kim u? Xryu-xryu.

Sovchilar: — Keldik bizlar sovchilikka, sizni uyingizga,
Ku-ka-re-ku, g'aq,g'aq.
Keldik bizlar mos ko'rib,
Indyukni qizingizga.

Cho'chqa: — Sovchilar kelishdi, tezroq o'tirib olinglar.

(Sovchilar salomlashib joy-joyiga o'tirishadi.)

Xo'roz: — Gapning po'st kallasiga o'tsak, bizlar
sovchilikka keldik.

1-g'oz: — Lekin, gap shundaki biz parandalarning
rasm-rusumiga ko'ra sizlar, ya'ni kelin
tomondagilar bir-ikki shartlarimizni
bajarishingiz kerak bo'ladi. G'aq-g'aq.

It: — Bilasizmi bizning ham rasm-rusumimizga
ko'ra, sizlar ham bir-ikki shart bajarishingiz
kerak bo'ladi. Vov-vov.

2-g'oz: — Undan bo'lsa qur'a tashla. Kimki qur'ada
g'olib chiqsa shartni o'sha boshlasin.

Eshak: — Indyuk, sigimi ona bosh qilsak, Xo'roz bilan
qo'y adashsin.

(Qo'y bilan xo'roz adashib ona boshiga keladi.)

Qo'y bilan xo'roz: — Kim ota, kim ona.

Indyuk, sigir: — Men ota, men ona.

Qo'y, xo'roz: — Sizga osmondagi oy kerakmi,
Kishnab turgan toy kerakmi.

Qo'y: — Unda kishnab turgan toy men bo'laman.
Biz boshlaymiz.

(Parrandalar bir tomonga, hayvonlar ikkinchi tomonga o'tirishadi. Hayvonlar maslahatlashadilar.)

Mushuk: – Birinchi shart tez aytish, mur-mur-mur-murrr.
Faqat kerak qaytarish, mur-mur-mur-murrr.
G'uj, chumchuqlar gujum ustida chug'urlashib,
G'uj, chumchuqqa g'ujum cho'qillatmaydi.
G'uj, chumchuqlar gujum ustida chug'urlashib,
G'uj, chumchuqqa g'ujum cho'qillatmaydi.

(Parrandalar hayron. Nima dedi, deb bir-biridan so'rab biroz dam olishib, boshidan qaytar deb mushukka aytishadi. Mushuk boyagidan sekinroq qaytaradi. Parrandalar yana tushunmaydi. Mushuk bu gal so'zma-so'z qaytaradi. Parrandalar tushunishadi. Hamma tez aytishni qaytaradi).

1-g'oz: – Bizdagi sal qiyinroq
G'aq-g'aq-g'aq,
Topishmoqqa o'xshashroq
G'aq-g'aq-g'aq.
Hayvon boshi muncha, quloqlari muncha,
yurishlari bunaqa, ayting bu qanday hayvon?

(Hayvonlar o'ylashadi. Har xil hayvonlarni aytib topisha olmaydi. Oxiri g'oz bu fil deydi.)

Eshak: – Menda bor bir topishmoq,
Xang-xang, xangu-xang.
Topa olar topqirroq,
Xang-xang, xangu-xang.
Oq gulim, oppoq gulim
Ushlab ko'rsam yumshoq gulim.
Terib xirmon qilgan edim,
Bo'lib ketdi tog'-tog' gulim.

(Hayvonlar o'ylab-o'ylab javob topisha olmaydi. Oxiri eshak bu topishmoqning javobi paxta ekanligini aytadi).

2-g'oz: – Men topishmoq g'aq,
Aytay qiyinroq g'aq.
Chin qushim, chinni qushim
Chin daraxtga qo'ndi qushim,
Oyog'iga hassa qo'yib,
Tomoshani qildi qushim.

(Hayvonlar javobni topa olmaydi. G'oz topishmoq javobi paxta ekanligini aytadi).

Qo'y: — Xullas to'y bo'lmaydi, shartlarning birortasini ham bajara olmadingiz.

Indyuk: — To'y albatta bo'ladi, bir-biriga mos ko'nglimiz.

Sigir: — Seni yoki seni emas, axir bu bizning to'yimiz.

(Hayvonlar va parrandalar hech nima deya olmay jim qolib to'yga rozilik bildirishadi. To'yxonada to'yga harakat.)

Chirmanda: — Yum-yumaloq qosqonim,
Baka-baka bum.
Bo'ynimda mis marjonim,
Baka-baka bum.
Menga tushar shapolaq,
Baka-baka bum.
Siz otasiz shatolaq,
Baka-baka bum.
Keldim fahmlab darrov,
Baka-baka bum.
O'ynasin deb kelin-kuyov,
Baka-baka bum.

Samovar: — Menga o'tin chaynating,
Vaqqira-vuq.
Sizga suvni qaynatay,
Vaqqira-vuq.
Paroxodga ukaman,
Vaqqira-vuq.
Lekin soyda cho'kaman,
Vaqqira-vuq.
O'tin yetkazib turishsa,
Vaqqira-vuq.
Yaxshi xizmat qilaman,
Vaqqira-vuq.

Irmoq: – Toshdan-toshga sakrab keldim, shildir-shildir.
Ariqlarni yalab keldim, shildir-shildir.
Qitiqlayman tomirlarni, shildir-shildir.
Qo‘msayman O‘sh, Pomirlarni, shildir-shildir.
Kerak bo‘ldim samovorga, shildir-shildir.
Raqsga tushay tanovarga, shildir-shildir.

Bolta: – Tik qo‘ysangchi g‘o‘lani, gup-qars,
Kalla solay bir qani, gup-qars.
Chetda yoqing o‘tinni, gup-qars,
Men ko‘rmayin tutunni, gup-qars.
To‘ydan keyin unuitmang, gup-qars,
Keyin qidirib yurmang, gup-qars.

Shamol: – Bolalarga yoqaman, guv-guv,
Mevalarni qoqaman, guv-guv.
Ba‘zi fe‘lim be‘mani, guv-guv,
Cho‘ktiraman kemani, qiy-chuv.
Bugun fe‘lim a‘lodir, guv-guv,
Ham to‘yona havodir, guv-guv.

Arra: – Do‘stlar ishlab yayrash kerak, sharra-shurra,
Avval tishni qayrash kerak, sharra-shurra.
Qayrasangiz arralayman, sharra-shurra,
Ho‘l-quruqqa qaramayman, sharra-shurra.

Karnay: – Tomga chiqib baqiraman, va-xa-xa-xa-xa-a-a,
Seni to‘yga chaqiraman, va-xa-xa-xa-xa-a-a.
Eshitgan payt tovushingni, va-xa-xa-xa-xa-a-a,
Darrov kiygin kavushingni, va-xa-xa-xa-xa-a-a.

(Hamma tarqalib, sahnaga hayvon va parrandalar chiqib keli-shadi).

Cho‘chqa: – To‘ydan oldin qizib olishimiz uchun bir o‘yin o‘ynab olmaymizmi?

Mushuk: – Qanday o‘yin?

Cho‘chqa: – Oq terakmi, ko‘k terak.

Eshak: – Ajoyib fikr, hang-xang, xa-xa.

(Hayvonlar bir tomonga, parrandalar bir tomonga o'tib olishadi. Parrandalar o'yinni boshlaydi. Hayvonlar indyukni tanlaydi. Indyuk sekin yurib sigirning oldiga keladi. Sigir qo'lini uzib o'rtaga oladi. Xo'roz qo'yni tanlaydi, qo'y yugurib kelib g'ozni suzadi. G'oz orqaga dumalaydi. Parrandalar g'irrom, to'y bo'lmaydi deb, indyukning orqasidan ushlab tortadi. Indyuk sigir qo'lini mahkam ushlab olgan edi. Sigirni orqasidan hayvonlar tortishadi. Arqon tortish o'yini hamda mashqlar bajariladi. Hamma nafas chiqarib, chuqur nafas olib, 20 gacha sanab tortishadi. Ikkinchi marta sanab 3 ga yetganda ajratishadi. Parrandalar indyukni, hayvonlar sigirni ko'tarib olib chiqib ketishadi. Hamma hayvonlar sahnaga kirib kelishadi).

— Bu siz uchun tayyorlangan hazil mashq orqali o'zimizning nutqiy imkoniyatlarimizni namoyish etish edi. E'tiboringiz uchun rahmat.

(Ular tomoshabinlarga qarab qo'llarni balandga ko'tarib, o'z minnatdorchiliklarini bildirgan holda sahnadan chiqib ketishadi).

(Bu she'riy mashqda O'zbekiston xalq shoiri Anvar Obidjon she'rlaridan foydalanildi.)



USLUBIY KO'RSATMALAR

«Sahna nutqi» fani «Rejissorlik» ixtisosligi bo'yicha fanlar majmuasida katta o'rinni egallaydi, chunki ommaviy bayram va teatrlashtirilgan tomoshalar harakatlariga xos xususiyatlar ishtirokchi va ijrochilar oldiga so'z san'ati harakatlarini o'rganib olishda alohida vazifalar qo'yadi.

Bu fan sahna nutqi san'atini o'qitish uslubiyoti asosida so'zlarga mos ichki va tashqi xatti-harakat usullarini mashq qilish jarayonidan nutqiy jarayon tomon har xil komponentlarni tarbiyalashga yo'naltirishlardan iboratdir.

Ushbu fanni o'qitishda birinchi bosqichda quyidagi vazifalar amalga oshiriladi:

- talabaning tabiiy ovozi, nutqini o'rganish;
- uning ijodiy imkoniyatlarini o'rganish;
- uning ovozidagi, nutqidagi xatolarni tuzatish va nutqiy apparatning tabiiy rivojlantirish usullarini ongli ravishda o'rgatish;
- adabiy talaffuz qoidalarini amaliy o'rganish, gapirganda aksent talaffuz xususiyatlarini tuzatish;
- talabalarning nutq ohangdorligi va mantiq'ini egallashlari o'qituvchi tomonidan nazorat qilinishi shart.

Bularning hammasi talabalardan ko'p va mustaqil, sabotli mehnat talab qiladi. Bundan tashqari, so'z xatti-harakat elementlarini tarbiyalashga alohida e'tibor (muskullarga erkinlik, diqqat, ijodiy fikrlash va xayol qilish, mantiqiy iqbolni egallash va h.k.) beriladi.

Ushbu vazifalarni bajarish uchun talabaga I yarim yillikda maqol, matal, hikmatli so'z va tez aytishlar o'quv mashqi materiali sifatida xizmat qiladi. II yarim yillik davomida har bir talaba bilan asta-sekin ovozi va nutqidagi yutuq va kamchiliklarni hisobga olib individual, ya'ni yakka tartibdagi mashqlar to'plamini tuzish kerak bo'ladi.

Nafas, ovoz va nutqiy mashqlar haqida

1. Nafas apparatining anatomik-fiziologik tuzilishi haqida tushuncha. To'g'ri nafas olishni o'zlashtirish uchun mashq tanlash prinsiplari. Sanoq mashqlari. Maqol va she'riy matnlardan tuzilgan mashqlar. Talabaning yakka nafas imkoniyatidan kelib chiqib maxsus harakatli mashq turlarini tanlash. Diafragma-aralash nafas olish usulini chuqur egallash uchun diafragma ishini faollashtiradigan turli undov so'zlar. Turli mashqlarni tuzish. Bu nafas uslubining jonli so'z san'atidagi o'rni va rolini misollar orqali tushuntirish. Ayniqsa, ovoz o'xshatish (o'rmon shovqini – sh-sh-sh-sh, shamol ovozi – ss-ss-ss-ss va shunga o'xshash mashqlar).

2. Ovoz va nutqiy apparatni rivojlantirish ayniqsa talabaijrochining yakka tembrini boyitish va talaffuzdagi kamchiliklarini to'g'rilash uchun mashqlarni to'g'ri tanlab olib, ketma-ket joylash-

tirish kerak: nafas olish gimnastikasi, ovozni yumshoq hujumda shakllantirish va kamchiliklarni bartaraf etish zarur. Har bir talaba o'qituvchi yordamida 2–3 tadan mashq tanlash kerak. Bu borada aprotatsiyadan o'tgan kompleks mashqlardan foydalanish maqsadga muvofiqdir.

3. Ovoz va nutqning kamchiliklarini tuzatish uchun unli tovushlarga boy so'zlar, she'rlardan iborat mashqlar bajarish. Ovozning yumshoq hujumini shakllantirishda, masalan: alla aytish, o'lan aytish, nolish, ingrash kabi mashqlar tanlash maqsadga muvofiqdir. Ushbu mashqlarni bajarilishini pedagog kundalik nazoratda ko'proq yakka va guruhli mashg'ulotlarda amalga oshiradi.

Diksiyaga oid mashqlar (so'zlarni aniq va ravshan aytish)

Maqsad: matnlar majmuasini ta'minlovchi va nutqiy apparat ishiga vositali ravishda ta'sir qiluvchi ovozli-nutq mashg'ulotlarining asosiy tamoyillarini egallashdir.

Diksiya ustida ishlashda asosiy uslubiy tavsiyalar:

– har bir diksiyani tuzatish uchun bajariladigan mashqlar sodda amaliy vazifalar bilan birgalikda olib borilishi kerak;

– talaffuz apparatini mashq qildirishda muskul erkinligiga e'tibor berish kerak va h.k.

Diksiya ustida ishlashning (guruhli va yakka) yo'nalishlari:

a) nutq vazifalarini faollashtirish;

b) sahna va ommaviy sahnalar uchun zarur, diksiya ko'nikmalariga javob beruvchi mezonlar ishlab chiqish;

d) so'zni to'g'ri talaffuz qilish mahoratini egallash.

Til, lab va pastki jag'larning nuqsonsiz ishlashiga erishish, unli va undosh tovushlarning talaffuz qilinishi faqat ushbu artikulyatsion a'zolarining eng qulay faolligida mumkin.

O'zida nutq apparatiga nisbatan ongli keskinlikni tarbiyalash va ushbu yo'ldosh «ichki his-tuyg'ular nozikligi» – layoqatlilikni tahlil qilishga o'rganish.

O'zaro chambarchas bog'liq bo'lgan uchta: nafas, artikulyatsiya va ovoz hosil qiluvchi tizimlarning sinxron ishini ta'minlashga erishish.

Unli tovushlar ustida ishlashda ularning jadalligi, jarangdorligiga e'tiborni kuchaytirish kerak.

Unli tovushlarning erkin talaffuzini ta'minlash lozim, chunki ular ohangdorlikni hosil qiladi.

Diksiya ustida ishlashda portlovchi undoshlarga katta e'tibor berish kerak.

Undosh tovushlarni mashq qilishda «nutq-qo'l refleksi», imitatsiya (imo-ishora) va takroriy tovushlar usullaridan foydalaniladi.

Xotirani kuchaytiruvchi mashqlarga e'tibor berish va tez aytishlarni aniq va uch bosqichda ravon diksiya bilan aytilishini ta'minlash kerak.

Orfoepiya, mantiq va nutq ohangdorligi

Orfoepiya — so'zlarni to'g'ri va adabiy talaffuz qilish qoidasidir. Nutq madaniyatining asosiy talabalaridan biri bu — to'g'ri adabiy talaffuzni amalga oshirish. Bu ayniqsa, san'at ahli, rejissor va teatr san'ati sohasi vakillarining barchasi uchun juda zarur, chunki ular tinglovchilar uchun namuna bo'lishlari kerak.

Til va talaffuz qoidalari (me'yorlari) doimiy rivojlanishda bo'ladi. Har bir davr tilga o'zining o'zgarishlarini kiritishi talaffuz me'yorlariga ta'sir qiladi. Lekin til va talaffuz qoidalarini o'rganishda nafaqat o'z nutqini, atrofdagilarning nutqini ham kuzatishni o'rganish uchun ko'p vaqt va mehnat sarflash kerak, maxsus doimiy mashg'ulotlar olib borish kerak.

So'z urg'usi deganda talaffuz paytida so'zdagi biror bo'g'inning (demak, shu bo'g'inni hosil qiluvchi unli tovushning) kuchliroq etilishi tushuniladi.

Mantiqiy urg'u gapdagi va butun nutq davomidagi ayrim bo'laklarni bo'rttirishdan iborat. Bunday bo'laklar bitta so'zdan tortib, butun jumla va fikrni ifodalovchi nutq vositalarining katta bo'laklari hajmida bo'lishi mumkin.

O'zbek tilida so'z urg'usi har doim unli tovushlarga tushadi, chunki urg'u so'zdagi ayrim bo'g'in, yanada aniqroq'i, ayrim unli tovushning talaffuz etilish sifatidan iborat.

«Urg‘u nutqimizdagi ... muhim elementdir, — deydi K.S.Stanislavskiy, — urg‘u jumladagi eng muhim so‘zni belgilab turgan ko‘rsatkichdir». Demak, matn ustida ishlaganda, eng avvalo, ana shu ko‘rsatkichlarni, jumalardagi birinchi darajali so‘zlarni aniqlab olish lozim.

Matndagi mantiqiy urg‘ularni o‘rniga to‘g‘ri qo‘yish quyidagi qonuniyatlarga bog‘liq:

a) taqqoslanayotgan tushunchalarni mantiqiy urg‘u bilan ajratish;

b) «ajratilgan sifatlar» qoidasi;

d) hisoblangan so‘zlar va gapning yumshoq bo‘laklari;

e) umumlashtiruvchi so‘zlar;

f) bir ma‘noli, ko‘pso‘zli ibora va jumalarda oxirgi so‘z urg‘usini ajratish;

g) qiyoslash;

h) ifodalanmagan ma‘nosi yashiringan so‘zlarning mantiqiy urg‘usini ajratish.

Nutq mantig‘i qoidalarini o‘rganish

1. «**Sinash (tajriba) va xatolar**» usuli. Biron-bir adabiy matn yoki murakkab jumlaning ovoz chiqarib o‘qiyotganda, albatta, noto‘g‘ri urg‘u, noaniq ohang va fikr rivojlanmasdan bir joyda turib qolishi kabi holatlar uchrashi turgan gap. Demak, ijrochi muallifning fikrini to‘g‘ri va aniq ifodalay olishi uchun maxsus ko‘nikma va mohirlikni egallashi kerak.

«Sinash va xatolar» usuli talabaning kelgusidagi o‘quv-bilish faoliyatiga qiziqishni uyg‘otish vositasi sifatida ifodalangan.

2. **Matnni grafik (yozuv bilan) tahlil qilish usuli.** So‘z san‘ati nutq mantig‘ini egallash va matnning jaranglash «partitura»sini yaratish uchun yaxshigina asos bo‘la oladi.

Nutqiy taktlar, mantiqiy pauzalarning davomiylik darajasi va turlari, urg‘u kuchi, asosiy so‘zlarni ajratish vositalari va shu kabilarning grafik (yozuv) usulda ifodalash muallif fikrini rivojlantirishni oydinlashtiradi, matnni tinglash va tomosha qilib qabul qilishni birlashtiradi, u esa materialni egallash jarayonini yengillashtiradi va keskinlashtiradi.

3. «**Matnni sxemalashtirish**» usuli. Bu usul fikrning mantiqiyiligini aniqlashning unumli vositasidir. U fikrning «skeleton»ini, ya'ni ko'p axborotga ega, asar ma'nosi va jumlasini tushunishga yordam beruvchi bosh so'zlarni topadi. Ushbu usul o'qishda ham, mustaqil amaliy faoliyatida ham qo'llanilishi foydalidir.

4. «**Qayta so'rash**» yoki **savol-javob usuli**. Savol-javoblarda urg'u ko'chishining (o'rin almashuvchi) ma'noga ta'siri kuzatiladi va quyidagilarni:

a) urg'uli so'zda ovoz ohangining pasayish ko'nikmalarini;

b) kuchli his (tuyg'u)lar — ajablanish, hayratlanish, g'azablanish va shu kabilarni nutq ohangining egiluvchanligini ifodalashda juda kerakligini o'rgatadi.

5. **Jumlalar tuzilishi va matnning asosiy mohiyatini aniqlash yo'li bilan varaqdagi noaniq matnni o'qish usuli**. Ushbu usul nutq mantig'ini o'zlashtirish o'qish boshida hamda o'tgan materiallarni egallaganligi darajasini aniqlashda tekshiruv topshiriqlar sifatida qo'llanilishi maqsadga muvofiqdir.

Amaliy mashg'ulot

Amaliyot uchun o'quv-mashq qilish materiali sifatida gazeta maqolalaridan parchalar, xatlar, qarorlar, rasmiy hujjatlar va she'r-lardan foydalaniladi.

O'quv-ijro materiallari sifatida o'zbek tilining jarangdorligini ko'rsatuvchi she'riy asarlar, tez aytishlar va kichik hikoyalar xizmat qiladi.

Nazariya bo'yicha seminar

O'zbek so'zining jarangdorlik ohangi.

Intonatsiya (gap, nutq ohangi) nutq ifodaligining asosiy vositalaridan biridir.

Intonatsiya orqali tomoshabin gapiruvchining his-tuyg'usi va fikrlarini topadi.

Intonatsiyani tashkil qiluvchilar orasida nutq ohangdorligi birlamchi rolni egallaydi.

Talabalarning mustaqil ishlashlari uchun topshiriqlar

1. Mashq qilish uchun material tanlab olmoq («kasal tovushlar»ga maxsus material, ya'ni maqol, matal, hikmatli so'zlar, she'rlar tavsiya etish kerak).

2. Ovoz-nutq apparatiga ta'sir qiluvchi («taqlid qilish» (imitatsiya) usullari) ovoz-nutq mashqlarini takrorlash.

3. Tovushni to'g'ri talaffuz qilish ko'nikma, mahoratini shakllantirish (unli va undosh tovushlar).

4. Talabalar bir-birlarining «nutqiy portret»larini yozishni o'rganishlari ularning kelajakdagi ijodiy faoliyati qirralarini kengaytiradi.

5. Professional (ustoz san'atkorlar) va havoskorlar sahnasida qo'yilgan spektakllardagi so'zlarning talaffuziga e'tibor bergan holda san'at asarlarini tanlash maqsadga muvofiqdir.

6. Sahna nutqi haqidagi asarlardan ko'chirma tayyorlash (K.S.Stanislavskiy, M.O.Knebel, N.Aliyeva, S.Inomxo'jayev, L.Xo'jayeva, I.Po'latov, A.Sayfutdinov, Z.V.Savkova, M.Ismoilov, Z.Alimjonova, M.Hojimatova va h.k.)

7. Jarangli nutqning yangi talablarini o'zlashtirish va o'yinlar yordamida nutq hosil qiluvchi organlarning (energetik, generator, rezonator) ishini muvofiqlashtiruvchi mashqlarni egallash.

8. Ovoz va nutqdagi individual xatolar ustida ishlash.

9. «Orfoepiya» bo'limiga tegishli savollarga javob berish.

10. «So'z san'atining ohangi va mantiqi» bo'limiga oid savollarga javob berish.

11. Eng kamida 5 tadan ovoz-nutqni rivojlantiruvchi mashqlar tayyorlash va guruhli mashg'ulotlarda ularni namoyish etish (kompleks mashqlar).

12. Qisqa hikoya uchun tez aytishlarni va o'zbek so'zining o'ziga xos talaffuzi me'yorlarini ifoda etuvchi kichkina she'riy materiallarni tanlab olish.

13. Tanlab olingan materiallarda og'zaki ijro elementlarini egalash ustida ishlash.

14. Ovoz diapazonini rivojlantirishga oid yangi mashqlar ustida ishlash.

15. Sahnada tez aytishlarni ijro etish ko'nikmalarini o'rganish va takrorlash, mashq qilish. Nutqning baland-pastligiga qarab nafas olish mashqini maromiga yetkazish. Ovozning egiluvchanligini rivojlantirish.

16. Ijro uchun mo'ljallangan materiallar ustida ishlashda pauza qilish, so'zlashuv taktini nazorat qilish orqali fikr-harakatlarini mantiqiy-istiqbolli rivojlantirish yo'llarini egallash, jumlaning mantiqiy-semantik markazi va fikrning mantiqiy yadrosini ajratish.

17. Kasbga oid atamalardan foydalanib talabalar bilan ovoz-nutq ustida mashqlar bajarish va o'tilgan mashqlarni tahlil qilish.

18. So'z san'atiga oid asarlardan konspekt (ko'chirma) tayyorlash.

19. Ustoz san'at darg'alari — Mannon Uyg'ur, Nazira Aliyeva, Toshxo'ja Xo'jayev, Lola Xo'jayeva, Sotimxon Inomxo'jayevlarning sahna nutqi haqida asarlarini to'plab, seminar o'tkazish.

20. Matnni mantiqiy tahlil qilishga mo'ljallangan mashqlar ishlash.

21. Ovoz-nutq ustida ishlash bo'yicha beshtagacha mashq o'ylab topish.

22. O'zbek so'zining talaffuzi haqida she'riy asarlar, tez aytish va hikoyalar ustida ishlashni tugatish.

23. Mantiq, diapazonni rivojlantirish, nutq ohangdorligi, ovozning kuchligiga bag'ishlangan barcha amaliy foyda beruvchi kompleks mashqni yaxshilab egallash kerak.

24. Talabadoshning «Nutqiy portreti»ni va barcha mustaqil tayyorlangan materiallarni bir-biriga ko'rsatib fikrlashish.

Antilug'at tayyorlashga uslubiy ko'rsatmalar

«Antilug'at» yoki «hoshiyadagi qayd»lar — matndagi xato, buzib aytilgan so'zlarni belgilab borishdir. Kundalik hayotimizda so'zlashganda talaffuz paytida goh unli, goh undosh tovushlar tushirib qoldiriladi. Unli tovush tushirilsa, so'zning ritmik buzilishiga, undosh tushirilsa, fonetik buzilish, ikkalasi tushirilsa, ritmik-fonetik mutanosiblikning buzilishi sodir bo'ladi. Yozuv daftari doimo yonda bo'lishi kerak.

Nutqni (ritmik) tashkil qilish

Talabalar faol fonetik tinglash, ona tili fonetikasi va orfoepiyasi asosida farqlash va nutqiy tovushlarini ayta olish qobiliyatlarini tarbiyalay olishlari zarurdir.

Miya eshitish va sezgi organlari orqali atrof-muhitdan butun tovush axborotini qabul qiladi. Ovoz berish apparati faqat odam miyasiga eshitish-tinglash orqali kirgan soʻzlarni talaffuz qila oladi. Fonematik tinglash nutqdagi talaffuz xatolarini tuzatuvchi muharrir vazifasida xizmat qiladi. Fonematik tinglashni rivojlantirish madaniyat, maʼrifat va sanʼat xodimlari uchun juda zarurdir.

Talabalar kartochkalarni oʻzaro almashtirib, bir-birining soʻz talaffuzini nazorat qilishni oʻrganishlari kerak. Notoʻgʻri talaffuzda xatoni tushuntirib, mashqni qaytarish orqali toʻgʻri talaffuz qoidasini oʻzlashtirish lozim. Mashgʻulotlarda talabalar adabiy talaffuz qoidalarini oʻzlashtirib olishlari zarur.

Talabalar «pedagog» sifatida bir-birlarini nazorat qilishi ularga ruhiy erkinlik beradi, berilgan topshiriqqa masʼuliyat bilan yondashishni oʻrgatadi, ijodiy jarayonga faol qiziqishni uygʻotadi.



FANNI OʻQITISHDA YANGI PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH USULLARI

Inson paydo boʻlibdiki, tarbiya jarayoni mavjuddir, tarbiya paydo boʻlgan vaqtdan beri pedagoglik faoliyati uzluksiz davom etib kelmoqda. Oʻqituvchilik, tarbiyachilik kasbi barcha ijtimoiy tuzumlarda sharafli, oʻta masʼuliyatli, qiyin va murakkab kasb hisoblangan.

Mustaqil Oʻzbekistonimizda uzluksiz taʼlim tizimining isloh qilinishi, yangi taʼlim standartlari asosida taʼlim va tarbiya jarayonini qayta tashkil etishga kirishilgan hozirgi kunda oʻqituvchi faoliyatiga, uning pedagogik mahoratiga alohida eʼtibor berilmoqda.

Mamlakatimizda Kadrlar tayyorlash milliy dasturini bosqichma-bosqich muvaffaqiyatli amalga oshirish ko'p jihatdan o'qituvchi faoliyatiga, uning kasbiy nufuzini oshirishga bog'liqdir. Shunday ekan, har tomonlama barkamol sog'lom avlodni yetishtirish uzluksiz ta'lim tizimida mehnat qilayotgan pedagogning saviyasiga, kasbiy tayyorgarligiga va fidoyiligiga, yosh avlodni o'qitish hamda tarbiyalash ishiga bo'lgan munosabatiga bog'liqdir. Shuningdek, dars jarayonida yangi pedagogik texnologiya usullaridan keng foydalanishni zamon talab etmoqda. Quyida yangi pedagogik texnologiya haqida va yangi pedagogik texnologiya usullaridan foydalanish orqali o'tkaziladigan dars mashg'ulotining texnologik xaritasi haqida ma'lumot berilgan.

Har qanday pedagogik texnologiyaning o'quv-tarbiya jarayonida qo'llanilishi shaxsiy xarakterdan kelib chiqqan holda talabani kim o'qitayotganligi va o'qituvchi kimni o'qitayotganligiga bog'liq.

Pedagogik texnologiya asosida o'tkazilgan mashg'ulotlar yoshlarni muhim hayotiy yutuq va muammolarga o'z munosabatlarini bildirishlariga intilishlarini qondirib, ularni fikrlashga va o'z nuqtayi nazarlarini asoslashga imkoniyat yaratadi.

Shuning uchun ham ta'lim muassasalarining o'quv-tarbiyaviy jarayonida zamonaviy o'qitish uslublari, interfaol uslublari, innovatsion texnologiyalarning o'zni va ahamiyati beqiyosdir. Pedagogik texnologiya va ularni ta'limda qo'llashga oid bilimlar, tajribalar talabalarning bilimli va yetuk malakalarga ega bo'lishlarini ta'minlaydi.

Innovatsiya (inglizcha *innovation*) – yangilik kiritish, yangilik demakdir.

Innovatsion texnologiyalar pedagogik jarayon hamda o'qituvchi bilan talaba faoliyatiga yangilik, o'zgartirishlar kiritish bo'lib, uni amalga oshirishda asosan interfaol uslublardan foydalaniladi.

Interfaol (ingl. *inter* – o'zaro, *act* – harakat qilmoq) – o'zaro harakat qilmoq yoki kim bilandir suhbat, muloqotda bo'lishni anglatadi. Boshqacha aytganda, o'qitishning interfaol uslublari – bilish va kommunikativ faoliyatni tashkil etishning maxsus shakli bo'lib, unda ta'lim oluvchilar bilish jarayoniga jalb qilingan bo'laladilar, ular biladigan va o'ylayotgan narsalarni tushunish va fikrlash

imkoniyatiga ega bo'ladilar. Interfaol darslarda o'qituvchining o'rni qisman talabalarning faoliyatini darsdan ko'zlangan maqsadga erishishga yo'naltirishga olib keladi²⁰.

Bu uslublarning o'ziga xosligi shundaki, ular faqat pedagog va talabalarning birgalikda faoliyat ko'rsatishi natijasida amalga oshiriladi. Bunday pedagogik hamkorlik jarayoni o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lib, ularga:

– talabalarning dars davomida befarq bo'lmaslikka, mustaqil fikrlash, ijod qilish va izlanishga majbur etilishi;

– talabalarning o'quv jarayonida fanga bo'lgan qiziqishlari doimiy bo'lishini ta'minlash;

– talabalarning fanga bo'lgan qiziqishlarini har bir masalaga mustaqil ravishda ijodiy yondashgan holda kuchaytirib borish;

– pedagog va talabalarning hamkorlikdagi faoliyatini doimiy ravishda tashkil etilishi kiradi.

O'quv jarayonidagi **pedagogik texnologiya** – *bu muayyan ketma-ketlikdagi yaxlit jarayon bo'lib, u talabaning ehtiyojidan kelib chiqqan holda aniq bir maqsadga yo'naltirgan, oldindan puxta loyihalashtirilgan va kafolatlangan natija berishiga qaratilgan ijodiy pedagogik jarayondir*²¹.

Pedagogik maqsadning amalga oshishi va kafolatlangan natijaga erishish o'qituvchi va talabaning hamkorlikdagi faoliyati, ular qo'ygan maqsad, tanlangan mazmun, uslub, shakl va vositaga, ya'ni texnologiyaga bog'liq. Natijaga erishish uchun balki kompyuter bilan ishlash lozimdir, balki film yoki tarqatma materiallar kerak bo'lar. Bularning barchasi pedagog mahorati va talaba ehtiyojiga bog'liq. Shuning uchun ham ta'lim muassasalarida faoliyat ko'rsatayotgan professor-o'qituvchilar o'z sohalari bo'yicha olib borayotgan mashg'ulotlarida interfaol uslublar va pedagogik texnologiyalarni qo'llay olishlari lozim va shartdir.

²⁰ R. Nurmuhamedov, A. Abduqodirov, A. Pardayev. Ta'limda innovatsion texnologiyalar. – T., «Iste'dod» jamg'armasi. 2008.

²¹ R. Nurmuhamedov, A. Abduqodirov, A. Pardayev. Ta'limda innovatsion texnologiyalar. – T., «Iste'dod» jamg'armasi. 2008.

**Yangi pedagogik texnologiyalar asosida dars o'tishning mazmuni
(bir mashg'ulot misolida)**

Fakultet, kafedra, o'qitish bosqichi	O'quv predmeti	O'quv mashg'uloti mazzusining o'quv dasturidagi o'rni
_____	Sahna nutqi	№ _____
Sana: _____	O'quv guruhi — _____ Talabalar soni — _____	O'qituvchi: A.Nosirova
Mavzuning nomi:	Nutq texnikasi	
Mashg'ulot rejası:	<ol style="list-style-type: none"> 1. Artikulatsiya (nutq jarayonida talaffuz organlari: lab, jag', tilning turlicha harakati). 2. Diksiya (tovushlar va so'zlarning talaffuz etilishi). 3. Orfoepiya (adabiy talaffuz me'yorlarini belgilab beruvchi qoidalar majmuasi). 4. Nafas. 5. Ovoz. 	
Asosiy atama va tushuncha	Artikulatsiya, diksiya, orfoepiya, nafas, ovoz	
Adabiyotlar ro'yxati:	<ol style="list-style-type: none"> 1. A.Nosirova. Jonli so'z san'ati asoslari. — T., 2003. 2. R.Jumaniyozov. Nutqiy mahorat. — T., 2005. 3. S.Inomxo'jayev. Badiiy o'qish asoslari. — T., 1973. 4. N.Aliyeva. San'atdagi hayotim. — T., 1978. 	
O'quv mashg'ulotining maqsadi	Bo'lg'usi rejissyor va aktyorlar o'z kasbini yetuk darajada egallashlari uchun ularning nutqi va muomala madaniyati yuqori darajada bo'lishi kerak. Talabalarga sahna nutqini o'rgatishda nutq texnikasining o'rni katta. Nutq texnikasi orqali talabalarlarning adabiy til me'yorlarida, ya'ni to'g'ri talaffuzda gapirishlariga erishish asosiy maqsad qilib olingan.	
O'qituvchi oldidagi vazifa	<ul style="list-style-type: none"> • Adabiy talaffuz me'yorlarini o'rgatish. • Sahnaviy nutq madaniyatini shakllantirish. • To'g'ri talaffuz etish qoidalari bilan tanishtirish. • Unli tovushlar talaffuzini yo'lga qo'yish. • Undosh tovushlar talaffuzini yo'lga qo'yish. • Orfoepiya qoidalari bilan tanishtirish. • To'g'ri nafas olishni yo'lga qo'yish. • Ovozni shakllantirish. 	

O'quv faoliyatining natijalari	<ul style="list-style-type: none"> • Adabiy talaffuz me'yorlari o'rganiladi. • Sahnaviy nutq madaniyati shakllaniladi. • To'g'ri talaffuz etish qoidalari bilan tanishiladi. • Unli tovushlar talaffuzi yo'lga qo'yiladi. • Undosh tovushlar talaffuzi yo'lga qo'yiladi. • Orfoepiya qoidalari bilan tanishiladi. • To'g'ri nafas olish yo'lga qo'yiladi. • Ovoz shakllantiriladi.
O'qitish metodlari va texnikalari	Amaliy, «muzyorar», «aqliy hujum»
O'qitish vositalari	Tarqatma materiallar, matnlar, asarlardan olingan parchalar, manzaraviy parchalar, video- va audio-yozuvlar. Maxsus slaydlar.
O'qitish sharoiti	Maxsus moslashtirilgan auditoriya

«Nutq texnikasi» mavzusidagi axborotli mashg'ulotning texnologik xaritasi

O'qitish bosqichlari	Faoliyat mazmuni	
	Ta'lim beruvchi	Ta'lim oluvchi
I. Tayyorlov bosqichi (7 daqiqa)	1.1. Mavzuning nomi, maqsadi va kutilajak natijalarni eshittiradi. 1.2. Mashg'ulotni o'tkazish shakli bilan tanishtiradi. 1.3. Baholash mezonlari va adabiyotlar ro'yxatini e'lon qiladi. 1.4. Asosiy tayanch iboralar bilan tanishtiradi.	Eshitadilar Eshitadi, yozadi.
II. Asosiy bosqich (30 daqiqa)	2.1. «Aqliy hujum» metodi yordamida talabani faolashtiradi. 2.2. Talabani fikri umumlashtirilib, nutq texnikasi haqida batafsil ma'lumot beriladi. 2.3. Talaba bilan amaliy mashqlar o'tkaziladi. 2.4. Talaba bajarayotgan amaliy mashqning ahamiyati tushuntiriladi. 2.5. Amaliy mashq davomida yo'l qo'yilgan xatoliklar ta'kidlanadi. 2.6. Maxsus slaydlar yoki videolavhalar orqali amaliy mashqning mohiyati, bajarilish usullari namuna sifatida beriladi. 2.7. Amaliy mashq yuzasidan talaba bilan savol-javob o'tkaziladi.	Fikr bildiradi Xotira uchun amaliy mashqlar bajariladi. Eshitadi, zarur joylarini yozib oladi. Bahs-munozara-ga kirishadi.

III. Yakuniy bosqich (8 daqiqa)	3.1. Mavzuga xulosa qilinadi. 3.2. Mavzu yuzasidan uyga vazifa beriladi. 3.3. Mavzu yuzasidan nutqni takomillashtiruvchi mashqlar vazifa sifatida topshiriladi.	Eshitadi. Yozib oladi.
---------------------------------	---	-------------------------------

Yangi pedagogik texnologiyalar asosida dars o'tishning mazmuni (bir mashg'ulot misolida)

Fakultet, kafedra, o'qitish bosqichi	O'quv predmeti	O'quv mashg'uloti mavzusining o'quv dasturidagi o'rni
_____	Sahna nutqi	_____
Sana: _____	O'quv guruhi – _____ _____	O'qituvchi: A.Nosirova
Mavzuning nomi:	G'azallar ustida ishlash	
Mashg'ulot rejası:	1. G'azal haqida tushuncha. 2. Aruz vazni, barmoq vazni, erkin vazn.	
Asosiy atama va tushuncha	G'azal, g'azal o'qish san'ati, turoqlar, qofiya, talaffuz, ohang, pauza.	
Adabiyotlar ro'yxati:	1. A.Rustamov. Aruz haqida suhbatlar. – T., 1972. 2. A.Hojjahmedov. Maktabda aruz vaznini o'rganish. – T., 1995. 3. S.Aliyev. Aruz ilmi. – T., 1995. 4. A.A'zam. Aruz. – T., 2006. 5. A.Nosirova. Jonli so'z san'ati asoslari. – T., 2003. 6. R.Jumaniyozov. Nutqiy mahorat. – T., 2005.	
O'quv mashg'ulotining maqsadi	Magistrlarga g'azal o'qish san'atini o'rgatish	
O'qituvchi oldidagi vazifa	<ul style="list-style-type: none"> • G'azal haqida tushuncha berish. • G'azal o'qishda ohang va talaffuz me'yorlarini o'rgatish. • G'azal qofiyalariga e'tibor berish. • Aruz vazni haqida ma'lumot berish. 	
O'quv faoliyatining natijalari	<ul style="list-style-type: none"> • G'azal haqida tushunchaga ega bo'linadi. • G'azal o'qishda ohang va talaffuz me'yorlari o'rganiladi. • G'azal qofiyalari o'rganiladi. • Aruz vazni haqida ma'lumot olinadi. 	
O'qitish metodlari va texnikalari	Interaktiv, «aqliy hujum».	
O'qitish vositalari	Tarqatma materiallar, slaydlar, audio- va videotasmalar.	
O'qitish sharoiti	Maxsus moslashtirilgan auditoriya.	

ILOVALAR

*Jahongir Mamatqosimov
inssenirovkasi*

Bir kam dunyo (*tasviriy qo'shiq*)

(Sahna falsafiy, g'amgin ma'noda bezatilgan bo'lib, sahnaning orqa tomonidan Oqmomo uchun balandroq joy qilingan. Yonida ikki pallali tarozi. Sahnaning o'ng tomoniga farishta uchun oq, chap tomoniga shayton uchun qora eshik qo'yilgan. Sahnada yig'lagan, kulgan, xomush, chaqaloq ko'targan, sevishgan ikki yosh holatidagi ishtirokchilar to'r bilan yopilgan. Parda yopiq holda. Musiqa ohangdorligida she'r o'qiladi.)

O'n sakkiz ming olamni yaratgan Oллоh,
Turg'azib qo'ydik-u yerni muallaq.
Bo'ysindirib unga Quyosh, Oy va Havoni,
Chiroyli qilib yaratdi unga Odam Atoni...

(Fondan ovoz beriladi.)

- 1 – kulgu;
- 2 – chaqaloq yig'isi;
- 3 – urush, jang ovozi;
- 4 – (Yigit) Azizim, men sen uchun jonimni berishga ham tayyorman.
- 5 – (Xotin) Jonimga tegding, har kuni shu ahvol, yo'qol, yo'qol.

(Fondan «Dunyo» qo'shig'i beriladi. Sekin parda ochilib, sahna to'ridan oppoq kiyingan Oqmomo qo'shiq ijro etib chiqib keladi. Qo'shiq orqali sahnadagi ishtirokchilar bilan munosabatda bo'ladi).

So'zim tingla dunyo bir muddat,
Bunchalar ham ishlaring g'araz,
Yaxshilarni g'amlarga qo'yib,
Yomonlarga qilding muruvvat.

Dunyo, dunyo, bir kam dunyosan,
Kimni xo'rlab, kimni suyasan,
Yolg'on dunyosan.

(Musiqqa o'zgarib, sahnaga farishta va shayton kirib keladi.)

Oqmomo: – Tinglang sizga beraman savol,
Javob bering o'ylab bemalol.
Haqlimi yashashga inson,
Rosting ayting, qo'shmay yolg'on.

Farishta: – Ha, haqlidir.

Shayton: – Yo'q, yo'q, nohaq.

Oqmomo: – Isbotlangiz so'zingiz.

Shayton: – Mana, ko'ring o'zingiz.

(Shayton sahnadagi ishtirokchilarning ustidan to'rlarni olib tashlaydi. Mungli musiqada ular sekin jonlana boshlaydi. Oqmomo o'z joyiga borib o'tiradi. Ishtirokchilar sekin harakat qila boshlaydi.)

Farishta: – Bu hayotdir, bu hayot,
Qancha qilma dod-faryod.
Peshanangdagi taqdir,
Nasib etar birma-bir.

Shayton: – Sen shohmi, yo bir gado,
Yashab qolmassan tanho.
Yo'lingda ko'pdir sinov,
Yonasan misli olov.

Oqmomo: – Deydilar bir kam dunyo,
Aytganing bo'lsa ro'yo.
Baxtliman dema inson,
Baxtsiz bo'lishing oson.
Yo'lingda bor farishta, shayton,
Ogoh bo'l, ogoh bo'l, ogoh bo'l INSON.

(«Bu yo'llar» qo'shig'i farishta tomonidan ijro etiladi. Shayton va farishta insonlarni o'z olamiga chorlaydi. Shayton insonlar ustidan pul sochib, ularni ramziy arqon bilan bog'lab o'z olamiga

tortadi. Farishta insonlarga nisbatan samimiyat bilan, mehr bilan o'ziga chorlaydi.)

Dili bo'lak odamlarning yo'li bo'lak,
Kimga boylik, kimga obro', mansab kerak.
Turfa yo'lda turfa odam ketib borar,
O'z dardiga bu yo'llardan o'tib borar.
Oh qayg'usi ko'p demangiz bu hayotning,
Og'riq, og'riq nuqtalari bor hayotning.
Bu yo'llardan olib ketmas, ko'p olgan ham,
Bu yo'llarda qolib ketmas och qolgan ham.
Bu yo'llar, yo'llar, bizlarni chorlar,
Ham yaxshi, yomon-u bir joyga borar.

(Shayton va farishta ishtirokchilarini o'z olamiga tortib, sekin sahnadan chetlatadi. Sahnada Oqmomo, Shayton va Farishta qoladi.)

Shayton: — (Kuladi.) Ko'rdingizmi Oqmomo, inson yaxshilikdan yovuzlikka ko'proq moyilroq.

Farishta: — Yo'q, inson o'z nomi bilan inson, u har bir ishga qodir, u bunyodkor, samimiy, yaxshilik asirlaridir.

Shayton: — Adashayapsiz farishta. U johil, qotil, takabbur va riyokor. U hatto o'z zurriyotidan ham voz kechadi. Yoki gapimga shubha qilmoqdamisiz. Unday bo'lsa, mana ko'ring, o'z ko'zingiz bilan. Ha-ha-ha...

(Sahna qorong'ulashib chaqmoq chaladi, momaqaldiroq ovozi beriladi. Sahnada bog'ning bir cheti tasvirlangan bo'lib o'rtaga o'rindiq qo'yilgan. Hozir bo'lib o'tadigan sahna ko'rinishini va boshqa sahna ko'rinishlarini ham Oqmomo, Farishta va Shayton o'z joylarida turishib kuzatishadi. Insonlarning qilayotgan xatti-harakatlarini ko'rib o'z ichki kechinmalarini yuz mimikasi orqali tomoshabinga yetkazadilar.

Sahnaga bir yoshgina qiz qo'lida bola bilan kirib keladi. Atrofga olazarak qarab turadi-da, yig'lab bolani bag'riga bosadi. Birdan o'ziga kelib, qat'iyatlilik, keskin harakatlar bilan bolani o'rindiqqa qo'yib bir lahza qarab turadi-da, tez yurib chiqib ketadi.

Fondan «Onajonim» qo'shig'i beriladi.)

Onajonim, jon onam,
Nega tashlab ketdingiz,
Yuzingizni ko'rsatmay,
Qalbim g'ashlab ketdingiz.

(Bolaning baqirib yig'lagan ovozi. Musiqa o'zgarib «Cho'li iroq» musiqasi beriladi.)

Sahnaga yaxshi kiyinmagan, hayotdan noligan ayol kishi kirib keladi. Horg'in kayfiyatda o'rindiqqa o'tiradi. Bolani ko'rib birdan o'zgarib ketadi. Atrofga qaraydi. Bolani avaylab ko'tarib, u yoq-bu yoqqa alanglab qaraydi. Birdan joyiga avaylab qo'ymoqchi bo'ladi-da, keyin yana bag'riga bosib quchoqlaydi.

Fondan «Alla» qo'shig'i beriladi)

Alla bolam, bolajon,
Rasul barhaq xudoyo,
Bu o'tkinchi dunyoda
Sendan o'zga kimim bor.
Alla bolam, bolajon.

(Ayol uni olib chiqib ketadi. Ayol chiqib ketgandan so'ng, avvalgi ayol yig'lab, bolasini qo'msab kirib keladi. Bola yo'qligini ko'rib, dahshatga tushadi. Uvvos solib, yig'lab yuboradi, atrofga alanglab qidiradi. Topolmagach o'rindiqqa boshini changallab o'tirib qoladi. Fondan «Cho'li iroq» kuyi beriladi. Avvalgi ayol bolani yetaklab o'tib ketadi. Fondan jarangli ohangda «Oyi, oyi ovozi» beriladi. Xotin ular ortidan yig'lab chiqib ketadi.)

Shayton: — Ana, aytmabmidim, inson vahshiy, u hayvondan ham battar, o'z bolasiniyam tashlab ketadimi, axir hayvon ham bolasini o'sib ulg'aytiradi-ku.

Farishta: — Yo'q shayton, inson ongli mavjudot, u har bir ishi uchun kerak vaqtida jazo, kerak vaqtida maqtov oladi. Inson xatosini to'g'rilaydi, sen aytgan hayvoning buni qila oladimi?

Oqmomo: — Gaping to'g'ri farishta, inson bu hayotning ma'naviy gultojidir.

Shayton: — Nahotki shu berahmga shunchalik muruvvat ko‘rsatmoqdasiz? Axir ular yo‘ldan adashgan karvon misli tentirab yuradi-ku.

Farishta: — Shuning uchun ham biz ularni sinab ko‘ramiz.

Shayton: — Sinang, sinang. Ular sevgini qanday tushunishini sinang. Mana ko‘ring ularni.

(Sahnaga stol-stul qo‘yilgan. Nogironlar aravasida Bobur o‘tirib kitob o‘qimoqda. Sahnaga Boburning onasi kirib keladi.)

Bobur: — Assalomu alaykum, oyijon.

Ona: — Vaalaykum assalom bolam, zerikmay o‘tiribsanmi?

Bobur: — Tinchlikmi oyi, bezovta ko‘rinasiz.

Ona: — E, ukangning xotini Zuhraxon yana araz qilib uyiga ketib qoldi. Hech esi kirmadi, kirmadi-da. Sal gapga qovog‘ini uyib, araz-gina qiladi. Bir narsa desang uyiga ravona bo‘ladi. Fotimaxon kelmadi-mi?

Bobur: — Yo‘q, hali kelmadi, hozir kelib qolar.

Ona: — Umridan baraka topsin Fotimaxon, juda ajoyib, o‘z qizimday ko‘raman. Lekin anavu singlisi Zuhraxondan xudo saqlasin. Tavba ikkalasi bir qorindan talashib tushishgan, ustiga-ustak egizak bo‘lsa, ikkalasining xarakteri ikki xil. Hayron qolasan.

(Sahnaga Fotima kirib keladi.)

Fotima: — Assalomu alaykum oyijon, Assalomu alaykum Bobur aka, yaxshi o‘tiribsizlarmi?

Ona: — Vaalaykum assalom, yaxshi keldingizmi qizim?

Fotima: — Yaxshi rahmat, singlim Zuhra ko‘rinmaydi?

Ona: — E, singlingiz yana o‘sha odati bo‘yicha onangizning uyiga ketdi.

Fotima: — Mayli oyi xafa bo‘lmang, hali men borib o‘zlim olib kelaman, uning odatini bilasiz-ku.

Ona: — To'g'ri aytasiz qizim, ikkalangiz bir oilada o'sgansiz, bir tarbiya topgansiz, lekin ikkalangiz...

Fotima: — Gapingizga qo'shilaman. Men ham shu haqda ko'p o'ylayman, haqiqatda ikkalamizning xarakterimiz boshqa-boshqa.

Ona: — Ha, mayli, men boray, o'z yumushlarim bor.

Bobur: — O'tiring oyi.

Fotima: — Hozir choy qo'yaman.

Ona: — Rahmat bolam, umringizdan baraka toping, men hozir xonamda choy ichdim. Endi boray. (Chiqib ketadi.)

Fotima: — Bobur aka, meni kutib qorningiz ham ochib ketgan-dir-a?

Bobur: — Yo'g'-e, oyim kirgandilar, gaplashib o'tirgan edik.

Fotima: — Hozir men sizga ovqat tayyorlayoman. Biroz kutib turing. (Chiqib ketadi.)

Bobur: — (O'ziga-o'zi.) Eh, Fotimaxonga ham ortiqcha tashvish bo'ldim. Er bo'lsam-u uyda o'tirsam, ostona xatlab ko'chaga chiqolmasam. Oyoqlarim bo'lsa-yu, meni ko'tara olmasa, yurolmayman deyishga uyalsam. Xotin boshi bilan ishlaydi, yana uy ishlari, mening tashvishim, ey Xudo o'zing madad bergil, oyoqlarimga jon ato etgil.

(Fotimaxon uy kiyimida, qo'lida choy ko'tarib kiradi.)

Fotima: — Bobur aka zerikmayapsizmi, hozir ovqat olib kelaman.

(Chiqib ketadi, Bobur hamon xayol surib o'tiribdi.)

Bobur: — (O'ziga-o'zi.) Haliyam baxtinga Fotimadek vafodor yorga uchraganman. Shunisiga ham xudoga shukur. Lekin qal-bimda yonayotgan erlik g'ururim boriga shukur qilib o'tirishga yo'l bermasa men nima qilay. Men baribir yurishim kerak. (Fotima kirib keladi.).

Fotima: — Bobur aka, mana sizga ovqat. Hozir sizga yordam beraman. (Nogironlar aravasida uni dasturxonga yaqin olib keladi.) Anna, ovqatga qarang. Yoqimli ishtaha.

Bobur: — O'zingga qani?

Fotima: — Mening negadir ishtaham yo‘q. Singlim Zuhra-xonning qachon esi kirar ekan. Manna, choyni oling.

(Bobur ovqatlana boshlaydi. Fotima boshini stolga qo‘ygan holda uxlab qoladi. Fondan M.Asadovanning «Muhabbatni chiqargandir chidaganga» qo‘shig‘i beriladi. Bobur Fotimaga e‘tibor berib qarasa u tirab uxlamogda, sekin o‘rnidan qo‘zg‘almoqchi bo‘ladi, lekin tura olmaydi, baribir turishga urinadi. Sekin stol atrofida yura boshlaydi. Fotimaga yaqinlashib uning ustiga choyshabni yopadi va birdan yiqilib tushadi. Fotima irg‘ib o‘rnidan turadi. Yerdan yotgan erini sekin turg‘azadi va joyiga olib kelib o‘tirg‘izadi.)

Fotima: — Bobur aka nega o‘rningizdan turdingiz, nega?!

Bobur: — Meni kechir Fotima, men sening oldingda bir umrga gunohkorman. Men senga bir umrga tashvishman. Men keraksiz bir insonman.

Fotima: — Yo‘q, Bobur aka, unaqa demang, siz men uchun doimo keraksiz. Men sizsiz yashay olmayman. Mayli, yarim jon bo‘lsangiz, men uchun ishongan bog‘im, suyangan tog‘imsiz.

(Musiqqa balandlashadi. Sahna qorong‘ilashib Oqmomo, Farishta va Shayton kirib keladi.)

Farishta: — Ana Oqmomo, ana Shayton, ko‘rdingizmi, inson o‘z sevgisiga sodiq, u vafodor, rahmdil, pokdillidir.

Shayton: — (Kuladi.) Eh, Farishta, bu birgina sevishganlar xolos, lekin bu dunyoda Zuhraga o‘xshagan bemehr, vafosizlar tiqilib yotibdi. (Kuladi.)

Farishta: — Yo‘q, aslo unday emas, insonlar borki, hayot bor. Hayot bir zaylda davom etadi. Bu hayotni insonning sevgisi, muhabbati boshqaradi.

Oqmomo: — Sevish, sevilish insonga xos his-tuyg‘u. Sevgiga sadoqatli bo‘lish insoniylik burchi. Qolaversa mehr-oqibat inson uchun mangudir.

Shayton: — Yo‘q, Oqmomo, mehr-oqibat insonlarga yod bo‘lib bormogda. Inson uchun boylik, ha-ha, boylik mangudir, ularga

boylik, pul, xazina kerak. (Kuladi.) Mana, mana ko'ring, inson boylik uchun o'z qarindoshidan ham voz kechadi. (Kuladi.)

(Sahnada dasturxon bezatilgan xona tasvirlagan. Uy bekasining tug'ilgan kuni. Uy bekasi sahnaga choynak-piyola ko'tarib chiqadi. «O'ynagani qo'ymaslar» qo'shig'iga parodiya ijro etiladi.)

Mana bugun do'stlarim,
Mehmon bo'lib kelishar,
Tug'ilgan kun bahona,
Qutlagani kelishar,
Quvnagani kelishar,
Tug'ilgan kun bahona,
O'ynagani kelishar.
Tog'a-yu xola, amma,
Yig'ilishadi hamma,
Qarindoshlar jamul-jam,
Qutlagani kelishar.

Xotin: — Demak, hamma narsa tayyor, bermalol mehmonlarni kutib olsam bo'ladi. Tavba, haliyam dadajonisidan xabar yo'q, oy desa oy, kun desa kunday xotining tug'ilgan kuni bo'lsa-yu, uyda o'tirmasa, tavba, xayallab qoldi. Ha, mayli oshning harakatini qilay, hademay mehmonlar ham kelib qolar. (Dasturxonga bir nazar tashlaydi.) Voy o'lmasam, axir dasturxonga non qo'ymabman-ku, ha, mayli zirillab borib do'konga chiqib kela qolay.

Sahna ortidan ovoz: — Xotin, o xotin, o-o xotin. («Sanamgina» qo'shig'iga parodiya ijro etiladi.)

Qayerdasan xotin, xotin? (Qo'lida xotini uchun uchta-to'rtta sovg'a.)

Tug'ilgan kun bo'lar bugun xotin qani,
Osh qilishga qozon-o'choq o'tin qani,
Qarindoshlar kelib qolar mezbon qani,
Qayerdasan mening go'zal xotinginam.
Senga olgan sovg'alarim dahshat juda,

Narxlari ham osmonga teng — kata-katta,
Qani kelgin yonginamga xotin shartta,
Qayerdasan mening go‘zal xotinginam,
Yondiradi, kuydiradi xotinginam,
Qoshi qaro, ko‘zi qora xotinginam.

Er: — Ey tavba, a bu dasturxonni bezabti-yu, o‘zi qayoqqa gum bo‘ldi. O‘ziyam dahshat sovg‘alar oldim-da, bu sovg‘alarni ko‘rib, o‘zida yo‘q xursand bo‘lib ketadi. E, kallamga bir fikr kelib qoldi. Bir tug‘ilgan kuniga hazillashsammikin. Qanaqa bo‘lar ekan. E nima bo‘lsa bo‘ldi. O‘ziyam hozir kelib qolsa kerak.

(Sahnaning o‘rtasiga stol qo‘yib, ustiga chiqadi. Tepaga arqon bog‘lab, bo‘yniga solib oladi. Shu mahal shoshib xotin kirib keladi, qo‘lida paket.)

Xotin: — Voy, xudoga shukur xaliyam mehmonlar kelishmabdi. Dadasi ham kelmabdi. (Osilganini ko‘radi.) Voy-dod, dadajonisi. (Hushidan ketadi.)

Er: — Voy, voy, tavba endi nima qildim. (Shu mahal parda ortidan ovoz.)

Amma: — Ukam, o, ukam, uydamisiz kelinposhsha? (Er o‘z joyiga, osilgan holiga turib oladi, ammasi kirib keladi.)

Amma: — Kim bor, biron kishi bormi? Voy o‘lmasam kelin poshsha?! (Birinchi bo‘lib kelinini yotganini ko‘radi.) Bu nima yotish, nima bo‘ldi sizga, suv, hozir suv olib kelay. (Erini ko‘radi.) Voy-dod, bu nima ahvol, ukaginam voy-dod, voy bechora ukam. (Shu payt stolda turgan chiroyli sovg‘alarni ko‘rib qoladi.) — Voy, bu manavi sovg‘alarni bechora rahmatli ukaginam, rahmatli kelinimga tug‘ilgan kuniga olganga o‘xshaydi. Ikkalasiniyam xudo rahmat qilsin, Ilohi omin. (Fotiha qiladi.) Biram chiroyli ekan, manavuni haqiqiy ko‘ylak desa bo‘ladi, bunaqasini birinchi ko‘rishim. O‘zimga olib qolsamikin?

(«Sen faqat meniki» qo‘shig‘iga parodiya.)

Amma: – Oladigan pensiyam besh chaqadir,
Uyim to‘la farzand bola-chaqadir.
Bu ko‘ylak menga juda yoqadir,
Bu ko‘ylak meniki, bu ko‘ylak meniki,
Bu ko‘ylak meniki bo‘lishi kerak.

(Ko‘ylakni qo‘yniga solib ketayotganida, ukasi gapiradi.)

Er: – Ko‘ylakni joyiga qo‘y!

Amma: – (Qo‘rqib ketadi.) N-i-im-a-a?

Er: – Qo‘yib qo‘y joyiga.

Amma: – Voy o‘-l-ik-k. (Hushidan ketadi.)

Er: – Voy tavba, ammam ham hushdan ketdi, endi nima qildim.

(Parda ortidan ovoz.)

Tog‘a: – Jiyan, o jijan, kelin uydamisizlar, o kim bor? Voy-voy singlim, nega yotibsan, Iya, kelin, nima bo‘ldi sizlarga, turinglar. Voy-dod jijan, nima qilib qo‘yding jijan, esingni yedingmi? (Sovg‘alarni ko‘radi.) Voy-bu, mana bularni qarang, ajoyib-ug‘aroyib, daxshat-ku, rahmatli ukam, yaxshi inson edi, rahmatli xotiniga olganga o‘xshaydi, xudo rahmat qilsin. (Qutichani ochib ko‘radi.) Mo‘jiza-ku, mo‘jiza, buni uyga olib borsam bormi, o‘-hu-hu kampirim peshanasiga ko‘taradi-ya. Nima qilsam?!

Afandining gapi to‘g‘ri,
Bu dunyoda hamma o‘g‘ri,
Jiyanginam barakalla,
Balli jijan, balli jijan,
Sovg‘alarni bergin buyon.

(Sovg‘alarni olib chiqib ketayotganida jiyani gapiradi.)

Er: – Qo‘yib qo‘y.

Tog‘a: – N-i-m-a?

Er: – Qo‘y joyiga. (Tog‘asi hushidan ketadi, jijan asta stuldan tushib, ularni kuzatadi.) Eh, bu yog‘i qiziq bo‘ldi-da, bu ammam bilan tog‘am tupa-tuzuk o‘g‘ri ekan-ku. Bilmagan ekanman. Bu qo‘ynimda qora ilon saqlagan ekanman-da. Ey, qani turinglar,

nima yotish bu, amma, tog'a, xotin, bu nima yotish? (Ular turishadi hayron bo'lib.) Ha, nimaga hayron qolasiz, amma? Qimmatbaho ko'ylak kiygingiz keldimi, e qo'ying-e amma, sizchi tog'a, tog'a yetti otaning o'rnini bosadi, deydilar. Shumi menga otachiligingiz, uyalmaisizmi?

Amma: — Voy o'lmasam, qozonga sut qo'yib keluvdim. (Yugurib chiqib ketadi.)

Tog'a: — Singlim, singlim men ham sen bilan, to'xta.

Er: — Hov, qarindoshlar, qayoqqa, mana bu sovg'alar-chi, olib ketmaysizmi?

Xotin: — Voy dadasi, nima bo'ldi, siz tirikmisiz?

Er: — Ha, tirikman xotin, yaxshiyam o'lib qolmabman. Hazil-lashib yolg'ondan o'lganimdan, qarindoshlarning. umuman yor-u, do'stlarning, dunyoning yolg'onligini bildim.

Xotin: — Nahotki shu gaplaringiz rost bo'lsa, nahotki tog'am, ammam shunaqa bo'lsa?!

Er: — Faqat tog'ang, ammang emas, deyarlik hamma shunaqa deyaver, hali ham bular qarindosh emish. Yolg'on, hammasi yolg'on.

(«Yolg'on dunyo» qo'shig'i.)

Xotin: — Tamagirni tor qilab,
Nafsi qo'ymas deydilar.
Nokas o'zi to'ysa ham,
Nafsi to'ymas deydilar.

Er-xotin: — Yolg'on dunyo, bu dunyo,
Armon dunyo bu dunyo.
Ne-ne shoh-u beklardan,
Qolgan dunyo bu dunyo.

Er: — E, Xotin, qo'y bu ishlarni, seni tug'ilgan kuning bilan tabriklayman.

Xotin: — Rahmat dadasi, baxtinga omon bo'ling.

Er: — Mening baxtinga sen omon bo'l, menga bemehr, beoqibat qarindosh emas, bolalariga mehribon, eriga vafodor sendek xotin kerak. Qani, yur, ichkariga kiraylik.

(Sahnaga Shayton, Farishta va Oqmomo kirib keladi.)

Shayton: – Gapim to‘g‘riligiga shubhangiz yo‘qdir, hurmatli Farishta.

Farishta: – Inson o‘z qilmishiga iqrор va javobgardir. Inson bu ishni bir qildimi, qayta takrorlamaslikka harakat qiladi. U har bir qadamini o‘ylab tashlaydi. Chunki u o‘z nomi bilan inson.

Oqmomo: – To‘g‘ri aytasan Farishta, sening ham gaplaring to‘g‘ri, shayton. Siz ikkingiz bu olamga ikki xil ko‘z bilan qaraysiz, biringiz ezgulik, biringiz yovuzlik ko‘zi bilan. Chunki bu sizning vazifangiz. Lekin insonning vazifasi faqat va faqat yaxshilik qilish. Berilgan hayotini sermazmun o‘tkazishdir. Lekin oyning o‘n beshi yorug‘, o‘n beshi qorong‘i deganlaridek, bu dunyoda yaxshini ham, yomonni ham topasan.

Farishta: – To‘g‘ri.

Shayton: – To‘g‘ri.

Oqmomo: – Inson baribir yaxshilik uchun intiladi, chunki u ongli mavjudot.

Sinovlarim o‘tdi haqqoniy,
Yashaydi inson dunyoda boqiy,
Yashashga haqqi bor yer yuzida,
Yuz yilmi, ming yilning bahor-kuzida.

Shayton: – Nahotki, bu yolg‘on dunyoda insonlarga shunchalik...

Farishta: – Bu dunyo kimgadir yolg‘on, kim uchun rost. Bir narsa ma‘lumki, imkon qidirsang topasan. Bu dunyoda kimdir achchiq, kimdir shirin hayot kechiradi. Chunki hayotning o‘zi achchiq va shirin.

(«Hayot» qo‘shig‘i beriladi.)

Hayot buncha go‘zal, buncha achchiqsan hayot,

Hayot buncha go‘zal, buncha achchiqsan hayot.

(Qo‘shiq balandlashib, sahna sekin qorong‘ilashib boradi. Chaqmoq chalib, sekin parda yopiladi.)

Jonsarak pashsha

(Tasviriy she'r)

Pashsha, jonsarak pashsha,
Qorni oltindek pashsha.
Pashsha qirga oldi yo'l,
Topib oldi yo'ldan pul.
So'ngra bozorga borib,
Keldi samovar olib.
Suvaraklar kelinglar,
Choyga tashrif qilinglar.
Ular kelishar shu kez,
Piyolalar bo'shar tez.
Eng mitti qo'ng'izchalar,
Uch piyoladan ichar.
Sut, bulka bo'lmas kanda,
Ular chog' ichishganda.
Chunki xuddi shu bugun
Pashshaxon tug'ilgan kun.
Pashshaga burgachalar,
Keltirdi etikchalar.
Etikchalar jo'n emas,
Oltindan ilgakchalar.
Pashsha yoniga keldi,
Asalari buvi tez yetib,
Jonsarak pashshaga bol,
Topshirdi sovg'a etib.
Ey go'zal kapalakjon,
Yenglar murabbo qiyom,
Bizning ziyofatimiz
Yoqmaydimi, yo.
Bir chol o'rgimchak to'satdan shu chog',

Pashshamizni burchakka etdi umbaloq.
Shoʻrlikni oʻldirmoqchi,
Hayotin soʻldirmoqchi.
Mehmonlar yordam bering,
Bu mudhish yovni qiring.
Sizni chorladim oʻzim,
Choy tayyorladim oʻzim,
Endi oʻlar paytimda
Tashlab ketmanglar bir zum.
Qoʻngʻiz-u, chivalchanglar
Qoʻrqib qochib qolishdi,
Sichqon inini ular
Ming tangaga olishdi.
Suvaraklar divan tagiga
Pashshachalar soʻri tagiga,
Mitti qoʻngʻizchalar
Qochdi karovatning tagiga.
Jang qilishni xohlamay,
Hech siljishmas nariga,
Battar boʻl-ey, bizga desa,
Ey Pashshanisa.
Chigirtka, chigirtkacha,
Odamga oʻxshab ancha,
Dik-dik, dik-dik etadi.
Boʻta koʻprik tagiga,
Juftak urib ketadi.
Yov boʻlsa hazillashmas,
Qoʻl-oyoqlab pashshani
Chilvirdek oʻrasa bas.
Soʻng oʻtkir tishlarin
Xuddi yurakka sanchar.
Shoʻrlik pashshaning esa
Qonin zulukdek ichar.
Pashsha mingʻillab mudom

O'zin har yoqqa urar,
Yovuz esa churq etmay,
Talpayib kulib turar.
Qo'qqisdan allaqaydan,
Uchib kelar chivinjon,
Qo'lida jajji fonar
Yarqirab yonar shu on.
Qani qotil, qayda yovuz
Qo'rqmayman, ey yalmog'iz,
Qilichin yalong'ochlab
O'rgimchak tomon uchar,
Suvarakdek jang boshlab,
Boshini sapchadek uzar.
Pashshani tez yetaklar
Deraza yoqqa eltar.
Yov kallasin oldim men,
Mana, omon qolding sen,
Endichi, ey, jon pashsha,
Men bilan birga yasha.
Qo'ng'izcha-yu, pashshalar,
Tirqishdan chiqib qoldi.
Sharaf senga chivinjon,
Mardsan, emassan nimjon.
Yaltiroq qurtlar shu chog',
Kelishib yoqdi chiroq.
Har yoqda shodiyona,
Bazm avjida yana.
Mingoyoqlar keling tez,
Yo'lakdan choping shu kez,
Chaqiring sozandani
Raqsiga tushaylik qani.
Sozandalar kelishdi,
Barabanlar chalishdi,
Gum-gum, gum-gum

O'ynar pashsha, chivin har zum.
Qandalalar o'ynar xo'p,
Etiklar etdi do'p-do'p,
O'ynar qurt va chivalchang,
Qo'ng'iz, kapalak, qarang.
Go'ng qo'ng'iz muguzlilar
Eng baquvvat yigitlar,
Qalpoqlarin silkitar,
Kapalaklar raqs etar.
Taralla-yu, taralla,
Taralla-yu, taralla,
Chivinjon boshlar yalla,
Shod-u xurram xaloyiq,
Pashshaxon topdi qalliq.
Yosh, chaqqon, uddaburon
Chivinga tegar shu on.
Chumoli-yu chumoli,
Oyoqdan ketdi holi,
Pashshaxon raqs etar,
Qo'ng'izchaga gap otar.
Ey, mitti qo'ng'izchalar,
Suvarak, suvarakchalar.
Etiklar g'arch-g'urch etar,
Poshnalar to'q-to'q etar,
Shod-xurramli Chivinboy
Tong ottirar haynoxoy.
Mana, xuddi shu bugun,
Pashshaxon tug'ilgan kun.

TEST SAVOLLARI

1. «O‘zbekiston teatr san‘atini rivojlantirish to‘g‘risida»gi Prezident Farmoni nechanchi yili e‘lon qilangan?

- A. 1997-yil.
- B. 1998-yil.**
- C. 1999-yil
- D. 2000-yil.
- E. 1993-yil.

2. «Albatta, hozirgi davrda bozor iqtisodiyoti talablarini ham inobatga olish kerak. Lekin yuksak badiiyat va haqqoniylik, ezgu maqsadlarga xizmat qilish ruhi bilan sug‘orilgan asarlar yaratish — barcha san‘at turlari kabi bu soha uchun ham asosiy mezon bo‘lishi tabiiy. Bu maqsadga erishish uchun yosh va iste‘dodli dramaturg va rejissorlar, teatr aktyorlarini tarbiyalab voyaga yetkazish ayniqsa dolzarb ahamiyat kasb etadi».

Prezidentimiz I.A.Karimovning ushbu fikrlari qaysi asarida bildirilgan?

- A. «Ma‘naviy yuksalish yo‘lida».
- B. «Biz kelajagimizni o‘z qo‘limiz bilan quramiz».
- C. «O‘zbekiston XXI asr bo‘sasida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari».
- D. «Yuksak ma‘naviyat — yengilmas kuch».**
- E. «O‘zbekiston demokratik taraqqiyotining yangi bosqichida».

3. O‘zbek teatr san‘atida sahna nutqiga ilmiy va amaliy asos solgan olimlar nomlarini aniqlang?

- A. N.Aliyeva, L.Xo‘jayeva.
- B. S.Eshonto‘rayeva, K.Yashin.
- C. N.Aliyeva, M.Uyg‘ur, Z.Sadriyeva.
- D. L.Xo‘jayeva, M.Behbudiy.
- E. M.Behbudiy, N.Aliyeva.

4. «Nutq texnikasi» qanday bo'limlardan iborat?

- A. So'z ustida ishlash, unli harflar talaffuzi.
- B. Talaffuz va diksiya.
- C. Diksiya, artikulasiya, nutq organlari.
- D. So'z, tasviriy she'r va masal.
- E. Artikulasiya, diksiya, nafas, ovoz va to'g'ri talaffuz.

5. Nutq organlari faoliyatini takomillashtiruvchi omil bu — ...

- A. Diksiya.
- B. Artikulasiya.**
- C. Unli tovushlar.
- D. Sonor tovushlar.
- E. Hamma javoblar to'g'ri.

6. Adabiy talaffuz me'yorlarini belgilab beruvchi fan.

- A. Leksikologiya.
- B. Morfologiya.
- C. Filologiya.
- D. Falsafa.
- E. Orfoepiya.**

7. «Pirpirak pirillaydi, chirildoq chirillaydi». Ushbu jumlaning janrini toping.

- A. Chiston.
- B. Tez aytish.**
- C. Saj.
- D. Ertak.
- E. Matal.

8. Sajga to'g'ri berilgan ta'rifni toping.

- A. Saj bu — qofiyalangan nasr.**
- B. Saj bu — jumboqli to'rtlik.
- C. Saj bu — qarama-qarshilikning yechimi.

D. Saj bu — nasriy asar bo‘lib, unda tarixiy shaxslar haqida hikoya qilinadi.

E. Hamma javob to‘g‘ri.

9. So‘z va bo‘g‘inlardagi unli va undosh tovushlarning to‘g‘ri va aniq bo‘lishini o‘rgatuvchi va ta‘minlovchi muhim vosita bu ...

A. Diksiya.

B. Artikulatsiya.

C. Unli tovushlar.

D. Sonor tovushlar.

E. Hamma javoblar to‘g‘ri.

10. «Monolog» so‘zining lug‘aviy ma‘nosini toping.

A. Ikki kishining suhbat.

B. Dialoglar majmuasi.

C. Bir kishining so‘zi.

D. Tomoshabin so‘zi.

E. Suflyor so‘zi.

11. «Nutqdan o‘zingizgina rohatlanib qolmay... so‘z va ohanglarni, sezdirmasdan turib, tinglovchining qulog‘iga quyib qo‘yishingiz kerak». Ushbu jumla muallifini toping.

A. M.Behbudiy.

B. A.Avloniy.

C. V.Shekspir.

D. I.Tumanov.

E. K.Stanislavskiy.

12. Ovoz balandligi va kuch darajasining ma‘lum bir me‘yordagi cheklanuviga ... deyiladi. Nutqlar o‘rnini to‘ldiring.

A. Diksiya.

B. Artikulatsiya.

C. Registr.

D. Sonet.

E. Saj.

13. Teatrda qo‘yiladigan spektakllar va yakka ijro etiladigan asarlar majmuyi bu — ...

- A. Repertuar.
- B. Repititsiya.
- C. Afisha.
- D. Drama.
- E. Anons.

14. «Ravshanbek shunday qarasa, bir kampir: o‘zi qashqa kampir, bilmayman kiribdi necha yoshga kampir. Beli bukrayib qolgan, qulog‘i tikrayib qolgan, bachchag‘arning tishlari omochday, sochlari polochday, manglayidan tarlon ochgan, ikki chakkasining go‘shiti qochgan, bo‘yinlari tirishgan, hamma yeri qurishgan, iyaklari burishgan, ko‘ringan odam...». Ushbu parcha qaysi janrga mansub?

- A. Saj (dostondagi sajlangan nasriy parcha).
- B. Topishmoq.
- C. Matal.
- D. Tez aytish.
- E. Latifa.

15. Unli tovushlar berilgan qatorni toping.

- A. a, i, o, ya, z, ch.
- B. a, i, e, o, o‘, ng.
- C. i, e, a, o, o‘, u.
- D. i, e, o, o‘, k, t.
- E. To‘g‘ri javob berilmagan.

16. Tanlangan asar muallifining tili va stili, asarning tarixiy sharoiti, badiiy xususiyatlari va boshqa bir qancha xarakterli xususiyatlarini o‘rganish bu ...

- A. Asar muhitini o‘rganish.
- B. Mavzu.

- C. G'oya.
- D. Maqsad.
- E. Repertur.

17. Bir tovush yondash tovushga ta'sir ko'rsatishi natijasida yuzaga keladigan fonetik hodisalar ... deb ataladi. Nuqtalar o'rnini to'ldiring.

- A. Omonim.
- B. Sinonim.
- C. Orfoepiya.
- D. Dissimilatsiya.
- E. Assimilatsiya.

18. 1998-yil 22-mayda Prezident Islom Karimovning qanday farmoni e'lon qilingan?

- A. «Hamza nomidagi O'zbek davlat Akademik drama teatriga «Milliy teatr» maqomini berish to'g'risida»gi Farmoni.
- B. «O'zbekteatr ijodiy ishlab chiqarish birlashmasi faoliyatini tashkil etish to'g'risida»gi Farmoni.**
- C. Bir guruh san'atkorlarni mukofotlash to'g'risidagi Farmoni.
- D. O'zbekiston davlat konservatoriyasining yangi binosini qurilishi to'g'risidagi Farmoni.
- E. To'g'ri javob berilmagan.

19. Bir-biriga yaqin shevalar yig'indisi nima deyiladi?

- A. Monolog.
- B. Dialog.
- C. Masal.
- D. Lahja.**
- E. To'g'ri javob yo'q.

20. Montaj nima?

- A. Ijrochi mahorati.
- B. Voqealarni bir-biriga bog'lash.**

C. Voqealarni bir-biridan uzish.

D. Bunday soʻz yoʻq.

E. Barcha javoblar toʻgʻri.

21. Nutq tovushi tarkibidagi ohangdorlik bu ...

A. Registr.

B. Diksiya.

C. Intonatsiya.

D. Epilog.

E. Saj.

22. ... arabcha soʻzdan olingan soʻz boʻlib, oʻrnak, maqol, hikoya maʼnosini bildiradi.

A. Qofiya.

B. Saj.

C. Masal.

D. Sheʼr.

E. Ruboiy.

23. Aniq tasvirlanayotgan obrazni maʼjoziy, mavhum gʻoya orqali namoyon qilish nima deyiladi?

A. Metafora.

B. Alligoriya.

C. Ramz.

D. Oʻxshatma.

E. Toʻgʻri javob yoʻq.

24. Aktyor soʻzining lugʻaviy maʼnosini toping.

A. Raqs tushuvchi.

B. Boshlovchi.

C. Xatti-harakat qiluvchi.

D. Hayvon oʻrgatuvchi.

E. Qoʻshiq ijro etuvchi.

25. O'z san'ati texnikasini mukammal darajada egallab olgan ijrochi nima deb ataladi?

- A. Amplua.
- B. Apart.
- C. Apach.
- D. Benuar.
- E. Virtuoz.

26. Yuz mushaklarining turli hissiy holatlarini va kayfiyatini aks ettiradigan ifodali harakatlar nima deb ataladi?

- A. Grim.
- B. Mimika.
- C. Xarakter.
- D. Xarakterlilik.
- E. Hamma javob to'g'ri.

27. Turli yig'ilishlarda mohirlik bilan so'zlovchi, so'zlash mahoratiga ega bo'lgan shaxs kim deb ataladi?

- A. Suxandon.
- B. Boshlovchi.
- C. Diktor.
- D. Notiq.
- E. A, B javob to'g'ri.

28. Yaxlitlik, bir butunlik bu ...

- A. Dialog.
- B. Monolog.
- C. Etud.
- D. Komponent.
- E. Kompozitsiya.

29. Ritm nima?

- A. Ijrochining ichki dinamikasi bo'lib yuzaga chiqishidir.
- B. Tashqi monologning tabiiyligi.

- C. Harakatning yuzaga chiqishi va ichki monolog.
- D. Xarakterni ochib berish va fantastik ijro.
- E. Obrazni hayotiy yoritish va tashqi dinamika.

30. Asarda ilgari surilgan fikr bu ...

- A. Qarama-qarshilik.
- B. Tugun.
- C. G'oya.**
- D. Sujet.
- E. Yechim.

31. Ikki yoki undan ortiq shaxs orasidagi suhbat bu ...

- A. Monolog.
- B. Dialog.**
- C. Remarka.
- D. Replika.
- E. Abzas.

32. K.S.Stanislavskiy diqqatni obyekt-dan-obyektga ko'chirishni qanday shartli doiralarga bo'ladi?

- A. Katta, kichik.
- B. Kichik, o'рта va eng katta.
- C. Kichik, o'рта, katta.**
- D. Katta, yarim doira.
- E. Hamma javob to'g'ri.

33. Markaziy Osiyoda rejissorlar dastlab qanday nom bilan yuritilgan?

- A. San'atkor.
- B. Suxandon.
- C. Boshqaruvchi.
- D. Boshlovchi.
- E. Korfarmon.**

34. Epilog nima?

- A. Kirish.
- B. Asosiy voqea.
- C. Qarama-qarshilik.
- D. Tugun.
- E. Bayram yoki tadbirning tantanali yakuni.

35. Badiiy asarlarning mazmun-mohiyatini saqlagan holda sahnaviy asarga aylantirish nima deyiladi?

- A. Pyesa.
- B. Drama.
- C. Inssenirovka.
- D. Satira.
- E. Ssenariy.

36. Stol atrofida o'qish qanday jarayonlardan iborat?

- A. Oddiy, obrazli, sahnaviy.
- B. Mantiqiy, oddiy, sahnaviy.
- C. Oddiy, mantiqiy, obrazli.
- D. Obrazli, hayotiy.
- E. Sahnaviy, hayotiy.

37. Lug'aviy ma'nosi ayol kishiga xushomad qilmoq, oshiqona munosabatda bo'lmoq kabilarni bildiruvchi klassik adabiy janrni belgilang.

- A. Chiston.
- B. Bayt.
- C. Ruboiy.
- D. G'azal.
- E. Tuyuq.

38. Nasriy nutqdan she'riy nutqni ajratib turuvchi o'lchov, tarozi, she'r o'lchovi, me'yoru bu ...

- A. Vazn.
- B. Aruz.
- C. Misra.
- D. Bayt.
- E. Qofiya.

39. Nutq tovushlaridagi nuqsonlarni bartaraf etish, talaffuzni aniq va yorqinlashtirish maqsadida uyushtiriladigan mashqlar bu ...

- A. Dikson mashqlar.
- B. Jag' mashqlari.
- C. Nafas mashqlari.
- D. Aktyorlik treningi.
- E. To'g'ri javob yo'q.

40. Qofiya so'ziga to'g'ri ta'rif berilgan qatorni toping.

- A. Xalq og'zaki ijodining bir turi bo'lib, unda nasriy qofiya birlamchidir.
- B. Asosan klassik adabiyotda uchraydigan janr.
- C. She'riy misralarning oxirida takrorlanib keluvchi bir xildagi so'z.
- D. So'z boshi, birinchi abzas.
- E. She'r misralarini bir-biriga bog'laydigan ohangdosh so'z yoki so'zlar birikmasidir.

41. Mazmun va shakl jihatidan uzviy bog'langan tugal ikki misra deb nimaga aytiladi?

- A. Qofiya.
- B. Tuyuq.
- C. Bayt.
- D. G'azal.
- E. Muxammas.

42. Kichik lirik asar bo'lib, yakka, yolg'iz degan ma'noni bildiradigan va katta hayotiy, axloqiy-falsafiy fikrlarni ifodalaydigan janr nima?

- A. Fard.
- B. Tuyuq.
- C. Bayt.
- D. G'azal.
- E. Muxammas.

43. ... arabcha so'z bo'lib, to'rtlik degan ma'noni anglatadi va o'ziga xos vaznda yozilgan mustaqil she'r bo'lib, a – a – b – a yoki a – a – a – a tarzda qo'fiyalanadi. Nuqtalar o'rnini to'ldiring.

- A. G'azal.
- B. Tuyuq.
- C. Muxammas.
- D. Ruboiy.
- E. Musaddas.

44. Sahnada dramatik asarni qo'yishda rejissorga, teatr jamoasiga adabiy tomondan yordam beruvchi shaxs kim?

- A. Dramaturg.
- B. Adabiy emakdosh.
- C. Suflor.
- D. Rejissor.
- E. Badiiy rahbar.

45. Quyidagi shoirlardan kimlar masal janrida ijod qilgan?

- A. Abdulla Oripov.
- B. Muhammad Yusuf.
- C. Yamin Qurbon.
- D. Doniyor Mirzo.
- E. Rislig'oy Xotamova.

46. Sajlar asosan qaysi janrdagi asarlarda ko'p uchraydi?

- A. She'r, qasida, roman.
- B. Ertak, doston.**
- C. She'r, badiha.
- D. Doston, maqol.
- E. To'g'ri javob yo'q.

47. Sahna nutqi bo'yicha qaysi oliygozlarda professional dars mashg'ulotlari olib boriladi?

- A. Toshkent davlat madaniyat instituti, O'zbekiston davlat san'at instituti.**
- B. O'zbekiston davlat san'at instituti, Toshkent Texnika universiteti.
- C. O'zbekiston davlat konservatoriyasi.
- D. Toshkent agrar universiteti.
- E. Hamma javoblar to'g'ri.

48. Monologning turlarini belgilang.

- A. Ichki monolog, yuzaki monolog, soxta monolog
- B. Kechinma monolog, yuzaki monolog
- C. Ichki va tashqi monolog.**
- D. Nutqiy monolog, ishorali monolog.
- E. Ichki monolog, so'zsiz monolog.

49. Xalq hajviyoti janrlaridan biri bo'lgan tanqidiy mazmundagi yumoristik kichik hikoya bu ...

- A. Roman.
- B. Komediya.
- C. Latifa.**
- D. Proza.
- E. Matal.

TAYANCH IBORALAR

- Adabiy emakdosh** — sahnada dramatik asarni qo‘yishda rejissor-ga, teatr jamoasiga adabiy tomondan yordam beruvchi shaxs.
- Akapella** — musiqa jo‘rligisiz ijro etiladigan xor.
- Aktyor** — drama, opera, balet, qo‘g‘irchoq teatri, sirk, teatr, kino, radio (inssenirovka, postanovka, montaj) va televideniya da rollar ijro etuvchi shaxs, artist.
- Aktyorlik mahorati** — boshqa davr va muhitdagi obrazni aktyorning o‘z ruhiy-jismoniy apparati orqali jonlantirish qobiliyati.
- Aktrisa** — aktyor ayol.
- Alligoriya** — mavhum tushunchalarning asosiy tomonlarini aniq obraz shaklida yorqin namoyon qiluvchi badiiy tasvir usuli. Masalan: tulki — ayyorlik.
- Alternativ sarlavha** — asarning birinchi sarlavhasi bilan «yoki», «yoxud», «ya’ni» so‘zlari, tire yoki boshqa yo‘llar orqali bog‘langan ikkinchi sarlavhasi. Masalan: «Zaharli hayot yoxud ishq qurbonlari» (H.H.Niyoziy).
- Amplua** — aktyorning shaxsiy imkoniyati va sahnadagi ijrochilik qobiliyatiga juda mos tushadigan rollar tipi. Masalan: tragik, komik rollar va h.k.
- Anepigraf** — sarlavhasiz chiqadigan asar.

- Ansambli** — 1. O‘zaro mos va uyg‘un qismlarning birligidan hosil bo‘lgan butunlik, yaxlitlik. Masalan: arxitektura ansambli.
2. Bir necha ishtirokchi tomonidan birgalikda ijro etiladigan musiqa asari (yoki uning bir qismi).
3. Bir badiiy jamoa sifatida tomosha ko‘rsatuvchi artistlar — ashulachilar va raqqosalar guruhi. Masalan: Ashula va raqs ansambli.
- Antrakt** — 1. Spektakl pardalari, konsert va sirk tomoshalarining bo‘limlari orasidagi tanaffus.
2. Teatrda ikkinchi va undan keyingi pardalar boshlanishi oldidan chalinadigan musiqali muqaddima.
- Ariya** — bir kishi tomonidan ijro etiladigan musiqa asari, odatda, opera, oratoriya va sh.k.larining tarkibiy qismi, shuningdek, ayrim musiqiy asboblarning ijrosidagi pyesalar.
- Artikulatsiya** — nutq a‘zolarining harakati.
- Artist** — sahna san‘ati ijrochisi, aktyor. Keng ma‘noda san‘atning muayyan sohasidagi ijodkor.
- Askiya** — o‘zbek xalq ijodining bir turi; ikki yoki undan ortiq kishi yoki guruhning xalq yig‘inlarida ma‘lum mavzu bo‘yicha badiiy so‘zda tortishuvi.
- Ashula** — she‘riy matnni tarannum etadigan, ma‘lum vazndagi va qo‘shiqlarga nisbatan ritmik shakli erkin, kuy rivojlanishi va diapazoni keng bo‘lgan rechitativsimon musiqa asari.
- Badiiy o‘qish** — estrada san‘atining bir turi, adabiy (she‘riy, nasriy, dramatik) asarni omma oldida og‘zaki ijro etish.

- Badiha** — maxsus tayyorgarliksiz to‘g‘ridan-to‘g‘ri yaratilgan she‘r, musiqa yoki qo‘shiq. Masalan: E.Vohidovning «Lola sayli» badihasi.
- Bayt** — mazmun va shakl jihatidan uzviy bog‘langan tugal ikki misra.
- Baxshi** — xalq tomonidan yaratilgan doston, terma va sh.k.ni kuylovchi shoir, oqin.
- Debyut** — aktyorning birinchi marta sahnaga chiqishi, tomosha ko‘rsatishi.
- Deklamatsiya** — she‘riy yoki nasriy asarlarni ifodali va ta‘sirchan qilib o‘qib berish san‘ati hamda shunday o‘qishning o‘zi.
- Dekoratsiya** — sahnada ko‘rsatilayotgan voqea o‘rnini aks ettirishga, spektaklning g‘oyaviy ma‘nosini ochishga xizmat qiluvchi sun‘iy manzara, badiiy jihoz. Dekoratsiya rang-tasvir, grafika, arxitektura, sahna texnikasi, kinoprojektsiya va shu kabilarning tasviriy vositalari yordamida yaratiladi.
- Dialog** — ikki yoki undan ortiq shaxs o‘rtasidagi so‘zlashuv: dramatik asarlarda u sujet rivojlanishining va xarakterlarni tasvirlashning asosiy usulidir.
- Diafragmal nafas** — ko‘krak qafasi qovurg‘alarini ko‘tarib (ijro va nutq), ikki tomonga suradigan mushaklar uchun eng qulay nafas olish turi.
- Diktor** — radio yoki televideniye orqali eshittiriladigan maqola, xabar va boshqa matnlarni mikrofon oldida o‘qib beruvchi shaxs.

- Diksiyon mashqlar** — nutq tovushlaridagi nuqsonlarni bartaraf etish, talaffuzni aniq va yorqinlashtirish maqsadida uyushtiriladigan mashqlar.
- Diksiya** — nutq tovushlarini talaffuz etish me'yorlari; nutqda va kuylashda so'z va tovushlarni aniq, ravshan talaffuz qilish.
- Drama** — 1. Muallif nutqsiz, yani dialog shaklida yozilgan va sahnada ijro etish uchun mo'ljallangan badiiy adabiyotning lirika va epos qatoridagi bir turi.
2. Tor ma'noda — dramatik adabiyotning bir qismi, tragediyadan hayot hodisalarining o'rtacharoq o'tkirlikda tasvirlashi bilan, komediyadan esa hayot hodisalarini kulgi orqali emas, balki jiddiy tasvirlashi bilan farq qiladi.
- Dramaturg** — dramatik asarlar yaratuvchi ijodkor.
- Dublyaj** — ovozli filmning so'z qismini boshqa tilga tarjima qilish va filmning shunday varianti.
- Epigraf** — muallif asosiy fikrini, yetakchi g'oyani ifodalash maqsadida asarning sarlavhasidan keyin yoki ayrim boblar oldidan joylashtirilgan turli sitatalar, maqollar, hikmatli so'zlar, she'riy parchalar va sh.k.
- Epizod** — asardagi kichik bir ko'rinish.
- Epilog** — asar xotimasi.
- Fard** — kichik lirik asar bo'lib, yakka, yolg'iz degan ma'noni bildiradi va unda katta hayotiy, axloqiy-falsafiy fikr ifodalanadi.
- Folklor** — xalq ijodiyoti.
- Fonatsion nafas** — tovush bilan bog'liq bo'lgan nafas.

Grim — aktyor qiyofasini, ayniqsa, yuzini o'ynatadigan rolga mos qilib maxsus bo'yoq yasama soch-soqol, plastik massalar va sh.k.lar vositasida o'zgartirish san'ati, shuningdek, ana shu vositalarning jami.

Grotesk — bo'rttirish, obrazni haddan tashqari mubolag'ali tarzda tasvirlash usuli. Bunda obraz shu qadar bo'rttirilgan mubolag'a bilan tasvirlanadiki, u o'zining real qiyofasini yo'qotib, fantastik xarakter kasb etishga boradi. Groteskli tasvir juda ham qadimiy bo'lib, shu asosda tasvirlangan obrazlarni biz hamma xalqlarning qadimiy san'ati va mifologiyasida uchratamiz. Grotesk biror maqsadga yo'naltirilgan, hajviylik bilan fantastik tasvir uyg'unlashgan bo'rttirishdir.

Ijrochi — kuy, raqs, rol va sh.k.ni bajaruvchi artist, san'atkor.

Improvizatsiya — oldindan tayyorlanmasdan she'r yozish, musiqa asari va sh.k.ni bevosita ijro etish.

Inssenirovka — drama shaklida yozilmagan adabiy asarni teatr sahnasi, radio, televideniye uchun moslab qayta ishlash va shuning natijasida yaratilgan asar.

Intonatsiya —

1. Nutq tovushi tarkibidagi ohangdorlik.
2. Tovushning past-baland bo'lib o'zgarib turishidan iborat ritmik-melodik nutq tuzilishi, ohang.
3. Musiqada-tovush balandligini to'g'ri olish darajasi.

- Jest** — teatrdagi muhim tasviriy vositalardan biri bo'lgan, nutqni yordamchi element sifatida to'ldiruvchi, uning ta'sirchanligini yanada oshirishga yordam beruvchi yoki ayni nutqning o'rnini bosuvchi gavda harakatlari (ko'proq qo'l harakatlari).
- Komediya** — ijtimoiy hayotdagi nuqsonlarni, kishilardagi yomon xususiyatlarni kulgi vositasi bilan fosh etuvchi quvnoq, xushchaqchaq xarakterdagi dramatik asar.
- Konferansye** — konsert chiqishlarini elon qiluvchi va o'zi ham konsert davomida yakka nomer bilan chiquvchi artist.
- Korfarmon** — 1. O'zbek qo'g'irchoq teatrining turlaridan biri bo'lgan qo'l qo'g'irchoq tomoshalaridan biri.
2. Ish boshqaruvchi, rejissor, Sahnalash-tirish ishlari boshqaruvchisi. Uning fikr va talqini orqali asar sahnalashtiriladi hamda tomoshabinga taqdim etiladi.
- Kulminatsiya** — biror voqea yoki hodisa rivojlanishidagi eng yuqori nuqta, avjiga chiqish.
- Latifa** — xalq hajviyoti janrlaridan biri bo'lgan tanqidiy mazmundagi hajviy hikoya.
- Masxaraboz** — masxarabozlik bilan shug'ullanuvchi artist.
- Matal** — ko'chma ma'noda qo'llanuvchi xalq majoziy iboralari.
- Metafora** — istiora, so'z yoki iboraning ko'chma ma'noda ishlatilishi va shunday ma'noda ishlatilgan so'z, ibora.

- Mizanssena** — mizansahna, kichik xatti-harakat; (fransuzcha — sahnadagi joylashuv) pyesadagi konfliktlarning plastik harakatga ko'chirilishi, aktyorlarning ma'lum vaqtda sahnadagi xatti-harakati va joylashuvi.
- Mikrofon** — tovush to'liqlarini elektromagnit to'liqlarga aylantirib, tovushni olis masofaga uzatish va kuchaytirish uchun xizmat qiluvchi uskuna.
- Mimika** — yuz mushaklarining turli hissiy holatlarni va kayfiyatni aks ettiradigan ifodali harakatlari.
- Modulatsiya** — nutq so'zlash jarayonida ovozning balandlashib, pasayib turishi.
- Monolog** — yakka gapirish; dramatik va boshqa asarlar ishtirokchisining suhbatdoshiga, o'ziga, ba'zan tomoshabinlarga qarata aytgan so'zi, nutqi.
- Montaj** — voqealarni bir-biriga bog'lash.
- Musiq** — 1. Emotsional-g'oyaviy mazmuni ovozdagi badiiy obrazlar orqali ifodalovchi san'at turi. Masalan: vokal musiq, simfonik musiq.
2. Shu san'atning cholg'u bilan ijro etiladigan tugal asari, kuy. Masalan: ashula musiqasi.
- Niqob** — 1. Teatr, bal, maskarad, karnaval va sh.k.-larda yuzga kiyiladigan maxsus qoplama.
2. Karnaval va maskarad qatnashchilari ko'zga bog'laydigan ko'rish uchun teshiklari bo'lgan maxsus bog'lagich.
- Notiq** — turli yig'ilishlarda mohirlik bilan so'zlovchi, so'zlash mahoratiga ega bo'lgan shaxs.

- Ovoz markazi** — har bir kimsada ravon, bevosita jaranglaydigan biror tovush darajasi.
- Oliy maqsad** — rejissorning nega aynan shu pyesani sahna-lashtirayotgani, uning yordamida nima demoqchiligi, tomoshabinda qanday fikr va tuyg'ular uyg'otishi kerakligini aniqlash mahsuli.
- Orkestr** — 1. Turli musiqa asboblari chaluvcilardan tuzilgan va ular uchun yaratilgan asarlarni birgalikda ijro etuvchi sozandalar jamoasi, shuningdek, shu jamoa qatnashchilari cha-ladigan musiqa asboblari orkestri.
2. Teatr sahnasi oldida musiqachilar uchun mo'ljallangan maxsus joy.
- Orfoepiya** — (yunoncha *ortphos* — to'g'ri, *epos* — nutq) to'g'ri gapirish, to'g'ri talaffuz demakdir.
- Ohang** — turli tovushlarning ma'lum bir tartibda uy-g'unlashib, musiqiy butunlik tashkil etgan birikmasi.
- Pantomima** — teatr tomoshalarining bir turi bo'lib, unda badiiy obraz so'zsiz, mimika, imo-ishora-lar, gavdani har maqomga solish orqali yaratiladi.
- Parodiya** — adabiyot, musiqa va tasviriy san'atda biror san'atkor ijodi yoki ayrim asarning uslubiga taqlid qilish yo'li bilan tanqidiy ruhda yara-tilgan asar.
- Partnyor** — yelkadosh ijrochi.
- Pauza** — 1. Kuy, ashula orasidagi uzilish va uning notadagi belgisi.
2. Nutqdagi tanaffus, intonatsiya element-laridan biri.

- Personaj** — asardagi obraz.
- Pichirlash** — yuz (maskada) og‘iz va burunga yaqin jaranglab turuvchi ovoz.
- Prolog** — asarning nima haqidaligi (boshlanishi).
- Pyesa** — 1. Teatrda qo‘yish uchun mo‘ljallangan dramatik asar.
2. Yakkavoz sozanda yoki cholg‘uchilar ansambli uchun yozilgan kichik musiqiy asar.
- Qit‘a** — ikki baytdan o‘n baytgacha bo‘lib, a–b, g–d, d–b va hokazo tarzida qo‘fiyalanadi. Uning asosiy xususiyati uning hikmatli, chuqur mazmunli, yuksak didaktik ruhga ega bo‘lishligidir. Qit‘a turli mavzularda yaratiladi.
- Qofiya** — (arabcha — tizilish) she‘r misralarini bir-biriga bog‘laydigan ohangdosh so‘z yoki so‘zlar birikmasidir.
- Raqs** — insonning mehnat jarayoni tashqi olamdan olgan emotsional taassurotlari bilan bog‘liq holda yuzaga kelgan va inson gavdasining harakati hamda holatlari vositasi bilan yaxlit badiiy obraz yaratiladigan san‘at turi.
- Registr** — ovoz balandligi va kuch darajasining ma‘lum bir me‘yordagi cheklanishi.
- Rejissor** — korfarmon; teatr va kinoda dramatik yoki musiqali asarlarni sahnalashtiruvchi hamda filmni suratga olish jarayonini boshqaruvchi shaxs.
- Rejissor yordamchisi** — sahnalashtiruvchi rejissorning tashkiliy va texnik tomonlama yordamchisi.

- Rejissura** — ijodiy va amaliy ish jarayoni.
- Rezonatorlar** — qaytargichlar.
- Remarka** — daramatik asar matnida muallif tomonidan beriladigan turli izohlar.
- Repertuar** — 1. Teatr, konsert, estrada va sh.k.da ijro etiladigan asarlar majmuyi.
2. Biror san'atkor ijro etadigan rollar, musiqa asarlari va boshqalar majmuyi.
- Repetitsiya** — teatr, sirk, musiqa va sh.k. tomoshalarni ommaga ko'rsatish oldidan sinab ko'rish, mashq qilish, tayyorlash jarayoni.
- Replika** — spektaklda biron personajning oxirgi, ya'ni boshqa personaj matni boshlanishdan oldingi so'zi.
- Rol** — aktyor tomonidan sahnada, ekranda ijro etiladigan badiiy obraz.
- Ruboiy** — arabcha so'z bo'lib, to'rtlik degan ma'noni anglatadi. Ruboiy o'ziga xos vaznda yozilgan mustaqil she'r bo'lib, a — a — b — a yoki a — a — a — a tarzda qofiyalanadi.
- Saj** — qofiyalangan nasr.
- Satira** — hayotdagi salbiy hodisalarni, qusurlarni fosh qiluvchi, masxaralovchi o'tkir hajviy asar.
- Sahna** — 1. Xatti-harakat maydoni.
2. Teatr binosining tomoshabinga yaxshi ko'rinadigan, aktyorlar uchun qulay bo'lgan tomosha ko'rsatiladigan qismi.
3. Pyesa va spektakllardan bir ko'rinish.

- Sahna nutqi** — teatrda badiiy obraz yaratish, pyesada g'oyi fikr, hissiyotlarni tomoshabinga yetkazishda asosiy ifoda vositalaridan biri, shu vositalarni o'rgatuvchi fan.
- Sonor** — lotincha so'z bo'lib «ovoz», «jarang» demakdir.
- Spektakl** — teatrning ijodiy jamoasi tomonidan sahnaga qo'yilgan teatr tomoshi.
- Stol atrofida o'qish** — pyesa ustida boshlang'ich ish bo'lib, unda aktyorlar stol atrofida o'tirib, o'z obrazlarini ovoz orqali yaratadilar va qahramon xarakteri ishlanadi.
- Suflyor** — aktyorga rolining so'zlarini aytib berib turuvchi teatr xodimi.
- Ssenariy** — asar tuzilmasi; mahalliy dalillarga asoslanib yozilgan bo'lib, to'laqonli badiiy asardir.
- Sujet** — badiiy asarning asosiy mazmuni va undagi voqea yoki o'zaro uzviy bog'langan hamda ketma-ket rivojlanib boradigan voqealar yig'indisi, tasviriy san'atda tasvir buyumi.
- Taqlid** — xalq teatrida aktyor o'yini uslublaridan biri, hayotdagi aniq kulguli voqea, xatti-harakat, qiliq, mimika, tovush va sh.k.larning qiziqchi va masxarabozlar tomonidan ijodiy o'zlashtirilishi.
- Teatr** — spektakl qo'yish uchun mo'ljallangan bino.
- Teatrlashtirilgan ommaviy tomoshalar** — noan'anaviy sahnalarda o'tkaziladigan biror mavzu yoki sanaga bag'ishlangan teatr elementlari bilan boyitilgan katta omma ishtirok etadigan tadbir.
- Temp** — 1. Musiqa asarini ijro etishdagi tezlik darajasi.
2. Ishdagi, harakatdagi sur'at, tezlik.

- Tragediya** — (yunoncha «echki qo‘shig‘i») qahramonning biror odamga, tuzumga, hayotga yoki o‘z-o‘ziga qarshi kurashi aks etgan jismoniy yoki ruhiy halokati bilan yakun topuvchi fojiviy sahna asari; dramaturgik janr.
- To‘liq ovoz** — rezonator (qaytargichlar)ga yo‘naltirilgan, jarangli ovoz.
- Vazn** — (arabcha — o‘lchov, tarozi) she‘r o‘lchovi, me‘yori bo‘lib, nasriy nutqdan she‘riy nutqni ajratib turuvchi unsurdir.
- Virtuaz** — o‘z san‘ati texnikasini mukammal darajada egallab olgan ijrochi.
- Yarim ovoz** — kichik auditoriyaga mo‘ljallangan biroz pasaytirilgan ovoz.
- Chiston** — lirikaning bu turi xalq og‘zaki ijodidagi topishmoqlar asosida yuzaga kelgan bo‘lib, fors-tojik so‘zi «chiston» (*chist* — nima, *on* — u) nomi bilan yaratila boshlangan.
- G‘azal** — Sharq klassik, shu jumladan, o‘zbek klassik adabiyotida keng mavqe egallagan janrdir. «G‘azal» arabcha so‘z bo‘lib, uning lug‘aviy ma‘nosi ayol kishiga xushomad qilmoq, oshiqona munosabatda bo‘lmoqdir. G‘azal ham boshqa lirik tur janrlari kabi, kishining ichki his-tuyg‘ularini ifodalaydi, unda hayot voqea-hodisalariga bo‘lgan shoir munosabati lirik qahramon ichki kechinmalarining butun qarama-qarshiligi, to‘laligi, teranligi tasviri orqali beriladi. Shuning uchun g‘azal chuqur lirizm bilan sug‘orilgan bo‘ladi va lirik qahramon obrazi asosiy planda turadi.

XULOSA

Mustaqil O'zbekistonimizni har tomonlama rivojlantirish, farovon hayot qurish, ma'naviyatni yuksaltirish hamda milliy g'oyani shakllantirish jarayonida bevosita madaniyat va san'at xodimlarining hissasi katta. Ular amalga oshirilayotgan islohotlarning mohiyati, yurtimiz taraqqiyoti, xalqimiz farovonligiga qaratilgan g'oya va maqsadlarning odamlar qalbiga yetib borishi yo'lida fidokrona mehnat qilmoqdalar.

Har yili O'zbekiston Respublikasi o'z mustaqilligini munosib kutib oladi. Eng ulug' va eng aziz bayramimiz ko'tarinki ruhda o'tkaziladi. Sanaga bag'ishlangan tantanali tomoshani yuksak badiiy saviyada o'tkazishda bevosita ommaviy bayram va tomoshalar rejissorlari faollik ko'rsatishadi. Ana shunday mas'uliyatli bayramlarni sahnalashtirish va namoyish etish bayram ijodkorlaridan, jumladan, rejissorlardan juda katta matonat, eng muhimi, keng ko'lamli bilim va tajriba talab etadi. Shunday ekan, ommaviy bayramlar rejissorlarini tayyorlash jarayoni o'ziga xos mas'uliyatga ega. Bu borada pedagog har tomonlama yetuk shaxs bo'lmog'i lozim.

Donishmand xalqimizda bir naql bor: «Bir yil to'q yashayman desang — don-dun ek. Besh yil oldinni ko'zlasang — bog' yarat. Bir umr rohat-farog'atda yashayman desang — bilim ol, hunar o'rgan».

Mana shu so'zlar zahirida inson hayoti uchun dasturulamal bo'luvchi hikmat bor. Bilim olgan, hunar o'rgangan inson hech qachon xor bo'lmaydi. Mazkur kitobning asosiy maqsadi ham yosh avlodga bilim berishga va, eng muhimi, shu soha mutaxassisi bo'lib, jamiyatga naf keltirishga o'rgatishdan iborat.

Kitob madaniyat va san'at sohasida tahsil oluvchi talaba va yoshlariga va mazkur sohada faoliyat yurituvchi soha mutaxassislari uchun mo'ljallangan.

Soha mutaxassislariga ma'lumki, sahna nutqi, jonli so'z san'ati amaliy tarzda olib boriladi. Darslikda «Sahna nutqi» fanining xususiyatlari e'tiborga olinib, har bir mavzu amaliy misollar orqali yoritilib berildi. Mavzuni mustahkamlash maqsadida bo'limlardan so'ng namunalari va tavsiya etilayotgan asarlar ro'yxati berildi.

Hozirda talabalarni jahon standartlariga mos holda o'qitish davr talabiga aylanmoqda. Shu sabab, darslikda fanni o'qitish borasida yangi pedagogik texnologiyalardan foydalanish usullari, texnologik xarita, darsning vaqt yuzasidan taqsimoti haqida ham ma'lumotlar berildi.

Fan yuzasidan tuzilgan test savollari, tayanch iboralar talabani mustaqil bilim olish ko'nikmasini shakllantirishda asqatadi.

Mazkur kitobni tayyorlashda ko'plab soha olimlarining, ustozlarning ilmiy izlanishlaridan, kasbiy va hayotiy tajribalardan foydalanildi. Ushbu kitobni o'qib shaxsiy fikringizni bildirishingiz foydadan xoli emas, deb o'ylaymiz. Zero, barkamol avlodni tarbiyalash birgina shaxsning emas, balki barchamizning oliy maqsadimizdir.

FOYDALANILADIGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. *Karimov I.A.* O'zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida. – T., «O'zbekiston», 2011.
2. *Karimov I.A.* Adabiyotga e'tibor – ma'naviyatga, kelajakka e'tibor. – T., «O'zbekiston», 2009.
3. *Karimov I.A.* Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo'llari va choralari. – T., «O'zbekiston», 2009.
4. *Karimov I.A.* Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. – T., «Ma'naviyat», 2008.
5. *Karimov I.A.* O'zbekiston demokratik taraqqiyotining yangi bosqichida. – T., «O'zbekiston», 2005.
6. *Karimov I.A.* Erishgan marralarimizni mustahkamlab islohotlar yo'lida izchil borish – asosiy vazifamizdir. – T., «O'zbekiston», 2004.
7. *Karimov I.A.* Milliy teatrimiz – iftixorimiz. Toshkent shahrida Akademik Drama teatri yangi binosining ochilish marosimida so'zlagan nutqi. 2001-yil 30-avgust.
8. *A'zam A.* Aruz. – T., 2006.
9. *Alimjonova Z.* Sahna nutqi. – T., «Fan», 2005.
10. *Jumaniyozov R.* Nutqiy mahorat. – T., 2005.
11. *Nosirova A.* Jonli so'z san'ati asoslari. – T., 2003.
12. *Aliyev S.* Aruz ilmi. – T., 1995.
13. *Hojiahmedov A.* Maktabda aruz vaznini o'rganish. – T., 1995.
14. *Po'latov I.* Sahna nutqi. – T., 1994.
15. *Inomxo'jayev S.* Notiqlik san'ati asoslari. – T., 1982.

16. *Sayfuddinov A.* Adabiy asar va ijrochilik mahorati. — T., «Fan», 1980.
17. *Савкова З.В.* Монолог в искусстве массовых представлений ЛГИК. — Л., 1979.
18. *Shukurov J.T.* Ommaviy bayramlarda musiqiy bezak. — T., TDMI nashriyoti. 2008.
19. *Rahmonov M.* O'zbek teatri. — T., «Fan», 1978.
20. *Aliyeva N.* San'atdagi hayotim. — T., 1978.
21. *Артболлеvesкий Г.В.* Художественное чтение. — М., 1978.
22. *Rahmonov M.* O'zbek teatri tarixi. — T., 1975.
23. *Запорожец Т.И.* Логика сценической речи. — М., 1974.
24. *Иномхо'jayев S.* Badiiy o'qish asoslari. — T., 1973.
25. *Иномхо'jayев S.* O'tmish sharq notiqligi. — T., 1972.
26. *Rustamov A.* Aruz haqida suhbatlar. — T., 1972.
27. *Туманов И.* Режиссура массового праздника и театрализованного концерта ЛГИК. — М., 1972.
28. *Хо'jayева L.* Notiqlik san'ati. — T., 1967.
29. *Stanislavskiy K.S.* Aktyorning o'z ustida ishlashi. — T., 1965.
30. *Саричева Е.Ф.* Сценическая речь. — М., 1965.
31. *Кнебель М.О.* Слово в творчестве актёра. — М., ВТО, 1964.
32. *Саричева Е.Ф.* Сценическое слово. — М., 1963.

MUNDARIJA

Kirish	3
Sahna nutqi asoslari	14
Nutq texnikasi	28
Nafas	33
Ovoz tarbiyasi	39
Orfoepiya	44
Soʻz ustida ishlash	47
Repertuar tanlash	48
Boʻlaklar	65
Sheʻr ustida ishlash	69
Masal ustida ishlash	73
Qoʻshiq haqida	77
Tasviriy sheʻr, masal va qoʻshiq haqida	79
Monolog ustida ishlash	110
Aruz vazni tizimi va uning ikki janrdagi inʼikosi	120
Goʻzal gʻazallar va ular ustida ishlashning boshlangʻich bosqichlari	128
Sahnaviy nutqni takomillashtirish uchun qoʻshimcha manbalar	136
Uslubiy koʻrsatmalar	164
Fanni oʻqitishda yangi pedagogik texnologiyalardan foydalanish usullari	172
Ilovalar	178
Test savollari	194
Tayanch iboralar	206
Xulosa	218
Foydalanilgan adabiyotlar	220

Adiba Nosirova

SAHNA NUTQI

*O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi
tomonidan oliy o'quv yurtlarining 5150300 – «Aktorlik sana'ti»
(turlari bo'yicha) va 5150400 – «Rejissorlik» (turlari bo'yicha) ta'lim
yo'nalishlari uchun «Sahna nutqi» fanidan darslik
sifatida tavsiya etilgan*

**«TAFAKKUR BO'STONI»
TOSHKENT — 2013**

Muharrir	<i>Sh. Rahimqoriyev</i>
Musahhih	<i>S. Abduvaliyev</i>
Sahifalovchi	<i>U. Vohidov</i>
Dizayner	<i>D. O'rinova</i>

Litsenziya AI № 190, 10.05.2011-y.

Bosishga 2013-yil 9 oktabrda ruxsat etildi. Bichimi 60×84¹/₁₆,
Ofset qog'oz. «Times» garnituras. Shartli bosma tabog'i 14,0.
Nashr tabog'i 14,8. Shartnoma № 62-2013. Adadi 300. Buyurtma № 62-1.

«Tafakkur Bo'stoni» nashriyoti. Toshkent sh., Yunusobod, 9-mavze, 13-uy.
Telefon: (+99894) 941-60-06. E-mail: tafakkur0880@mail.ru

«Tafakkur Bo'stoni» nashriyoti bosmaxonasida chop etildi.
Toshkent sh., Chilonzor ko'chasi, 1-uy.

N-85 Nosirova A.

Sahna nutqi (Oliy o'quv yurtlari uchun darslik / A.Nosirova.
O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi.
- T.: «Tafakkur-Bo'stoni», 2013. - 224 b.

UO'K 792:808.55(075)

KBK 85.334ya73

ISBN 978-9943-4238-3-1

SAHNA NUTQI

1. Sahna nutqi tushunchasi va ahamiyati	10
2. Sahna nutqi turlari	15
3. Sahna nutqi yaratish jarayoni	20
4. Sahna nutqi yaratishda olingan qadamlar	25
5. Sahna nutqi yaratishda olingan qadamlar	30
6. Sahna nutqi yaratishda olingan qadamlar	35
7. Sahna nutqi yaratishda olingan qadamlar	40
8. Sahna nutqi yaratishda olingan qadamlar	45
9. Sahna nutqi yaratishda olingan qadamlar	50
10. Sahna nutqi yaratishda olingan qadamlar	55
11. Sahna nutqi yaratishda olingan qadamlar	60
12. Sahna nutqi yaratishda olingan qadamlar	65
13. Sahna nutqi yaratishda olingan qadamlar	70
14. Sahna nutqi yaratishda olingan qadamlar	75
15. Sahna nutqi yaratishda olingan qadamlar	80
16. Sahna nutqi yaratishda olingan qadamlar	85
17. Sahna nutqi yaratishda olingan qadamlar	90
18. Sahna nutqi yaratishda olingan qadamlar	95
19. Sahna nutqi yaratishda olingan qadamlar	100
20. Sahna nutqi yaratishda olingan qadamlar	105
21. Sahna nutqi yaratishda olingan qadamlar	110
22. Sahna nutqi yaratishda olingan qadamlar	115
23. Sahna nutqi yaratishda olingan qadamlar	120
24. Sahna nutqi yaratishda olingan qadamlar	125
25. Sahna nutqi yaratishda olingan qadamlar	130
26. Sahna nutqi yaratishda olingan qadamlar	135
27. Sahna nutqi yaratishda olingan qadamlar	140
28. Sahna nutqi yaratishda olingan qadamlar	145
29. Sahna nutqi yaratishda olingan qadamlar	150
30. Sahna nutqi yaratishda olingan qadamlar	155
31. Sahna nutqi yaratishda olingan qadamlar	160
32. Sahna nutqi yaratishda olingan qadamlar	165
33. Sahna nutqi yaratishda olingan qadamlar	170
34. Sahna nutqi yaratishda olingan qadamlar	175
35. Sahna nutqi yaratishda olingan qadamlar	180
36. Sahna nutqi yaratishda olingan qadamlar	185
37. Sahna nutqi yaratishda olingan qadamlar	190
38. Sahna nutqi yaratishda olingan qadamlar	195
39. Sahna nutqi yaratishda olingan qadamlar	200
40. Sahna nutqi yaratishda olingan qadamlar	205
41. Sahna nutqi yaratishda olingan qadamlar	210
42. Sahna nutqi yaratishda olingan qadamlar	215
43. Sahna nutqi yaratishda olingan qadamlar	220
44. Sahna nutqi yaratishda olingan qadamlar	225